

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**INOYATXON ARZIMATOVA**

# **TARIX FALSAFASI**

**O‘quv qo‘llanma**

**Farg‘ona - 2023 yil**

*Mas'ul muharrir:*  
*Dilafro'z Yuldasheva, filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*Ilmiy muharrir:*  
*Bahodirjon G'aniev, falsafa fanlari doktori, dotsent*

*Taqrizchilar:*  
*Inomjon Asatulloev, Farg'ona davlat universiteti dotsenti,*  
*falsafa fanlari b'yūucha falsafa doktori (PhD)*

*Ulug'bek Azimov, Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni*  
*qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg'ona filiali dotsenti,*  
*falsafa doktori (PhD)*

**Inoyatxon Arzimatova. Tarix falsafasi:** Oliy o'quv yurti talabalari uchun o'quv qo'llanma 2023 yil

Mazkur o'quv qo'llanma oliy ta'lim muassasalari bakalavriyatning tarix ta'lim yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan bo'lib, unda "Tarix falsafasi va tarix o'qitish metodikasi" fan dasturining birinchi qismini qamrab olgan mavzularning mazmun-mohiyati yoritilgan. O'quv qo'llanmada talabalarga mavzular bo'yicha ma'ruza va amaliy mashq'ulot rejalari, darslarga tayyorlanish davomida foydalaniladigan ma'ruzalar matni, qo'shimcha ma'lumotlar, zarur adabiyotlar ro'yxati, nazorat savollari, tayanch tushunchalar, glossariy berilgan.

*O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 29 sentyabrdagi 438-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan. Ro'yxatga olish raqami № 438297.*

## KIRISH

Insoniyat tarixi, xususan Tarix falsafasi jahon falsafiy-tarixiy tafakkurining ilk davridan zamonaviy davr taraqqiyotining muhim omillari va yo‘nalishlarini tadqiq etishga bag‘ishlanadi. Taqdim etilgan kurs tarixchi talabalarning nazariy – uslubiy saviyasini oshirishda jahonda ro‘y berayotgan tarixiy jarayonlarni chuqur o‘rganishdagi asosiy kontseptual yondashuvlar haqida tasavvurga ega bo‘lishda dolzarbdir. O‘z navbatida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ko‘rsatib o‘tilgan talaba-yoshlarning tarixiy dunyoqarashini boyitish, ularda mustaqil fikrni shakllantirish, tarixni mukammal darajada bilish, insoniyat sivilizatsiyasining tajribasi va yutuqlarini o‘rganish, ularni tahlil etish, umuminsoniy qadriyatlarni anglab yetishga ko‘maklashish va dunyo miqyosidagi tarixiy-falsafiy muammolar va masalalarga javob topishda katta amaliy yordam beradi.

Tarixga oid ilmiy manbalar, zamonaviy ilmiy nazariyalar hamda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni yangicha ilmiy metodologiya nuqtai nazaridan o‘rganish, yoshlarda vatanparvarlik, ma‘rifatparvarlik va taraqqiyotparvarlik his-tuyg‘usini tarbiyalash mazkur o‘quv fanining vazifalari va bosh maqsadini tashkil etadi. Ta‘kidlash kerakki, tarix aniqlovchisi va tarixiy tadqiq usullarini eng qadimgi davrdan hozirgi kunlargacha bo‘lgan jarayoni va jamiyatning rivojlanishiga qo‘shgan hissasi hamda ahamiyati orqali belgilangan. Ayniqsa tarix ma‘nosi falsafiy dunyoqarash masalasi sifatida chuqur o‘rganiladi. Klassik va hozirgi zamon tarix ma‘nosiga tarixiy ong va tarixga tarixiy ongning ikki tomonligiga chuqur yondoshilib tadqiq qilindi.

Tarix, uning mohiyati, silsilalari, taraqqiyot va tanazullari yaxlit olganda bevosita insoniyat tarixiy rivojlanish bosqichlarining o‘ziga xos mahsulidir. Darhaqiqat, inson tarixning yaratuvchisi, ijodkori va ishtirokchisi sifatida kishilik jamiyati taraqqiyoti mohiyatini o‘zida mujassam etadi. Ushbu mulohazalardan aytish mumkinki, tarixshunoslik yaxlit olganda insonshunoslik, uning ruhiy olami, mavjudligi, mavjudot sifatida kechinmalari, manfaatlar to‘qnashuvi va ustuvorligi jarayonidagi mantiqiy hodisalar talqinidir. Ana shu jihatdan qaraganda tarixni o‘rganish falsafiy mushohada, tafakkur bilan bog‘liq bo‘lgan voqelikdir.

Odamning paydo bo'lishi, uning ilk takomil jarayonlari, rivojlanish omillari bevosita dastlabki ibtidoiy ong – tushunish, anglash, hid bilish, harakat qilish, intilish jarayonida o'zini-o'zi kamolga yetkazish, shakllanish va rivojlanishning dastlabki hodisasidan tortib to bugungi global taraqqiyot, global muammolar va tahdidlargacha bo'lgan juda uzoq, ammo evolyutsion, dinamik taraqqiyotni qamrab oladi.

Albatta, bu ulkan davrlar va asrlar bilan bog'liq bo'lgan masofa insoniyat tomonidan bir tekisda, tadrijiy ravishda bosib o'tilmagan. Ilk hayotga intilish, yashash uchun kurash holatlaridan tortib to davlatlararo, mintaqalararo manfaatlar to'qnashuvi, turli nizolar, ayrim xalqlar va millatlar turmushini ostin-ustun qilib tashlash vayronagarliklar, xunrezliklarni o'ziga qamrab olgan, insoniyat hayotini, aniqroq qilib aytganda, ular taqdirini kutilmagan o'zanlarga burib yuborgan tarixiy hodisalar ham ko'pki, bularning barchasida inson, uning hayoti, qarashlari va kurashlari yotadi.

Inson – tarixiy mavjudot. U o'zining uzundan-uzoq shajarasi taraqqiyoti davomida insoniyat hayoti o'zanlarini o'zgartirib turuvchi, goh salbiy, goh ijobiy natijalar bilan buyuk siljishlarga va tengsiz tanazzullarga sababchi bo'lgan tarixiy-ijtimoiy hodisadir.

Umuman olganda, insoniyat tarixini o'rganish hamma vaqt, har qanday davr odamlari uchun muhim bo'lgan. Zotan, inson tabiatan o'z o'tmishiga qiziqib yashaydi, uning ildizlarini ochishga, jonzot sifatida o'z mohiyatini anglashga ehtiyoj sezadi. Bunday holat, ayniqsa, jamiyat tubdan o'zgarayotgan, turmush tarzi yangilanayotgan tarixning tub burilish nuqtalarida ko'zga yaqqol tashlanadi. Chunki bunday vaziyatlarda insonda o'zini anglash instinkti kuchayadi, o'z hayotiga nazar solib, o'tmishiga katta qiziqish bilan qaraydi, undan najot izlaydi. Ana shu holatning o'zi insonning tarixdan saboq chiqarishga, o'z istiqbolini belgilashiga zamin yaratadi.

Mustaqillik tafakkur tarzimizni o'zgartirib yubordi, hayot mohiyatini yana ham chuqurlashtirdi, yashash istagi inson mohiyati va qadriyatiga aylandi. Ongimiz va tafakkurimizdagi bunday keskin burilish tabiiy ravishda uzoq

o'tmishga – insoniyat tarixiga yangicha qarashni taqozo etdi. Ushbu jarayonda tarixiy xotirani tiklash, tarixiy jarayonlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish va falsafiy-mantiqiy tushunishni hosil qilishni taqozo etmoqda. Zero, tarixni falsafiy anglash, falsafiy tushunish, har bir voqelik va hodisaga uni keltirib chiqargan omillar, manbalar, ijtimoiy tarixiy muhit va manfaatlar asosida tushunishni, idrok etish - tarix falsafasining mohiyati hisoblanadi deb aytish mumkin.

Darhaqiqat, biz tarixga ana shunday tarzda yondoshgan taqdirimizdagina uning butun mohiyatini, ko'lamini va miqyosini birmuncha to'g'riroq tushunishimiz, undan ijobiy xulosalar chiqarishimiz va istiqbolimizni belgilashimiz mumkin bo'ladi. Mazkur adabiyotimizda tarix falsafasi tushunchasi, o'zgarayotgan tarixiy tafakkur va yangilanayotgan ijtimoiy ong masalalari, tarix falsafasiga ijtimoiy o'zlikni anglashning o'ziga xos jihatlari baholi qudrat tadqiq etiladi.

Tarix falsafasining ob'ekti va metodologiyasi, tarix fanining predmeti, tarixiy dalil va ilmiy tahlil, tarixiy dunyoqarash, tarix va germeneytika tarixiy jarayon va vorisiylik, tarix falsafasida zamonaviylik va an'anaviylik, kollektivizm va individualizm, totalitarizm ijtimoiy-siyosiy voqelik sifatida talqin etiladi, qolaversa, tarix falsafasining qonuniyatlari, asosiy prinsiplari, muhim jihatlari doir ma'lumotlar tarixiy-falsafiy jihatdan o'rganildi.

Bugungi kunda falsafiy tafakkurning yangilanishi nafaqat umumiy ma'naviy muhitning, balki har bir jamiyat a'zosining ijtimoiy qiyofasi, ruhiy dunyosi, maqsad va ehtiyojlarining o'zgarishi hamdir. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov aytganidek, "Falsafa barcha fanlarning otasi. Falsafani bilmaydigan odam - meditsina yoki ta'lim, san'at yoki madaniyat sohasi vakili bo'ladimi, bundan qat'iy nazar - hayotning, o'z kasbining ma'no mazmunini yaxshi tushunmaydi. Misol uchun, tarixni tahlil qilish uchun har bir voqea va jarayonga falsafiy qarash, ularni umumlashtirgan holda zarur xulosalar chiqarish kerak. Shu bois tarixchi bo'lish uchun falsafiy tafakkur qobiliyatiga ega

bo‘lish darkor”<sup>1</sup>. Shundagina inson buyuk allomalar orzu qilgan fozil odamlarning komil fazilatlarini shakllantirish va takomillashtirishga munosib hissa qo‘sha oladi.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ёшларга ишонч билдириш, уларнинг ташаббус ва салоҳиятини рўёбга чиқариш-бугунги куннинг устувор вазифасидир.//Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари - олий қадрият.-Т.: Ўзбекистон, 2006.- Б. 117.

# 1-MAB3Y: TARIX FALSAFASI FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

## REJA:

1. Tarix falsafasining tuzilishi, predmeti, vazifalari.
2. Tarix falsafasining hozirgi konsepsiyalari.
3. Tarixiy jarayon mazmuni va unga doir masalalar.

*Tayanch soʻz va atamalar:* falsafiy-tarixiy tafakkur, tarix, tarix falsafasi, omillar va yoʻnalishlar, tarixiy jarayonlar, tarixiy dunyoqarash, mustaqil fikr, odamning paydo boʻlishi, takomil jarayonlari, insoniyat, jamiyat, maʼnaviy muhit, global taraqqiyot, global muammolar va tahdidlar, inson – tarixiy mavjudot, ontologiya, gnoseologiya, antropologiya, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya.

## 1. Tarix falsafasining predmeti, tuzilishi va funksiyalari

Taʼkidlash kerakki, har qanday ijtimoiy voqelikning ahamiyatini va uning jamiyat taraqqiyotiga taʼsiri masalasi butun jamiyatning rivojlanishi bilan uygʻunlikda oʻrganilishi lozim. Buning natijasida butun insoniyat tarixiga tegishli boʻlgan savollarga ijobiy javob va yechimlar olish mumkin.

«Tarix falsafasi» nima va uning predmeti nimadan iborat? degan savolga javob berishda birinchi navbatda, tarix falsafasi tushunchasiga «Falsafiy qomusiy lugʻat» mualliflari bergan taʼrifni keltirish oʻrinli boʻladi deb oʻylaymiz: «Tarix falsafasi – falsafaning tarixiy jarayonni va tarixiy bilishni talqin qilish bilan bogʻliq boʻlgan boʻlimi»<sup>2</sup>. Shunday qilib, tarix falsafasi falsafaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Tarix falsafasining predmeti esa tarixiy jarayon va tarixiy bilishni talqin qilish, ularning mazmunini yoritib berishdan iborat. Ammo bu tarix falsafasini tavsiflashga nisbatan birdan-bir yondashuv emas, chunki tarixiy rivojlanish jarayonida tarix falsafasining predmeti va muammolari sezilarli darajada oʻzgargan va hozirgi vaqtda tarix falsafasining turli yoʻnalishlari tomonidan har xil talqin qilinadi.

---

<sup>2</sup> Философский энциклопедический словарь. – М.: Современный литератор, 1989. – С.700.

Gerodot, Platon, Fukidid, Aristotel, Plutarx kabi antik davr tarixchi va faylasuflarining nazariyalari asosida o'tgan va hozirgi zamon kishilarining qilmishlari, tabiat va insonning o'zaro aloqasi haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish, tarixiy dalillarni ularni nazariy jihatdan anglab yetmasdan va yagona falsafiy-tarixiy tizimga solmasdan o'rganish va tavsiflashgan xolos.

Xudo va insonning o'zaro aloqasi muammosi, harakatlantiruvchi kuchi ilohiy vahiy sanalgan tarixiy jarayonning mazmunini aniqlash - O'rta asrlar tarix falsafasiga xos xususiyat bo'lib, ushbu jarayonda ham o'sha davr tarixiy asarlarning mohiyati va vazifasini o'rganish talab etilgan.

A.Beruniy, Ibn Xaldun, A.B.Narshaxiy, R.Hamadoniy kabi sharq mutafakkir-allomalarining ta'limotlari sharq tarix falsafasining predmeti sifatida jahon tarixi, umumiy tarixiy taraqqiyot qoidalari, yo'nalish va omillarini o'rganishga asos bo'ldi. "Odamlar kabi davlat ham o'zining hayotiy davriga ega"<sup>3</sup>. Beruniy tarixni o'rganish, tahlil qilish va so'ng xulosalar chiqarish zarurligini tavsiya qilar ekan, uni davrlarga bo'lish, har bir davrning o'ziga xos jihatlarini aniqlash va ana shu usul orqali ijtimoiy hayotga, kishilik jamiyatiga tegishli va asosli baho berish mumkin deb hisoblaydi.

Tarixning maqsadi, yo'nalishini, shuningdek, tarixiy jarayonda insonning, sinflarning rolini aniqlash va tarix falsafasining predmetiga aylangan davr bu - Nikkolo Makiavelli, Jambattista Viko, Frensis Bekon, Tomas Gobbs, Ogyusten Terri, Fransua Gizo, Ogyust Minelar ijod qilgan uyg'onish va Yangi davr hisoblanadi. Yangi davrda «tarix falsafasi» atamasi ham paydo bo'lgan, uni ilk bor 1765 yilda tarixchi tarixiy voqealarni shunchaki tavsiflabgina qolmasdan, balki tarixiy jarayonni falsafiy jihatdan anglab yetishga harakat qilishi lozim, deb hisoblagan fransuz ma'rifatchisi Volter ishlatgan. Keyinchalik tarixiy jarayonning umumiy qonuniyatlari va dialektikasini aniqlash yo'lida izlanishlar olib borish Georg Gegel hamda dialektik materializm asoschilari Karl Marks va Fridrix Engels uchun tarix falsafasining asosiy predmetiga aylangan.

---

<sup>3</sup> Қаранг. Ҳотамий С.М. Ислом тафаккури тарихидан.-Т.: Маънавият, 2003. –Б.263

Tarix falsafasining ko'plab yangi yo'nalishlari XIX asr oxiri – XX asr boshida tashkil topdi. Ularning har biri o'z tadqiqot predmetiga ega bo'lgan. Masalan, tarixning aylanma harakati nazariyasi namoyandalari (Nikolay Danilevskiy, Osvald Shpengler, Arnold Toynbi), o'z izdoshlari kabi o'z oldiga tarixiy jarayon qonuniyatlarini aniqlash vazifasini qo'ygan. Xristian tarix falsafasining ko'p sonli yo'nalishlari: neotomizm (Jak Mariten, Eten Anri Jilson va b.), neoavgustizm (Moris Blondel, Gabriel Marsel, Jan Lakrua), teyyardizm (Per Teyyar de Sharden) va qisman ekzistensializm (Karl Yaspers) namoyandalari tarixning mazmuni muammosini bosh muammo deb hisoblaganlar. Tarixiy bilish gnoseologik nazariyasi va tanqidiy namoyandalari (Vilgelm Diltey, Benedetto Kroche) esa tarixshunoslik (istoriografiya) doirasi bilangina cheklanib qolmaganlar, balki so'zning keng ma'nosidagi tarixiy ongini ham tahlil qilganlar. Neokantchilik tarix falsafasi (Vilgelm Vindelband, Genrix Rikkert) va «analitik» tarix falsafasi (Ernest Nagel, Karl Gempel va b.) ham o'zining alohida predmetiga ega. XX asr tarix falsafasi aksariyat hozirgi yo'nalishlarining muhim xususiyati shundan iboratki, ularning predmeti sifatida jahon tarixi, hozirgi sivilizatsiyaning global muammolari amal qiladi.

Ushbu tadqiqotlardan keng ma'noda Tarix falsafasi predmetining umumiy tavsifi, uning tuzilishi va funksiyalarini o'rganishga o'tish imkonini beradi.

**Tarix falsafasining tuzilishi.** Shuni ta'kidlash kerakki, tarix falsafasi u yoki bu yo'nalish namoyandalarining metodologik asoslarini o'z ichiga olgan holda, ma'lum yo'nalish va maktablar doirasida o'rganiladigan asosiy muammolar tadqiq etilgan. Quyidagilar tarix falsafasining asosiy tarkibiy qismlaridir:

<p><b>Tarix falsafasi ontologiyasi</b> – borliq muammolari, olam, ijtimoiy borliq, ma'naviy borliq, fazo va vaqt tushunchalarini tarix falsafasining tarixning mazmuni va yo'nalishi, ijtimoiy taraqqiyot, ijtimoiy determinizm, yagona tarixiy makonning vujudga kelishi bilan bog'liq ravishda, jahon tarixining umumiyligi, insonning koinotdagi o'rnini aniqlash, tarixiy vaqt masalasi va hokazolarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi bo'limi bo'lib, unda jamiyatning rivojlanish</p>
---

mantig'ini, uning turli tomonlari o'rtasidagi aloqalar va o'zaro bog'lanishlarni o'rganish ham muhim o'rin egallaydi.

**Tarix falsafasi gnoseologiyasi** - tarixiy bilimning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga asosiy e'tiborni qaratadi. Shu bilan birga tarixiy bilish muammolariga, tarixiy faktlar va voqealarni o'rganish, tahlil qilish va tushuntirish, shuningdek tarixiy bilishda haqiqatning tagiga yetishni maqsad qiladi.

**Tarix falsafasi tarixi** - tarix falsafasi predmetining shakllanishi muammolarini, tarix falsafasining vujudga kelishi va rivojlanishi, tarix falsafasining turli yo'nalishlar va oqimlar vujudga kelishiga sabab bo'lgan ichki differentsiatsiyalanish jarayonini o'rganadi. Tarix falsafasi mazkur bo'limining muhim muammolari qatoriga tarixiy jarayonni davriylashtirish, boshqa ijtimoiy fanlar orasida tarix falsafasining o'rnini aniqlash masalalari ham kiradi.

**Tarix falsafasi antropologiyasi** insonning tarixiy jarayondagi o'rnini, bu jarayonda tarix sub'ektlarining rolini aniqlaydi va «Tarixni kim harakatga keltiradi?», degan savolga javob beradi. Odatda, tarix falsafasining turli yo'nalishlari tarixiy jarayon sub'ektlari qatoriga xalq, millat, omma, olomon, ijtimoiy sinflar va atoqli shaxslarni kiritadi va qo'yilgan savolga har xil javob beradi.

**1. Tarix falsafasining funksiyalari.** Tarix falsafasining jamiyat va insoniyat hayotida bir qancha vazifalari mavjud. Shuning uchun ushbu vazifalarni bilmasdan, mavzuga doir ma'lum masalani hal qilmasdan uning predmeti va o'ziga xos jihatlarini to'la anglab yetish mumkin emas. Tarix falsafasi falsafaning tarkibiy qismi ekanligiga asoslanib, tarix falsafasining funksiyalari, umuman falsafaning funksiyalari bilan asosan bir xil, deb taxmin qilish mumkin. Ayni vaqtda shuni ham unutmaslik kerakki, tarix falsafasi o'z alohida ob'ekti, predmeti, metodlari,

tadqiqot maqsadlari va vazifalariga ega va bu uning muayyan xususiyatlari mavjudligidan dalolat beradi. Quyida ularni ko‘rib chiqamiz.

- **Tarix falsafasining dunyoqarashga doir funksiyasi** shundan iboratki, u odamzotga tarix, dunyoning turli-tumanligi va rang-barangligiga, uning mazmuni va yo‘nalishiga, insonning undagi o‘rni va rolga ya‘ni jamiyatning mavjudligi va rivojlanishi, tarixiy jarayonning yagonaligi va hokazolarga nisbatan umumiy munosabatni shakllantiradi.

- **Tarix falsafasining nazariy funksiyasi** u tarixiy voqelikni ongda xosil qilish va u haqda nazariya, ya‘ni tarixiy jarayonning mavjudligi, mazmuni, rivojlanish yo‘nalishi haqidagi qarashlar to‘g‘risida mantiqiy xulosa chiqarishga imkon beradi. Tarix falsafasining mazkur funksiyasi orqali tarixiy o‘tmishni nazariy darajada rekonstruksiya qilishni amalga oshirish, tarixiy fakt va voqealarning haqqoniylik darajasini aniqlash mumkin.

- **Tarix falsafasining metodologik funksiyasi** uning uslub va vositalari tarixiy jarayonning u yoki bu ijtimoiy fanlar doirasida o‘rganiluvchi ayrim hodisalari va voqealarini o‘rganish jarayonida amalga tatbiq etish imkoniyatidan iborat. Bu holda tarix falsafasining qoidalari va xulosalari tarix, jamiyatshunoslik, iqtisod, politologiya, huquq falsafasi, ruhshunoslik kabi fanlar sohasida amalga oshiriluvchi tadqiqotlarda metodologik vazifani bajaradi.

- **Tarix falsafasining prognostik funksiyasi** tarix haqidagi hodisalarni oldindan prognoz qilish, jamiyat, uning ayrim kichik tizimlarining rivojlanish tendensiyalarini, tarix voqealari, kishilar mehnatining yaqin va uzoq kelajakdagi natijalarini bashorat qilishga yordam beradi. Bunday bashorat negizida u yoki bu ijtimoiy hodisalar va umuman jamiyatning rivojlanishini prognoz qilish mumkin.

Shuni qayd etish lozimki, tarix falsafasining ko‘rib chiqilgan vazifalari bir-biri bilan uzviy bog‘liq va bir-biriga o‘tadi. Ularning har biri qolganlarini nazarda tutadi va ularni o‘z tarkibiga u yoki bu tarzda kiritadi.

## **2. Tarix falsafasining hozirgi konsepsiyalari.**

Ushbu termin nisbatan yangi hisoblansa-da, ilk falsafiy-tarixiy ta'limotlar antik davrlardayoq vujudga kelgan. Shu sababli tarix falsafasining hozirgi konsepsiyalari mohiyatini yaxshiroq anglab yetish uchun tarixiy o'zlikni anglashning tadrijiy rivojlanish jarayoniga nazar tashlash, shuningdek insoniyat tarixiy rivojlanishini harakatlantiruvchi kuchlar va uning yo'nalishi haqidagi masala har doim yuqorida zikr etilgan jarayonning muhim tarkibi ekanligini e'tirof etish kerak.

Tarixiy harakat yo'llarini, tarixiy jarayon tendensiyalari va yo'nalishini anglab yetish muammosi antik davr mutafakkirlari, avvalo Gerodot, Fukidid, Aristotel, Teofrast, Pliniy Katta va boshqalarda kuchli qiziqish uyg'otgan. Bu tarixchi va faylasuflarning asarlarida insoniyatning o'tmishi va kelajagi haqida muayyan tasavvurlar, odamlarning qilmishlari haqida, tarixiy voqealarning yo'nalishi va mazmuni to'g'risida mulohazalar mavjud bo'lgan. Keyinchalik bularning barchasi jamuljam holda «tarix falsafasi» deb nomlangan, lekin ular hali qarashlarning mukammal tizimini tashkil etmagan. Bundan tashqari, qadimgi faylasuflar va tarixchilarning aksariyati diniy-mifologik dunyoqarashga amal qilgan. Bu dunyoqarashga ko'ra, jamiyatda, xuddi tabiatdagi kabi, aylanma harakat mavjud, odamlarning xatti-harakatlari taqdirga yoki xudolar irodasiga bo'ysunadi. Buyuk shaxslar – jamoa oqsoqollari, siyosiy arboblari, qahramonlarga xos bo'lgan, o'z tabiatiga ko'ra o'zgarmas sanalgan ehtiros va iroda inson xulq-atvorini belgilovchi omil hisoblanadi.

O'rta asrlarda falsafiy tafakkurning namoyandalari Avreliy Avgustin, Foma Akvinskiy va boshqalar Injil va yunon-rim falsafiy-tarixiy tafakkurini sintez qilib, tarixning yangi, teologik konsepsiyasini yaratdi, tarixiy voqealarning mazmuni, tarixiy asarlarning mohiyati va vazifalari haqida yangicha tasavvurlarni ilgari surdi. Mazkur konsepsiyaga muvofiq, xristian mualliflari, tarix orqali ilohiy niyatni tushunib yetishga harakat qilib, aylanma harakat g'oyasini rad etdilar va tarixiy

jarayonni o'tmishdan kelajak (bo'lg'usi panohga erishish, Masihning kelishi) sari chiziqli harakat sifatida tasavvur qildilar.

Markaziy Osiyo mutafakkiri Abu Rayhon Beruniy podsholiklar tarixi orqali o'tmishni davrlarga bo'lishni taklif qiladi. Tarix uning fikricha, fikr va tafakkur manbai, u doimo turli fanlarning o'zaro ta'sirining uzviyligi va uyg'unligi natijasida takomillashadi. Shu bois, tarix har qanday olim uchun tadqiqotning muhim manbai bo'lib xizmat qiladi. Beruniy tarixiy tadqiqotlarni boshqa turdosh fanlarni o'rganish bilan uyg'un holda olib borish, muayyan natijaga olib kelishini ta'kidlaydi. Zero, tarixiy manbani o'rganish, uning asosli yoki asossiz ekanligini isbotlash tarixiy tadqiqot uchun mas'uliyatli jarayondir. Chunki tarixiy manba yaratganlar, turli hujjatlarni bitganlar yoki o'z manfaatlari, maqsadlari doirasida dalil to'plaganlar. Shu holat nuqtai nazaridan Beruniy "xabar-xabarchilar tufayli rost va yolg'on tusini oladi"<sup>1</sup>, deb e'tirof etgan. Tarixiy haqiqatni tiklash, tarixiy tafakkur va tarixiy ma'lumotlarni yig'ish Sharq tarix falsafasida aniq me'yorlar vositasida amalga oshirilgan.

Feodalizmning inqirozi, kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi, hurfikrlilikning kuchayishi ijtimoiy ong tarixga nisbatan teologik yondashuvdan xalos bo'lishiga ko'maklashdi, bu fanning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Uyg'onish davri (XIV-XVI asrlar) mutafakkirlari, xristian tarixchilaridan farqli o'laroq, tarixiy jarayonni dunyoviy sharoitlardan, insonning tabiatidan kelib chiqib tushuntirishga harakat qildilar. Masalan, Nikkolo Makiavelli (1469-1527) o'z asarlarida moddiy manfaat, xususiy mulkni asrash va ko'paytirishga intilish jamiyatning rivojlanishini harakatlantiruvchi kuch ekanligini isbotlab, siklli rivojlanish g'oyasini asoslashga harakat qildi. Uning ayrim asarlarida ijtimoiy hodisalarning qonuniyatlariga doir farazlar ham mavjud, lekin u mazkur qonuniyatlarni ta'riflashning uddasidan chiqmagan.

XVII-XVIII asrlar Yevropa uchun burjua industrial sivilizatsiyasi vujudga kelishiga va ijtimoiy rivojlanish jarayonining jadallashuviga olib kelgan sanoat va ijtimoiy-siyosiy inqiloblar davriga aylandi. Yangi davr mutafakkirlari

---

<sup>1</sup> Беруний А. Танланган асарлар. 1-жилд. -Т.: Фан, 1968 – Б.50

qarashlarining shakllanishida tabiiy fanlar ulkan rol o'ynadi. Bu davrda ijtimoiy fanlarning rivojlanishiga tabiatshunoslik shu darajada kuchli ta'sir ko'rsatganki, tarix aksariyat hollarda tabiiy-ilmiy nuqtai nazardan tushuntirilgan.

Ayni shu davrda yuqorida sanab o'tilgan sabablar ta'sirida tarix falsafasining bir nechta naturalistik (lot. naturalis – tabiiy, natural) konsepsiyalari vujudga kelgan. Mazkur konsepsiyalarning namoyandalari tabiatga butun borliqni, shu jumladan, tarixiy jarayonni tushuntirishning universal tamoyili sifatida yondashgan. Bunda naturalizm tushunchasi turlicha talqin qilingani bois, quyidagi yo'nalishlar ajralib chiqqan: ijtimoiy hodisalar tabiiy muhit ta'sirida tushuntirilgan geografik naturalizm (Sharl Lui Monteske, Iogann Gerder va b.); tarixiy jarayonlarni demografik determinizm yordamida tushuntirgan demografik naturalizm (Tomas Maltus); jamiyatdagi o'zgarishlarni avvalo inson tafakkuri bilan bog'lovchi idealistik naturalizm (Klod Gelvesiy, Jan Jak Russo).

Tarixiy o'zlikni anglashning rivojlanishiga o'z tadqiqotlarida tarixni inson aqlli tabiatining evolyutsiyasi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan alohida borliq sifatida falsafiy jihatdan anglab yetishga urg'u bergan Volter (1694-1778) asarlari, shuningdek, tarixiy jarayon g'oyasini birinchilardan bo'lib asoslab bergan Mari Jan Kondorse (1743-1794) tadqiqotlari ham kuchli ta'sir ko'rsatdi.

G.V.F.Gegel (1770-1831) ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xosligini ob'ektiv idealizm nuqtai nazaridan anglab yetish yo'lida yangi qadam tashladi. U tarixga har bir davr betakror tarzda rang-barang bo'lgan holda, ayni vaqtda insoniyat rivojlanishining qonuniy bosqichi sanalgan yagona qonuniy jarayon sifatida yondashdi. Bu rivojlanish tabiiy qonuniyatlar sohasi bilan taqqoslaganda boshqacha xususiyat kasb etadi. Bu yerda tarixiy qonunlar kishilarning ongli faoliyati vositasida amalga tatbiq etiladi, lekin shu bilan birga tarixda muayyan ob'ektiv mantiq ham amalga oshiriladi va tarixiy jarayon dunyoviy aql, mutlaq g'oyaning cheksiz tarzda o'z-o'zidan rivojlanishi, o'zini o'zi ro'yobga chiqarish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshida tarixiy bilim sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarildi. Turli matnlarning tarixiy va lingvistik tahlili

metodlarining takomillashishi, arxeologiyaning rivojlanishi, o'tmish guvohliklariga yanada tanqidiyroq yondashish natijasida tarixiy bilim fan maqomini qo'lga kiritdi. Shu bilan birga, tarixiy va tabiiy ilmiy bilimlar butunlay har xil ob'ektlarga mansub bo'libgina qolmasdan, o'zlari ham bir-biridan butunlay farq qilishi yanada teranroq anglab yetildi.

Tarixiy o'zlikni anglash jarayoni evolyutsiyasining keltirilgan tavsifi bizga tarix falsafasining hozirgi konsepsiyalariga nazar tashlash imkonini beradi. Bu konsepsiyalar orasida gnoseologik yo'nalish (tanqidiy tarix falsafasi), ontologik kontsepsiya, aksiologik kontsepsiya, tarixning texnokratik konsepsiyalari alohida o'rin egallaydi.

Tarix falsafasining gnoseologik yo'nalishi XIX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran mazkur fanning mustaqil yo'nalishi sifatida shakllana boshladi. Bu yondashuv namoyandalari (Vilgelm Diltey, Benedetto Kroeche, Georg Zimmel, Robin Kollingvud, Raymon Aron va b.) tarix falsafasining asosiy predmeti – tarixiy o'tmishni o'rganishning mantiqiy-nazariy va metodologik muammolari, uni nazariy jihatdan rekonstruksiya qilish va tarixiy dalillarning haqiqiylikni aniqlash, deb hisoblaganlar.

Tarix falsafasi mazkur yo'nalishning asoschisi sifatida haqli ravishda nemis faylasufi Vilgelm Diltey (1833-1911) e'tirof etiladi. Uning nazariyasida inson borlig'i usuli, madaniy-tarixiy voqelik sifatidagi hayot tushunchasi markaziy o'rinni egallaydi (shu sababli Diltey nuqtai nazari ko'pincha «hayot falsafasi»ning istoritsistik varianti deb ataladi). Olim fikriga ko'ra, inson o'z tarixiga ega emas, lekin uning o'zi tarixdir va aynan shunda uning mohiyati namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, Diltey uchun hayot va tarix ayniydir.

Dilteyning tarix falsafasiga ijtimoiy va tabiiy fanlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish xos. U inson tabiatni tushuntiradi, ijtimoiy hayotni esa faqat tushunadi, deb hisoblagan. Uning fikricha, mazkur tushunish har xildir, chunki har bir inson tarixiy voqealarga o'z nisbiy mushohadalari nuqtai nazaridan yondashadi. Bundan xulosa shuki, ilmiy haqiqatning tagiga yetish, tarixiy jarayonni ilmiy nuqtai nazardan xolisona bilish amalda mumkin emas.

Xo'sh, bu holda tarix falsafasi bizga nima beradi? Dilteyning izdoshi – Kollingvud fikriga ko'ra, tarix falsafasi tarixchining fikr-mulohazalarini va shu bilan birga, mazkur fikr-mulohazalarning ob'ektini o'rganadi. Shu sababli tarixiy jarayonni o'z holicha o'rganish tarix falsafasi vazifalari qatoridan chiqarib tashlanadi: tarixiy jarayon faylasufga unda hodisalarning tarixiy bilim mohiyatini belgilovchi xususiyatlari to'g'risida so'z yuritilgani uchungina tegishlidir.

Falsafada bilish ta'limoti, ba'zan tanqidiy tarix falsafasi deb ham ataladi. Buni shunday izohlash mumkinki, mazkur yo'nalish vakillari tarixni tanqidiy o'rganishgina insoniyat tarixi modelini yaratish, tarixiy dalillarning haqqoniylik darajasiga baho berish va tarixiy voqelikni nazariy jihatdan gavdalantirish imkonini beradi, deb hisoblaganlar. Mazkur yondashuv kurtaklarini tarixiy bilishning metodologik muammolari, insoniyat tarixining muhim jihatlarini tadqiq etish bilan shug'ullangan neokantchilik Baden maktabidan izlash lozim. Aksariyat tadqiqotchilar tomonidan bu maktabning asoschisi sifatida fransuz faylasufi R.Aron (1905-1983) ta'kidlanadi. Uning asarlaridan biri «Tanqidiy tarix falsafasi» deb ataladi.

Falsafada borliq masalalarini o'rganuvchi olimlar tarix falsafasini ijtimoiy hodisalar, jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar majmui deb tushunganlar. Bunda shunday umumfalsafiy ontologik muammolar ko'rinadiki, ularga yechim topishda jamiyat tarixining qolgan ijtimoiy hodisalardan farqini hisobga olish lozim. Ushbu yondashuv namoyandalari (R.Mel, R.Ramon, E.Kallo va b.) tarix falsafasining diqqat markazida avvalo ontologik muammolar, jumladan, insoniyat tarixining mazmuni va vujudga kelishi, tarixiy jarayonning mohiyati, kelajakni bashorat qilish imkoniyatlari, tarixiy jarayonda insonning o'rni va roli muammolari turishi lozim. Masalan, ijtimoiy rivojlanishni harakatlantiruvchi kuchlar to'g'risidagi masalani o'rganish jarayonida inson ongi, erkinligining tarixiy jarayondagi roli to'g'risidagi masala yuzaga keladi. Ammo insondan boshqa rivojlangan ongga ega bo'lgan mavjudotlar fanga ma'lum emasligi tufayli, jamiyatning rivojlanishida ongning roli to'g'risidagi masalalar jamiyat, tarixiy jarayonlar haqidagi masalalar hisoblanadi.

Tarix falsafasining aksiologik konsepsiyasi tarixning qimmatini muammosiga, shuningdek tarixiy bilimning ayrim hodisalarini qimmatga ega yoki ega emas deb e'lon qiluvchi mulohazalar uchun oqilona asoslarni aniqlashga alohida e'tibor beradi.

Vindelband va Rikkert kabi olimlar ijtimoiy borliq va ma'naviy hayotning o'zaro nisbatini o'rganib, jamiyat tarixida ma'naviy hayot borliqqa nisbatan yetakchi rol o'ynaydi, degan xulosaga kelgan. Bu mulohazalardan kelib chiqqanda, tarix falsafasi qadriyatlarning tabiati va mohiyatini, shuningdek, ularning odamlar hayoti va faoliyatidagi ahamiyati va tajassumini yoritib beruvchi aksiologik fan sifatida amal qiladi.

Hozirgi zamon G'arb ijtimoiy falsafasi va tarix falsafasida texnokratik konsepsiyalar ijtimoiy tafakkurning ijtimoiy hayotda va jamiyat taraqqiyotida texnika hal qiluvchi rol o'ynaydi deb hisoblovchi va sanoatlashishgina jamiyat hayoti va shaxsni oqilona tartibga solish va kamol toptirishga qodir, degan fikrni asoslashga harakat qiluvchi yo'nalishlaridan biridir. Mazkur konsepsiyalar qatoriga postindustrial jamiyat yoki axborot jamiyati konsepsiyasini (Daniel Bell, Olvin Toffler), texnotron jamiyat konsepsiyasini (Zbignev Bjezinskiy), yangi industrial jamiyat konsepsiyasini (Jon Gelbrejt) ni kiritish mumkin.

Mazkur texnologik determinizm jamiyat rivojlanishining asosiy omillari qatoriga avvalo ishlab chiqarish kuchlari, texnika, fan va informatikaning rivojlanish darajasini kiritadi. Masalan, postindustrializm konsepsiyasi hozirgi zamon jamiyatida iqtisodiyotning birlamchi sohasi qishloq xo'jaligi, ikkilamchi soha sanoat emas, balki axborot hal qiluvchi rol o'ynaydigan uchlamchi soha (xizmatlar sohasi) yetakchilik qilishidan kelib chiqadi. Postindustrial jamiyatda sodir bo'layotgan mikroelektron inqilob mehnatni emas, balki axborotni jamiyatning rivojlanishi zamirida yotuvchi fundamental ijtimoiy omilga aylantirishi qayd etiladi.

### **3. Tarixiy jarayon mazmuni va unga doir masalalar.**

Tarix falsafasining muhim muammolaridan biri tarixiy jarayon mazmuni va uning yoʻnalishi muammosi hisoblanadi. Uning ahamiyati jamiyat oʻzgaradimi, agar oʻzgarsa, bu oʻzgarish qaysi yoʻnalishda yuz beradi va mazkur oʻzgarishlarni qay asosda davriylashtirish mumkin, degan savollarga javob topishdan iborat.

Ushbu masala bilan dastlab antik dunyo donishmandlari shugʻullanib, uch muhim yoʻnalish: progressiv, regressiv va siklli yoʻnalishlarni aytib oʻtganlar. Bu yoʻnalishlar bugungi kunda ham oʻrganiladi. Antik davr mutafakkirlarining koʻplari (Protagor va Demokrit) jamiyat taraqqiyoti yovvoyilikdan «oltin asr» sari yuksalib boruvchi yoʻnalishda kuzatilganligini aytib oʻtadilar. Ularni progressiv yoʻnalish asoschilari deb hisoblash mumkin. Boshqa mutafakkirlar (Gesiod, Seneka), aksincha, jamiyatning rivojlanishi regressiv yoʻnalishga ega, yaʼni u «oltin asr»dan jamiyatning tanazzuli, maʼnaviy qashshoqlik, axloqsizlik bilan tavsiflanuvchi «temir asr» sari rivojlanadi, degan fikrni ilgari surgan. Platon, Aristotel, Polibiylar esa jamiyat yuksalib boruvchi yoʻnalishda, lekin tutash doira boʻylab harakatlanadi va har doim ortga, dastlabki bosqichga qaytadi, deb hisoblagan.

Oʻrta asrlar faylasuflari, tarix muayyan yoʻnalishda rivojlanuvchi jarayon ekanligini rad etmagan holda, uning yoʻnalishini Xudo belgilaydi, deb hisoblaganlar.

Italyan faylasufi Jambattista Viko (1668-1744) ning asarlarida tarixning yoʻnalishi, shuningdek, tarixiy jarayonda yagonalik va rang-baranglikning oʻzaro nisbati muammolarini ayniqsa toʻla qamrab olganligi taʼkidlanadi. Ushbu olimning jahon tarixining barcha xalqlar uchun yagona boʻlgan tarixiy aylanma harakat sifatidagi dunyoviy konsepsiyasini ilgari surgan asari «Millatlar umumiy tabiati haqidagi yangi fan asoslari» deb nomlangan. Olimning gʻoyasi barcha xalqlar oʻz rivojlanishida bir xil bosqichlardan oʻtadi (ibtidoiy varvarlik («xudolar asri») dan feodalizm («qahramonlar asri») orqali demokratik respublika yoki konstitutsiyaviy monarxiya («sivilizatsiya asri») sari harakatlanadi). Har bir sikl mazkur jamiyatning umumiy inqirozi va parchalanishi bilan tugaydi. Sikl yakunlangach,

rivojlanish jarayoni yangilanadi va ayni shu bosqichlardan, lekin yuqoriroq darajada o'tadi. Shunday qilib, Viko ta'limoti madaniyatlar va sivilizatsiyalarning rivojlanishida sikllilik nazariyalari (Danilevskiy, Shpengler, Toynbi) ga asos bo'lgan.

XX asr tarix falsafasida tarixiy jarayon mantig'i va yo'nalishini tushuntirishga nisbatan ikki asosiy yondashuv: formatsion va sivilizatsion yondashuvlar mavjud.

Birinchi yondashuvda tarixni monistik, universalistik tushunishga asoslanib, u jahon tarixini ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar tadrijiy almashuvidan iborat yagona, chiziqli-hujumkor tabiiy-tarixiy jarayon sifatida talqin qiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar haqidagi ta'limot Karl Marksning «Kapital», «Siyosiy iqtisod tanqidiga doir» kabi asarlarida kuzatiladi. Bu ta'limotlardan shuni anglash mumkinki, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya – bu jamiyatning ma'lum tarixiy tipi, ishlab chiqarishning muayyan usuliga asoslangan va ijtimoiy taraqqiyot bosqichi sifatida amal qiladigan yaxlit ijtimoiy tizimdir.

«Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya» kategoriyasini asoslash tarixiy jarayonni davriylashtirish imkonini bergan. U jami formatsiyalarning besh tipini farqlagan: ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodalizm, kapitalizm, kommunizm. Jahon tarixiy jarayoni bir formatsiyadan boshqa formatsiyaga yuksalishdan iborat bo'lgan chiziqli jarayon sifatida tavsiflagan.

Falsafiy mushohada qilishda sivilizatsion yondashuv yangi va eng yangi davrlarda namoyon bo'ladi. U asosan ko'p sonli madaniyatlar va sivilizatsiyalar mavjudligi, ularning lokalligi va har xilligi haqidagi g'oyani ilgari surishi bilan tavsiflanadi. Bu yerda ijtimoiy taraqqiyotning qat'iy bir chiziqli sxemasi rad etiladi.

Mazkur yondashuv asoschilaridan biri tabiatshunos olim Nikolay Danilevskiy (1822-1885) bo'lgan. U har biri alohida-alohida mavjud bo'lgan, faoliyatning to'rt muhim shakli yoki sivilizatsiyalar «asosi» - ilohiy, madaniy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy omillar natijasida kuzatiladigan madaniy-tarixiy tiplar (sivilizatsiyalar) haqidagi konsepsiyani ilgari surgan. Madaniy-tarixiy tiplar, biologik organizmlar

kabi, tashqi muhit va bir-biri bilan uzluksiz kurash jarayonida bo‘ladi va vujudga kelish, voyaga yetish, qarish va halok bo‘lish bosqichlaridan o‘tadi. Olim o‘zining alohida qonunlariga binoan rivojlanuvchi xalqlar madaniy-tarixiy tiplarining o‘z-o‘zini namoyon etish xususiyatlarini aniqlashdan iborat deb bilgan. Danilevskiy madaniy-tarixiy tiplar rivojlanishining ayrim qonunlarini ta’riflagan:

Yana bir nemis mutafakkiri Osvald Shpengler (1880-1936) ijtimoiy taraqqiyotning bir chiziqli yevropotsentristik chizmasini o‘rgangan. Olim falsafasining mohiyatini madaniyat tashkil etadi. Faylasuf madaniyat deganda o‘ziga o‘xshash boshqa «organizmlar» dan ajralib turadigan alohida «organizm» ni tushungan. Bundan yagona umuminsoniy madaniyat yo‘q va bo‘lishi mumkin emas deb aytadi.

U insoniyat tarixida sakkiz madaniyat: Misr, Hind, Bobil, Xitoy, Yunon-rim, Sharq, G‘arbiy Yevropa va Mayya madaniyatlarini farqlagan. Shpengler fikriga ko‘ra, har bir madaniy organizm ma’lum hayot muddati (taxminan ming yil) mobaynida mavjud bo‘ladi, shundan so‘ng u sivilizatsiyaga aylanadi va oxir oqibat yo‘q bo‘lib ketadi. Har bir madaniyat o‘z teran mazmuniga ega bo‘ladi va tarixiy jarayonda bir xil ahamiyat kasb etadi. Shpengler tarixning mazmuni madaniyatlar taqdiri, ruhi va tilini anglab yetishdan iborat, deb hisoblaydi.

Lokal sivilizatsiyalar nazariyasining yana bir tarafdori ingliz tarixchisi va sotsiologi Arnold Toynbi (1889-1975) dir. U Danilevskiy va Shpenglarning tarixning siklliligi haqidagi fikr-mulohazalarini rivojlantirib, uni ayrim, o‘ziga xos va nisbatan berk sivilizatsiyalar tarixlarining yig‘indisi sifatida tushungan (dastlab u 23 sivilizatsiyani farqlagan, keyinchalik esa ularni 13 tagacha qisqartirgan). Toynbi sivilizatsiyalarga «evolyutsion tipdagi faol tuzilmalar» sifatida yondashib, har bir sivilizatsiyada tarixiy mavjudlikning asosiy bosqichlari: vujudga kelish, rivojlanish, tanazzulga uchrash va zavol topishni farqlagan. Bu asosiy bosqichlardan o‘tgach, sivilizatsiya, odatda, halok bo‘ladi va uning o‘rnini boshqa sivilizatsiya egallaydi.

Toynbi bu sivilizatsiyalarda oldinma-ketin yuz beruvchi ijtimoiy jarayonlarni o‘xshash deb hisoblab, shunga asoslangan holda yaqin kelajakda dunyo miqyosida

yuz beradigan voqealarni bashorat qilish imkonini beruvchi ijtimoiy rivojlanish takroriyligining ayrim formal empirik qonunlarini keltirib chiqarishga harakat qilgan. U jahon tarixining mazmuni diniy evolyutsiya hamda insoniyatning ma'naviy jihatdan kamol topishi bilan belgilanadi, deb hisoblagan.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, tarixning mazmuni muammosi tarix falsafasining aksariyat yo'nalishlarida yuqori o'ringa ega. Ayni vaqtda shunday konsepsiyalar ham paydo bo'lganki, ularda tarixning mazmuni muammosi markaziy muammo hisoblanadi. Taniqli nemis faylasufi K.Yaspers (1883-1969) yaratgan nazariyaga muvofiq, tarixning mazmuni tarixning chegarasidan tashqarida yotadi. Tarixning mazmuni va negizi butun insoniyat uchun umumiy bo'lgan e'tiqod bilan belgilanadi. Mazkur e'tiqod insoniyat vakillarini bir-biridan ajratmaydi, balki jipslashtiradi. Insoniyatga bunday e'tiqodni biron-bir jahon dini yoki milliy din taklif qila olmaydi.

Yaspers jahon tarixining «vaqt o'qi» amal qilgan davrda vujudga kelgan falsafiy e'tiqodgina insoniyat uchun umumiy e'tiqodga aylanishi mumkin, deb hisoblagan. Faylasuf qadimgi yunon faylasuflari, yahudiy xalqining payg'ambarlari, Eronda zardo'shtiylik dinining, Xitoyda – konfutsiychilik va daoichilikning, Hindistonda – buddizm va jaynizmning asoschilari bir vaqtda ijod qilgan miloddan avvalgi 800 va 200 yillar oralig'idagi davrni tarixning universal mazmunini namoyon etgan «vaqt o'qi» davri deb hisoblashni taklif qilgan. Mazkur davrda majusiylik o'rnini egallagan jahon dinlari paydo bo'lgan va mifologik dunyoqarash o'rnida falsafiy tafakkur vujudga kelgan; jahonda deyarli bir vaqtda ichdan o'zaro mushtarak bo'lgan bir nechta qudratli ma'naviy markazlar paydo bo'lgan. «Vaqt o'qi» davri insonga o'zini inson sifatida his qilishga yordam bergan, uning ma'naviyatini uyg'otgan, uni madaniyat va axloq asoslari bilan oshno etgan, uning oldiga insonning mavjudligi va hayotning mazmuni haqidagi masalalarni qo'ygan. Yaspers fikriga ko'ra, inson o'z-o'zini anglab yetishi, inson ma'naviyatining uyg'onishi shu vaqtgacha o'zaro bog'lanmagan lokal madaniyatlarga bo'lingan insoniyat umumiy tarixining ibtidosiga aylangan. Shundan beri insoniyat umumiy taqdir va yagona e'tiqod bilan bog'langan. Aks

holda uning tarixi halokat bilan tugashi mumkin. Yaspers ta'limotiga ko'ra, odamlarni umumiy ma'naviy asoslarda birlashtirish, ular o'zaro til topishini ta'minlashda kommunikatsiya ulkan rol o'ynaydi, shu bois uning tarix falsafasi ba'zan kommunikativ tarix falsafasi deb ham ataladi.

Tarixiy jarayon mazmuni va uning yo'nalishi muammosi bilan amerikalik faylasuf Frensis Fukuyama ham shug'ullangan. U o'zi yaratgan «tarixning intihosi» nazariyasida insoniyat oxir-oqibatda jamiyat va davlatning optimal shaklini topishini e'tirof etgan. Fukuyama liberal mafkurasi negizida insonning barcha ehtiyojlari qondirilishi va jamiyatdagi asosiy ziddiyatlar hal qilinishi lozim, deb hisoblagan. Uning fikricha, liberalizm jamiyatni tashkil etishning oqilona shakli sifatida, o'z muqobiliga ega emas, shu sababli insoniyat oldida bu mafkurani boshqa mamlakatlarga yoyish va shu tariqa umuminsoniy davlat – siyosiy jabhada liberal demokratiyani yaratishdan boshqa yo'l yo'q. Insoniyat tarixining mazmunini Fukuyama ana shunda ko'rgan.

Tarixning mazmunini tavsiflashga nisbatan boshqacha yondashuvlar ham mavjud. Masalan, ayrim faylasuflar tarix har qanday mazmundan holi, odamlar uchun jumboq deb hisoblaganlar va insoniyat kelajagiga pessimistik baho berganlar (Artur Shopengauer, Yakov Burgxardt). Ba'zi bir mutafakkirlar tarix voqealarning oqilona tushuntirish mumkin bo'lmagan irratsional oqimidir, deb hisoblaganlar (Fridrix Nisshe, Eduard Gartman).

Tarix falsafasida tarixiy taraqqiyot g'oyasi ham muhim o'rin egallaydi.

Taraqqiyot rivojlanish jarayonining quyidan yuqoriga, noraso holatdan barkamol holatga o'tish bilan tavsiflanuvchi yo'nalishini anglatadi. Taraqqiyot haqida jamiyatga tatbiqan (bu holda ijtimoiy taraqqiyotni nazarda tutiladi) va uning ayrim elementlariga, jamiyatning tuzilishi yoki boshqa parametrlariga tatbiqan (bu holda fan-texnika taraqqiyotini, ma'naviy sohadagi, ta'lim, sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi taraqqiyot nazarda tutiladi) so'z yuritish mumkin. Taraqqiyotning asosiy konsepsiyalarini biz yuqorida ko'rib chiqdik. Bu yerda shuni qayd etish muhimki, taraqqiyot o'z mohiyatiga ko'ra ziddiyatlidir, chunki uning teskari tomoni regress, ya'ni oliydan tubanga, barkamol holatdan

noraso holatga o'tishdir. Insoniyat biror narsani qo'lga kiritar ekan, muqarrar tarzda nimanidir yo'qotadi. Shu sababli insoniyatning taraqqiyot yoki regress yo'lidagi harakati haqida faqat umumiy ma'noda so'z yuritish mumkin.

Mazkur masalalarni tahlil etganda birinchi navbatda hozirgi davrgacha u asosan taraqqiyot yo'lidan harakatlanganligini aytib o'tish lozim. Ammo ijtimoiy taraqqiyot g'oyasiga hamma olimlar ham ishonavermaydi, ayrimlar hatto taraqqiyotning rivojlanishga shikastli ta'siri haqida so'z yuritadi. Masalan, Aurelio Pechchei taraqqiyot xavfli jarayon ekanligini isbotlashga harakat qiladi. Uning fikricha, bu anarxik jarayonni sirtdan turib tartibga solish mumkin emas va u Yer yuzida hayotning rivojlanishi uchun shikastli oqibatlar kelib chiqishi mumkinligiga e'tibor bermay, jamiyat ehtiyojlari bilan biron-bir real aloqasiz olg'a yangi qadamlar tashlashda davom etadi. Bu fikrga Elvin Toffler (1928 yilda tug'ilgan) ham qo'shiladi.

Jamiyat rivojlanish yo'lini aniqlashda ijtimoiy taraqqiyot nazariyasi o'ta dolzarbdir. So'nggi o'rta asr faylasuflari inson ongini taraqqiyot mezonlari deb hisoblaganlar. Keyinchalik mehnat va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi ushbu mezonni tezlashtirib yuborgan. Bugungi taraqqiyotning asosiy mezonlari sifatida ba'zi hollarda ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy, gumanistik omillarni asos qilib oladi. Bu mezonlar yordamida u yoki bu ijtimoiy tizimlar, siyosiy rejimlar, ijtimoiy harakatlarning progressivlik darajasini aniqlash mumkin.

Shu bilan bir qatorda ta'kidlab o'tish joizki, bu kabi mezonlarning hammasi ijtimoiy hayotning ayrim tomonlarinigina tavsiflaydi va butun jamiyat taraqqiyoti haqida to'liq tasavvur hosil qilish imkonini bermaydi. Jamiyatni insoniylashtirish darajasini, shaxsning undagi o'rnini, uning ruhiy va ijtimoiy erkinlik darajasini, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini ta'minlanishi sifatini jamiyat rivojlanishining umumiy yoki umumfalsafiy jihati sifatida belgilab qo'yish mumkin. Bu jarayonda mazkur jamiyatda shaxs kamoloti uchun imkoniyatlarni kengaytirishga e'tiborni qaratish talab etiladi.

### **Nazorat savollari:**

1. «Tarix falsafasi» ning predmetiga nimalar kiradi?
2. Antik davr donishmandlarining ta'limotlarida nimalarga ahamiyat qaratilgan?
3. O'rta asrlarda tarix falsafasining predmetini izohlang?
4. Sharq tarix falsafasining o'ziga xos xususiyati nimadan iborat?
5. XIX asr oxiri – XX asr boshida tarix falsafasining qanday yo'nalishlari vujudga kelgan?
6. Tarix falsafasining asosiy tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
7. Tarix falsafasining funksiyalari qaysilardan iborat?
8. Tarix falsafasining hozirgi konsepsiyalari mohiyatini yaxshiroq anglab yetish uchun nimalarga ahamiyat qaratmoq lozim?
9. Markaziy Osiyo mutafakkiri Abu Rayhon Beruniy tarix haqida qanday fikr bildirgan?

### **Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:**

1. “Inson – tarixiy mavjudot” mavzusida esse yozing.
2. Tarix falsafasining naturalistik konsepsiyalari to'g'risidagi nazariyalar.
3. Uyg'onish va Yangi davrda tarixning maqsadi, yo'nalishi haqida so'zlab bering.
4. “Tarixiy o'zlikni anglash jarayoni evolyusiyasi” mavzusida ko'rgazmali slayd tayyorlang (MS Power Point).

## 2-MAVZU: ANTIK DAVR TARIX FALSAFASI

### REJA:

1. Gerodot tomonidan ilmiy tarixning yaratilishi.
2. Qadimgi Rim tarixchilarining tarix falsafasi rivojiga qo‘shgan hissasi.

***Tayanch tushunchalar:** yunon tarix maktabi, rivojlanish bosqichlari, kishilik jamiyati, mulkiy tabaqalanish va davlat, qadimgi yozuvlar, finikiya, yunon yozuvi, oromiy yozuvi, xattotlar, shoirlar, antik davr, tarixiy asarlar, taxt egalari va davlatlar, sulolalar tarixi, yilnomalar, hukmdor, hukmron sulola va tabaqalar manfaatlari, lahja, antik tarixshunosligi.*

### 1. Gerodot tomonidan ilmiy tarixning yaratilishi.

Antik tarixshunosligi o‘zining mavjud uzoq yillik taraqqiyoti yo‘lida o‘ziga xos xususiyatlarga, xarakterga ega bo‘ldi. Ko‘plab qadimgi davr olimlari tarix deganda «Hayot murabbiysi» deb tushunib, tarixchilardan xolisona va aniq yondashilgan tadqiqotlar talab etilmagan. Balki tarixiy voqealarni ma’lum maqsad yo‘lida izohlash, bo‘lib o‘tgan qahramonliklarni ulug‘lash, maqtash, o‘quvchilarda yaxshi fazilatlar va oliy maqsadlarni uyg‘otish uchun uringanlar.

Antik tarixshunosligining o‘ziga xos jihati mahalliy tarixga katta qiziqish bilan bog‘liqdir. Haqiqatdan ham antik tarixshunosligi jahon yoki muayyan region tarixini ko‘plab misollari bilan tanish bo‘lgan. Masalan, Gerodotning Yunon-fors urushlari tarixi hamda Efor, Polibiy yoki Pompey Trog asarlari alohida o‘lkalarning tarixiga qiziqish asosida yaratilgan. Jahon tarixi faktlari muayyan voqealar markazida ma’lum bir guruhlariga ajralgan, ya’ni Afina, Lakonika, Rim yoki boshqa qandaydir davlatlar tarixiga ajralgan.

Antik tarixshunosligining erishgan muhim yutug‘i taraqqiyot nazariyasining qonuniyat tushunchasi bilan bog‘liq ekanligini asoslab berganligidir. Tabiat va jamiyatdagi harakatlar to‘g‘risidagi g‘oyalar Aristotel tomonidan chuqur asoslab berilgan edi.

Uning mazkur asoslab bergan g'oyalari negizida harakatning olti turi – paydo bo'lish va mavjud bo'lmaslik, rivojlanish va inqiroz, sifat o'zgarishi va o'rin almashuvi, o'zgarishning to'rt tipi – moddiy, son, sifat va o'rin yoki holat o'zgarishlaridan iboratdir. U ana shu g'oyalar asosidagi taraqqiyotning umumiy konsepsiyasiga asos solgan. Masalan, ibtidoiy to'da holatidan oilaga, keyin qishloq jamoasiga, jamoadan davlat institutlarining shakllanishi, asta-sekinlik bilan ommaviy-siyosiy tashkilotlarning vujudga kelishi bilan bog'liq ravishda keltirganlar. Inson hayotida ba'zi siyosiy shakllarning tuzilishi Aristotelning tarixiy taraqqiyot teoriyasining yuzaga kelishiga olib keldi.

Qadimgi dunyo tarixida muhim bir jihat borki, insoniyatining tarixiy taraqqiyoti xususidagi umumbashariy tamoyil sifatida to'rtta davr ajratilgan: oltin, kumush, mis va temir davrlari. Gesiod pessimistik qarashlarga ega bo'lishiga qaramay, birinchi bo'lib antik davrning o'ziga xoslik jihatlarini bayon etib bergan. Keyinroq bu qarashlar Lukresiy tomonidan qayta ishlangan va rivojlantirib berilgan. Lukresiy inson jamiyatining tarixiy taraqqiyoti jarayonini jamiyatdagi moddiy ishlab chiqarish va axloqiy inqiroz o'rtasidagi qarama-qarshilik bilan bog'liq holda talqin etadi. Jamiyat taraqqiyotining antik konsepsiyasi davriy rivojlanish jarayoniga o'xshash bo'lib, bir jamiyat shaklining boshga shaklga aylanishi, ya'ni taraqqiyotining bir davrini boshqasi bilan almashinuvi bilan bog'liqdir. Jamiyat rivojlanar ekan, bunga turtki bo'ladigan kuchlar qanday namoyon bo'ladi?

Aytish kerakki, hech bir donishmand tarixiy jarayonlarga ilohiy va teologik kuchlarning aralashuvini salbiy jihat deb qaramagan, ammo antik tarixshunoslikda tarixni harakatlantiruvchi xudo haqidagi bilimlarning aralashuvisiz dunyoviy xarakterdagi omillar ta'sir etganligini ta'kidlaydilar. Ular tomonidan tarixni harakatlantiruvchi kuchlar tarixiy shaxslarning, arboblarning irodasi, davlat tuzilishi, ajdodlar urf-odatlarini, pragmatik tartibning aniq sabablarini bir-biriga tabiiy birikishi deb talqin etilgan. Ba'zi bir tarixchilar tarixiy jarayonlardagi harakatlantiruvchi kuch deb davlatning o'rnini ko'rsatadilar. Masalan, rim tarixchilari ajdodlar udumlarining o'rnini aytishgan. Ushbu jarayonda asosiy

harakatlantiruvchi kuchni davlat tuzilishi bilan bog'liq holda talqin qilgan olim Polibiydir. Geografik shart-sharoitlarni birinchi darajaga qo'ygan Strabon ham, tarixiy shaxslarning o'rnini muhim deb atagan Plutarxning fikrlari ham qaysidir ma'noda e'tiborga olingan. Lekin shuni aytib o'tish kerakki, qanday fikrlar bo'lmasin antik tarixchilar hamma sabablarni ko'rsatishsa ham oxir-oqibat ular tarixiy voqealarni taqdir bilan bog'lashga, qolaversa inson ongi tushuna olmaydigan sabablarga bog'lashga majbur bo'lganlar.

Antik tarixshunoslik manbalar va alohida tarixiy tadqiqotlardan ajralib turadi. Antik tarixshunoslikdagi arxiv xizmatidan to'g'ri foydalanish yo'lga qo'yilmagan. Tarixchilar faqat epizodik materiallardan, ayrim hollarda hujjatlarga asoslangan ma'lumotlardan foydalangan. Antik tarixchilar voqealarni yoritish jarayonida ko'pincha eshitganlaridan, og'zaki hikoyalardan, mahalliy ruhoniylarning aniq tarjimalaridan samarali foydalangan. Ularni esa tanqidiy tahlil etish qiyin edi. Biroq antik tarixiy fikrlar o'zining uzoq yillik taraqqiyoti davrida katta yutuqlarga erishdi. Ma'lum bir ma'nodagi ilmiy yangiliklar sifatida e'tirof etilgan: jahon tarixi konsepsiyasi (Gerodot), manbalarni tanqidiy o'rganish uslubi (Fukidid), jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari (Aristotel) kabi ta'limotlari ishlab chiqilgan.

Qadimda Afina poytatida tarix fani birdaniga paydo bo'lib qolmadi. Greklarning tasavvuricha tarix fan emas, balki san'atdan va pandnomalardan iborat, shu sababli qadimgi greklar boshqa fanlar singari tarixning ham o'z muzasi bor, bu muza Kliodir. Klio boshqa muzalar bilan bir qatorda san'atlar xudosi Apolon ayonlari orasida bo'lgan, deb hisoblaganlar. Greklar tarixiy voqealar to'g'risida chiroyli va pand-nasihatli hikoyani hammadan ko'proq qadrlaganlar. Ular tarixning asosiy vazifasi pand-nasihatdan iborat deb hisoblaganlar.

Dastlabki vaqtlarda logograf deb ataluvchi kishilar ("logos" "so'z", "grafo"-yozaman demakdir) shaharlarning odatda o'zlari tug'ilgan shaharlarning tarixi to'g'risida yozganlar. Logograflar eramizdan avvalgi VII asrda va V asrning boshlarida yashaganlar. O'z asarlarida ular biron shaharning tarixini yozganlar, lekin ular bu tarixni afsona bilan aralashtirganlar.

Gerodotni biz tarixchi sifatida yaxshi bilamiz. Uning to‘qqiz tomli tarix asarining har biri yuz ellik va undan ortiq hikoya, rivoyat va o‘ziga xos tarixiy novellalarni o‘z ichiga oladi. Gerodot asarlari Plutarx, Yustin ijodlariga ham katta ta’sir o‘tkazgan, taniqli tadqiqotchi M. Mandesning fikricha, Yustinning ko‘pgina fikrlari Gerodotdan olinganligi, Diadorning ko‘pgina tasvirlari Fukididga yaqin turganligi qayd etiladi. Arrian Ksenofont ijodini davom ettirganligini ochiq oydin aytadi.

Gerodot yoshligidan sayohat qilishni yashi ko‘radi. Galikarnos port shahri, savdo-sotiq bilan shug‘illanuvchi savdogarlar, yo‘lovchilar shahri bo‘lgani uchun o‘spirinlik yillaridayoq u yaqin atrofdagi mamlakatlarga borib qoladi. Dengiz shunqori va sayyohlari tilidan g‘aroyib sarguzashtlarni tinglashni juda-juda yoqtiradi. “Eron tarixi kitobi” Gerodot e’tiborini ayniqsa o‘ziga tortadi. Xaronning “Eron tarixi” kitobida Ahamoniylar davlatiga qaram bo‘lgan Osiyodagi ko‘pgina xalqlar haqida qimmatli ma’lumotlar bor.

Gerodot tug‘ilgan o‘lka tarixiy sarguzashtlarga boy edi. Bunday tarixiy voqealarni ko‘p eshitgan Gerodot keyinchalik haqli ravishda tarixiy hikoyalar ijodkori bo‘lib qoladi. Gerodotning ona shahri Galikarnos hokimi Lagdimidga qarshi ko‘tarilgan isyon bostiriladi. Gerodot esa mamlakatdan quvg‘in qilinadi. Shundan so‘ng bo‘lajak tarixchi Osiyo bo‘ylab safarga chiqishga qaror qildi. Gerodot qora dengiz qirg‘oqlari bo‘ylab safardaligida Olviya shahri va ularga yaqin joylashgan skiflar haqida qiziqarli ma’lumotlarni eshitadi. Undan ilgari ham skiflar haqida talaygina kitoblarni o‘qib ularning hayot kechirish tarziga qiziqib qolgan edi.

Gerodot umrining ma’lum qismini Samos orolida o‘tgazgan. Shuningdek, u 8-10 yil davomida Kichik Osiyo, Misr, Vavilon, Egey dengizi orollari, Qora dengiz sohillari, Makedoniya, Frakiya kabi ko‘pgina o‘lkalarga sayohat qilgan. Uning tarixiy bilimlari 9 kitobdan iborat «Tarix» asariga jamlangan. Shu o‘rinda bu asardagi ko‘plab tarixiy voqealar Afina siyosati nuqtai nazaridan bayon etilganligini ta’kidlash mumkin. Uning asari aleksandriyalik olimlar tomonidan 9 ta kitobga bo‘lingan va har biriga muzalar (Klio, Evtepra, Taliya, Melpomena,

Terpsixora, Erato, Poligimniya, Uraniya va Kalliopa) ning nomi berilgan. Shuning uchun ham ba'zi hollarda Gerodotning «Tarix » asarini «Muzalar» deb atash holatlari mavjud.

Asar badiiy asarga xos tartibda uch qismga bo'lingan holda yozilgan. Birinchi qism Kir yurishlari va Kambizning Misr yurishi, Misr tarixiga (5 kitobning 27 bobigacha), ikkinchi qism Doro tarixiga, uchinchi qism esa Kserks davri tarixiga bag'ishlangan. Gerodotning tarix asarini tom ma'nodagi tarixiy asar deb bo'lmaydi. Unda tarixiy voqea va hodisalarning sabablarini ochib berish emas, asarning badiiyligini ko'tarish asosiy maqsad bo'lgan. Asosiy tarixiy voqealarning sabablari muhabbat mojarolari bilan izohlangan deyish mumkin. Asarning dastlabki tomlari dastlab mustaqil asar sifatida yozilgan. Keyinchalik Gerodot yaxlit asar yozish maqsadida dastlabki 5 jildni qayta ishlab, ularni bir-biriga bog'lagan.

Gerodotning asariga undan avval yashagan mualliflarning epik asarlari manba bo'lib xizmat qilgan. Lekin uning O'rta Osiyo tarixiga oid ma'lumotlarining manbalari xususida turlicha fikrlar mavjud. Misol uchun, akademik V.V.Struve Gerodotning ma'lumotlari ahamoniylar tomonidan yozib qoldirilgan Behustun, Persepol, Naqshi Rostam qoyalariga o'yib yozdirilgan ma'lumotlarga monand ekanligini ta'kidlagan. M.A. Dandamamev esa «Gerodot Behustun yozuvi haqida hech qayerda hech nima demaydi, balki shunday yozuv borligini bilmagan bo'lsa kerak, lekin u bergan ma'lumotlar bu yozuvning ba'zi joylarini aynan tarjimasiga o'xshaydi», deb yozadi. Garchi bu fikrlar yakuniy xulosaga olib kelmasa-da, Gerodotning ma'lumotlariga bo'lgan ishonchni oshiradi.

Gerodot Samos orolida bir muncha vaqt bo'lib, Osiyo bo'ylab safarga jo'naydi. Gerodot dastlab Ahamoniylar davlatining markazi bo'lgan Suza shahriga keladi, Efes va Sard shaharlarida bo'ladi. Kichik Osiyodagi Galis, Mesopatamiyadagi Efrat va Tigr daryolaridan o'tadi. Gerodotning fikricha, Kaspiy bo'ylarida ko'chmanchi massagetlar yashaydi. Massagetlar baliq go'shti, parranda va sutli taomlarni iste'mol qilishadi. Bu yerning xalqlari juda jangari bo'lishgan. Aytishlaricha Eron shohi Kir ham ularni o'ziga bo'ysundira olmagan. Gerodot

Mesopatamiya va Vaviloniya o'lkalarining tabiatiga ham keng to'xtaladi. Bu joylar Orol dengiziga yaqin bo'lib, ayrim tadqiqotchilar bu o'lkalarga Gerodot kelmagan deyishsa, boshqalar kelgan deyishadi. Gerodot O'rta Osiyo haqida muhim ma'lumotlar keltiradi. Bu yerda bir necha hokimliklar mavjudligini, ularning hammasi ulkan Eron davlatiga qaram ekanligini tasdiqlaydi. Bu hokimliklarni aniq nomi bilan ataydi. Jumladan, Baqtriya, Girkaniya, Kaspiy, so'g'dlar, saklar, xorazmiylar va oriylar, bu o'rinda izoh talab nomlardan oriylar Afg'onistonning g'arbiy qismiga joylashgan elatlardir. Baqtriyaning poytaxti o'sha vaqtda Balx shahri bo'lgan. Kaspiy hokimligiga Turkmanistonning janubi-g'arbiy qismida joylashgan qabilalar kirgan. Xorazmiylar xorazmliklar, so'g'dlar Politimet (Zarafshon) bo'ylarida, saklar Tyanshan tog'ining g'arbiy etaklarida joylashgan edilar. Shundan so'ng Gerodot Hindiston o'lkasida sayohatini davom ettirib, Panjobga boradi. Bu yerga bostirib kelgan Doro haqida qimmatli ma'lumotlar to'playdi. Gerodot keyingi asarlarida Liviya, Misr o'lkalarini ham keng tasvirlaydi. Gerodot tarixning shunchaki xabarchisi emas, balki tarixni jonlantirib ko'rsatuvchi yetuk ijodkordir. Uning skiflar haqidagi asarlari nihoyatda bebaho va qadrlidir.

Gerodotning "Skiflar" asari jahon xazinasida munosib o'rin tutgan, bu asar juda ko'plab tillarga tarjima qilingan. Skiflarni birinchi bo'lib, jahonga tanitgan ham Gerodotdir, XVII – XVIII asrlardayoq rus imperatorlari Gerodotning "Skiflar" asarini juda katta qiziqish bilan o'qishgan va juda ko'p nusxalarda tarjima qilishga buyruq berishgan. Natijada, asar bir necha marta tarjima qilinib, qayta-qayta nashr etiladi. Skiflar haqida Gerodotdan ilgari Yunon olimlari Gomer, Esxil ham yozganlar, lekin skiflarning haqiqiy va birinchi targ'ibotchisi Gerodot edi. Gerodotning "Skiflar" asarining uslubi, undagi hikoyalarning xarakterli xususiyatlari haqida bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari yuzaga keldi. Bu ilmiy tadqiqotlar ichida ayniqsa, I.Y.Timoshenkoning "Gerodot va uning asari", Vitold Klingerning "Hikoyachilik motivlari" asarlari, shuningdek, "Sharq xalqlarini tarixiy hikoyalari" kabi juda katta ahamiyatga ega bo'lgan ijod durdonalari yuzaga keldi. Gerodot katta ishga qo'l uradi. Faqat skiflarni emas, Yevropa va Osiyodagi, hatto Afrikadagi ko'pgina qabilalarning hayotiga oid ma'lumotlarni aks ettiradi.

Gerodot ijodi “Tarix” nomli to‘qqiz kitobi katta ilmiy xazinani tashkil etib, bu kitoblarning har biri yuzlab hikoyalarni o‘z ichiga olgan. Gerodot antik davrdagi boshqa olimlardan shu bilan farq qiladiki, u fidoyi tarixchi edi. O‘z hayotini tahlikaga qo‘yib bo‘lsa-da, ijod dardida uzoq yurtlarni kezdi. Jahongashta tarixchi juda ko‘plab xavf-xatarlarga duch keldi. Bu safarlarida u avval o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, qulog‘i bilan eshitgach, keyin ijod qilardi. Har qanday faraz va taxminlar uning uchun begona edi. U minglab qabila va elatlarda bo‘ladi, yuzlab daryolarni kechib o‘tadi. O‘sha paytda hech bir olimning qadami yetmagan yerlarda bo‘lib, ilmiy izlanishlarga qo‘l uradi. Shuning uchun ham Gerodot nomi tariximizda alohida ahamiyat kasb etadi.

## **2. Qadimgi Rim tarixchilarining tarix falsafasi rivojiga qo‘shgan hissasi. Polibiy.**

Polibiy - qadimgi yunon tarixchisi, davlat arbobi va harbiy sarkarda, eramizdan avvalgi 220 yildan boshlab Rim, Gretsiya, Makedoniya, Kichik Osiyo va boshqa mintaqalardagi voqealarni yorituvchi 40 jildlik "Umumiy tarix" kitobining muallifi.

Miloddan avvalgi 201-120 yillarda yashagan Polibiy ham tarixiy voqea va hodisalarni bor holicha, haqiqatga asoslanib, ilmiy bayon etgan tarixchilardan hisoblanadi. U o‘zining «Umumjahon tarixi» asarida miloddan avvalgi 220 – 146 yillardagi voqealarni diqqat bilan o‘rganib chiqadi. Uning asari 40 kitobdan iborat bo‘lgan. Lekin bizgacha 1–5 kitoblari etib kelgan, xalos. Polibiyning bu asari o‘rta yer dengizi atrofidagi barcha muhim davlatlar (Yunoniston, Makedoniya, Karfagen, Misr, Suriya va Rim) ning tarixini o‘zaro bog‘liqlikda tadqiq etgan birinchi asar hisoblanadi. Muarrixning takliflari asosida, har bir davlat jonli tabiat ham yuksaladi, taraqqiy etadi va tanazzulga yuz tutadi. Olim ilk bor «ijobiy (pragmatik) tarix» iborasini qo‘llaydi va asarining ikkinchi qismini shu nom bilan davom ettiradi. Polibiy tarixiy voqea va hodisalarning nima sababdan, qanday maqsadda yuz berganligini aniqlaydi va ularning kelib chiqish sabablarini, birin ketinligini va oqibatlarini ilmiy asosda isbotlab berishga harakat qiladi.

Polibiy grek istoriografiyasining eng yaxshi an'analariga amal qilgan. Ammo uning siyosiy qarashlari Rim jamiyatidagi konservativ tabaqalarning manfaatlarini ifoda qilgan. Polibiy Rimning o'rta dengiz sharqiy qismining hayotiga aralashishini kuzatib, unda Rim hokimiyati o'rnatilishi muqarrarligini aytib o'tgan.

Polibiy Rim davlatining qudratini uning davlat tuzumidagi xususiyatlaridan deb bilgan, uning nazarida bu tuzumni idora qilishning aristokratik, demokratik va monarxik shakllari ajoyib tarzda bir-biri bilan qo'shib ketgan. Polibiy manbalarni juda sinchiklab tekshirgan, mamlakatning geografik holati va uning iqlimini o'rgangan. U antik davr tarixining odat hukmidagi adabiy usullaridan foydalangan, voqeaning bayonotida voqeada ishtirok qiluvchi nutqlarini kiritgan. Polibiy bu bilan ularning gaplariga mumkin qadar "haqiqiy" tus berishga harakat qilgan. U manbalarning naqadar rostligini aniqlab, tarixiy voqealarning sabablarini ayrim shaxsning ish va harakatlarida ko'rgan xolos.

Polibiy tarix chinakam voqealarni izohlashga va bu voqealarning keyinchalik taraqqiyot yo'lini belgilashga imkon beradi, ya'ni tarix "nasihat berishi", "o'rgatishi" mumkin, amaliy jihatdan foydali bo'lishi mumkin deb faraz qilgan.

### **Tit Liviy.**

Titus Liviy - qadimgi Rim tarixchisi, qisman saqlanib qolgan "Shahar tashkil topganidan beri tarix" asari muallifi. Miloddan avvalgi 30-yillarda "Tarix" ni tuzishni boshlagan. Liviy umrining oxirigacha uning ustida ishlagan va Eneyning Troyadan Apennin yarim oroliga afsonaviy kelishidan miloddan avvalgi 9-yilgacha bo'lgan voqealarni tasvirlab bergan.

Tit Liviy Rimning afsonaviy zamondan boshlab o'zi yashagan davrgacha o'tgan butun tarixini yozishga harakat qilgan. Uning bu g'oyat puxta asari 142 ta kitobdan iborat bo'lgan, lekin undan atigi 38 tasi va boshqa ba'zi kitoblaridan parchalar saqlangan xolos. Tit Liviy tarixni yodgorlik deb bilgan. Uning fikricha, tarix o'rnak bo'la oladigan namunalarni ko'rsatishi bizning avlodlarimiz ko'p yillar davomida ko'rib kelgan, ofatlardan qanday qilib, saqlanishiga o'rgatishi lozim.

Tit Liviy voqealarning sababli bog'lanishlarini aniqlash ularni izohlash va bu voqealar rostmi-yo'qmi, bu haqda bosh qotirmagan. Uning asarlarida Fukidid,

Polibiy asarlariga xos tarixiy tanqidlar yo‘q. Tit Liviy, Sitseronga taqlid qilishga uringan, u bu urinishda muvaffaqiyat qozona olmagan. Tit Liviyning respublika tarixidan qimmatli manba bo‘lmish asarlari muallifning fikricha, kitobxonga chuqur ta’sir qilmog‘i lozim bo‘lmagan. Uning asarlari ilmiy tadqiqot emas, balki V.G. Belinskiy aytganidek, san’atkorning asari, san’at asaridir.

### **Korneliy Tatsit.**

Korneliy Tatsit (taxminan 54-120 yillar) bu davrning eng mashhur tarixchilaridandir. Zodagon suvoriy oilasidan chiqqan Tatsit yoshligida Britaniyada harbiy xizmatda bo‘lgan. U mashhur lashkarboshi Yuliy Agrikolaning yaqin do‘sti bo‘lgan. Imperator Domitsian Agrikolani qatl qildirgandan keyin unga homiylik qilgan Tatsit imperatorning qahridan qo‘rqib bir necha vaqtgacha surgunda yurgan. Domitsian halok bo‘lgandan keyingina Tatsit Rimga qaytgan hamda senator bo‘lib, magistraturada buyuk lavozimni egallab kelgan. Uning badiiy faoliyati ham ana shu davrga mansubdir. Tatsit eramizning 68 yilidan to 96 yilgacha bo‘lgan davrni ichiga olgan “Tarixlar” ni, Avgustning o‘limidan (eramizning 14-yili) Neronning halokatigacha (eramizning 68-yili) bo‘lgan davrning “Yilnomalar” ini, shuningdek “Germaniya” nomli kichikroq asarini yozgan. Tatsit bu so‘nggi asarida german qabilalarining va Rim imperiyasi tuprog‘idan tashqari yashagan boshqa Yevropa qabilalari va elatlarining etnografiyasini mufassal bayon qilgan. Tatsit o‘z asarlarida, ayniqsa “Yilnoma” larida Rimning o‘tmish respublika davrini ko‘klarga ko‘tarib maqtagan bo‘lsa, o‘z zamonasining siyosiy tartibini Yuliy – Klavdiylar sulolasidan bo‘lgan imperatorlarning o‘zboshimchaligi va istebdodini qattiq qoralab yozgan. F.Engels Tatsitni eski Rim patritsiylari tafakkurining so‘nggi namoyandasi degan edi. Tatsit siyosiy voqealarning borishini bayon qilar ekan, u o‘zining bayon qiladigan materiallarini asl hujjatlar asosida sinchiklab o‘rganib chiqqan “Yilnoma” larida keltirilgan nutqlar ham obidalardagi yozuvlar va arxeologiya ma’lumotlari bilan tasdiqlanadi. Tatsit asarlarining bir qismigina zamonamizgacha saqlanib kelgan. “Tarixlar” ining uchdan bir qismigina saqlangan, “Yilnomalar” ini ko‘p qismi saqlanmagan, shunday bo‘lsa-da,

Tatsitning tarixiy asarlari eramizning I-asridagi Rim imperiyasi tarixi to'g'risidagi tasavvurning negizini tashkil etadi.

Yunon tarix maktabining yirik vakillaridan biri miloddan avvalgi V-IV asrlarda yashagan Fukidid bo'lib, uning Pelloponnes urushlari tarixiga bag'ishlangan asari tarix fani tarixidagi birinchi ilmiy tarixiy asar hisoblanadi. Rus tarixchisi S.A. Jebelov u haqida: «Fukidid bizning ongimizda Yunonistonning birinchi tarixchisi bo'libgina qolmay, barcha zamonlar va barcha xalqlarning eng buyuk muarrixlaridan biridir », deb yozgan edi. Fukididning asari o'sha davr tarixiy voqea-hodisalarini ishonchli va haqqoniy tasvirlaganligi bilan ajralib turadi. Gerodotning «Tarix» iga nisbatan Fukididning asari tarix fani bo'yicha oldinga tashlangan katta qadamdir. Fukididning kitobida hayot voqealariga Olimp xudolari aralashmaydi. Uning asarida tarixiy tahlilning asosiy talablari-voqealarni qiyosiy o'rganish, aytib berilgan hikoyalarni o'zaro solishtirish, so'ngra asarda bayon etish kabi fazilatlarni ko'rish mumkin. U tarixiy voqea-hodisalarning sabab va oqibatlarini ochib berishga harakat qilgan ilk tarixchilardan biridir.

Fukididning asarlari yunon tarixshunoslik maktabining hamda antik, ya'ni qadimgi davr tarixshunosligining cho'qqisi hisoblanadi. Keyingi davr yunon va rim tarixchilari ularning izidan bordilar. Lekin ular bu asarlarning ilmiy saviyasidan yuksak bo'lgan asarlarni yarata olmadilar deyish mumkin.

Eramizdan avvalgi I asrda yashagan Diodor Misrga Gerodotdan taxminan 400 yil keyin borgan. Shuning uchun ham Diodor qadimgi Misr madaniyati haqida Gerodot to'plagandek qimmatli ma'lumotlar to'play olmagan. Ikkinchi tomondan, Diodor o'zining umumiy tarix to'g'risidagi katta asarini yozganida har xil yunon tarixchilarining, chunonchi, Gekatey Abderskiy va Agatarxidning ko'p asarlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan, lekin afsuski bu asarlarga yetarli darajada tanqidiy ko'z bilan qaramagan. Ammo shunday bo'lsa ham, hozirgi zamon tarixchisi Diodorning ocherklaridan ko'pgina qimmatli ma'lumotlar topiladi. Diodor, o'z navbatida, bu ma'lumotlarni o'zidan oldin o'tgan, lekin asarlari bizning kunlarimizgacha juda kam saqlanib qolgan tarixchilarning kitoblaridan olgan. Masalan, Diodor Misrning tabiiy sharoitini mufassal bayon etgani va Nexa

degan fir'avn Nil daryosining sharqiy tarmog'idan kanal chiqarib, uni Qizil dengiz bilan tutashtirmoqchi bo'lganligini hikoya qilgan. Diodor qadimgi Misr qonunlari va ma'muriy idora tartibining xususiyatlarini bayon qilar ekan, qadimgi Misrning despotik davlat tuzumini ideallashtiradi. Chunonchi, Diodor sudga topshiriladigan har bir iltimosnoma yozma ravishda berilishi lozim bo'lganligini hamda forslar davrigacha o'tgan beshta podsho yangi qonunlar kiritganligini gapirgan. U qadimgi Misr qonunlarini juda ham maqtagan. Diodor qadimgi Misr madaniyatiga umuman yuksak baho berib, qadimgi Misrning antik dunyoga ko'rsatgan ta'sirini gapirgan. Diodorning o'z asarida forslar hukmronligi davridagi Misr tarixini va uning keyingi davrlariga oid voqealarni bayon qilgan qismi ayniqsa muhimdir. Nubiyadagi oltin konlaridan misrliklar qanday foydalanganini Diodor juda batafsil va ko'p jihatdan to'g'ri bayon qilgan. Uning aytishicha, ana shu konlarda mahkum bo'lgan jinoyatchilar «kishan solingan holda, kechayu kunduz tinmay ishlaydilar, ular hatto qochishga umid qilish imkoniyatidan ham mahrumdirlar, chunki ular chet ellik askarlar nazorati ostidadir».

Strabonning katta geografik va qisman tarixiy geografik asaridan qadimgi Misr haqida ko'pgina ma'lumotlar topish mumkin. Bu ma'lumotlar asosan Misrning hamda unga qo'shni bo'lgan mamlakatlarning tabiati va aholisiga taalluqlidir. Strabon o'zidan oldin o'tgan tarixchilarning asarlaridan keng ravishda foydalanib, Nil daryosini, uning toshqinlarini, tabiiy va sun'iy sug'orish sistemasini, Misr o'simliklari va hayvonot dunyosini mufassal bayon qilgan. Shuningdek, Strabon qadimgi misrliklarning xo'jalik hayotini bayon etgan. Strabon, ayniqsa kanallar va shlyuzlar sistemasini qayd qilib o'tgan. Uning aytishicha, Misrning eng boy dehqonchilik rayonlaridan biri bo'lgan Fayum vohasining suv ta'minoti ana shu kanallar va shlyuzlar yordami bilan tartibga solib turilgan. Bundan tashqari Strabon zaytunchilikni, o'simlik moyi tayyorlash yo'llarini va vinochilikni bayon qilgan va jumladan, xo'jalik jihatidan juda boy bo'lgan Arsinoy okrugini ko'rsatib o'tgan. Strabon Misrga qo'shni bo'lib yashagan qabilalar, jumladan Efiopiya qabilalari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar bergan va bu qabilalarning madaniy saviyasi past ekanligini aytgan. Gerodot va Diodor kabi

Strabon ham qadimgi Misr madaniyatining Grestnyaga qilgan ta'sirini ko'rsatib o'tishni zarur topgan. Strabonning aytishicha, Evdoks va Platon kabi mashhur yunon olim faylasuflari uzoq vaqtlar Misrda yashaganlar va misrlik kohinlardan ko'p narsa o'rganganlar.

Misr dinini o'rganishda Plutarx Xeroneyskiyning «Izida va Oziris to'g'risida» degan kitobi katta ahamiyatga ega. Misrda va butun antik dunyoda keng tarqalgan, tabiat xudolari Izida va Oziris mifi va e'tiqodini to'la tasvirlagan bu kitob bugungi kungacha yetib kelgan yagona manbadir. Olim mamlakat dinini keyingiroq zamonlardagi, chet elliklar ta'siri bilan juda ham o'zgarib ketgan holda tasvir etib, yunon-musulmon diniy falsafasi bilan ozuqa olgan dunyoqarashi nuqtai nazaridan ko'rsatsa ham, lekin uning tasvirlari tarixiy jihatdan qimmatlidir. Chunki Plutarx o'z asarini juda ko'p manbalar asosida yozgan, bu asarlarning bir qismi zamonimizgacha saqlanib qolmagan. Plutarx keltirgan ma'lumotlar ko'p jihatdan Misr manbalari bilan tasdiqlanadi. Masalan, Plutarxning Ozirisni to'ng'ich namlik xudosi va Nilning mujassami deb atashi Misr manbalariga tamomila to'g'ri keladi. Plutarxning aytishicha, «donishmand kohinlar Nilni Oziris deb, dengizni esa Tifon deb atash bilangina chegaralanmaydilar, balki ular butun to'ng'ich namgarlikning tabiiy kuchi ham Oziris deydilar; bu tabiiy kuchni ular urug'likning kelib chiqish sababchisi va mohiyati deb hisoblaydilar».

Misr haqida yozgan antik nualliflar o'rtasida tarixchi Manefon (yer.avv. IV-III asrlar) alohida o'rin tutadi. Ptolemey I Soter va Ptolemey II Filadelf podsholik qilgan zamonda, Misr greklarning kuchli madaniy ta'siri ostida bo'lgan vaqtlarda yashagan Manefon Misr kohini (bosh ruhoniysi) bo'lgan. Manefon yuqori kohinlik unvoniga ega bo'lganligi tufayli, Misr ibodatxona arxivlariga va kutubxonalariga bimalol kira olgan va qadimgi Misr manbalarini to'la ravishda o'rgana olgan. O'z zamonasining eng yuksak yunon ilm fanidan bahramand bo'lgan Manefon yunon ilm fanini orttirgan bilimlar va tanqidiy metodlar bilan to'la qurollangani holda Misr tarixini tuzishga kirishish imkoniyatiga ega bo'lgan. Afsuski, Manefonning asari to'liq holda saqlanib qolmagan. Faqat keyinroq yozuvchilar, jumladan, Iosif Flaviy (eramizning I asri) va Evseviy (eramizning IV asri) asarlarida Manefonning

asarlaridan olingan qisqacha ko'chirmalar bizning davrimizgacha saqlanib qolgan. So'ngra, tarixchilar tomonidan Manefon asari asosida tuzilgan va 30 dinastiyaga mansub bo'lgan hamma fir'avnlarning nomlari, tarixiy xarakterdagi qisqa-qisqa ma'lumotlar va xronologik sanalar yozilgan qisqacha konspekt saqlangan. Lekin Manefon tarixiy asarining shu ozgina parchalari ham Misrning siyosiy tarixini va xronologiyasini tiklashda katta ilmiy ahamiyatga ega. Manefondan keltirilgan ba'zi ko'chirmalar, jumladan giksoslarning istilosini tasvirlagan parcha tarixiy jihatdan katta ahamiyatga ega, chunki o'sha davrga oid tarixiy manbalar juda kam bo'lib, bu ma'lumotlar qo'shimcha ma'lumot beradi. Antik davr va dastlabki xristianlik davri yozuvchilari Manefonning asariga katta hurmat bilan qaraganlar. Ko'p yozuvchilar o'z asarlarida Manefonga murojaat qilganlar. Sinkell Manefonning o'z asarida Misr yozuvlaridan manba sifatida foydalanganligini aytadi. Evseviy «misrlik Manefon faqat butun Misr tarixini emas, balki uning butun teologiya (diniy aqidalar) sistemasini ham grekcha formaga solgan» deydi. Biroq hozirgi zamon tarixchisi Manefon asaridan olingan ko'chirmalarga tanqidiy ko'z bilan qarashi kerak va birinchi navbatda, bu ko'chirmalarning keyin qaytadan ishlanganligini, shuningdek, Manefonning o'ziga xos qarashlarini nazarda tutishi lozim.

Qadimgi Misr to'g'risidagi ma'lumotlar Rim yozuvchilari va tarixchilarining asarlarida kam saqlanib qolgan. Eramizning I va II asrlarida yashagan Tatsit qadimgi Misr xalqining madaniyati to'g'risida ozgina xotiralar keltirgan. Ammo u qadimgi piramidalar mamlakati to'g'risida gapirar ekan, qadimgi Fivaning o'zi yashagan zamongacha saqlanib qolgan g'oyat katta xarobalarini, yarim vayron bo'lgan qadimgi saroy va ibodatxonalarning devorlarida haligacha saqlanib qolgan yozuvlarni tasvirlagan. Tatsitning so'ziga qaraganda, Misrga borgan rimliklar bu devorlardagi o'ziga xos yozuvlarning mazmuni bilan tanishishlari mumkin bo'lgan, chunki bu yerdagi keksa kohinlar qadimgi yozuvlarni tarjima qila bilganlar. So'ngra Tatsit Misr podshosi Ramzes olib borgan urushlarni tasvir etgan va Misr podsholarining istilo qilgan mamlakatlardan olgan xirojlari to'g'risidagi

ma'lumotlarni keltirgan. Tatsit keltirgan bu ma'lumotlar juda to'g'ri bo'lib, bu xirojlarning ro'yxati Fiva ibodatxonalarida devorlarida saqlangandir.

Ammian Marstellin ham (eramizning IV asri) qadimgi Misr va uning madaniyati haqida qiziq ma'lumotlar keltirgan. U ham qadimgi Misr poytaxti Fivani, jumladan hovuzlarni, juda katta haykallar va obelisklar hamda qadimgi misrliklarning o'ziga xos suratli yozuvlarini tasvirlagan. Ammian Marstellin qadimgi Misr madaniyati yuksak darajada bo'lganligini alohida qayd etadi, Aleksandriya Misr-Gretsiya madaniyati markazi bo'lib qolgan davrda esa grek olimlari, yozuvchi va rassomlari Misr madaniyati meroslaridan har tomonlama foydalanganlar. Jahon tarixshunosligida Qadimgi Gretsiya tarixi doimo katta qiziqish bilan o'rganib kelingan. O'rta asrlarda ham Qadimgi Gresiya tarixiga oid ko'plab asarlar yozilgan bo'lib, unda grek polislarining siyosiy tuzilmasi va madaniy taraqqiyoti madh etilgan hamda o'rta asrlarda siyosiy tuzilmalarga qarama-qarshi qo'yilgan.

### **Nazorat savollari:**

1. Tarix faniga ehtiyoj qachondan boshlab paydo bo'lgan?
2. Insoniyat o'z taraqqiyoti davomida erishgan eng muhim yutuqlardan biri nima deb o'ylaysiz?
3. Eng qadimgi yozuvlar qachon paydo bo'lgan?
4. Markaziy Osiyo xalqlarida yozuvning paydo bo'lish davrini qaysi davrlarda deb hisoblaydilar?
5. Miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalarida Eron, Markaziy Osiyoda qaysi yozuv keng tarqalgan?
6. Qaysi muqaddas kitoblarda yer yuzida hayotning paydo bo'lishi, insonning yaratilish tarixi va ko'plab muhim tarixiy voqealar haqida ma'lumotlar mavjud?
7. Gesiodning «Mehnat va kunlar» dostonida qanday fikr va mulohazalar uchraydi?

8. Antik tarixshunosligining xususiyatlari nimalardan iborat?
9. Antik tarixshunosligining erishgan muhim yutuq‘i nimada deb o‘ylaysiz?
10. Polibiy “Umumiy tarix” asarini qachon yozgan?
11. Tit Liviy asari nechta kitobdan iborat bo‘lgan?

**Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:**

1. “Markaziy Osiyo xalqlarining boy tarixi” mavzusida referat tayyorlang.
2. Milliy o‘tmish qadriyatlarimizni tiklash haqida o‘z fikringizni bildiring.
3. Antik tarixshunosligining o‘ziga xos jihati haqida so‘zlab bering.
4. Korneliy Tatsit qarashlari haqida so‘zlab bering.
5. “Gerodot – tarix otasi” mavzusida ko‘rgazmali slayd tayyorlang (MS Power Point).

### 3-MAB3Y: O'RTA ASRLAR TARIX FALSAFASI

#### REJA:

1. O'rta asr tarixshunosligi. Tarixning xristian ilohiyoti.
2. Avreliy Avgustinning "Xudo shahri to'g'risida".
3. O'rta asrlarda abadiylik va vaqt haqidagi g'oyalar. Shaxs va jamiyat.

*Tayanch tushunchalar:* falsafa va fan, o'rta asrlar mafkurasi, diniy dunyoqarash, madaniyat, adabiyot, tarixiy jarayon, muqaddas yozuvlar, o'rta asr ilohiyotshunosligi, antik madaniyat va tarixshunoslik an'analari, jamiyat va davlat, adolatli va adolatsiz davlatlar, Xristianlik ta'limoti, yomonlik, yaxshilik ilohiy institutlar, cherkov, dunyoviy hokimiyat, ma'naviyat,.

#### 1. O'rta asrlar tarixi manbalari. Tarixning xristian ilohiyoti.

Ushbu davr ta'limoti, birinchi navbatda diniy dunyoqarashning ustunligi hamma sohalarni ham egallagan edi. Fan, xususan tarixiy fan xudoning xizmatkori edi. Uning asosiy vazifasi tarixiy jarayonni tadqiq etish emas, balki muqaddas yozuvlarni, cherkov otasining asarlarini tasdiqlash edi. O'rta asrlar tarixshunosligi tarixiy falsafiy konsepsiyasi xristian dini doktrinasiga asoslangan edi. O'rta asr tarixshunosligidagi nazariy tamoyillar asosida qarashlar antik tarixshunoslik bilan oraliqda katta bo'shliq hosil bo'lishiga olib keldi. O'rta asrlar nazariyotidagi tarixiy jarayonlarni providensializm bilan taqqoslab ko'rildi. Bu nuqtai nazarga ko'ra tarix xudo tomonidan tuzilgan reja asosida rivojlanadi. Odamlar xudoning irodasini bajaruvchi so'qir va qobil ijrochi sanaladi. Ularning faoliyati majbur etilgan tartibni qo'llab-quvvatlashiga olib keldi. Insoniyatning asosiy maqsadi faoliyatda namoyon bo'lmay, balki huzur-halovat uchun bu dunyodagi narsalardan voz kechish bilan bog'liq deb talqin etilgan.

Bu dunyo g'am-g'ussa va gunohlardan iborat mashaqqatli yo'l, undan aktiv faoliyat orqali emas, balki passiv fikrlash va asketizm – tarkidunyochilik orqali qutilish mumkin. O'rta asrlar teologiyasi tarix joyida turmaydi, balki yer yuzida

podsholiklar mavjud bo'lib, ular vujudga keladi va yemiriladi. Ammo ularning taraqqiyoti, mohiyatiga e'tibor berishmagan. Taraqqiyot xudoning irodasiga bo'ysunadi. Dunyo hech qachon rivojlanmagan, xudo uni yaratgan paytdagidek qolavergan. Hamma voqealar va hodisalar xudoning hukmi ostida sodir bo'ladi. Tarixda hech qachon qonunlar mavjud emas, xudo xohlagan paytida mo'jiza yordamida undagi tartiblarni o'zgartirishi mumkin. O'rta asrlar tarixchilari insoniyat tarixi xudo dunyo va odamni yaratgan paytda boshlanadi deb talqin etishgan. Bu jarayonlarni asta-sekinlik bilan avval tanlangan kishilarni gunohlardan forig' etishdan xristianlik dinigacha rivojlanganligini ta'kidlab o'tadilar. Bu davrdagi yirik tarixiy voqealar, asosan dinni o'rnatish va mustahkamlashga qaratilgan urushlar, harakatlar yoritib berilgan. Tarixiy taraqqiyot bir-biri bilan almashingan to'rtta yirik monarxiyaga bo'linadi. Misr, Ossuriya – Bobil, Midiya – Eron va Grek – Rim monarxiyalaridir. O'rta asrlar tarixshunosligida markazlashgan monarxiyalar misolida jahon tarixini yoritishga harakat qilingan bo'lsa, antik tarixshunoslikda esa alohida polislarining tarixi yoritilgan edi. Jahon tarixini yoritishda asta-sekin xristian olimlari podshoni xudoga yaqinlashtirganlar va natijada hukmronlikka tayyorlanish tarixi yoritilgan.

O'rta asrlardagi tarixiy falsafiy qarashlarning vujudga kelishi «Xristian Gerodoti» Yevseviya Kesariy (260-340) va gippon yepiskopi Avreliy Avgustin (354-430) asarlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Tarix xudoni sharaflavchi xizmatini o'tab, uning asosiy vazifasi haqiqiy faoliyatni tadqiq etmay, balki bibliya-xristianlik g'oyalarini tasdiqlashdan iborat bo'lgan.

Bu davr xronologiyasida qadimgi davr tarixining yutuqlari va muvaffaqiyatlari ba'zi hollarda unutildi. O'sha davr jarayonlarini tasvirlashda o'rta asr tarixchilari eng mifologik faktlarni tanlab oldilar. Ular o'zlarining ta'limotlarida tarixiy faktlarni soxtalashtirishga harakat qildilar. Imkon qadar qadimgi mualliflarning qarashlaridan yiroqlashdilar. Masalan, Iso Masihning hayotiga va ilk xristianlikka oid ma'lumotlarni yoritishda ular shunday yo'l tutdilar. Tarixiy tadqiqot texnikasiga Bibliyaning noto'g'ri chaqiriqlari kuchli ta'sir ko'rsatdi. Aniq faktlarni qayd etishga qiziqish susaydi. Faktik materiallarni

tekshirishga g'amxo'rlik qilinmadi. O'rta asr tarixchilari aniq tarixiy voqealarni yozish uchun antik mualliflarning asarlarini o'rgandilar, hatto ularga taqlid qildilar. Chaqiriqlarning tashqi tomonlarini ritorik uslub va harakatlarni badiiyashtirish jihatlarini o'zlashtirib oldilar. Mashhur antik mualliflarning asarlari, Rim tarixchilari asarlari uchun ikkinchi darajaga tushib qoldi. Avgustin va Svetoniy biografiyalari, Yevtropiya va Oraziyaning asarlari mashhur Liviy uchun ham ikkinchi o'ringa tushib qoldi.

G'arbiy Yevropaga nisbatan Vizantiyada antik madaniyat va tarixshunoslik an'analari kuchli edi. Vizantiya tarixshunosligida antik davr xususiyatlari saqlangan bo'lib, bu esa tarixiy fikrlashni yuqori darajaga ko'tarilishiga imkoniyat yaratdi. Vizantiyalik mualliflar antik, ayniqsa yunon mualliflarining asarlariga qiziqdilar, antik mualliflarning to'plamlarini tuzdilar. Masalan, XI asrda mashhur bibliotek patriarx Fotiya 280 ta antik mualliflarning asarlaridan to'plam tuzdi. Imperator Konstantin davrida ham antik mualliflar: Polibiya, Diodor, Kassiy, Diona asarlaridan to'plam tuzildi. Georgiy Sinkellanning tarixiy yilnomasi, monarx Zonarning Jahon tarixi ocherklari (XII-asr) va boshqa ko'plab olimlarning g'oyalari qadimgi davr qadriyatlarini G'arbiy Yevropaga nisbatan kengroq foydalanganligi kuzatilgan. Umuman olganda Qadimgi davr tarixi tarixiy fikrlash prinsiplaridan butunlay uzoqlashish, butunlay boshqa tarixiy-falsafiy mazmundagi fikrlarning hukmronlik qilishi tarixiy tadqiqot usullarining boshqacharoq tarzlarining paydo bo'lishi, o'rganiladigan muammolar doirasining o'zgarishi bu fikrning dalilidir. Aytish mumkinki, tarixiy tadqiqot darajasining past darajaga tushib qolishi bunga misol bo'la oladi. O'z navbatida, o'rta asr tarixshunosligiga tarixiy fikrlash taraqqiyotidagi «yemirilish» deb baho berilmasligi kerak. O'rta asr monastirlarida antik mualliflarning ko'p sonli qo'lyozmalari saqlanib qoldi. Rim huquqini faol ravishda o'rganish davom etdi hamda lotin tili o'rta asrlardagi savodxon, ma'lumotli kishilarning tiliga aylandi. Xullas, o'rta asr mualliflarining tarixiy-falsafiy konsepsiyasi diniy qarashlarga qaram edi.

## 2. Avreliy Avgustin. "Xudolar shahri ta'limoti to'g'risida".

O'rta asrlar falsafasining yirik namoyandalaridan biri Avreliy Avgustinning diniy-falsafiy ta'limotlari muhim ahamiyatga ega. U xristianlik dinini nazariy jihatdan asoslab bergan edi. Olimning ta'kidlashicha, jamiyat davlatdan oldin paydo bo'lgan va odamlarning birgalikda yashashga bo'lgan tabiiy ehtiyojiga javob beradi, davlat esa zo'ravonlikka asoslangan jamiyat mafkurasini tarqatib yuborishdir. Qaysi bir davlat bo'lmasin, agar u ilohiy adolat tamoyillariga asoslanmagan bo'lsa, "o'sib chiqqan qaroqchilar to'dasi" dan boshqa narsa emas.

Avgustin ezgu va yovuz jamiyatlarni haqida gapirar ekan, adolatsiz davlat qaroqchilar to'dasiga o'xshaydi degan xulosaga keldi: "Demak, adolat yo'q bo'lganda, yirik qaroqchi to'dalar bo'lmasa, davlatlar nima bo'ladi; chunki eng qaroqchi to'dalar qaysilar?, agar miniatyurada aytilmagan bo'lsa "Va ular ham boshliq kuchi bilan boshqariladigan, o'zaro kelishuvga bog'langan va o'ljani ixtiyoriy ravishda o'rnatilgan qonunga ko'ra taqsimlaydigan odamlar jamiyatlaridir. Bunday yo'qolgan odamlar to'dasi shunchalik ko'payganida. Ular mintaqalarni egallab olishsa, turar-joylar qurish, shaharlarni egallash, xalqlarni o'z hokimiyatiga bo'ysundirish, shunda u davlat nomini yanada ochiqroq qabul qiladi ... ". Avgustin masal aytadi, unga ko'ra qaroqchi Aleksandr Makedonskiy huzuriga sudga keltirildi, imperator unga savol berdi: dengizda talon-taroj qilishga qanday haqqingiz bor? Qaroqchi jasorat bilan javob berdi: xuddi siz kabi, yagona farq shundaki, men buni kichik kemada qilaman va ular meni qaroqchi deyishadi, sizda esa katta flot bor va sizni imperator deb atashadi. Avgustin "xristian davlati"ni adolatli davlat deb hisoblaydi: "Davlat eng yaxshi tashkil etilgan va saqlanib qolgan, u e'tiqod va doimiy uyg'unlik bilan asos solingan va bog'langan bo'lsa, unda hamma odamlar umumiy manfaatni yaxshi ko'radilar. Eng oliy yaxshilik Xudodir".

Insoniyatning butun tarixi ikki jamoa, "shaharlar" o'rtasidagi kurashdir:

1. "Yer yuzidagi shahar" - bu yerda odamlar tanaga ko'ra yashaydilar, ularning o'zlariga bo'lgan muhabbatlari Xudoga nisbatan nafratga olib kelgan. Bu

shaharga Iblis, jinlar, butparastlar va bid'atchilar kiradi. Barcha ijtimoiy, huquqiy va davlat organlari inson tomonidan yaratilgan butun "Yer shahri" insonning gunohkorligi, buzuq iroda erkinligi natijasidir. Insonning o'zi gunohdan qutulib, komil jamiyat yaratishga ojizdir, unda taqdirning muhri bor. Avgustin Rim imperiyasini "Yerdagi shahar"ning eng oliy timsoli deb hisoblagan. Gunohkor "yerdagi shahar" qulab tushmoqda. Rimning qulashi - bu signal, ammo Rimning o'limi hikoyaning oxiri emas. Avgustin umidlarini "Xudo shahri" deb ataydi.

2. "Xudo shahri" (samoviy) Xudoni o'zini nafratlangudek sevadiganlarning barchasidan iborat bo'lib, u barcha imonli nasroniylarni o'z ichiga oladi. "Xudo shahri" ni tashkil etish shakli cherkovdir. Bu yerdagi emas, balki ilohiy institutlarga ergashadigan voizlar jamoasining shartli, ramziy belgisidir. Avgustin cherkov bilan to'g'ridan-to'g'ri identifikatsiya qilishdan qochadi, lekin cherkov, uning so'zlariga ko'ra, "samoviy shaharning prefiguratsiyasi".

Rimning vahshiylar zarbalari ostida qulashini Avgustin "yerdagi shahar" ning qulashi va "Xudo shahri" ning g'alabasi sifatida qabul qildi. Avgustin kelajakda davlat cherkovga, dunyoviy hokimiyat esa ma'naviyatga bo'ysunishi kerak deb hisoblagan. Avgustin tarixiy jarayonning birinchi aniq rivojlangan falsafiy manzarasini yaratuvchisi sifatida mashhur, u tarix falsafasining asoschisi hisoblanadi. Avgustin birinchi bo'lib tarixning chiziqli tushunchasini taqdim etib, uni antik davrda hukm surgan siklizmga qarshi qo'ydi. Tarixning maqsadi insoniyatni qutqarishdir. Tarixning borishi, Avgustinning fikricha, Xudoning irodasi bilan oldindan belgilanadi va uning rejalarini ochib beradi. Shunday qilib, jamiyatning butun rivojlanishini Avgustin izchil providentializm nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi.

Bir qarashda, ilohiy taqdir, Avgustin fikricha, inson irodasining erkinligini, ya'ni yerdagi hayotda yaxshi yoki yomon fikr va amallarni ongli ravishda tanlashni istisno qiladi. Va haqiqatan ham, barcha predmetlar ilk yaratilishidan boshlab belgilab qo'yilgan bo'lsa, nima uchun insoniyat o'z taqdiri, kelajagini barpo etish yo'lida nima qilish va nima qilmaslik haqida o'ylashi, o'z hayot yo'lini tanlashi va qilgan ishlari uchun javobgar bo'lishi kerak? Biroq, Avgustinning taqdir haqidagi

ta'limotining muhim elementi biz bu taqdirni bilmaymiz, kelajak taqdirimizni bilmaymiz va bu jaholat iroda erkinligi uchun joy ochadi. Va haqiqatan ham, hamma narsa oldindan belgilab qo'yilgan bo'lsa-da, lekin men bu haqda mutlaqo hech narsa bilmayman, bu taqdir mening kundalik hayotimga hech qanday ta'sir ko'rsata olmaydi. Axir, agar men kelajak haqida bilmasam, ixtiyoriy ravishda uni o'zim qurishim, o'zimning xavf-xatarim va tavakkalchiligim bilan qaror qabul qilishim, nimagadir intilishim, nimadandir yuz o'girishim, hayotim haqida o'ylashim va javobgar bo'lishim kerak. Va to'satdan, insonning muayyan fikrlari va harakatlari natijasida dastlabki taqdirning o'zgarishi mumkin.

Bu ilohiy rejalar va ularni bilmaslik, ilohiy irodaning oldindan aytib bo'lmasligi va inson irodasini erkin qiladi. Olimlarning fikrlaridan xulosa qilganda, inson o'z taqrirdi va kelajagi uchun doimo mas'uldir. Bir qarashda qattiq, har bir inson hayotining vazifasi hali ham unchalik shartsiz emas: inson aqlli mavjudot bo'lib, o'z harakatlaridan xabardor, yaxshi va yomonni tanlashi, vijdoniga ko'ra yoki uyatsiz yashashi mumkin.

Umuman olganda, deydi Avgustin, jazo jazosiz qolib bo'lmaydigan gunoh yoki yovuzlik borligi uchungina mavjud bo'ladi. Ammo u qaerdan paydo bo'ldi, agar Xudo mutlaq yaxshi bo'lsa, demak u hech qanday yomon narsa yarata olmaydi. Boshida hech qanday yomonlik yo'q edi. Xudo faqat yaxshilikni yaratdi, shuning uchun u abadiy mavjud bo'lgan o'zini-o'zi ta'minlaydigan va avtonom dunyo elementidir. Yomonlik qaerdan? Xristianlik ta'limotining asosiy g'oyasi - yomonlik yaxshilik bilan abadiy emas, bu yaxshilikning kamayishi, uning buzilishi, undan uzoqlashishdan boshqa narsa emasligini ta'kidlashdir. Axir, yovuzlikning ajdodi - shayton - Xudo bilan qolish yoki unga qarshi chiqish va undan uzoqlashish - tanlash erkinligiga ega bo'lgan qulagan farishta. U Xudoga qarshi chiqdi va farishtalardan bir nechtasini o'zi bilan olib ketdi. U tarixda "farishtalar doktori" degan nom oldi.

Xristianlik dinida ezgulik yovuzlikdan uzoqlashish masalasi haqida gap ketadi. Farishtalardan biri bir marta Xudodan uzoqlashib, yovuzlikka poydevor qo'ygani kabi, birinchi odamlar ham Xudodan uzoqlashgan. Buzilgan taqdirda,

yovuzlik (allaqachon inson darajasida) paydo bo‘ladi, ammo itoatkorlik bo‘lsa, u mavjud bo‘lmaydi. Ya’ni bo‘lishi mumkin edi, lekin bo‘lishi mumkin emas, u faqat imkonda, potensial holatda edi va faqat ma’lum sharoitlarda haqiqatga aylanadi. Shunday qilib, Xudo yovuzlikni yaratmagan deydi Avgustin, u farishtalardan birining, keyinchalik esa inson irodasi erkinligidan kelib chiqqan. Birinchi shaxs buzg‘unchi g‘oyalardan qochadi. Natijada odam Xudodan uzoqlashdi va Yerga quvildi. Avgustinning fikricha, kuz insoniyat tarixining boshlanishi. Uning o‘rtasi - Najotkorning birinchi kelishi va xochda shahid bo‘lish orqali inson gunohlarining qutqarilishi. Tarixning oxiri ikkinchi marta kelishi va yer yuzida Xudo Shohligining o‘rnatilishi bo‘ladi. Shunday qilib, Avgustin birinchi marta tarixni chiziqli tushunishga ega (uning boshlanishi, o‘rtasi va oxiri bor), antik davrda siklik tasvir mavjud bo‘lgan (tarix tabiatda kuzatiladigan bir xil monoton sikldir) deb ta’kidlagan.

Biroq olimning qarashlarida tarixiy jarayonning bir maromda ketishi siklik xususiyatlarni ham qamrab oladi. Uning ta’limoti bo‘yicha triada, ya’ni: qolish (odam Xudo bilan), yiqilish (yer yuzidagi tarix), qaytish (odam yana Xudo bilan). Birinchi va uchinching o‘zaro bog‘liqligi va farqli jihatlari nimaladan iborat? Birinchi etapda odam o‘zining johilligi tufayli Xudo bilan birga bo‘ladi: u yomonlik nima ekanligini bilmaydi va shu sababli to‘la sofdir. U bilimdon bo‘lgach, ezgulikdan to‘xtadi, yomonlikka qo‘shildi, u yovuz (qabihlik) ka yuz tutdi, shuning uchun uzoq va azobli yer yuzi tarixi orqali o‘zini poklash va jinoyatini yuvish uchun Ollohdan yiroqlashadi. Natijada u yovuzlikni yengib, yana yaxshilikka aylanadi. Ammo endi u yovuzlik haqida biladi, lekin baribir juda yaxshi va mutlaqo sof holatda u yaratganga qaytadi. Yakunda esa odam ongsiz va ixtiyoriy ravishda u bilan birga bo‘ladi va shuning uchun to‘liq loyiq emas, so‘nggi jarayonda - to‘liq ongli ravishda o‘z ixtiyori bilan va shuning uchun uning bu ishdagi xizmatlari aniq. Bir so‘z bilan bu holatni “tezis – antiteza – sintez”. deb atash mumkin. Uning oxirgi elementi birinchi ikkitasining birikmasidir. Birinchidan, odam bilmaydi va yaxshidir, keyin biladi, lekin yaxshi emas va, nihoyat, u ham biladi, ham yaxshidir.

Biroq, taqdirni oldindan belgilash g'oyasi Avgustinga qadimgi mualliflarning tabiiy evolyusiya jarayonida davlatning paydo bo'lishi haqidagi ba'zi g'oyalari baham ko'rishga to'sqinlik qilmaydi, ammo bu jarayonlarning barchasi ilohiy iroda tufaylidir. Avgustinning ta'kidlashicha, tabiat odamlarni avvalo oilalarga, so'ngra davlatlarga ichki tinchlik va tashqi xavfsizlikni ta'minlash uchun birlashishga undaydi. Birlashishga intilish "ijtimoiy shartnoma"ga olib keladi. Ba'zilarning fikricha, bu atama Avgustinning novellasi bo'lgan. Ijtimoiy shartnoma bilan u o'zaro majburiyatlar g'oyasini bog'laydi. Oilada hokimiyat eng yaxshisi - otaga tegishli. Siyosiy hokimiyat birinchi podshohlarning fazilatlarini hurmat qilishdan kelib chiqadi. Ammo Xudoning irodasi bu mantiqiy tushuntirishga xalaqit beradi: shohlar o'zlarining kuchlarini o'rnatmaydilar, bu ularga qon bilan tegishli emas, ya'ni, ixtiyoriy emas, meros orqali, hokimiyat Xudoning irodasi bilan ularga tegishli bo'lib, uni har bir xalqqa topshiradi. Ba'zi (istisno) hollarda hukmdorni Xudoning O'zi tayinlaydi - bu Isroil xalqi bilan sodir bo'lgan, boshqalarida - uning irodasi hodisalarning tabiiy borishi, ijobiy huquq normalarining amal qilishi orqali namoyon bo'ladi. Bu yerda ilohiy taqdir bevosita emas, balki bilvosita ta'sir qiladi. Xudo insonni shunday yaratganki, unga jamiyatdagi uyushma va siyosiy hokimiyat zarur. Hokimiyatning shakli va uning tashuvchilariga kelsak, ular odamlar tomonidan o'rnatiladi.

Avgustinning insoniyat tarixini tushunishi va insonning gunohkor tabiatini anglashi uning siyosiy ta'limotida bevosita aks etgan. Cherkovning davlatga, ma'naviy kuchning dunyoviy hokimiyatga munosabati Avgustinni band qilgan asosiy muammo, bu uning hissasi. Ikki saltanatning - "Xudo shahri" va "Yer shahri" yoki ikkita qudratning ajralish nazariyasi Avgustinda o'zining eng yaxshi ifodasini topdi. Uning fikricha, dunyoviy va diniy hokimiyat har xil bo'lib, ularning har biri suverenitet va mustaqillikka ega. Bir kuchning boshqasining doirasiga har qanday kirib kelishi xavflidir. Ammo ular orasida aloqa, o'zaro ta'sir nuqtalari ham mavjud, ular bir-birlarini qo'llab-quvvatlashlari kerak. Davlat cherkovni dushmanlaridan, varvarlardan, bid'atchilardan himoya qilishga

chaqirilgan. Cherkov, o'z navbatida, suruvni sadoqat va fuqarolik ruhida tarbiyalaydi.

Avgustinning fikriga ko'ra, cherkov kuchi eng yuqori, chunki ruhiy soha dunyoviylikdan yuqoridir. Ammo suverenlarning cherkovga to'g'ridan-to'g'ri bo'ysunishi, papalarning qirollar va imperatorlarni ag'darish huquqi haqida yomon fikr va mulohazalar berilmaydi, ya'ni asosan cherkov ishlarini dunyoviy hokimiyat bilan bog'lashga e'tibor qaratiladi. Tan olib aytishimiz kerakki, Avgustin bunday qilmaydi. Uning ta'limotida asosiy narsa aynan ikki hokimiyatning bo'linishidir. Hukumatda huquqiy tartibni ta'minlash, fuqarolarni tashqi tajovuzdan himoya qilish kabi vazifalar va xristian davlati cherkovga xurofotga qarshi kurashda yordam berishi kerakligi ta'kidlanadi. Qullik shunday oqlanadi. Qullik gunoh uchun jazodir: "Gunoh qullikning birinchi sababidir va bu faqat Xudoning hukmi bilan sodir bo'ladi, unda nohaqlik yo'q". Qullik Injildagi Xom, Nuhning o'g'lining gunohiga asoslangan. Biroq Avgustin shaxslarning qulligining manbai harbiy asirlik bo'lishi mumkinligini tan oldi. Shunday qilib, Avgustin quldorlikni Aristotel kabi tabiatga murojaat qilib emas, Rim huquqshunosi Ulpian kabi xalqlar qonuniga murojaat qilib emas, balki insonning gunohkor tabiatiga ishora qilib oqlashni taklif qildi. Inson gunohning quliga aylanib, boshqa birovning quliga aylanishga loyiqdir.

Avgustin ta'limotida shu narsa ayon bo'lmoqdaki, siyosiy va huquqiy g'oyalar va taraqqiyotda haqiqiy adolat faqat Xudoning shahrida mavjud deb hisoblagan: "haqiqiy adolat hech qanday joyda emas. Asoschisi va hukmdori Masih bo'lgan respublika, agar bu ikkinchisi respublika deb nomlanishdan mamnun bo'lsa, chunki bu ham xalq ishi ekanligini inkor etib bo'lmaydi".

Avgustinning mulk haqidagi qarashlari qiziq. U imonlilar hamma narsada umumiy bo'lishi kerakligi haqidagi ilk xristian g'oyalari ta'sirida edi. Avgustinning fikricha, tabiat holatida odamlar jamoaviy mulkka ega, har kim oddiy aksiyadan o'ziga kerakli narsani olishi mumkin. Shaxsiy ehtiyojlardan tashqari hamma narsa jamiyatga tegishli bo'lib, uning manfaatlari uchun foydalanilgan. Xususiy mulk insonga o'z ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi.

Zarur bo'lganidan tashqari har qanday narsa hammaga tegishli bo'lishi kerak. Rim huquqshunoslari tomonidan mukammal ishlab chiqilgan xususiy mulkka bo'lgan mutlaq huquq birinchi xristianlar tomonidan tan olinmagan. Mulk - bu inson instituti va uni odamlar kiritganidek, uni bekor qilish ham mumkin. To'g'ri, Avgustin mulkning ayrim turlarini odamlar emas, balki Xudo o'rnatgan, unga faqat xayrihoh insonlar egalik qilishi mumkin deb hisoblagan. Bu jamoat manfaati uchun ishlatilishi kerak bo'lgan jamoat mulkini anglatardi.

Avgustinning ta'limoti antik davrda allaqachon juda ta'sirli bo'lgan. Rim-katolik cherkovi o'zining teokratik g'oyalari va hokimiyatga da'volarini asoslash uchun uning qoidalaridan keng foydalangan. Jamoatga xizmatlari uchun Avgustin kanonlashtirildi va Blessed deb nomlandi.

Avgustin tarixiy jarayonning birinchi aniq rivojlangan falsafiy manzarasini yaratuvchisi sifatida mashhur, u tarix falsafasining asoschisi hisoblanadi. U birinchi bo'lib tarixning chiziqli tushunchasini taqdim etdi, uni antik davrda hukmron bo'lgan siklizmga qarshi qo'ydi. Avgustin ta'limoti xristian diniy etika, siyosat va huquq tushunchalarining rivojlanishida katta rol o'ynadi.

Avgustin ijodida ko'plab qarama-qarshiliklar va mubolag'alar mavjud. Shunday qilib, u bir tomondan, haqiqat faqat shaxslar uchun mavjud deb hisoblardi, ikkinchi tomondan, u cherkovning imtiyozi deb hisoblardi.

Avgustin Avreliy - nasroniy faylasufi, ilohiyotchi, "cherkov otalari" dan biri. Teotsentrizm - koinotning markazida - Xudo. Insoniyat tarixi ilohiy rejalarning amalga oshishidir. Insoniyatning maqsadi Xudoning shahriga erishishdir. Abadiy tinchlik o'rnatiladi, gunoh qilish mumkin bo'lmagan davlat bo'ladi, yomonlik bo'lmaydi, cheksiz bo'sh vaqt bo'lmaydi, ehtiyoj tufayli mehnat bo'lmaydi. Avgustin insonning ikki tabiatini ajratadi: qulashdan oldin, inson begunoh mavjudot edi; yiqilish va jazodan so'ng, inson "o'lik, johil va tanaga tobe" bo'ldi. Demak, inson endi gunohkor. Odamlar Xudo oldida gunoh qildilar: ular bilim daraxtidan tatib ko'rdilar va shu bilan butun olamni zaharladilar. Avgustin Avreliyning qarashlari uning "Xudo shahri haqida" risolasida eng to'liq ifodalangan. Unda Avgustinning ta'kidlashicha, insoniyat ikkita "shahar" ning

ikkita hikoyasini biladi. Birinchisi, yovuzlik va adolatsizlik hududi bo'lgan dunyoviy davlatlar tarixi, ikkinchisi, Avgustin "Xudoning yerdagi Shohligi" deb atagan xristian cherkovi tarixi.

Xudoning shahri insoniyatning ozchiligini ifodalaydi. Bular axloqiy va diniy xulq-atvori bilan Allohning najoti va rahmatiga sazovor bo'lganlardir. O'zini sevadigan, ochko'z, xudbin, Xudoni unutadigan odamlar yerdagi shaharda qoladilar. Xudoning shahri ijtimoiy-tarixiy rivojlanishda, ayniqsa Isoning kelishidan keyin doimiy ravishda o'sib bormoqda. Xudo shahriga tegishli bo'lishning asosiy sharti Xudo va jamoat oldida kamtarlik va itoatkorlikdir. Agar dunyoviy davlatlar cherkovga bo'ysunishsa, ularning taqdiri ma'qul bo'ladi, aks holda "Xudo shahri" aholisi abadiy saodatga erishadi, "yerdagi shahar" aholisi esa abadiy azobga mahkum bo'ladi. Shunday qilib, Avgustin ta'limotining asosiy tezislari: imonning aqldan ustunligi, e'tiqodning eng oliy manbai cherkovdir; tengsizlik ijtimoiy hayotning abadiy va o'zgarmas tamoyilidir.

G'arbning ilk feodal davri tarixchisi Avgustin o'tmishning chiziqli taraqqiyot konsepsiyasini o'rta qo'ygan. Buning asosida "Bibliya" orqali kirib kelgan g'oya yotar edi. Ya'ni, tarix xudo tomonidan boshqariladigan va yo'naltirib turiladigan, pirovardida avvaldan qo'yilgan maqsad sari rivojlanadigan hodisa deb tushuntiriladi. Ammo Avgustin har qanday o'tmish ortda qolishi, taraqqiyotning muqarrarligi, sivilizatsiyaning yangi bosqichi avvalgisidan ustunligi kabi ilg'or fikrlarni ham olg'a surgan. Rimning qulashi rimliklarning gunohlari ortib ketgani sababli "xudoning jazosi edi" degan fikri esa o'z davrining g'oyasidan tug'ilgan. Bu esa xristianlikka qarshi Rim imperiyasi tomonidan qatag'on va quvg'inlar qilingani voqeasi bilan bog'liq ko'rsatilgan.

### **3. O'rta asrlarda abadiylik va vaqt haqidagi g'oyalar. Jamiyat va shaxs.**

Olamning yaratilishi, insonning vujudga kelishi va kishilik jamiyatining taraqqiyot bosqichlari Sharqda o'ziga xos tarzda talqin etiladi. Bu bevosita milliy tafakkur tarzi, Sharq va G'arb o'rtasidagi tafovutga, munosabatlar va qarashlarning turlicha ekanligiga olib kelgan ruhiyat, fe'l-atvor, ma'naviy-axloqiy mezonlar

natijasi sifatida yuzaga keldi. Sharqda azaldan tarixga qiziqish, insoniyat tarixiy taraqqiyoti bosqichlarini o'rganish keng taraqqiy topgan. Bu qadimiy makonda inson va kishilik jamiyati, uning dunyoga kelishiga doir tarixiy-falsafiy, tarixiy-badiiy asarlar ko'plab yaratilgan. Jumladan, Abu Ja'far Tabariy (839-923) o'zining «Tarixi Tabariy», «Ta'rix ar-rasul val-muluk» (“Payg'ambarlar va shohlar tarixi”) nomli asarlarida eng qadimgi davrdan 915 yilgacha bo'lgan voqealar ancha keng va batafsil bayon etiladi.

Abu Bakr Narshaxiyning (899-959) «Tahqiq al-viloyat» («Mamlakat haqida aniq tadqiqotlar»), «Ta'rix Buxoro», «Axbor al-Buxoro» singari asarlari tarixiy tahlil, voqealar va hodisalarning falsafiy-mantiqiy ifodasi bilan alohida ajralib turadi.

Al-Kufiy-Abu Muhammad (vafoti 926 yil) «A'sam ibn Futuhi», Abu Ali Miskovayx-arab tarixchisi va faylasufi hisoblangan. «Arab va forslarning axloq qoidalari» hamda olti jilddan iborat «Axloqiy tarbiya» nomli kitoblarida butun dunyo tarixi, insoniyat yaxlit o'tmishining rivojlanishi, uning xususiyatlari, millatlar va xalqlarning an'analari, turmush tarzi, qadriyatlari, hayot tajribalari va tafakkur qirralari bayon etilgan.

Abul-Hasan al-Jazoiriyning (1160-1233) 12 jilddan iborat umumiy tarix haqida yozgan asari kelajak avlodga tarix haqidagi yangicha dunyoqarashni yuksaltirishda katta amaliy ko'mak bo'ldi. U tarixchi olimlar Tabariy va Bayhaqiylarning ilmiy tajribalariga tayanib, ularni rivojlantirdi. «Olamning yaralishi» dan o'z davrigacha bo'lgan tarixni falsafiy tahlil etdi va tarixiy tafakkurning falsafiy tahliliga doir jiddiy tadqiqotni amalga oshirdi. «Komil fi tavorix» (Mukammal tarix) nomli asari Jazoiriyning tarix falsafasi sohasidagi juda katta ilmiy jasoratidan dalolat beradi. Rashididdin Hamadoniy (1248-1318) o'zining betakror tarixiy-falsafiy qarashlari, noyob ilmiy-nazariy kashfiyotlari bilan mashhur bo'lgan allomadir. U muarrix, geograf, tabiatshunos, faylasuf, etnograf va antropolog sifatida o'z davrida nom chiqargan edi. Uning «Ta'rix g'azaniy», «Ta'rix muboraki g'azaniy» nomli asarlarida insonning yaralishi, olamning paydo bo'lishi va qadimgi dunyodan 1300 yillargacha bo'lgan

mo'g'ullar tarixi bayon etilgan. V.V. Bartold xulosalariga ko'ra, Rashididdin Hamadoniyning asarlari — tarixiy qomus, qaysiki bunday mukammal asar Osiyoda ham, Yevropada ham biror-bir xalqda yo'q. Uning mukammalligi, boshqa manbalarda uchramaydigan tahliliy-mushohadaliligi, tarixni talqin etishda mutlaqo o'ziga xosligi shundaki, Yevropa, Hindiston, Xitoy, Eron, mo'g'ullar istilo etgan turk mamlakatlari va xalqlari tarixi juda keng miqyosda tadqiq etiladi. Tarixiy jarayon oqimida tahlil orqali falsafiy tafakkur yorqin namoyon bo'ladi. Tarixiy jarayonlar, voqealar, hodisalar tarixiy-falsafiy, ijtimoiy-mantiqiy uslubda o'rganiladi. Xullas, jahon tarixi va umumiy tarixiy taraqqiyot qoidalari, asoslari, omillari va yo'nalishlari ancha chuqur tadqiq etiladi. Aslini olganda, olamni tadqiq etish, insonni tushunish, uning rang-barang va xilma-xil olamiga qiziqish Sharqda G'arbga nisbatan ancha ilgariroq yuzaga kelgan va bu o'z-o'zidan ilmiy qarashlar orqali fanning dunyoga kelishi, shakllanishi va taraqqiyotiga o'ziga xos zamin yaratdi.

Forobiy falsafasi: inson - jamiyat - jarayon. To'liq nomi Abu Nasr Muhammad bin Tarxon bin O'zlug' bo'lgan Forobiy jahon falsafiy tafakkuri taraqqiyotida burilish yasagan buyuk faylasuflardandir. U Uyg'onish davri mutafakkirlarining yirik namoyandasi sifatida tafakkur olamida o'ziga xos yo'l ochdi. Jumladan, inson, jamiyat, tarixiy jarayon, davlat va boshqaruv borasidagi falsafiy qarashlarga asos soldi. Albatta, Abu Nasr Forobiy yunon allomalari Aflotun va Arastu falsafasi bilan o'z zamondoshlaridan ko'ra ko'proq shug'ullangan, uning mohiyatini boshqalardan ko'ra chuqurroq o'rgangan va o'zlashtirgan edi. Natijada shunday novatorlik yo'lini topdiki, ayni ana shu qadimgi yunon falsafasining o'z davri qarashlari va ehtiyojlari nuqtai nazaridan kutilmagan holatda yangi qirralarini ochib, uni boyitdi, rivojlantirdi.

Yana shunga alohida e'tibor berish kerakki, Abu Nasr Forobiy falsafiy qarashlariga munosabatda, uni tushunish va anglashda chorizm imperiyasi siyosati va kommunistik mafkurasining nafasini kuzatish mumkin. Mutafakkirning ulkan ilmiy tadqiqoti umumiy va yuzaki, zamonasoz ma'lumotlar shaklida bayon qilinmoqda. Forobiy falsafasining barcha qirralari, ko'lami va ilmiy-nazariy

jamiyati bir yoqlama, ya'ni dunyoviy tafakkur tarzi me'yorlariga mos jihatlari yoritiladi. Ta'kidlash kerakki, olimning ilmiy-falsafiy fenomeni dunyoviy va diniy qarashlar o'zaro kesishgan joyda yaqqol namoyon bo'ladi. Ensiklopedik ilmlarning majmui bo'lgan ushbu holatni akademik M.Xayrullaev to'g'ri talqin etadi va uning qator sohalar bo'yicha ilmiy qarashlari yaxlit tizimi haqida fikr yuritadi hamda ularni sanab o'tadi: lingvistika, logika, matematika, optika, sayyoralar, musiqa, og'irlik, mexanika, tabiiy va ilohiy ilmlar (metafizika), siyosat, yurisprudensiya (fiqh), musulmon teologiyasi (kalom) va boshqalar shular jumlasidandir. Shunga ko'ra Vatandoshimizning barcha ta'limotlaridan qat'i nazar hayot va inson falsafasini tadqiq etish ko'zga tashlanadi. U fan va mifologiya, ilmiy-nazariy tahlil va ilohiylikni o'zaro bog'lash masalasini yo'lini topa bildi. Xuddi ana shu jihati bilan dunyoviy taraqqiyotga, ilk uyg'onish davri sivilizatsiyasiga juda katta hissa qo'shdi. Uning maktabi yunon faylasuflari qarashlari bilan jamiki o'xshash jihatlarga qaramay, umuman olganda ham, alohida tomonlarini olganda ham, nodir hodisadir».

Inson va jamiyat, inson va tabiat, olam va odam o'rtasidagi munosabatlar dunyoviy tafakkur asosida Abu Nasr Forobiy ilm zakovati bilan butunlay yangicha talqin etildi. Bu davrda mavjud bo'lgan ilohiy qarashlar, islom tafakkur tarzi ilk bor dunyoviy fanlar bilan uyg'un holda tahlil qilindi. Ana shu tarzda jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari, insoniyat tadrijiy rivojining asoslari va kishilik jamiyati shakllanishi, rivojlanishi va taraqqiy topishining o'ziga xos talqini Abu Nasr Forobiy maktabida vujudga keldi. Bu maktabda falsafiy va tabiiy fanlar bir-birini to'ldiradigan, shaklan turlicha, mohiyatan mushtarak holda o'ziga xos maqomga ega bo'ldi.

Darhaqiqat, Abu Nasr Forobiyning buyukligi va falsafada benazirligi, falsafiy dunyoqarashning odam taqdiri va kelajagini ongli ravishda tahlil etishdagi o'ziga xos tarzda yaratgan olimdir deyish mumkin. Masalaning ikkinchi tomoni ham borki, shubhasiz Abu Nasr Forobiy yaratgan buyuk maktab tufayli dunyo falsafiy taraqqiyoti, uning barcha yutuqlari bevosita Forobiy qarashlari asosida qurilgan. Buni Sayyid Muhammad Xotamiy quyidagicha izohlaydi: «Shariat, tariqat va

ratsionalizmning hamda nimaiki Islom sivilizatsiyasi o'z cho'qqisida borliqni sharhlab tushuntirish, kelajakni bunyod etishni o'rgatish, to'plangan «Sadrul Mutolihin» nomli manbada juda muhim g'oyalar olingan. Ushbu manba shu sohada yakuniy to'plamday bir asardir». Abu Nasr Forobiyning jamiyat va inson to'g'risidagi ratsional falsafasi bevosita tarixiy taraqqiyot, sivilizatsiya, uning o'ziga xos xususiyatlari, dunyoviy va diniy qarashlarning sintezi sifatida yaratildiki, bu tarixiy-falsafiy dunyoqarashni yuzaga kelishi uchun asosiy turtkidir. Abu Nasr Forobiy kishilik jamiyati, uning rivojlanish qonuniyatlari, shahar (mamlakat) aholisi va hokim muammolari, davlat va boshqaruv masalalari xususida gapirar ekan, real voqelik va uning istiqboli hamda tanazzuli sabablarini qidiradi. Ta'kidlash kerakki, tarixiy tajriba, tarixiy jarayonlarning shakllanishi sharoitida tarixni anglash, idrok etish va baholash tamoyillari haqida aniq mulohazalar kuzatilmagan. Shunday bo'lsa-da, Forobiy ilmiy-falsafiy merosining beqiyos qadriyati shundaki, u bevosita inson va uning mohiyati, kishilik jamiyati va uning qonuniyatlari, rivojlanish omillari, boshqaruv usullari, erkin fuqarolik jamiyati haqvdagi favqulodda xulosalari bilan istiqbolni belgilashda, ijtimoiy-tarixiy jarayonni ezgulik sari burishda katta ahamiyat kasb etdi, o'zidan keyingi tarixiy taraqqiyotda muhim dastur vazifasini o'tadi.

Abu Nasr Forobiy mutaassiblikka qarshi ravishda ma'rifatlilik xislatlarini o'rtaga tashladi. Shaxs ongi jamiyat bilan birgalikda rivojlanishini eng to'g'ri yo'l ekanligini aytadi. Shu bilan birga, jamiyat hayotiga zarar keltiruvchi, tahdid soluvchi ishlar haqida gapirar ekan, adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash maqsadida «sa'y-harakati, huquqlari va maqsadlari (adolatli) hokimlarga qarshi bo'lgan yovuz niyatli odamlardan shaharni tozalashdir» degan g'oyani ilgari suradiki, bu davlat, boshqaruv, hokimiyat va uning adolatli faoliyati masalalarida o'rta asrlarda shakllanayotgan falsafiy, siyosiy, tarixiy, ijtimoiy tafakkurning naqadar yuksakligidan dalolatdir.

Ulug' Sharq mutafakkiri Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy Sharq tafakkur olamining o'ziga xos yo'nalishini ochib berdi va insoniyat tarixi, uning vujudga kelishi, taraqqiyoti hamda tanazzullari atrofidagi mavjud fikrlarga

aniqlik kiritdi. Turli ziddiyatli qarashlarni butun mohiyati bilan o'rganib, unga o'ziga xos yondashib, mavjud qarashlarni keskin tarzda boyitib, uning o'zanini o'zgartirib yubordi. Aniqroq qilib aytganda, Beruniy olamning yaralishi, insonning vujudga kelishi, xalqlarning taraqqiyot bosqichlari, tarixiy voqealar, tabiiy hodisalar, ularning mohiyatini ilmiy asosda o'rganish maktabini yaratdi. Ushbu maktab bugun mohiyat-e'tibori bilan dastlab Sharq, keyinchalik G'arb falsafiy tafakkurining tamal toshini qo'ydi. Abu Rayhon Beruniyning 1030 yilda yozgan va «Hindiston» nomi bilan mashhur bo'lgan «Tahqiq mo lil-hind min ma'qula maqbula fil-aql av marzula», ya'ni «Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash» deb nomlangan asarida bayon etilgan betakror ilmiy g'oyalar odam va olam haqidagi tasavvurlarni keskin o'zgartirib yubordi. Manba o'zining betakrorligi bilan tarix falsafasining o'ta noyob jihatlarini ochib bergan. Unda odamzotning butun hayot yo'li, uning omillari va mohiyati dunyoviy tafakkur orqali tadqiq etilib, hech kim xayoliga keltirmagan yangi ilmiy hojalar orqali isbotlandi. Asarning aksiologik jihati shundaki, u hamon jahon xalqlari tarixi, tili, dini, an'analari va qadriyatlarini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda va tarix falsafasi taraqqiyotida, tarixni falsafiy anglash jarayonida zabt etib bo'lmas cho'qqi darajasiga chiqdi. Darhaqiqat, bu asarga Mag'ribu Mashriq olimlari, yirik mutaxassislar doimo qiziqish bilan qaraydilar. Uni juda katta ehtiros bilan o'qiydilar. Taniqli olim V.R.Roze «Sharq va G'arbning qadimgi va o'rta asrdagi butun ilmiy adabiyotida bunga teng keladigan asar yo'q» ligini ta'kidlab o'tgan edi. Asar garchi «Hindiston» deb nomlanib, «hindlarning aqliga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarni aniqlash» ga bag'ishlangan bo'lsa-da, uning xususiyati va ahamiyati kishilar tarixining tarixiy-falsafiy talqinini, ilmiy-nazariy yechimlari va asoslangan xulosalarini nazarda tutib, ushbu yo'nalishda G'arbu Sharqning butun dunyo dinlari, qarashlari va dunyoviy tafakkur o'lchovlarining sintezi sifatida yuzaga kelgan nodir asar deyish mumkin. Zotan, unda inson kelib chiqishining diniy va dunyoviy qarashlari, insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlari, davrlari, podsholiklar va payg'ambarlarning dunyoga kelishi, ularning jamiyat taraqqiyotidagi ijtimoiy, ma'naviy, madaniy va

axloqiy ta'sirlari, qarashlari va munosabatlari qiyosiy tarzda o'rganiladi. Abu Rayhon Beruniyning ushbu asari o'z davrining mutlaq yagona voqeligi emas edi. Chunki bu paytda podsholiklar va Ollohning elchilariga bag'ishlangan turli-tuman fikr-mulohazalar, nazariyalar, ta'limotlar, ma'naviy-ma'rifiy asarlar, sayohatnomalar, badiialar juda ko'p yozilgan edi. Beruniyning daholik qudrati shundaki, u o'zigacha yaratilgan va mavjud bo'lgan manba hamda adabiyotlarning eng asosiylarini mumkin qadar chuqur o'rganib, ularning har biriga munosib baho berib, eng asosli xulosalarni ilgari surdi. Bu xulosalardan hozirda ham tadqiqotchi-olimlar tomonidan keng foydalanish mumkin. Tarixni o'rganib, insoniyat kelib chiqishi va uning rivojlanish dinamikasini tahlil qilar ekan, Beruniy haqiqatga ishonmaydigan kishilar bilan munozara qilib, ularni skeptitsizmda ayblaydi va bular «qat'iy hujjatlarni qabul etishda xuddi sherdan qo'rqib qochgan eshaklardek qochadilar» deydi.

Buyuk manbашunos Ismatulla Abdullaev «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarini o'rganib turib, alloma o'z davrining ijtimoiy muhiti, kishilik tarixiy taraqqiyoti, millatlarning madaniyatlari, an'ana va qadriyatlarini yaxshi o'rganganligini aytib o'tadi. Jumladan, Beruniy yunonlar, rumliklar, eroniylar, sug'diylar, xorazmliklar, qibtiylar, xristianlar, yahudiylar, so'nggi din tashkil topgungacha bo'lgan vaqtdagi arablar va musulmonlarning hayot yo'li, turmush tarzi, qolversa yil hisoblari, hayitlari va muqaddas kunlarini ijtimoiy-tarixiy, madaniy va ma'rifiy jihatdan ancha chuqur o'rgangan. Bu insoniyat tarixini bevosita falsafiy o'rganish, mantiqiy xulocalar chiqarishga asos bo'lgan. Abu Rayhon Beruniyning tarix falsafasi ayni ana shu turli xalqlar, mamlakatlar, mintaqalarda mavjud turmush tarzi orqali rivojlanish omillari, taraqqiyot yo'nalishlarini o'rganadi va tegishli xulosalar chiqaradi. Bu bevosita antropologiya, antropogenez, demografiya va etnografiya bilan bog'liq bo'lgan qomusiy tadqiqot usulini taqozo etadi.

### **Nazorat savollari:**

1. O'rta asrlar mafkurasida qanday xarakterdagi dunyoqarash hukmron bo'lgan edi?
2. Tarixiy taraqqiyot bir-biri bilan almashingan nechta yirik monarxiyaga bo'linadi?
3. XI asrda mashhur bibliotek patriarx Fotiya nechta antik mualliflarning asarlaridan to'plam tuzdi?
4. Avgustinning jamiyat va davlat haqidagi qarashlari uning qaysi asarida o'z ifodasini topgan?
5. Avgustin adolatli va adolatsiz davlatlar haqida qanday xulosaga kelgan?
6. Insoniyatning butun tarixi qanday kurash deyiladi?
7. Avgustin birinchi bo'lib tarixning chiziqli tushunchasini nimaga qarshi qo'ydi?
8. Abu Bakr Narshaxiyning «Tahqiq al-viloyat», «Ta'rixi Buxoro», «Axbor al-Buxoro» singari asarlari nimalarni o'z ichiga olgan?
9. Inson va jamiyat, inson va tabiat, olam va odam o'rtasidagi munosabatlar Abu Nasr Forobiy tomonidan qanday talqin etildi?
10. Abu Nasr Forobiy ilmiy-falsafiy merosining beqiyos qadriyati nimadan iborat?
11. Abu Rayhon Beruniyning «Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash» deb nomlangan asarida nimalar haqida so'z boradi?

### **Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:**

1. "Tarixning xristian ilohiyoti" mavzusida referat tayyorlang.
2. "Yomonlik yaxshilikdan uzoqlashishdir" degan fikrga o'z munosabatingizni bildiring.
3. Avgustinning tarix nazariyasi masalasida olg'a surgan beshta yangi holat g'oyasi haqida fikr yuriting.
4. Abu Nasr Forobiy falsafasi: inson — jamiyat — jarayon" mavzusida ko'rgazmali slayd tayyorlang (MS Power Point).

#### **4-MAVZU: UYG'ONISH VA MA'RIFAT DAVRI TARIX FALSAFASI**

##### **REJA:**

1. Ilk uyg'onish davri va undagi dunyoqarashning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Ma'rifat davri. Ushbu davr tarix falsafasining asosiy yutug'i – taraqqiyot g'oyasi.

*Tayanch tushunchalar ma'rifat, ma'rifatparvarlik, ilk uyg'onish davri, "Renessans" atamasi, dogmatizm, jaholat va mutaassiblikni yorib o'tib, insonni ulug'lash diniy dunyoqarash, intellektual hayot, shaxs hayoti va shaxsiyati, xalq farovonligi, adolatli qonunlar, feodal-mutloq tuzumning illatlari, vatan manfaati, ilohiyotchilik nuqtai-nazari, tarixni teologik tushunish, tarixiy jarayonning ob'ektiv qonuniyatlar.*

##### **1. Ilk uyg'onish davri va undagi dunyoqarashning o'ziga xos xususiyatlari.**

XV-XVIII asrlardagi Uyg'onish davri - bu feodalizm inqirozining dastlabki bosqichi va burjua munosabatlarining paydo bo'lishi davri hisoblanadi. "Uyg'onish" atamasi aynan shu davrning ko'zga ko'ringan, yetakchi shaxslarining antik davr qadriyatlarini va ideallarini qayta tiklash istagini bildirish uchun ishlatiladi. Biroq, bu ma'noda "Uyg'onish" atamasini shartli ravishda talqin qilish kerak. Uyg'onish aslida eskisini tiklashni emas, balki yangisini izlashni anglatadi. Tarixda ortga qaytish, o'tgan davrga qaytish mumkin emas. To'plangan tajriba va madaniy salohiyatni tashlab bo'lmaydi va uni yengib bo'lmaydi. U o'z ta'sirini saqlab qoladi, chunki aynan shu poytaxt iqtisodiy va madaniy muhiti bo'lib, uni yengishga qaratilgan odamlar harakat qilishlari kerak. Bunday poytaxt, Uyg'onish davri mutafakkirlari va allomalari uchun meros bo'lgan o'rta asrlar edi. Uyg'onish davri nasroniylikka qarama-qarshi bo'lsa-da, u o'rta asrlar madaniyatining rivojlanishi natijasida paydo bo'lgan va shuning uchun uning ko'pgina xususiyatlari o'z izini qoldirgan. Ob'ektiv ravishda, Uyg'onish davrini o'tish davri sifatida tavsiflash kerak, chunki u tizimga ko'prikdir. Tarixning ana shu davri bevosita burjua ijtimoiy munosabatlariga, qolaversa iqtisodiy sohaga asos solindi,

ilm-fan ravnaq topdi, cherkov va davlat o'rtasidagi munosabatlar o'zgardi, dunyoviylik va insonparvarlik mafkurasi shakllandi. Eng muhim belgi mafkuraviy Uyg'onish - bu insonga qaratilgan. Agar antik davr falsafasining diqqat markazida tabiiy - kosmik hayot, o'rta asrlarda esa diniy hayot "najot topish" muammosi bo'lgan bo'lsa, Uyg'onish davrida dunyoviy hayot, insonning bu dunyodagi faoliyati, bu dunyo, hayotda inson baxtiga erishish birinchi o'ringa chiqadi. Bu davrning falsafiy tafakkurini antropotsentriklik sifatida tavsiflash mumkin. Markaziy figura Xudo emas, balki insondir. Xudo hamma narsaning boshidir, inson esa butun dunyoning markazidir. Jamiyat Xudo irodasi mahsuli emas, balki inson faoliyatining natijasidir. Inson o'z faoliyati va rejalarida hech narsa bilan cheklanib qolmaydi, u hamma narsani o'zi mustaqil qila oladi. Uyg'onish davri insonning o'z-o'zini anglashining yangi darajasi bilan ajralib turadi: g'urur va o'zini-o'zi tasdiqlash, o'z kuchi va iste'dodini anglash, quvnoqlik va erkin fikrlash o'sha davr ilg'or shaxsiga xos xususiyatga aylanadi. Shu bois, Uyg'onish davri dunyoga yorqin fe'l-atvorli, har tomonlama ta'limga ega bo'lgan, odamlar orasida o'z irodasi, qat'iyati va ulkan kuch-quvvati bilan ajralib turadigan bir qator ajoyib shaxslarni vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Uyg'onish davri odamlarining dunyoqarashi aniq gumanistik xususiyatga egadir. Inson bu dunyoqarashda erkin mavjudot, o'zini va uni o'rab turgan olamni yaratuvchisi sifatida talqin etiladi. Uyg'onish davri mutafakkirlari, albatta, ateist yoki materialist bo'la olmadilar. Ular Xudoga ishonishdi, uni dunyo va insonning birinchi yaratuvchisi sifatida tan olishdi. Xudo dunyoni va insonni yaratib, ularning fikricha, insonga iroda erkinligini bergan va endi inson o'zi harakat qilishi, butun taqdirini belgilashi va dunyoda o'z o'rnini egallashi kerak. Uyg'onish davri falsafasida odamning vahshiylik, ojizlik holati, "inson tabiatining buzuqligi" moyilligi tubdan o'zgardi, uning ojizligi sezildi. Inson o'z kuchiga ishonib barcha narsani hal etish tamoyili yuqori bo'lib, Xudoning yordami - "inoyat" emas, degan prinsip hukmron bo'ldi.

IX-XII va XV asrlar (Renessans) ya'ni uyg'onish davrining gullab-yashnashi bo'ldi, Dunyoning yetti iqlimi, xususan, Markaziy Osiyo, Eron, Xitoy va G'arbiy

Yevropada kuzatilgan insoniyat madaniyati va san'ati "Renessans" ni boshlab berdi deb aytish mumkin.

Renessansning asosiy alomatlari quyidagilardan iborat:

- shaxs iste'dodi, aqliy fikriy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish;
- qadimgi tarix madaniyati asosida madaniyatni tiklash, boyitish;
- cherkov sxolastikasidan qutulib, san'at va adabiyotda yangiliklarning yaratilishi;
- shaxs ozodligini, hurfikrlilikni targ'ib etish.

Albatta ushbu harakatlarning natijasi ijodiy qudrat va tafakkur kuchini namoyish etadigan ulug'vor badiiy asarlar, salobatli binolar yaratildi, ilm-fan rivojlandi. Italiyada shoir Petrarka va Dante, rassom Jotto, adib va mutafakkirlar Bokkachcho, Ariosto, Tasso, Byome Renessans g'oyalarining jarchilari bo'lib maydonga chiqdilar. Keyinchalik Mikelanjelo, Rafael, Shekspir, Migel de Cervantes Yevropaning turli mamlakatlarida buni davom ettirdilar. Ammo Renessans, ya'ni Uyg'onish faqat Yevropa hodisasi hisoblanmaydi. Dunyo madaniyatini yaxlit olib o'rgangan olimlarning ishlari shuni ko'rsatdiki, Osiyo markazida joylashgan Movarounnahr, Xuroson va Eronda Italiyaga qaraganda bir necha asr oldin kuzatilgan renessans, iml-fan, san'at va madaniyatdagi yutuqlarni aytib o'tish maqsadga muvofiqdur.

Bu davr dunyo ilmida "Musulmon Renessansi" yoki "Sharq Uyg'onishi" nomi bilan atalib kelinmoqda. Sharq Uyg'onish davrida Yevropa Uyg'onish davrining asosiy belgilari bo'lgan jo'shqin ijodiy faoliyat, ulkan bunyodkorlik ishlarining amalga oshirilgani, aqlni hayratga soluvchi bemisl asarlarning yaratilgani mujassamdir. Sharq Uyg'onish davri ham ulug' allomalar, qomusiy bilim sohiblari, mashhur mutafakkirlarni yetishtirdi. Aniq fanlar sohasida Muhammad al-Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oniy, Umar Hayyom, Mirzo Ulug'bek jahonshumul kashfiyotlar qildilar. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Rushd, Muhammad G'azzoliy, Nasafiy Aziziddinlarning falsafiy asarlari tafakkur xazinasini boyitdi, olam, odam va jamiyat yaxlitlikda tadqiq etilib, yangi qonuniyatlar ochildi, aqliy bilim ufqlari kengaydi, fozil jamiyat va komil inson nazariyasi chuqur ishlab chiqildi.

She'riyatda Abu Abdullo Rudakiy, Abulalo al Maarriy, Abulqosim Firdavsiy, Jaloliddin Rumi, Hofiz Sheroziy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi daho ijodkorlar yetishib, o'lmas asarlar yaratdilar, ishq-muhabbat, qahramonlik, ozodlik va ezgulikni kuyladilar. Miniatyura rassomchiligida bir necha maktablar shakllandi, bunda Kamoliddin Behzod rasmlari yangi ijodiy yo'nalishga asos soldi. Uyg'onish davrining yana bir belgisi xalq ruhini ifodalaydigan "Ming bir kecha", "Kalila va Dimna", "Qirq vazir", "To'tinoma", "Sindbodnoma", "Jome'ul hikoyot" kabi qiziqarli sarguzashtlarga to'la, shavqu-zavq qo'zg'atadigan asarlarning ko'paygani, ikkinchi tomondan "Xamsa" larda bo'lganiday, insoniy ideallarni mujassam etgan hikmat va falsafaga boy umumbashariy g'oyalarning tasvirlanishi hisoblanadi.

Eron va Markaziy Osiyo xalqlari bir necha ming yillik sivilizatsiya tarixiga ega. Zotan, qadimiy davlatchiligi bo'lmagan xalqda Uyg'onish davri ham bo'lmaydi. Markaziy Osiyoda IX-XIII asrlarda o'z xalqining qadimiyatiga qaytish, Avesto falsafasini Qur'on ma'rifati bilan uyg'unlashtirib, qayta tiklashga intilish tasavvuf ta'limoti, "ishroq" falsafasida namoyon bo'lgan. Shu asosda turli nazariyalar, ta'limotlar yuzaga kelib, fikriy xilma-xillik rivojlandi. Tasavvufiy ta'limotning qaror topishi, tariqatlar ham, aslida, hurfikrlik va inson kamolotiga bo'lgan ishonchning nishonasi edi. Uyg'onish davri vakillari dinga emas, balki dinni sxolastika va jaholat manbaiga aylantirgan kishilarga qarshi kurashganlar.

Tafakkurdagi ikki: aqliy (ratsionalizm) va vajdiy (irratsionalizm) yo'nalish namoyandalari zohiran o'zaro kelishmay kelgan bo'lsalar-da, amalda Yevropa Uyg'onish davrida bo'lganidek, inson ongini bedor etish, uni aqidaparastlik g'uboridan tozalashda hamkorlik qildilar. Shu bois hurfikrli mutafakkirlar orasida ratsionalist olimlar bilan birga, orif so'fiylar ham bor edi.

Sharq Uyg'onish davri vakillari o'z xalqlarining qadimgi madaniyati bilan birga, yunon va hind xalqlari merosidan ham foydalanishgan. Yunon olimlarining asarlari VIII-IX asrlarda arab tiliga tarjima qilindi, sharhlandi. Aflotun, Arastuni Sharq faylasuflari ham o'z ustozlari deb hisoblashgan, Platon qarashlari Ibn al-Arabiya ta'sir etib, "vahdatul vujud" falsafasiga turtki berdi, biroq yunonlar ko'p

fikrlarni qadimgi osiyoliklardan olganlar. Bu tarix qonuniyati. Abu Rayhon Beruniyning “Kitob attafhim li avoil sinoat attanjim” asari qo‘lyozmasida yuksalishga shaylangan xalq o‘z madaniyati va o‘zigacha yaratilgan bashariy yutuqlarni o‘zlashtirib, yana yuksaklikka ko‘tarilishini aytib o‘tgan edi.

Sharq Uyg‘onish davri keng ko‘lamli: ta‘lim va tahlil, madrasa maorif rivojlangan, ulkan kutubxonalarda yuz minglab jild kitoblar yig‘ilgan, “xazinat ulhikma”, “dor ululum” larda tolibi ilmlar, ustoz-shogirdlar suhbatlari bardavom edi, olimning obro‘-e‘tibori yuksak qadrlandi. Sharq Uyg‘onish davri yutuqlari G‘arbiy Yevropadagi Uyg‘onish davriga bevosita ta‘sir etgan, chunki XII-XIV asrlarda musulmon olami bilan Yevropa davlatlari orasida aloqa kuchaygan edi. Ayniqsa, tutash chegara mamlakatlari - Qurdoba (Ispaniya), Kavkaz, Bolqon yarim orolida bu jarayon kuchli bo‘lgan. Yevropaliklar Sharq olimlarining asarlarini lotin, ispan, yahudiy tillariga qilingan tarjimalar orqali yoxud bevosita arab tilida o‘qib o‘rganganlar. Ibn Sinoning “Tib qonunlari”, “Ash Shifo”, Forobiyning “Ilmlar tasnifi”, Ahmad Farg‘oniyning “Samo harakatlari va yulduzlar ilmining jami kitobi”, Muhammad Muso Xorazmiyning “Aljabr val muqobila”, Ibn Rushd, Abu Bakr Roziy asarlari tarjima qilinib, keyinchalik nashr etilgan. Algebra, algoritim fanlari Xorazmiy asarlari tufayli shakllangan. “Tib qonunlari” 7 asr mobaynida Yevropada tibbiyot darsligi sifatida xizmat qildi. Ibn Sino shogirdi Ibn Rushd g‘oyalari Italiya, Fransiya hurfikrligini boshlab bergan. Ibn Sino - Avitsenna, Ibn Rushd - Averroes, Ahmad Farg‘oniy - Al Frageni, Abu Bakr Roziy - Al Ramzats, Abu Ma‘shar Balxiy - Albumazar degan lotincha nomlar ostida mashhur bo‘lgan.

Aniq fanlar va ularni o‘rganish usullarini, dehqonchilik va chorvachilik ilmlari, dengizda suzish, harbiy texnikani Yevropa Sharqdan olib rivojlantirdi. “Matematika, kimyo, tibbiyot sohasida musulmonlarning xizmati buyuk... bu fanlarda musulmonlar Yevropaning muallimlari bo‘lib qoldilar” degan edi Gerder. Yevropa Uyg‘onish davri adiblari Dante, Petrarka, Bokkachcho Sharq ilm-fani, adabiy asarlaridan ilhomlanganlar. Dante “Bazm”, “Ilohiy komediya” asarlarida Ibn Sino va Ibn Rushdni o‘z ustozlari qatorida ehtirom bilan tilga oladi, Ahmad

Farg‘oniy asarlaridan foydalanganini qayd etadi. K.Marloning “Buyuk Temur” dramasi Amir Temur jasur, xaloskor inson sifatida tasvirlangan.

Musiqada ham Uyg‘onish davri jarayoniga xos yuksalish dastlab Sharqda yuz berdi. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy an‘analari arab, hind va fors musiqiy meros asarlari, cholg‘ulari bilan o‘zaro ta‘sir jarayonlari natijasida yanada boyib qaytadan jonlandi. Zero, Forobiy va uning izdoshi Ibn Sino musiqaning nazariy, falsafiy va estetik masalalarini atroflicha tadqiq etib, umumsharqiy ta‘limotni yaratishgan. Xususan, Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari musiqa amaliyotiga tayangan holda, kuy va usullar, qo‘llaniladigan sozlar, muayyan shakl va janrlar doirasida mushtaraklik mavjudligini isbotlashgan. Forobiyning “Kitob ul musiqa alkabir” (“Musiqaga doir katta kitob”) asari ijodiy va aqliy kuchlar rivojini namoyish etgan, va, ayniqsa, Ibn Sinoning “Javome’ ilm ulmusiqi” (“Musiqaga oid ilmlar to‘plami”) kabi asarlarida yunon olimlari (Pifagor, Aristoksen va boshqalar) ning qarashlari boyitilib, tovushlar baland-pastligi munosabatlari matematik uslubda ifodalangan. Shuningdek, sof tovush qator tizimi, undan o‘rin olgan budlarning muloyimat va munofirat tasnifoti, iyqo nazariyasi ilk bor asoslab berilgan. O‘n ikki maqom tizimi yuzaga kelgan. Amir Temur va Temuriylar musiqaning barcha jabhalarida yangi Uyg‘onish davri yuzaga kelishini ta‘minlab berishdi. Turli mamlakatlardan Samarqand, Buxoro kabi markazlarga keltirilgan san‘atkorlar — bastakorlik, musiqa ijrochiligi va musiqashunoslik jadal rivojlanishiga hissa qo‘shishgan. Mazkur sohalarda nainki muayyan kasb egalari, balki o‘zga badiiy ijod sohiblari, xususan, Mirzo Ulug‘bek, Jomiy, Navoiy, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Boburlar ham nom chiqarishgan. Bu davrda mahalliy maqom ijodiyoti va ijrochiligi yuksaldi, og‘zaki an‘anadagi musiqaning boshqa rivojlangan shakllari (doston, ashula, cholg‘u, kuy va boshqalar) keng o‘rin egallab, o‘zlarining yuqori pallalariga ko‘tarildi. Ayni shu jarayon keyinchalik Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari va Farg‘ona - Toshkent maqom yo‘llari, katta ashulalar shakllanishiga olib keldi.

Xuddi shuningdek, Uyg‘onish davrida teatr san‘ati, me‘morchilik an‘analari o‘zlashtirilib, xalq tomosha san‘ati an‘analarini rivojlantirdilar, yangi me‘moriy

qurilmalar vujudga keldi, ko'p qavatli uylar, yangi qiyofadagi jamoat binolari qad ko'tardi. Binoni tashqi va ichki tomonlarini bezash, kenglikni tashkil etish borasida ham muayyan yutuqlarga erishildi. Bu o'zgarishlar Italiyaning Florensiya, Piza, Siena, Genuya, Milan, ayniqsa, Venesiya shaharlarida juda sezilarli bo'ldi.

## **2. Ma'rifat davri. Ushbu davr tarix falsafasining asosiy yutug'i – taraqqiyot g'oyasi.**

Ushbu davr dunyo tarixida ilmiy, falsafiy va ijtimoiy dunyoqarashlarning yuksalishi bilan bevosita uyg'un ravishda kechgan davrdir. Bu intellektual harakatning negizida ratsionalizm va erkin fikrlash yotardi. XVII asrdagi ilmiy inqilob ta'sirida Angliyada boshlangan bu harakat Fransiya, Germaniya, Rossiyaga tarqaldi va boshqa Yevropa davlatlarini qamrab oldi. Ayniqsa, "fikrlar hukmdori" ga aylangan fransuz ma'rifatparvarlarining ta'siri katta edi. Ma'rifatparvarlik tamoyillari Amerika Mustaqillik Deklaratsiyasi va Fransiyaning Inson va Fuqaro huquqlari, ularning erkinligi, insoniylik, gumanizm g'oyalarining rivoj topishi muhim omil bo'ldi. Shuni ta'kidlash kerakki, Yevropa va Amerikaning axloqiy va ijtimoiy hayotidagi keyingi o'zgarishlarga, Yevropa mamlakatlari, xususan Amerika mustamlakalarining milliy mustaqilligi yo'lidagi xatti-harakatlari, o'z navbatida quldorlikni tugatishga, inson huquqlarini jamiyatda ta'minlashga bo'lgan jarayonlar, ushbu davrdagi intellektual ongning yuksalishi katta ta'sir ko'rsatdi. Bundan tashqari, u aristokratiyaning obro'sini va cherkovning ijtimoiy, intellektual va madaniy hayotga ta'siriga o'ziga xos ta'sir o'tkazdi.

Olimlar ma'rifat termini turli tillarda tahlil etilgan bo'lib, xususan rus tili, shuningdek, ingliz (The Enlightenment) va nemis (Zeitalter der Aufklärung) tillariga fransuz (siècle des lumières) tilidan kirib kelgan deb hisoblaydilar. Qolaversa, ushbu termin ma'lum bir falsafiy maktabning nomi emas, chunki ma'rifat faylasuflarining qarashlari ko'pincha bir-biridan sezilarli darajada farqlanib, bir-biriga zid bo'lgan. Shundan kelib chiqib ma'rifatchilik tamoyillar majmuasi emas, balki falsafiy tafakkurning ma'lum bir yo'nalishi sifatida qaralgan.

O'sha davrda mavjud bo'lgan an'anaviy institutlar, urf-odatlar va axloqni tanqid qilish ma'rifatparvarlik falsafasining bosh g'oyasi bo'lgan.

Ayrim tarixchilar uning boshlanishini XVII asr oxiri, boshqalari XVIII asr o'rtalarini ko'rsatadilar. Ma'rifat davrida ilohiy qarashlarga zid ravishda, aql-idrokni ustun qo'yish kuchayadi. Insoniyat tarixida ilk marotaba fan yutuqlaridan jamiyat va ijtimoiy taraqqiyot manfaatlarini yo'lida amaliy foydalanish amalga oshirildi. Uyg'onish davri olimlari ilm-fanni keng yoyishga, ommalashtirishga, universallashtirish jarayonlarini tezlashtirishga harakat qiladilar. Inson egallab turgan bilimlari taraqqiyot va rivojlanishga xizmat qilishi kerakligi to'g'risida bong urildi. Mashhur faylasuf Devid Yum o'zining "Tarix bo'yicha inshosi" ni yozishni boshladi va unga bilimni ommalashtirishga intilishning cho'qqisi Didro va boshqalarning "Ensiklopediya" 35 jilddan iborat nashri muhim manba bo'ldi. Bu o'sha davr uchun eng muvaffaqiyatli va ahamiyatli "loyihasi" edi. Bu asar insoniyat tomonidan o'sha davrgacha to'plangan barcha bilimlarni biriktirgan holda dunyoning barcha jabhalarini, hayotni, jamiyatni, fanlarni, hunarmandchilik va texnologiyani, kundalik narsalarni tushunarli tarzda tushuntirib berdi. Umumiy ensiklopediyalar bilan bir vaqtda turli alohida fanlar uchun maxsus ensiklopediyalar paydo bo'ldi, keyinchalik ular adabiyotning alohida janriga aylandi.

Lotin tilining o'rnini fransuz tili asta-sekin egallay boshladi. O'sha paytda yashab ijod etgan olimlar o'rtasida tillar haqida, ya'ni qaysi tilda ijod qilish, asar yozish borasida nizolar kelib chiqdi. Bu mavzuda va haqiqatan ham antiklik hamda zamonaviylik o'rtasidagi ustunlik masalasida mashhur pedagog va "Gulliverning sayohatlari" asarining muallifi Jonatan Svift masalan, 1704 yilda nashr etilgan "Kitoblar jangi" satirik hikoyasini yozgan. Bu qissadagi o'rgimchak va ari haqidagi masalda u qadimgi va zamonaviy adabiyot tarafdorlari o'rtasidagi tortishuvning mohiyatini chiroyli qilib, zukkolik bilan ifodalagan.

Bu davr mutafakkirlarining qarashlarida ko'plab qarama-qarshiliklar mavjud. Amerikalik tarixchi Genri Mey (Genri F. Mey) bu davr falsafasi taraqqiyotida to'rt

bosqichni alohida ajratib ko'rsatgan hamda ularning har biri ma'lum darajada oldingisidan norozi edi.

XIV-XV asrlar Ma'rifatparvarlik bosqichi gumanizm g'oyalarining ilk kurtaklari shakllanishi bo'lib, o'z navbatida insonparvarlik davridan diniy islohot va katolik reaksiyasi davri bilan alohidalashishi ko'zga tashlandi. Shuning uchun bu davrda G'arbiy Yevropa hayotida teologik va cherkov tamoyillari yuqori darajaga chiqdi. Insonparvarlik XVI-XVII asrlar ilg'or protestantizm va ratsionalistik sektachilik an'analari davomi sifatida, undan siyosiy erkinlik va vijdon erkinligi g'oyalarini meros qilib olgan Ma'rifatparvarlik cho'qqiga chiqdi. Gumanizm va protestantizm kabi ma'rifatparvarlik ham turli mamlakatlarda mahalliy va milliy xususiyat kasb etdi.

Eng katta qulaylik bilan, reformatsiya davri g'oyalaridan Ma'rifatparvarlik g'oyalariga o'tish XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida Angliyada ma'lum darajada deizm rivojlangan paytda kuzatildi. Reformatsiya davri diniy evolyusiyasining oxiri va XVIII asr ma'rifatparvarlari tomonidan targ'ib qilingan "tabiiy din" ning boshlanishidir. Yettinchi kuni o'z mehnatidan vafot etgan Buyuk me'mor sifatida Xudo haqida tasavvur bor edi. U odamlarga ikkita kitob berdi - Injil va tabiat kitobi. Shunday qilib, ruhoniylar tabaqasi bilan bir qatorda olimlar tabaqasi ham birinchi o'ringa chiqadi.

Ma'naviy va dunyoviy madaniyatning parallelligi Fransiyada ham asta-sekin olib borildi. Volter, Golbax va Yumlar ijod qilgan va skeptik deb ataladigan davrga to'g'ri keldi. Ushbu olimlar o'zlarining bosh g'oyasi - beg'araz aql ekanligini isbotlashga urindilar. Ma'rifatparvarlar, ma'rifatparvar adabiyoti, ma'rifatparvar (yoki ma'rifatparvar) absolyutizm kabilar ma'rifatparvarlikning ushbu bosqichining sinonimi sifatida "XVIII asr falsafasi" iborasi qo'llaniladi.

Skeptik faza Fransiyada Russo nomi bilan, Amerikada Peyn va Jefferson bilan bog'langan inqilobiy bosqichga o'tdi. XIX asrda keng tarqalgan ma'rifatparvarlik davrining so'nggi bosqichining ko'zga ko'ringan vakillari Tomas Rid va Frensis Xatcheson kabi mo'tadil qarashlarga, axloq, qonun va tartibni hurmat qilishga qaytgan faylasuflardir.

Bu davrning ayrim donishmandlarining, masalan, Didroning materialistik va ateistik e'tiqodlarini hisobga olmagan holda, ma'rifatparvarlarning aksariyati deizmni targ'ib qildilar, ular ilmiy dalillar orqali Xudoning mavjudligini va olamning U tomonidan yaratilganligini isbotlashga harakat qilganlar. Ma'rifat davrida kosmos tugamaydi, balki samarali sabab bo'lgan ajoyib mashina sifatida qaraldi. Alloh taolo olamni yaratgandan keyin uning keyingi taraqqiyoti va jahon tarixiga aralashmaydi va yo'lning oxirida turgan insonni qilmishlari uchun U tomonidan na hukm qiladi, na mukofot oladi. Odamlarning axloqiy xulq-atvorida yo'l-yo'riq - laitsizm, dinning tabiiy axloqqa aylanishi, uning amrlari hamma uchun bir xildir. Tolerantlik g'oyalari boshqa dinlarga jamoatda emas, faqat shaxsiy hayotda e'tiqod qilish imkoniyatini istisno etmaydi.

Volter, Monteske, Russo, Didro va boshqa yozuvchilar timsolida fransuz ma'rifiy adabiyoti XVIII asrda umumevropa ahamiyati keng yuksaldi. Ulardagi birlashish jihati (aqliy) ratsionalizmning yuqoriligi, Fransiyada o'z tanqidini siyosiy va ijtimoiy xarakterdagi masalalarga qaratgan bo'lsa, bu davrning nemis ma'rifatparvarlari axloqiy va ilohiy qarashlar bilan bandligini ta'kidlab o'tish lozim.

XIX asr boshlarida ma'rifatparvarlik ta'siri ostida ma'lum qarama-qarshiliklar kuzatildi. Buning asosiy sababi bir tomondan, eski diniy dunyoqarashga qaytish bo'lsa, ikkinchi tomondan, XVIII asr mafkurachilari tomonidan e'tibordan chetda qolgan tarixiy faoliyatni o'rganishga chaqiriq edi. Bu urinishlar ichida eng diqqatga sazovori Kantga tegishli bo'lib, u o'zining nazariyalari asosida ma'rifat tushunchasi, uning mazmun-mohiyatini anglab yetish, uning jamiyat va inson hayotidagi o'rnini aniqlash masalalari yuzasidan – "Ma'rifat - ba'zi dogmatik g'oyalarni boshqa dogmatik g'oyalar bilan almashtirish emas, balki mustaqil fikrlashdir" degan tushunchalar bilan izohlaydi. Shu ma'noda Kant ma'rifatni ma'rifatga qarama-qarshi qo'yib, bu shunchaki o'z aql-zakovatidan foydalanish erkinligi ekanligini e'lon qildi. Ma'rifatparvarlikni isbotlash uchun qilingan xatti-harakatlar, ishlab chiqilgan g'oya va tamoyillar, shuningdek, zamonaviy jamiyatning aksiologiyasi sifatidagi siyosat va demokratiya, davlatning boshqaruv

shakllari, respublika sifatida tashkil etilishi, diniy bag'rikenglik, bozor mexanizmlari, kapitalizm va ilmiy uslub va vositlarni o'z ichiga oladigan tashkilot ekanligini e'tirof etish mumkin. Ma'rifat davridan boshlab mutafakkirlar "Haqiqat uchun" jazolanish tahdidiga duchor bo'lmasdan, nima bo'lishidan qat'i nazar va ijtimoiy asoslarga tahdid solayotgan haqiqatni izlash huquqini ta'kidlab keladilar.

### **Nazorat savollari:**

1. Ilk uyg'onish davri deganda nimani tushunasiz?
2. Uyg'onish davrida nimalarga asos solindi?
3. Uyg'onish davri odamlarining dunyoqarashi qanday xususiyatga ega?
4. Monteskening «Qonunlar ruhi» deb nomlangan risolasi nechanchi yilda nashr qilinadi?
5. Monteske fikricha, qadimgi rimliklar qudratining manbai nimadan iborat?
6. Monteske tarixni teologik tushunishni inkor etib, qanday qoidani ilgari surdi?
7. Monteske qaysi sabablarni geografik muhit bilan bog'laydi?
8. Ma'rifat davri deganda nimani tushunasiz?
9. Ma'rifatparvarlik falsafasi nimalarga asoslangan edi?
10. Ma'rifat davrida diniy dunyoqarashni inkor etish, inson va jamiyatni bilishning yagona mezon sifatida nimaga murojaat qilish mavjud edi?
11. Amerikalik tarixchi Genri Mey bu davr falsafasi taraqqiyotida nechta bosqichni alohida ajratib ko'rsatgan?
12. Ma'rifat davri insonparvarlik davridan qaysi jihati bilan ajralib turadi?

### **Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:**

1. "Uyg'onish davri dunyoqarashining o'ziga xos xususiyatlari" mavzusida referat tayyorlang.
2. Monteskening mumtoz estetik ruhdagi asari haqida so'zlab bering.
3. Monteskening xristianlik dini tanqid qilish pozitsiyasi haqida fikr yuriting.
4. "Ma'rifatparvarlik g'oyalari va ijtimoiy hayot" mavzusida ko'rgazmali slayd tayyorlang (MS Power Point).

## **5-MAVZU: YEVIROPA MAMLAKATLARINING YANGI DAVR TARIX FALSAFASI VA METODOLOGIYASI**

### **REJA:**

1. J.J.Russoning ijtimoiy-siyosiy qarashlari.
2. Nemis klassik falsafasining tarixiy – falsafiy ta'limotlari.
3. Kant, Fixte, Shiller, Shellingning tarixiy va falsafiy qarashlari.

***Tayanch tushunchalar:** Yevropa falsafasi, nemis, fransuz falsafasi va ma'rifatparvarlar olimlari, dunyoqarash, insoniyat, jamiyat, ehtiyojlar, ijtimoiy fikrlar tarixi, manfaatlar, siyosiy qarashlar, falsafiy g'oyalar, tarixiy va falsafiy qarashlar, xalq, suverenitet, xususiy mulkchilik.*

### **1. J.J.Russoning ijtimoiy-siyosiy qarashlari.**

Insoniyat tarixining yangi jamiyat shakllangunga qadar bo'lgan tarixi ham mavjudligini va bu davr insonning hayvonga yaqin bo'lgan davri ekanligini dastlab aytib o'tgan olim J.J.Russo edi. Jan Jak Russo (1712-1778) fransuz ma'rifatparvarlarining vakillaridan bo'lib, mayda burjua qarashlari bilan boshqalardan farq qiladi. U kelib chiqishi jihatidan ham, dunyoqarashi jihatidan ham haqiqiy plebey, demokrat edi. Russo «Рассуждение о происхождении и причинах неравенства между людьми» asarida insoniyat taraqqiyoti tarixini qisqacha yoritib beradi. Russoning aynan shu fikri ko'pchilikning, misol uchun Volterning qattiq tanqidiga uchragan. U jamiyatdagi mulkiy tengsizlikning kelib chiqish ildizlarini tahlil etarkan, davlatning o'zi ham ekspluatatorlar qo'lida qurol vazifasini bajarganligini qayd etadi. Lekin uning insoniyat jamiyati tashkil topgungacha bo'lgan davrni, ya'ni ibtidoiy jamoa tuzumi davrini ideallashtirishi (ijtimoiy tenglik ma'nosida) tarixiy va ilmiy jihatdan xato edi.

Russoning ijtimoiy-siyosiy qarashlari uning ijodida markaziy o'rin egallaydi. Tenglik jamiyatning tabiiy holati, inson o'z mohiyati jihatidan xoh ishlab chiqarishda, xoh iste'molda hech kimga bog'liq emas. Bunday jamiyat idealdir. Kelajakda bunga erishish mumkin emas, lekin unga qaytish mumkin. Unda kishilar boylik, xususiy mulk nimaligini bilishmaydi. Xususiy mulk bo'lmagan yerda

adolatsizlik bo'lishi mumkin emas. Xususiy mulkning kelib chiqishi insonlar manfaatlariga ziddir. Bu aslida bировlar hisobiga boyish demakdir. Umumiy erk va barchaning erki degan narsa bor. Umumiy erk umumiy manfaatlarni nazarda tutadi. Barchaning erki shaxsiy manfaatlarni hisobga oladi. U yakka-yakka manfaatlar yig'indisidan iborat. U feodalizmni qoralab, adolatli jamiyat tashkil etish yo'lida ijtimoiy kelishuvni ishlab chiqdi.

U o'z ijtimoiy qarashlarida Fransuz jamiyatining kambag'al fuqarolari manfaatlarini himoya qiladi. Shuning uchun Russo ijodining markazida inson muammosi va ijtimoiy tengsizlik masalasi yotgan.

Faylasuf ijtimoiy fikrlar tarixida o'zining ijtimoiy-axloqiy muammolar va tarbiya nazariyasi bilan mashhur bo'lgan. «Yangi Eloiza» romani «Emil yoki Tarbiya haqida» gi risolalarida axloq va tarbiya masalalarini mohirlik bilan ifodalagan. Faylasuf hayot jarayonida fan, madaniyat va san'at o'z taraqqiyoti yo'lida insonlarning ma'naviyatini buzgan, degan qat'iy ishonchga keladi. Ular inson va tabiat o'rtasidagi tabiiy hamohanglikni izdan chiqargan. Boshqa ma'rifatparvarlar singari Russo ham qachon hokimlik donolik bilan bir bitimga kelmas ekan, xalq baxtsizlikda qolaveradi, degan fikrda bo'lgan.

Jan Jak Russo o'zining «Tengsizlikning kelib chiqishi va sabablari haqida mulohazalar» asarida jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik manbalarini tahlil qiladi. Uning fikricha, bu tengsizlik birdaniga bo'sh yerda paydo bo'lmagan, balki bunda ishlab chiqarish qurollarining borgan sari takomillashib borishi va unda ijtimoiy funksiyalarning taqsimlanishi katta rol o'ynagan. Avval oila, keyinchalik urug' va hokazolar shakllangan. Ana shu asnoda xususiy mulk va unga egalik asta-sekin paydo bo'la boshladi. Xususiy mulkchilikning yuzaga kelishi kishilar o'rtasiga nifoq soldi. Yerga bo'lgan xususiy mulkchilik kishilar o'rtasida mulkiy tengsizlikni, boy va kambag'allarni yuzaga keltirib, ular o'rtasidagi raqobatning kuchayishiga olib keldi. Faylasuf ta'kidlaganidek, jamiyatda ijtimoiy qutblar tashkil topa boshladi. Bu esa o'z navbatida ular o'rtasida mulk uchun urushlar va janjallarning paydo bo'lishiga olib keldi. Keyinchalik boylarning manfaatlarini himoya qiluvchi qudratli kuch, ya'ni davlat paydo bo'la boshladi. Davlatning kelib

chiqishi bilan jamiyat taraqqiyotida qarama-qarshiliklar va nizolarning kuchayishi sinfiy qatlamlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Insonning inson ustidan zo'rvonlik qilishi tengsizlik sivilizatsiyasiga olib keldi. Inson qaytadan erkinlikka erishishi uchun nima qilmog'i kerak? degan tabiiy savol tug'iladi. Faylasufning fikricha, «fuqarolar» bitimini amalga oshirish lozim, ya'ni erkin bitimga asoslangan jamiyatning huquqiy tashkilotini tuzish kerak. Davlat esa fuqarolarning mazkur qonunlarni himoya qiluvchi kuchga aylanishi zarur. Russo fikricha, davlat respublika shaklida bo'lib, na boylar va na kambag'allar bo'lishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Xalqning manfaatlarini himoya qiluvchi oliy organ — xalq majlislari bo'lmog'i lozim. Bu organ chiqargan qarorlar hukumat va hukmron tashkilotlar tomonidan bajarilishi zaruriy sanalmog'i lozim.

Xalq suvereniteti to'g'risidagi g'oyalar faylasufning ijtimoiy falsafasida asosiy o'rin egalladi. Jan Jak Russo xalq suvereniteti ma'nosida hokimiyat xalq uchun, xalqning orzu-umidlarini amalga oshiruvchi bo'lmog'i lozim deydi.

Xususiy mulkchilik odamlar o'rtasida ijtimoiy antogonizmni keltirib chiqaradi. Dastlab «tabiiy holat» mavjud. Bu davrda kishilar erkin va tengdirlar. Bu holatni Russo ideallashtirdi. Uning fikricha, takomillashtirish imkoniyati ishlab chiqarish qurollarini va mehnat usullarini yaxshilaydi. Shu asosda xususiy mulkchilik kelib chiqadi va mulkiy tengsizlik sodir bo'ladi. Buning oqibatida davlat vujudga keladi. U o'z navbatida tengsizlikni keltirib chiqaradi. Xo'jalik faoliyatidagi, fandagi, sanoatdagi yutuqlar kishilar tomonidan erkinlik va baxtni yo'qotish bilan chambarchas bog'liq. Axloq va siyosat regressiya (orqaga qaytish) tufayli paydo bo'ladi.

Pirovard natijada huquqsizlik, adolatsizlik zolim podshoni ag'darish tufayli bartaraf etiladi. Kishilar zulmdan xalos bo'lgach, endilikda qanday yashash yo'lini izlashlari lozim va barcha jihatlarida birlashishi kerakligini ta'kidlaydi. Albatta bu jarayon jamiyatda va xalqlar o'rtasida kelishuvni amalga oshirish tafayli yuzaga chiqadi. Oqibatda yaxlit kollektiv davlat barpo etiladi. Xalq oliy hokimiyat va suverenitetga ega bo'ladi.

Russoning siyosiy ideali - to'g'ridan-to'g'ri demokratiyadir. Unda qonunlar bevosita barcha fuqarolarning majlisida qabul qilinadi. Albatta, bu g'oyalarni hududiy jihatdan kichik bo'lgan davlatlarda amalga oshirish mumkin. Katta davlatlarda amalga oshirib bo'lmaydi. Russoning xususiy mulkchilik to'g'risidagi qarashlari izchil bo'lmagan. Uning nazarida xususiy mulkchilikning kelib chiqishi xalqqa behisob kulfatlar keltiradi. U xususiy mulkchilikni yo'q qilish tarafdori bo'lmay, balki uni barcha fuqarolar o'rtasida hayot kechirishlari uchun zaruriy miqdorda ulashish kerak degan fikrni qo'llab-quvvatlaydi. Russoning bu qarashlari mayda burjuaziyaning qarashlaridir. U xususiy mulkchilikning mavjudligi mulkiy bo'linishga olib kelishini tushunib yetmadi. Russoning ijtimoiy bitimi faqat amaliyotda burjua-demokratik ruspublikasida amalga oshishi mumkin.

## **2. Nemis klassik falsafasining tarixiy – falsafiy g'oyalari.**

Nemis tarix falsafasi maktabi jahon falsafa fanining I.Gerder, V.Gumboldt, G.Gegel, I.Kant, A.Shopengauer, G.Rikkert, V.Diltey, E.Trelch singari yirik namoyandalarni yetishtirib berdi. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, nemis tarix falsafasi anglo-fransuz ma'rifatparvarligi qarashlariga teskari bo'lgan yo'nalishni ishlab chiqdilar va o'z g'oyalarini ilgari surdilar. E.Trelchning xulosalariga ko'ra nemis va anglo-fransuz tarix falsafasi o'rtasidagi farq ko'zga yaqqol tashlanadi. Nemis maktabi o'zining diniy-mistik xarakteri bilan alohida ajralib turadi. O'z navbatida anglo-fransuz maktabi tarix cho'qqisini ma'rifatparvarlik ideallari orqali kashf etdi.

Tarixiy taraqqiyotning universal konsepsiyasi Gegel tomonidan vujudga keltirildi. Ayni u tarixiy dinamika nazariyasini yaratdi va bu sohada o'ziga xos olamshumul yangilikni vujudga keltirdi. Yoki boshqacha qilib aytganda, E.Trelch xulosalariga ko'ra «barcha tarixiy taraqqiyot nazariyalari qandaydir undan chekinganday, unga qarshi turganday ko'rinsa-da, biroq ularning barchasi uni butunlay inkor eta olmadi. Shuning uchun ham tarixiy dinamikaga doir barcha tadqiqotlar tarixiy dialektika tushunchasidan kelib chiqmog'i darkor»<sup>4</sup>.

---

<sup>4</sup> Трельч Э. Историзм и его проблемы. М. Юрист. 1994. С. 209.

Ta'kidlash kerakki, xuddi shu o'zaro bog'liqlik, uyg'unlik uning rivojlanish qonuniyatlarini, taraqqiyot omillarini tarkibiy jihatdan va barcha tarix falsafasiga doir ta'limot, nazariya, yo'nalishlar, konsepsiyalar va metodologiyalarga asos bo'lib xizmat qiladi. Tarixiy taraqqiyotning davom etishi inson aqliy faoliyatining tabiiy rivoji bilan uzviy ravishda aloqador bo'lib, jamiyat va insoniyat taraqqiyoti bir-birini to'ldirib boradigan, bir-biriga turtki bo'ladigan, bir-birini takomillashtirib, sivilizatsiyaning yangi bosqichiga olib boradigan madaniy-ruhiy, axloqiy-ijtimoiy hodisadir. Bunda, albatta, butun borliqda ezgu amallar himoya qilingan, adolat ustivor bo'lgan, insoniylik xislatlari va fazilatlari yuksalgan davrlar nazarda tutilmoqda. Vaholanki, keksa tarix bunday jarayonlarning teskarisiga ham guvoh.

Nemis falsasufi (I.Kant) ning tarix falsafasiga gnoseologiya va metafizika, erkinlikning axloqiy olami hamda tarixiy hayotning ma'naviy sistemasiga chuqur kirib borish orqali tabiatning qarama-qarshilik qonunidan kelib chiqadi. Uning fikricha «tarix bu – tabiat olamidan farq qilgan holda erkinlik ramzidir. Qaysiki u tabiat va erkinlik bir-biri bilan bog'liqligi to'g'risidagi qonuniyat asosida faoliyat ko'rsatadi. Falsafa esa tafakkur tizimi, aql va zako maydonidir»<sup>5</sup>.

Yana bir nemis faylasufi (Gegel) tarixiy taraqqiyot dinamikasi va uning bosqichlari haqida chuqur o'ylanib, tarixiy xotiraning mantiqiy tahlili, tarix haqiqatini kashf etish bilan tarixning mohiyatini ochish zarurligini uqtiradi. Ana shundan kelib chiqib, V.Vindelband «Dialektik jarayon taraqqiyoti Gegelda ratsional tanqid bilan birga bir shakldan ikkinchi shaklga o'tish mantig'idir»<sup>6</sup>, degan edi.

Gegelning tarix falsafasi asosan ikki yo'nalishdan boradi: birinchisi, anteistik falsafaga muvofiq barcha reallik ruhda namoyon bo'ladi deydi. Keyingi jarayonda gnoseologiyani chuqur o'rganish «Tezis – antitezis – sintez» formasidagi tafakkur shakllarini qo'llashni taklif etadi. Albatta, birinchi yo'nalishda, darhaqiqat, tarixiy tafakkur ruh orqali o'zini anglaydi, o'zni tushunadi va o'zini inkor etadi. Natijada

---

<sup>5</sup> Кант И. Первое введение в критику способности суждения. Соч. в 6-ти томах. «Мысль». 1966. Т-5. С. 101.

<sup>6</sup> Виндельбанд В. Избранное. Духи история. М. Юность. 1995. С. 318.

tarix o'zini butun qarama-qarshiliklari va barcha realliklari bilan tiklaydi va o'zaro birlikka, yaxlitlikka erishadi.

Gegel tarix falsafasi ayni madaniy-tarixiy yoki, boshqacha aytganda, ma'naviy-tarixiy mazmunga ega. Qarashlar va ta'limotlarning bunday turli-tumanligi ayni paytda tarixni anglashning universal shakli bilan birga umuminsoniy qarashlarning uyg'unligiga ham olib keladi. Demak, jonli mavjudotning turli konfliktlar, plyuralizm va xalqlar o'rtasidagi qarama-qarshilik va manfaatlar to'qnashuvi insoniyat birligiga intilsagina, o'zaro tushunish, murosa va kelishuvlar yuzaga keladi va umuminsoniy manfaatlar ustuvorligi qaror topadi.

Bundan tashqari yana shunday nemis ijodkorlari (A.Myuller, F.Shelling, V.Gumboldt) lar insoniyat tarixini tadqiq etish, ichki va tashqi qonuniyatlarini o'rganish borasida alohida o'ringa ega yo'nalishni kashf etdilar. F.Nisshe va V.Dilteyning hayot falsafasining psixologik tahlili, V.Vundtning pozitivizm sohasidagi qarashlari o'ta dolzarb bo'lib, jahon tarixi va insoniyat kelajagini ruhiy taskinlik, inson kayfiyati, uning psixologiyasini tahlil etish orqali jahon tarixi sivilizatsiyasining yuksalishida o'ziga xos yirik nazariya sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Pozitivizmga qarshi tafakkur va ratsional harakatdagi kuchlar hamda ilg'or tarixiy taraqqiyot qonuniyatlariga va maqsadlariga qarshi holda ruhni irratsional ma'naviyatga aylantirish yo'lini tanlagan olimlar ham mavjud bo'lib, (F.Nisshe va V.Diltey) ular o'z mulohazalarida ruhiy qadriyat xususiy, erkin va mustaqildir. Insonning ayni ana shu uch xususiyati tarixiy taraqqiyotga fundament bo'lishini ta'kidlab o'tadilar.

Nemis maktablarining o'ziga xos bo'lgan muhim jihatlari shundaki, tarixiy dinamika hozirda ham davom etib, bevosita insonning ichki dunyosi, fe'l-atvorini o'zida ifoda etuvchi ta'limotga aylangan. Inson tafakkurining ruhiy-ilohiy, taqvo va xulq yo'nalishlarining tarixni anglashdagi roli, insoniyatning ma'naviy birligi, tarixiy taraqqiyotda universallik va tarixiy dinamika kabi turli omillarni o'rganish bilan dialektik aloqadordir.

Nemis tarix falsafasining yirik namoyandalaridan biri Osvald Shpenglerdir. U o'zining mashhur «Yevropa quyoshining so'nishi» asarida tarix falsafasining o'ziga xos yo'nalishi haqidagi g'oyalarini ilgari suradi. Shpengler dunyoni mistik qarashlar orqali anglash, insonning intuitsiyasi, ichki hissiyot va voqelikni his qila olish imkoniyatlari xususida fikr yuritadi.

Shpengler xulosasiga ko'ra "qancha odam va madaniyat bo'lsa, shuncha dunyo mavjud. Har bir alohida inson uchun yagona, mustaqil, abadiy dunyo mavjud. Dunyoning bunday mavjudligi har bir inson uchun doimiy yangi, bir marta amalga oshadigan, hech qachon qaytarilmaydigan kechinmadir".<sup>7</sup> Bir qarashda, darhaqiqat, butun insoniyat alohida mustaqil borliqdir. Uning o'z dunyosi bo'lganidek, o'z ibtidosi va intihosi ham bor. U tashqi dunyoni o'zining ichki olami orqali o'zicha tushunadi, o'zicha angelaydi, unga o'zicha baho beradi. Ushbu ta'rifdan shuni anglash mumkinki, odamzodning butun bosib o'tgan hayot yo'li har bir odam uchun garchi u yaxlit, bir butun tarix, real tarixiy jarayon bo'lsa-da, uni anglashda o'ziga xoslik, unga yondoshishda xususiylik bo'lishi tabiiy. Demak, real tarixiy jarayon real inson tasavvurida real fikr-xulosaga aylanishi mumkin. Ana shu holatdan kelib chiqib ham Shpengler «ilmiy bilish bu o'z-o'zini anglashdir» degan g'oyani ilgari suradi<sup>8</sup>.

Tarixni anglash, tarixni falsafiy tushunish orqali inson o'zligini angelaydi va o'ziga xos qadriyatga aylanadi. Bunday jarayon insonda intuitiv imkoniyat, his qilish qobiliyati orqali ham yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun Shpengler tarixni tushunishda insondagi psixologik xususiyatlarni, ya'ni intuitsiya, his-tuyg'uning rolini ustun deb ataydi. Shuning asosida esa, voqelikni to'g'ri his qila olish, tarixiy mushohada, tabiiy intuitsiya natijasi degan g'oyani ilgari suradi. Hatto, u tarixni hissiyot orqali tushunish g'oyasini ilgari surar ekan, «agar kim buni his qilmasa, tarix bilan shug'ullanmasin, tabiatni bilishga o'rganish mumkin, lekin tarixchi bo'lib tug'ilish kerak. Tarixchining kuchi shundan iboratki, u ongsizlik darajasida tarix jarayonini instinktiv ravishda biladi, bunday uslubda har qanday

---

<sup>7</sup> Қаранг. Йўлдошев С., Усмонов М., Каримов Р. ва бошқалар. Янги ва энг янги давр Ғарбий Европа фалсафаси. Т.; «Шарқ». 2002. Б. 229.

<sup>8</sup> Ўша манба. Ўша жой.

inson ham ishlash olmaydi»<sup>9</sup>, - deydi. Ushbu ta'riflardan shunday xulosa qilish mumkinki, borliqni anglash uchun bilimning o'zi yetarli, tarixni anglash uchun esa uni his qila olish, tarixiy jarayon ortida yotgan inson taqdiri, mohiyati, hayot mazmuni va kechinmalari, sevinch va iztiroblari yotganligini ham anglamoq zarur ekan. Ana shunda har bir tarixiy voqelik tarix falsafasiga aylanadi. Demak instink va his qila olish qobiliyati, intiutsiya quvvati tarixchi uchun noyob va qimmatli fazilatdir.

Keyingi jarayonda sivilizatsiyani madaniyat belgisi sifatida tushungan, har qanday madaniyat o'zining rivojlanish xususiyatlariga, o'zining sivilizatsiyasiga ega degan g'oyani ilgari surgan Shpengler ham o'z obro'-e'tiborga ega bo'ldi. Uning nazarida sivilizatsiya madaniyatli insonlarga xos hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur olim madaniy taraqqiyot, tarix rivoji, uning dinamizmi xususida fikr yuritar ekan, «har qanday madaniyat insondek hayot kechiradi. Ularning o'z bolaligi, o'smirligi, o'rta yoshligi va qariligi bo'ladi»<sup>10</sup> deydi. Demak, har qanday madaniyat o'zining ibtidosi va intihosiga ega. Shuning uchun ham turli davrlarda yuz bergan turli mintaqalardagi sivilizatsiyalar qaysidir darajada susayish, orqaga ketish holatlarini ham boshdan kechirgan. Ana shu tarixiy dalillar hamda insoniyat o'tmishidagi buyuk ko'tarilishlar va tanazzullarni nazarga tutib O.Shpengler har qanday sivilizatsiya tanazzulga mahkumdir, degan fikrni ilgari suradi. Sivilizatsiyalar taqdiri, uning istiqboli xususida gapirar ekan, «mening fikrimning markazini taqdir g'oyasi tashkil qiladi. O'tib ketganlarning taqdiri ham shunday bo'lgan, hozirgi G'arbiy Yevropa madaniyatini ham halokat kutmoqda»<sup>11</sup> deydi.

Shunday qilib, O.Shpengler insonning biologik mavjudot sifatida yaratuvchilik imkoniyatlarini, bu imkoniyatlarni ro'yobga chiqaruvchi ilohiy qudrat ruh, e'tiqod ekanligini ta'kidlaydi. Dunyoni anglashda, olamni tushunishda uning ana shu g'oyalari yaqqol ko'zga tashlanadi va «tabiatni mushohada qilish asnosida diniy e'tiqod yotadi. Dindan oldin paydo bo'lgan tabiiy bilim yo'qdir. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda katolikcha va materialistik tabiatni bilish

---

<sup>9</sup> Қаранг. Йўлдошев С., Усмонов М., Каримов Р. ва бошқалар. Янги ва энг янги давр Ғарбий Европа фалсафаси. Т., 2002. Б. 231.

<sup>10</sup> Шпенглер О. «Закат Европы». М.; 1992. С.114.

<sup>11</sup> Ўша манба. Б. 20.

o'rtasida hech qanday farq yo'qdir. Ular bir narsa to'g'risida, lekin har xil tilda gaplashadi. Hattoki, ateistik soha ham diniy asosga egadir. Hozirdagi mexanika ham xristian aqidalaridan andoza olgandir»<sup>12</sup> dir. Olim ushbu mulohazasi bilan ruh birlamchi, e'tiqod xatti-harakatlar va voqeliklarni boshqaruvchi ilohiy qudrat degan xulosani aytgan. Uning qarashlarida bu - juda uzoq va ming yilliklarni qamrab olgan yaxlit olam, ruh va e'tiqod orqali inson tomonidan amalga oshirilgan buyuk haqiqat - insoniyat tarixidir deb ta'kidlangan.

### **3. Kant, Fixte, Shiller, Shellingning tarixiy va falsafiy qarashlari.**

Immaniul Kant 1724 yil Sharqiy Prussiyaning Keninsberg shahrida, hunarmand oilasida tug'ilgan. Shu shaharda gimnaziya, universitetda o'qiydi. Otasi pastor bo'lishini xohlaydi, u 1745 yilda universitetning ilohiy fakultetini tugatadi. Kant falsafaga qiziqadi, ruhoniy bo'lishni istamaydi, 9 yil davomida uy o'qituvchisi bo'ladi. U 2 ta dissertatsiyani muvaffaqiyatli yoqlaydi, 1755 yilda Keningsbergda privat-dotsent lavozimida ishlaydi. Metafizika, mantiq, axloq falsafasi, matematika, fizika, fizik geografiyadan dars beradi. U qomusiy tafakkur egasi bo'ladi. 1770 yilda dissertatsiya yoqlaydi va professor bo'ladi. Yangi falsafaga tamal toshi qo'yiladi – bu tanqidiy davr falsafasi edi. Bu falsafa trilogiyadan iborat: “Sof aql tanqidi” (1781); “Amaliy aql tanqidi” (1788); “Muhokama qobiliyati tanqidi” (1790). Gnoseologik ahamiyatga ega falsafasi “Transsendental idealizm” nemis klassik falsafasining asosi hisoblanadi. 1786-1790 yillarda dekan va rektor lavozimida ishlaydi. 1797 yil o'qituvchilik faoliyatini tugatib iste'foga chiqadi. Uning falsafasi, hayotiga o'xshab taqsimlangan, bir xil tarzda o'tdi.

#### **Fizik monodologiyasi va kosmologik gipotezasi.**

Kant Leybnitsning ruhiy monodologiyasiga qarshi chiqadi. Monoda – bu ruhiy atom emas, balki makondagi fizik tanadir, ya'ni moddiy atomdir – unga kuch-quvvat xosdir, bu tortishish va itarish kuchidir. “Eng umumiy tabiiy tarix va osmon nazariyasi” (1755) – bu asar Kant tabiat falsafasining eng yuksak

---

<sup>12</sup> Ўша манба. Б.385.

cho‘qqisidir. Galileydan to Nyutongacha koinotning harakatini tabiiy ravishda hech kim tushuntirmagan. Kant buni ilmiy isbotlab berdi. Kantgacha hech kim harakat materiyaning mohiyatini, atributiv xususiyatini ochmagan, buni ilohiyatga taqashgan. Kant o‘zining kosmologik ta’limotida olamni bilish mumkinligiga ishongan. 1763 yil Kant biologik muammolarni o‘rganib, uni xudo tomonidan yaratilganligini inkor qiladi. Kant tabiiy-ilmiy determinizm pozitsiyasida turadi. Uning fikricha, Lukresiy, Epikur, Demokrit va Levkipp nazariyasi unikiga o‘xshab ketadi.

### **Gnoseologik-metodologik qarashlari.**

Kant metafizikasi – bilishimizning birinchi asoslari haqidagi falsafadir. Kantning davrigacha bo‘lgan metafizika uni qoniqtirmaydi. Ikki yangilikni kiritadi: 1) ketma-ketlik prinsipini, 2) birga mavjudlik prinsipini. “Falsafaga aks ta’sir etuvchi kattalik tushunchalarini kiritish tajribasi” (1763) to‘g‘risida asar yozdi. “Metafizik xayollarini ilohiyotchi xayollari orqali aniqlash” (1766) asarida Svedenborg mistikasini tanqid qiladi. Spekulyativ metafizika bilan insonning ruhiy hayotini bilib bo‘lmaydi; makonni tahlil qilishdan boshlanadi.

### **“Tanqidiy” falsafa sistemasi.**

Kantning dissertatsiyasi “Hissiy qabul qilinuvchi va aqliy mushohada qilinuvchi dunyoning shakllari va prinsiplari haqida” deb nomlanadi (1770). Kant sistemasida “tanqid” iborasi ko‘p ma’noga ega, dogmatizmga qarshi kurash, bu sof aqlning dogmatik uslubiga qarama-qarshi, bu uslub Dekartdan to Leybnisgacha bo‘lgan. Kantning dogmatik uslubga qarshi qo‘ygan yangi talablari: prinsiplarni qonuniy shakllanishi; tushunchalarni aniq aniqlash; qat’iy isbot orqali xulosalash. Hal qilinishi kerak bo‘lgan metafizik muammolar: xudo borligi; iroda erkinligi; ruh abadiyligi; dunyoni yaxlit, yakka tushunish. Tabiiy-ilmiy fan xulosalari – metafizika uslublari bo‘lishi mumkin. Tabiiy-ilmiy haqiqatlar tafakkur yordamida mushohada orqali ishlab chiqiladi. Kant gnoseologiyasiga tafakkur bilan birgalikda hissiyotni ham qo‘shdi, bu unga katta imkoniyatlarni berdi. Kant “Sof aqlning tanqidi”da 3 ta savolni qo‘yadi:

1) sof matematika qanday mumkin?

2) sof tabiiy bilim qanday mumkin?

3) sof metafizika fan sifatida qanday mumkin?

### **Apriorlik.**

Ilmiy haqiqat aprior asosga ega. Apriorlik nafaqat aqlga, balki hissiyotga ham taalluqli. Apriorlik tushuntirib bo'lmaydigan berilganlikdir. Aprior bilimlarning mohiyati – zaruriylik va qat'iyon umumiylikdir. Matematika va nazariy tabiiy bilimlarning asosi apriordir. Aprior bilimlar tajribagacha bo'lgan bilimlardir, aprior bilimlarga empirik bilimlar qarma-qarshi turadi. Mutloq haqiqat Nyuton fizikasida, tabiiy bilimda, Evklid matematikasida, geometriyasida mavjud.

**Kant fikricha hamma nazariy fanlar aqlga tayangan, prinsip sifatida aprior sun'iy, sintetik mulohazalarga tayanadi.**

Sintetik bilimlar predikatni sub'ekt bilan aloqasidir, aynansizlikdir. Analitik bilimlar – tushuntiradi, sintetik bilimlar esa – kengaytiradi. Transsendental bilim – bu predmetlar bilan emas, balki bizning bilimimizning turlari bilan shug'ullanadi. “Sof aql tanqidi” – bu transsendental tanqiddir, transsendentallik (ongga bog'liq bilish mumkin) transsendentlikka (ongdan tashqarida, uni bilib bo'lmaydi) qarama-qarshi turadi. Kantning “Sof aqlning tanqidi” asari 2 bo'limdan iborat: transsendental estetika (hissiyot haqida ta'limot) hamda transsendental mantiq (intellekt haqidagi ta'limot); intellekt – mushohada shaklida “transsendental analitika”; tafakkur shaklida – “transsendental dialektika”; Kant bilishning hissiy va aqliy darajalarini ochib berishga o'z diqqatini qaratadi, bilimning aprior va aposterior elementlarini tahlil qiladi.

### **Makon va zamon.**

Kant fikricha, makon – tashqi mushohadaning asosida yotuvchi zaruriy aprior tasavvurdir, zamon – hamma mushohadaning asosida yotuvchi zaruriy aprior tasavvurdir, makon tashqi hissiyot hodisalarning shaklidir, zamon – ichki hodisalarning bevosita shartidir. Makon va zamon sub'ektiv mushohadasiz hech qanday mazmunga ega emas, makon va zamon “narsa o'zida emas”. Hissiyotdan tashqarida har xil o'zgarishlarni sezish mumkin emas, hamma hissiy qabul qilinuvchi moddiy tanalarning inson ongida manbasi bor. Narsalar hodisa sifatida

hissiy mushohada predmeti sifatida zaruriy ravishda makon va zamonda mavjud. Kant ob'ektivlikni sub'ektiv talqin qiladi, Kant fikricha, matematikada – geometriya makoniy tasavvurga ega, arifmetika zamoniylas tasavvurga ega. Makon va zamoni sub'ektiv talqin qilgandan so'ng Kant aloqani ham sub'ektiv talqin qiladi. Aloqani sintez deb oladi – bu faqat mushohada orqali amalga oshiriladi. O'z-o'zini anglashning transsendental biriligi bu aprior berilganlikdir. Mushohada berilgan ko'p turlilik ob'ekt haqida tushunchaga aylanadi, bunda idealistik shaklda analiz va sintezning dialektik birligi berilgan. Appersepsiya – bu mushohada shaklidir.

### **Ratsional teologiya tanqidi.**

Kant fikriga ko'ra, dastlab xudo g'oyasi amalga oshadi, ob'ektga aylanadi, keyin ko'plikka aylanadi, va nihoyat, tafakkur harakati natijasida shaxsiylashadi. Bular sof tafakkur idealidir, ideal – bu aqlning adashishidir (saroblar dialektikasi salbiy ma'noga ega). Ratsional psixologiya, ratsional kosmologiya, ratsional teologiya – bular fan emas.

### **Axloqiy konsepsiyasi.**

Insonning hamma qilmishlari o'ziga muhabbat orqali shartlangan, ana shu shartlanganlik hissiyot orqali amalga oshadi. Kant erkin irodani yoqlab, fatalizmni qoralaydi. Fatalizm majburiyat va burchni inkor qiladi, erkin irodani tan olmay turib axloqiy harakat qilib bo'lmaydi. Kant o'zining axloqiy konsepsiyasini “Axloqiylik metafizikasi asoslari” nomli asarida bayon qiladi (1785), “Amaliy aql tanqidi” (1788), “Xulq metafizikasi” (1797), “Inson tabiatiga xos dastlabki yomonlik” (1792), “Bu nazariyada to'g'ri kelar, lekin amaliyot uchun bo'lmaydi” iborasi haqida” (1793), “Aql chegarasidagi din” (1793).

### **“Axloqiy qonun” va “amaliy aql”.**

Ikki narsa qalbimni to'ldiradi – osmon to'la yulduzlar va mendagi axloqiy qonun. Diniy teologik axloqiy qoidalarini inkor qiladi, ularni ijtimoiy-tarixiy shakllanganligini ham tan olmaydi. “Axloqiy qonun” inson ongida mavjud bo'lgan o'zgarmas berilganlikdir, u mutloq qadriyat xususiyatiga ega. Axloq majburiyatni inson tabiatidan emas, balki sof aqlning aprior shaklidan izlash lozim, bu yerda

amaliy aql nazarda tutiladi. Iroda asosini amaliy aqldan topish lozim, sof aql iroda yoʻnalishini aniqlaganda u amaliy aqlga aylanadi.

### **“Ezgu iroda” va burch.**

“Yaxshi niyat” Kant taʼlimotida fundamental asosga ega, “Yaxshi niyat” axloqiylikning ustunidir. “Yaxshi niyat” = “axloqiy qonun” orqali aniqlanadi. Burch ham shu qatordan oʻrin olgan, yaxshi niyat va burch insonni yuksaklikka koʻtaradi, ana shular insonni hayvonot dunyosidan ajratib turuvchi kuchdir. Axloqiy qonun muqaddasdir. Kant axloqiy taʼlimotida aql irodaga qarma-qarshi qoʻyilmaydi. Kant yaxshi niyatni aqlga muvofiq qilib qoʻyadi. Yaxshi niyat = amaliy aql. Axloqiy yoʻnalgan iroda hamma tirik jonzotga taalluqlidir. Yaxshi niyatni zaruriy komponenti bu avtonomlikda”; hech qanday tashqi shart bilan bogʻlanmagan”. Kant irodani insonning ijtimoiy va biologik shartlar bilan bogʻlanganligini inkor qiladi, jumladan, uni xudo irodasi bilan shartlanganligini ham inkor qiladi. Sof axloqiy harakat, faqat va yana faqat burchni bajarish uchun qilingan harakatda koʻrinadi. Kantni axloqiy rigorizmda, pedantik qatʼiylikda ayblashadi. Kant “Axloqiylik metafizikasi asoslari” asarida axloqni dindan ajratish kerakligini qadamma-qadam asoslab borgan, yaxshi niyat eng oliy ezgulikdir. Kant etikasiga evdemonik va utilitar taʼlimotlar qarma-qarshi turadi. Yaxshi niyatni tugʻdirish maqsad boʻlishi shart!

### **Axloqiy burch va majburiyatlar.**

Inson oʻz taqdirini toʻgʻri yaratish uchun qaygʻurishi shart, sport bilan shugʻullanish, hayotdan estetik zavq olish, hurmat va muhabbat majburiyatlardir. Ikki insonning dunyoqarashi bir-biriga yaqin va oʻxshash boʻlsa bundan doʻstlik yuzaga keladi. Doʻstlikda inson ehtiyojlari qondiriladi. Inson maqsadi – oʻzini komillikka intilishi va boshqalarni baxti uchun yordam berishidir. Hamma tashqi tomondan qilinadigan qarma-qarshiliklarga erkin iroda orqali kurashish kerak. Aql dunyosi – nomoddiy; hissiyotdan tashqari; sof ruhiydir, inson erkin irodasi aql dunyosida asoslanadi.

### **Axloq va din.**

Axloq dinga muhtoj emas. Axloq dinga olib boradi, ya'ni xudoni axloqiy qonun yaratuvchisi sifatida ko'radi. Diniy e'tiqod axloqqa nisbatan ikkilamchi xarakterga ega. Xudo g'oyasi axloqni asoslaydi, axloqiy din insoniy majburiyatlarni xudo so'zi sifatida bajarishdir. Hamma tarixiy real dinlar xudoga sig'inish sifatida mavjud bo'lgan. Kant fikricha, din – ilohiyotlar yig'indisi emas, majburiyatimiz yig'indisidir. Insondagi yovuzlik va ezgulik erkin irodaga bog'liq, o'z ustidan kurash olib borib yovuzlikni yengish zarur.

### **Faylasuflarning axloqiy burchi.**

Ta'limotlarning haqiqatligini tadqiqotchisi bo'lishi kerak. Kant faylasuflarni davlat maslahatchilari bo'lishini xohlaydi. San'at falsafasi va estetik mulohaza qobiliyati. Ajoyiblik – bu hech qanday manfaatsiz hammaga birdek yoqish, ajoyiblik – sof shakli orqali yoqadi, ajoyiblik – axloqiy ezgulik belgisidir.

### **Tarix falsafasi va ijtimoiy falsafa.**

Fransuz revolyutsiyasiga 5 yil qolganda Kantning ijtimoiy falsafaga bag'ishlangan ishlari bitilgan. “Butunjahon fuqarolik sharoitida eng umumiy tarix g'oyasi” (1784), “Ma'rifatparvarlik nima – savolga javob” (1795), “Xulq metafizikasi” birinchi qism (1797). Kant ongli ravishda “Tarix metafizikasi” ni yaratishdan voz kechadi. Kant tomonidan tarix naturalistik ko'riladi, insonning tabiiy imkoniyatlari individda emas, balki urug'da ro'yobga chiqadi. Insonni harakatga chorlovchi kuch bu uning – mag'rurlik, hokimiyatga intilishi, manfaatparastlik xislatlarining mavjudligini e'tirof etib, tarix falsafasi ijtimoiy-madaniy xususiyatga egaligini ko'rsatib o'tadi Bu axloqiy salbiy ehtirolarsiz – insonning ko'pgina tabiiy imkoniyatlari rivojlanmay qolardi, bu ehtirolar ijtimoiy shartlanmagan. Tarixiy taraqqiyotga qarama-qarshi va antogonizmlarga xos. Insoniyatning eng oliy maqsadi fuqaroviy huquqiy jamiyatni qurishdan iborat.

### **Ma'rifatparvarlik.**

Kant o'z davrini “Ma'rifat asri” deb ataydi. Kant insonlarni ruhoniylarni ta'siridan ozod qilishda o'z fikrlarini erkin ifodalash sharoitini yaratish zarurligi haqida aytgan. Kant ideali – fuqaroviy tuzilma respublika bo'lishi kerak. Kant

fikricha, donishmandlar, odamlar ishonchi bilan saylangan vakillar – delegatlar emas, hukumat odamlari bo‘lishi kerak. Respublikani umumiy zaruriy qonunlar boshqarishi kerak, respublikachilik ijro hokimiyatini, qonun chiqaruvchi hokimiyatdan ajratadi. Kant aytishicha, ijtimoiy idealini tinchlik vositalari orqali amalga oshirish mumkin. Bundan tashqari olim “abadiy tinchlik” – bu eng yuksak siyosiy ezgulikdir. Butun jahon tinchlik uchun kurashadigan davlatlar federatsiyasini tuzish zaruratini aytib ketgan. Hokimiyat insonlarga emas, qonunga tegishli bo‘lishi shart. Axloq siyosatdan ustuvor bo‘lishi kerak, oshkoralik – bu siyosiy harakatlarni axloqiy tomondan va adolatli amalga oshirishdir. Pragmatik-manfaatli siyosatni qoralaydi. Kant fikricha, axloq nazariya emas, balki amaliyotdir. Inson huquqlari muqaddas bo‘lishi kerak, u davlat hokimiyatiga qanchalik qimmatga tushmasin, inson bilimning eng asosiy predmetidir va o‘zi uchun maqsad hamdir. Hamma falsafiy fanlarni antropologiyaga olib kelish mumkin. Kant 90-yillarda yetakchi faylasuflardan biri bo‘ldi.

### **Iogann Gotlib Fixte**

#### **“Fan ta’limoti” nazariy falsafa sifatida.**

Fixte o‘z “Fan ta’limoti”ni shoshilinch ishlab chiqishiga to‘g‘ri keladi. Kant o‘zining “Sof aql tanqidi” ustida 10 yil ishlagan bo‘lsa, Fixte kunlar orasida ishlashga to‘g‘ri keladi.

#### **“Fan ta’limoti”ning tamoyillari:**

- Fixte fikriga ko‘ra, erkinlik-amaliy va nazariy falsafani qo‘shuvchi yagona zanjirdir;
- Erkinlik amaliy falsafada real bo‘lsa, nazariy falsafada mistik xarakterga ega bo‘ladi;
- Shaxs erkinligi ob’ektiv olam bilan o‘xshash namoyon bo‘lmaydi;
- Fixte falsafasi: “Mening falsafam – erkinlik sistemasidir!”
- Fixte fikricha, aynan “fan ta’limoti” amaliy faoliyatni falsafiy asoslaydi;
- Fixtening bu pozitsiyasi volyuntarizmga, irodaviylikka olib keladi;
- Fixte Kantning “narsa o‘zidasi”ni ob’ektiv realligini inkor qiladi.
- Fixte uni qayta ko‘rib chiqib o‘zining “fan ta’limoti”ga moslashtiradi.

• Ilm-fan o'zining prinsiplariga ega, ammo bu omil fandan kelib chiqmaydi, bu asosni fan to'g'risidagi falsafa berishi mumkin.

• Fixte bilimlar sohalarining tahliliga emas, ob'ekt va sub'ekt munosabatlariga e'tibor qaratadi;

• Fixte fikricha, "narsa Men tomonidan idrok qilinadigan hodisadir" falsafa ana shu asoslardan kelib chiqsa "fan ta'limoti"ga aylanadi.

• Fixte dogmatizm-transsendentdir, chunki u "Menning" chegarasidan chiqib ketadi;

• Aynan Fixte materializm va idealizm o'rtasidagi qarama-qarshilikni yaqqol ochib berdi;

• Fixte fikricha, "aqidaparast", borliqdan tafakkurga qarab boradi deydi, ya'ni olamdan ong kelib chiqqan deydi. "Tanqidchi" esa tafakkurdan borliqqa qarab boradi deydi.

• Fixte fikricha, materializmga (dogmatizmga) passiv, inert, atrofga nisbatan mushohadaviy munosabatda bo'luvchi insonlar kiradi;

• Idealizmga esa (tanqidiylikka) – faol insonlar, irodalilar kiradi.

• Fixte tafakkurni borliqqa munosabati masalasini hal qilishda intellektual intuitsiya haqida gapiradi.

• 1) intellektual mushohada – falsafaning qat'iy nuqtai nazaridir;

• 2) bu sof aql to'g'risidagi falsafiy bilimdir;

• "Men" sof "Men"dan kelib chiqishi kerak;

• "Men" o'z-o'zini harakatga keltiradi, narsa orqali aniqlanmaydi, balki narsani aniqlaydi.

• "Men" bilish mumkinligini ham aniqlaydi.

• Taassurot quvvati reallikni yaratadi.

Faqat "idrokda, uning mahsuloti ideallikdan reallikka aylanadi". Demak, idrok "mavjudlik qobiliyati" sifatida ta'riflanishi mumkin. "Men"ning "haqiqiy hayoti" uchun, uning faolligi yetmaydi, yana qandaydir turtki zarur, bu turtki "Men-emas" tomonidan bo'lishi kerak. Fixtning "Men-emas"i Kantning "narsa

o'zidasi"ga asta o'tadi. "Men-emas" ham faoldir, bu yerda ziddiyat hosil bo'ladi. Shu ziddiyatdan kelib chiqib Fixte 3-asoslovni ilgari suradi. Katta "Men" – kichik "men" va "Men-emas"ni taqozo qiladi. Katta "Men" eng umumiylikni ifodalaydi. "Men" o'zining bunyodkor faoliyatida empirik "men" va "Men-emas"ga bo'linadi. Unga har bir asoslovchi falsafaga yetib borishi kerak. "Eng umumiy "Men" – mutloqdir, u dunyoviy ruhdur, ruhiy substansiyadir.

### **Amaliy, ijtimoiy-axloqiy falsafa.**

Fixtening axloqiy konsepsiyasi ijtimoiydir. Kantning kategorik imperativini Fixte erkinliklarini namoyon qilish uchun maksimal kuchlarini jalb qilishlari sifatida talqin qiladi. O'zining faolligi tufayli erkin bo'lish va bu yo'lda har qanday to'siqni yengib o'tish har bir insonning axloqiy burchidir. Birovning erkinligini hurmat qilishgina har bir individ erkinligi chegarasi bo'lishi mumkin. Fixte filricha axloqning bunday talqini siyosiy, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotga munosabati bilan bog'lanib ketadi, bunda erkinlik bog'lovchi zanjir rolini o'ynaydi. Fixte erkinlikni bilimdan ajratmaydi.

### **Demokratik inqilobiy davr.**

Fixtening ijtimoiy falsafasi Russoning "ijtimoiy shartnomasi"ga o'xshaydi. Olim davlatning strukturasi shartnoma asosida tuzilishi kerakligini gapiradi, bu davlat har bir fuqaro erkinligini ta'minlashi kerak. Agar aksincha bo'lsa, ya'ni "bir kishining erkinligi, hammaning qulligi" bo'lsa, unda shartnoma asosida o'zgartirilishi kerak. Fixte Russoning ketidan xalq suverenitetini tan oladi. Xalq eng oliy hokimiyatdir. Agar ijroiya hokimiyati xalqqa qarama-qarshi tursa, unda uni hokimiyatdan olib tashlash kerak, isyon (bunt) emas, balki o'z huquqini tiklashga kiradi. 90-yillarda Fixte ta'biricha, insoniyatni feodallikdan qutulish davri keldi. Bu davr boshida axloqiy imperativ ustivor bo'ladi. Keyingi davrda ijtimoiy imperativlar qo'yiladi, ya'ni iqtisodiy, siyosiy masalalarni ko'rib chiqadi. Fixte erkinlik haqida o'ylashdan oldin, hayot, yashash haqida ham o'ylash zarur deydi, har bir inson o'z mehnati bilan kun kechirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Har bir inson mehnat qilishi kerak.

## **“Yopiq tijoratchi davlat”**

Fixte fikricha, davlatning iqtisodiy ustuvorligi, davlat tomonidan hamma narsa nazorat qilinishi kerak. Jinoyat jazolanishi kerak, qonunga qat’iyan rioya qilinishi kerak. Bunday davlat “qonunlar va individlarning yopiq davlati”dir. “U aql davlati” hamdir – bu yangi jamiyat tuzilishi. Fixte “etatizm” (fr. L’etat – davlat) demokratizmni inkor qiladi. Fixte markaziy planlashtirish g’oyasini ilgari suradi.

### **Tarix falsafasi**

Fixte fikricha, insoniyat tarixi harakati 5 davrga bo‘linadi:

• **1-davr**, “shartsiz aql, instinkt” hukmronligi davri;

• **2-davr**, “aqliy instinkt tashqi majburiy avtoritet hukmdorligiga aylanadi”; bunda ko‘r-ko‘rona e’tiqod, so‘zsiz bo‘ysunish talab etiladi – cherkov dini hukmronligi nazarda tutiladi;

• **3-davr**, o‘z irodasiga bo‘ysindiruvchi avtoritet hukmronligi ozod bo‘lish; bunda Fixte tomonidan, reformatsiya va diniy ma’rifatparvarlik nazarda tutiladi. Bu davrda har qanday haqiqatlarga beparvolik nazarda tutiladi. 1806 yilda insoniyat 3-davrda yashamoqda.

• Insoniyat tomonidan erkinlikka erishish **4-davrda** boshlanib **5-davrda** yakunlanadi.

• **5-davr**, “aql san’at darajasiga ko‘tarilgan davrdir”. Insoniyat bu davrda o‘z tafakkuri yordamida o‘z hayotini yaratadi. Ilmiy bilimni Fixte doimo yuqoriga ko‘taradi.

### **Fridrix Vilgelm Iosif Shelling.**

Fridrix Vilgelm Iosif Shelling (1775-1854) yilda Leonberg shahrida, pastor oilasida dunyoga kelib, 15 yoshida seminariyani tugatdi. 1790 yilda Tyubengen ilohiyot institutida o‘qidi, fransuz inqilobi ta’sirida hurfikrlik bilan qiziqadi. 1791 yilda Kantning “Sof aql tanqidi” asarini mutolaa qiladi. 1794 yilda Fixtning “Fan ta’limoti” bilan tanishadi, 1794 yilda “Umuman falsafaning qandaydir shakli haqida” nomli birinchi asarini yozadi. 1795 yilda “Dogmatizm va tanqidiylik haqida falsafiy maktublar” asarida Shelling Fixte falsafasidan uzoqlashadi. 1797

yilda “Tabiat falsafasi g‘oyalari” asarini yozadi. O‘zining original falsafiy konsepsiyasini yaratadi. Shelling 2 yil davomida naturfalsafani ishlab chiqdi. Shelling falsafasida asosiy burilish 1800 yildagi “Transsendental idealizm sistemasi” asari bo‘ldi. Bu asar naturfalsafani “fan ta’limoti” bilan sintezi bo‘ldi. Fixte bu ish bilan tanishib Shellingni “fan ta’limoti”dan uzoqlashganligini aytadi. Bu esa Shelling va Fixte o‘rtasidagi ajralishni yanada chuqurlashtiradi. Bunga Gegelning “Fixte va Shelling sistemasi o‘rtasidagi farq” asari ham sabab bo‘ladi. 1801 yilda Shelling o‘z asarining birinchi bobida falsafasining originalligini gapiradi. Ob‘ektivlik va sub‘ektivlikning mutloq bir-biriga aynan tushishi hamma mavjudlikning manbasi bo‘ladi, deydi Shelling. U “Ayniyat falsafasi” darajasiga ko‘tariladi. 1802 yilda “Mening falsafiy sistemamning keyingi talqini” asarini yozadi. Shelling 1806 yilda “Fixte” ta’limotiga naturfalsafaning munosabati – Fixtaning tabiatga bo‘lgan munosabatini qoralaydi. 1804 yilda “Ayniyat falsafasi”ni “Falsafam tizimi” nomli asarida bayon qiladi. O‘z falsafasining cho‘qqisi hisoblaydi hamda falsafasining asosini diniy afsonalardan qidirishga harakat qiladi. Bu yo‘lda birinchi qadami “Bruno yoki narsalarning ilohiy va tabiiy asoslari”, (1802), 1803 yilda “Falsafa va din” asarlari bo‘ldi. 1802-1805 yillarda “San’at falsafasi” kursini ishlab chiqadi. 1804 yilda “Umuman falsafa tizimi, xususan tabiat falsafasi” kursini ishlab chiqadi – teosofiyaga yo‘naltirilgan. 1807 yilda Gegelning “Ruh fenomenologiyasi” asarini o‘qib chiqadi. Shellingga bu asar qattiq zarba beradi; 1809 yilda Shellingning “Inson erkinining mohiyati va u bilan bog‘liq bo‘lgan narsalarning falsafiy tadqiqoti” nomli asari ziyolilar tomonidan tanqidiy kutib olinadi. Shundan keyin Shellingda qo‘rquv hissi tug‘iladi, keyingi asarlarini nashr ettirishga yuragi dov bermaydi. 1811-1815 yillarda “Mifologiya haqida ma’ruzalar” yozadi. Shelling Gegelning nufuzi oshib borayotganligidan aziyat chekadi. Gegel Shellingning ayniyat g‘oyasini o‘g‘irlab oladi. 1840 yillarning boshida Shellingning Gegelga qarshi kurashi boshlanadi. 1841 yilda Berlinga kelib Prussiya hokimiyati tomonidan Gegel maktabi ta’sirini susaytirish uchun universitet professori lavozimida ma’ruzalar o‘qiydi. Bu vazifaga Shelling jon-jahdi bilan kirishadi. Dastlab uning ma’ruzalari katta qiziqish uyg‘otadi, uning

ma'ruzalarida avstriya posoli knyaz Metternix, rus anarxisti M.Bakunin, daniyalik faylasuf S.Kerkegor, F.Engels qatnashadi. Shelling o'z ma'ruzalarida Gegel falsafasiga qarshi chiqadi, "Mutloq idealizm" shaklida tuzadi. Gegelni borliqning realligini ilohiy vahedan topish mumkinligini izohlaydi, shundan so'ng Shelling tinglovchilari kamaya boshlaydi.

Jamiyat tarixi XIX asr nemis falsafasida inson faoliyatining maydoniga aylangan edi. Shuningdek, yaxlit va qonuniy jarayon davrlar holatining va kishilar o'rtasidagi munosabatlarning o'zgarishiga olib keldi. XIX asr nemis falsafasi o'z davriga nisbatan dunyoni chuqur va keng tushuntira oldi. Keyinchalik nemis faylasuflari boshlab bergan ishni boshqa mutafakkirlar davom ettirdilar. XIX asr nemis falsafasi falsafiy fikrlarning rivojlanishida muhim rol o'ynadi, deyishga haqlimiz.

**Birinchidan,** unda dialektika taraqqiyot nazariyasi va falsafiy tafakkur uslubi sifatida ishlab chiqildi.

**Ikkinchidan,** ruhiy jarayonlar turli jamiyat hayotida va umuman tarixiy jarayonda faol omil ekanligi falsafiy konsepsiya darajasida shakllandi.

**Uchinchidan,** insonning bilish jarayonida, ijtimoiy sub'ekt ekanligi haqida yangi ta'limot yuzaga keldi. Davrlar holati, insonlar o'rtasidagi munosabatlarning o'zgarishi bir butun va qonuniy jarayon sifatida namoyon bo'ldi. Nemis falsafasi o'z davriga nisbatan olamni chuqur va har tomonlama tushuntira oldi.

### **Nazorat savollari:**

1. J.J. Russo qaysi asarida insoniyat taraqqiyoti tarixini qisqacha yoritib bergan?
2. J.J. Russoning qanday qarashlari uning ijodida markaziy o'rin egallaydi?
3. Jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik manbalarini tahlili qaysi olimning asarida keltirilgan?
4. Gegel tomonidan qanday konsepsiya vujudga keltirilgan?
5. Gegelning tarix falsafasi necha yo'nalishdan boradi?

6. I.Kant tarix falsafasiga qanday yondashuv bildirgan?
7. F.Nitse va V.Diltey pozitivizmga qarshi qaysi yo‘ldan bordilar?
8. Osvald Shpengler o‘zining mashhur «Yevropa quyoshining so‘nishi» asarida tarix falsafasining qanday g‘oyalarini ilgari suradi?
9. Nima uchun Kant Leybnisning ruhiy monodologiyasiga qarshi chiqadi?
10. Kantning tarix falsafasi qanday xarakterga ega?
11. Fixtning “Fan ta’limoti”ning tamoyillari nimalardan iborat?
12. Shelling falsafasida asosiy burilish 1800 yildagi qaysi asari bo‘ldi?
13. Shelling nima uchun o‘z ma’ruzalarida Gegel falsafasiga qarshi chiqadi?

### **Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:**

1. Mavzuga doir o‘zingizning fikr-muloxazalaringiz asosida referat tayyorlang.
2. I.Kant tarix falsafasi haqida o‘z fikringizni bildiring.
3. Shpenglarning «agar kim buni his qilmasa, tarix bilan shug‘ullanmasin, tabiatni bilishga o‘rganish mumkin, lekin tarixchi bo‘lib tug‘ilish kerak. Tarixchining kuchi shundan iboratki, u ongsizlik darajasida tarix jarayonini instinktiv ravishda biladi, bunday uslubda har qanday inson ham ishlash olmaydi» fikrini izohlang.
4. Fixtning tarix falsafasi haqida so‘zlab bering.

## 6-MAVZU: ISLOM ILOHIYOTI VA TARIX FALSAFASI

### REJA:

1. Tarixning musulmon ilohiyotiga xos xususiyatlari. Qur'on koinot, yer, tabiat haqida.
2. Abu Nasr al Forobiy. Uning jamiyat va davlat haqidagi ta'limoti.
3. Ibn Xaldunning ijtimoiy taraqqiyot haqidagi nazariyasi.

***Tayanch tushunchalar:** musulmon ilohiyoti, shariat va islom aqid ilmi, musulmon dunyosi mutafakkirlari, tarixiy voqea va hodisalar, «Qur'oni karim», oyat va suralar, muhaddis olimlar, jahon falsafiy tafakkuri, inson, jamiyat, tarixiy jarayon, davlat va boshqaruv borasidagi falsafiy qarashlar, kishilik jamiyati, uning rivojlanish qonuniyatlari, shahar (mamlakat) aholisi va hokim muammolari, davlat va boshqaruv masalalar, islom tarixshunoslik maktabi.*

### **1. Tarixning musulmon ilohiyotiga xos xususiyatlari. Qur'on koinot, yer, tabiat haqida.**

Arab islom tarixshunoslik maktabi Arabiston yarim orolida islom dini qaror topgach, qo'shni hududlar istilo etila boshlagach shakllana boshladi, lekin uning ildizlari ancha uzoqqa boradi, deyish mumkin. Chunki VII asr boshlariga qadar asosan ko'chmanchi chorvachilik bilan mashg'ul bo'lgan arablar madaniy jihatdan bir muncha qoloq bo'lib, ularda tarix fani rivojlanmagan edi. Ammo tarixiy xotiralar, ishlab chiqarish, qabila hayotini va jamoani boshqarish malakalari xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lgan qo'shiqlar, dostonlar, rivoyat va ertaklar, qissalar orqali avloddan avlodga o'tib kelmoqda edi. Rivojlangan hududlarni bosib olgan arab qabilalari o'sha hududlardagi madaniy yutuqlarni, shu jumladan, tarixnavislik borasidagi yutuqlarni ham o'zlashtirib bordilar. Shuning uchun shakllanib borayotgan arab-islom tarixshunosligiga Vizantiya va Sosoniylar tarixchilarining ta'siri katta bo'lganligini qayd etish mumkin. Chunki arab xalifaligi tarkibiga kiritilgan o'z davrining rivoj topgan hududlari hisoblangan yerlarning katta qismi arab istilosiga qadar Vizantiya va Sosoniylar davlatlarining tarkibida edi.

Musulmon tarixshunosligi bevosita shariat va islom aqidalari bilan bog'liqdir. Musulmon olimlari tarixiy voqea va hodisalarni islom aqidalari, Allohning qudrati

va qazoi taqdir bilan bog'laydilar. «Qur'oni karim»da aytilishicha, inson tirik ekan, u Allohning irodasi bilan ish ko'radi. Tarixchi esa jamiyatda yuz beradigan voqealarning sabablarini shariat qoidalari bilan uyg'unlashtirishi zarur edi. Bunga sabab tafakkur shakllari va qonunlari shuni talab etadiki, jamiyat hayoti va taraqqiyotida tarixiy voqea-hodisalarning sabab va oqibatlarini o'rganish va namoyon etishni ko'zda tutadi. Arab-islom ulamo va tarixchilari bu murakkab vaziyatda o'ziga xos yo'l tutib, birinchi navbatda tarixiy voqea va hodisalarning kelib chiqish sabablarining bayoni, bu sabablar ham Allohning irodasi ekanligini tushuntirdilar. Bu esa diniy arboblarni ham qanoatlantiruvchi yo'l edi. Musulmon tarixchilari ko'p o'rinlarda «Qur'on» suralari va oyatlariga asoslanadilar. Aynan shu usul boshqa fan vakillari tomonidan ham ilgari surilgan bo'lib, arab-islom madaniyatida fanlarning barcha sohalarini rivojlanishiga keng yo'l ochib berdi.

Islom ta'limoti Arabistondan tashqariga ham yoyilgan paytdan boshlab tarix fani sezilarli ravishda rivoj topa boshladi. Tabariy, Beruniy, Maqsidiy, ibn Xaldun va boshqalar arab-islom tarixshunoslik maktabiga asos soldilar.

Arab-islom tarixshunoslik maktabining tarixshunoslari turli o'lkalardan yetishib chiqqan va turli xalqlarning vakillaridan iborat edi. Ularni birlashtirib turuvchi asoslardan biri islom dini va ta'limoti bo'lsa, ikkinchisi arab tili va yozuvi edi. Ushbu har ikki yo'nalishlarni tarixchi olimlar uchun mafkuraviy asos va ta'limot vazifasini bajarib, islom diniga e'tiqod qiluvchi turli xalqlarning o'ziga xos g'oyalarini va ilmiy yutuqlarni o'zaro ta'sirga kirishishiga, bir-birini to'ldirib mukammallashuviga ko'mak berdi.

Musulmon tarixshunosligida yaratilgan ko'pgina tarixiy asarlar odatda yerda hayotning paydo bo'lishi, Odam Ato va Momo Havoning yaratilishi, payg'ambarlar tarixi va xalqlarning kelib chiqishi hamda tarqalishi masalalarini qisqacha bayon etishdan boshlanadi. Shundan so'ng asosiy masalaga o'tiladi hamda har bir muhim tarixiy voqea va hodisalar muqaddas «Qur'oni karim»ning oyat va suralari bilan asoslab boriladi. Misol uchun, odatda oz sonli qo'shin ko'p sonli lashkar ustidan g'alaba qozongan tarixiy voqea bayon etilayotganda Badr jangi misol tariqasida keltirilib, shu jang haqidagi oyat ta'kidlanadi.

Musulmon tarixshunosligining «Qur’oni karim» bilan bog‘liqligi yana shunda ko‘rinadiki, arab – islom tarixshunoslik maktabining dastlabki vakillari ko‘p hollarda «tafsir» yozish bilan ham shug‘ullanishgan. «Qur’oni karim»da ham ko‘pgina tarixiy voqealar bayon etilgan bo‘lib, ularga tavsif berish uchun tarixni chuqur o‘rganish talab etilardi. Tafsiqlar VIII asrgacha juda kam yozilgan bo‘lib, keyinchalik ko‘payib bordi. 750-1050 yillar davomida esa 50 ga yaqin tafsiqlar yaratilgan. Misol tariqasida mashhur arab tarixchisi Tabariyning 30 jildlik «Tafsir» asarini olishimiz mumkin. Bu asar shunchalik mashhur ediki, hajmi juda katta bo‘lsa-da, hattotlar uni qayta-qayta ko‘chirganlar, shuning uchun ham uning nusxalari juda keng tarqalgan. Mashhur muhaddis olim imom al-Buxoriy ham o‘z davrining atoqli tarixchisi edi. Uning «Jomeh at- tavorix» asari Kichik tarix, o‘rtacha tarix va Katta tarix deb nomlangan 3 qismdan iborat edi. Ismoil Buxoriyning «Kichik tarix» va «O‘rtacha tarix» kitoblari 1974 yili topilgan bo‘lib, hozirda Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti Sharq qo‘lyozmalari fondida saqlanmoqda.

**Arab-islom tarixshunoslik maktabining yirik namoyandalari.** Arab – islom tarixshunoslik maktabining dastlabki vakillari sifatida al-Madoiniy, Balazuriy va Dinovariylarni ko‘rsatish mumkin. Abulhasan Ali ibn Muhammad al-Madoiniy (840 yili vafot etgan) yirik arab tarixchilaridan biri bo‘lib, 200 dan ortiq asar yozib qoldirgan. Bu asarlar VII-VIII asrlardagi Sharq mamlakatlarida bo‘lib o‘tgan ijtimoiy-siyosiy voqealarni qamrab olgan. «Axbor ul-xulafu» (Halifalar haqida xabarlar), «Kitob al-Maoziy» (Urushlar haqida kitob), «Nasr ibn Sayyor haqida kitob» va boshqa shu kabi asarlarda O‘rta Osiyo tarixiga oid fikrlar ham bildiriladi. Tarixchilar al-Madoiniy komplyator (avvalgi asarlardan foydalanib yozuvchi) ekanligini va o‘z asarlarini epik janrda dostonlarga o‘xshatib yozganligini ta’kidlaydilar. Lekin uning asarlari bizgacha faqat boshqa mualliflarning asarlari orqaligina yetib kelgan.

Yana bir tarixchi olim Balazuriy al-Madoiniy shogirdi bo‘lib, uning «Kitob futuh al-buldon» (“Mamlakatlarning zabt etilishi haqidagi kitob”) va «Kitob ansolb ash-sharaf» (“Sharofatli kishilarning nasablari haqidagi kitob”) asarlari keng

shuhrat topgan. Bu asarlarda ham siyosiy va iqtisodiy tarixga oid muhim fikrlar bildirilgan. Lekin at-Tabariyning asarlari yuqorida ko‘rib chiqilgan kitoblardan keskin farq qiladi.

At-Tabariy arab tarixchilaridan birinchi bo‘lib tarixiy voqea va hodisalarni aniq tarixiy dalillar asosida yoza boshlagan edi. At-Tabariy (839 - 923) yirik qomusiy olim hisoblanadi. Abu Jahfar Muhammad ibn Jarir at-Tabariy Eronning Tabariston viloyatiga qarashli Omul shahrida tug‘ilgan bo‘lib, umrining ko‘p qismini Bog‘dodda o‘tkazgan. U ilohiyot, hadis, tafsir va fiqh yo‘nalishida ham ilmiy faoliyat olib borib, bu borada 10 dan ortiq asar yozgan. Uning tarixshunoslikdagi eng muhim asari «Tarix ar-rasul va-al-mulk» (Mamlakatlar va payg‘ambarlar tarixi) dir. At-Tabariyning tarixga bag‘ishlangan asarida Sosoniylar Eronning Eftaliylar, Turk xoqonligi bilan munosabati va olib borgan aloqalari xususida juda ishonchli ma‘lumotlar, fikrlar keltiriladi. Bu fikrlarni Vizantiya manbalari ham ko‘p hollarda isbotlaydi. U o‘zidan avval yashab o‘tgan arab tarixchilaridan asarlarida ilk bor tarixiy faktlarni ham keltirib o‘tganligi bilan ajralib turadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, turli voqealar, qissalar va hikoyalarni o‘zaro bog‘liq holda umumlashtirib keng ko‘lamda tahlil etgan tarixiy asarlarning paydo bo‘lishi IX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri kelishini ta‘kidlash mumkin. Tabariyning tahlil etilgan asari arab-islom tarixshunoslik maktabining ilk davrini yakunlovchi va uni yangi bosqichga olib chiquvchi asar hisoblanadi.

Yana bir qomusiy olim Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (973-1048) bo‘lib, tarixga oid bir necha muhim asarlar yozgan. Uning asarlari faktlarga boyligi va bu faktlarning jiddiy tahlil etilganligi bilan ajralib turadi. Ulardan biri «Osor ul-boqiya an-al-qurun al-foliya» (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar) bo‘lib, «Xronologiya» deb ham nomlanadi. U 1000 yil Jurjonda yozib tamomlangan. Asarda yunonlar, rumliklar, eroniylar, hindlar, so‘g‘diylar, xorazmliklar, xristanlar, yahudiylar va boshqa xalqlarning islomiyatgacha bo‘lgan ijtimoiy va madaniy hayoti hamda tarixi bayon qilingan. Asar 1957 va 1968 yillarda rus va o‘zbek tillarida nashr etilgan.

«Kitob ul-musammara fit axbori Xorazm» (“Xorazm haqidagi axborotlar xususida suhbatlar”) Beruniyning yana bir muhim tarixiy asaridir. U tomonidan «Tarixi Xorazm», «Mashohili Xorazm» (“Xorazmning mashhur kishilari”) asarlari yozilgan. Asarda Xorazmning Sulton Mahmud G‘aznaviy qo‘shini tomonidan bosib olinishidan (1017-yil) to saljuqiylar xuruji (1043-44 yil) gacha o‘tgan davr ichidagi ijtimoiy siyosiy tarixidan bahs yuritiladi. Afsuski bu muhim asar bizning zamonimizgacha yetib kelmagan. Ayrim parchalar Abulfazl Bayhaqiyning 1056 yili yozib tamomlangan «Tarixi Bayhaq», Yoqut Hamaviyning «Mo‘jam ul-buldon» asarida saqlanib qolgan.

Olimning yana bir tarixiy asari «Kitob tahqiq moli – al-Hind min maqula maqbula fi aql va-al-marzula» (“Hindlarning aqlga sig‘adigan va sig‘maydigan ta’limotlarining ta’qiq etish”) deb ataladi. Bu asar 1035-yili Ag‘fonistonning G‘azna shahrida yozilgan. Ushbu manbada muhim daliliy ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib olimning shaxsiy kuzatishlari asosida to‘plangan faktlar bilan yozilgan. Unda hind ahlining madaniyati, tarixi, ma’naviy hayoti, ijtimoiy-siyosiy tuzumi, dini, urf-odatlarini, tarixi va naql-rivoyatlari o‘sha zamonda Hindistonda amalda bo‘lgan og‘irlik va hajm o‘lchovlari haqida so‘z boradi. Asar ko‘proq Hindiston nomi bilan mashhur. Beruniy tarixiy asar yozishda tarixiy fakt va dalillarni jiddiy tahlil etishni zaruriy shart deb bilgan. U ishonchsiz manbalarni ayovsiz tanqid qilganligi bilan ham ajralib turadi.

Arab-islom tarixshunoslik maktabining cho‘qqisi ibn Xaldun (1332-1406) hisoblanadi. Arab olimi birinchilardan bo‘lib tarixiy voqea va hodisalarning o‘zaro sababiy bog‘lanishlarini, umumdunyo tarixiy taraqqiyoti qonuniyatlarini o‘rganib, musulmon dunyosida tarixni hikoya qilib beradi. Ibn Xaldun tarixni pragmatik, ya’ni tarixni tashqi bog‘lanishi va izchilligi asosida bayon etish borasida ham ma’lum bir yutuqlarga erishdi. U tabiat va insoniyat tarixi o‘rtasida dialektik aloqa mavjudligini isbotlash uchun harakat qilgan edi. Ibn Xaldun quyidagi asosiy qoidalarga suyanar edi: kishilik jamiyati tarixi ham tabiat hayoti kabi umumiy bo‘lgan muhim qonunlarga bo‘ysunadi, jamiyat va xalqlar hayotida dialektik qonunlarni amalga oshirilishini ko‘rsatib beradi.

Ibn Xaldun asarlarining tarixiy mazmunini ob'ektiv ravishda o'rganish asosida uning ta'limoti diniy asarlar bilangina bog'liq emasligini, tarixiy taraqqiyot qonunlarining xarakterli jihatlari haqida bir qator ilmiy fikrlar taqdim qilganligini yevropa va arab olimlari ta'kidlaydilar. Ibn Xaldunning tarixiy sotsiologik ta'limoti uning «Insonlar ijtimoiy hayotining mohiyati» nomli «Muqaddima» deb ham ataluvchi asarida aks etgan. Unda Ibn Xaldun tarixchining vazifalari haqida «tarixchi siyosiy asarlar bilan tanish bo'lishi va ro'y berayotgan barcha voqea-hodisalarning mohiyatini, amaldagi huquqiy munosabatlarning o'zaro farqini turli xalqlar, mamlakatlar va davrlar ijtimoiy hayotining xususiyatlari turmush tarzi, mafkurasi va boshqa ko'rinishlarini bilishi lozim. Tarixchi o'tmishni hozirgi kun bilan taqqoslay olishi, ularning o'xshash tomonlari va tafovutlarini farqlay bilishi, bu o'xshashlik va tafovutlarning sabablarini topishi zarur. Davlatlarning va dinlarning kelib chiqishini bilishi kerak» degan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, tarixchi jamiyatda yuz berayotgan barcha voqea-hodisalarni va ularning sabablarini tushuntirib berishi lozim. Ibn Xaldun tarix fanining nazariy asoslarini keng tahlil etib, katta yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, keyingi davrda yashagan arab islom tarixshunoslik maktabining vakillari ulardan foydalana bilishmadi. Arab Islom tarixshunoslik maktabi jahon tarixshunosligining ajralmas qismi bo'lib, uning rivojlanishiga katta hissa qo'sha oldi.

## **2. Abu Nasr al Forobiy. Uning jamiyat va davlat haqidagi ta'limoti.**

To'liq nomi Abu Nasr Muhammad bin Tarxon bin O'zluh bo'lgan Forobiy jahon falsafiy tafakkuri taraqqiyotida o'ziga xos sahifa ochgan buyuk faylasuflardandir. U Uyg'onish davri mutafakkirlarining yirik namoyandasi sifatida tafakkur olamida o'ziga xos yo'l ochdi. Jumladan, inson, jamiyat, tarixiy jarayon, davlat va boshqaruv borasidagi falsafiy qarashlarga asos soldi.

Albatta, Forobiy yunon allomalari Aristotel va Platon ta'limotlari bilan o'z zamondoshlaridan ko'ra ko'proq shug'ullangan, uning mohiyatini boshqalardan ko'ra chuqurroq tushungan va o'zlashtirgan edi. Natijada shunday novatorlik yo'lini topdiki, aynan shu qadimgi yunon falsafasining o'z davri qarashlari va

ehtiyojlari nuqtai nazaridan kutilmagan holatda yangi qirralarini ochib, uni boyitdi, rivojlantirdi.

Shu bilan bir qatorda shuni ta'kidlash kerakki, Forobiyning ijtimoiy-falsafiy fikr-mulohazalariga munosabat bildirish, uni tushunish va talqin etishda hamon chorizm siyosati va kommunistik mafkuraning qarashlari ko'zga tashlanadi. Allomaning g'oyat serqirra ilmiy merosi umumiy va yuzaki, zamonasoz ma'lumotlar shaklida bayon qilinmoqda. Olim ijodining mohiyati, ko'lami va ilmiy-nazariy ahamiyati bir yoqlama, ya'ni dunyoviy tafakkur tarzi me'yorlariga mos tomonlari tadqiq etilmoqda. Vaholanki, Forobiyning o'z tadqiqotlaridagi bosh g'oyasini diniy va dunyoviy qarashlar o'zaro kesishganligi bilan ko'rish mumkin. XX asrning mashhur akademigi M.Xayrullaev olim ijodini to'g'ri talqin etadi va uning qator sohalar bo'yicha ilmiy qarashlari yaxlit tizimi haqida fikr yuritib, ularni sanab o'tadi: Til haqidagi bilim, mantiq, matematika, optika, sayyoralar, musiqa, og'irlik, mexanika, tabiiy va ilohiy ilmlar (metafizika), siyosat, yurisprudensiya (fiqx), musulmon teologiyasi (kalom) va boshqalar<sup>13</sup>.

Demak, Forobiy har qanday qarashlardan qat'iy nazar inson va hayot falsafasining yorqin ijodkori. U fan va xayolot, ilmiy-nazariy tahlil va vahiylikning mushtarak yo'lini topa bildi. Manbalarda ta'kidlaganidek, "Forobiy – islom falsafasi va mustahkam ratsional (aqlga asoslangan) tafakkur tizimini yaratgan odam. Uning maktabi yunon faylasuflari qarashlari bilan jamiyki o'xshash jihatlariga qaramay, umuman olganda ham, alohida tomonlarini olganda ham, nodir hodisadir"<sup>14</sup>.

Jamiyat va shaxs, tabiat va inson, olam va odam o'rtasidagi munosabatlar falsafiy tafakkur asosida Forobiyning talqini orqali butunlay yangicha talqin etildi. Bu davrda mavjud bo'lgan ilohiy qarashlar, islom tafakkur tarzi ilk bor dunyoviy fanlar bilan uyg'un holda tahlil qilindi. Ana shu tarzda jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari, insoniyat tadrijiy rivojining asoslari va kishilik jamiyati shakllanishi, rivojlanishi va taraqqiy topishining o'ziga xos talqini Forobiy maktabida vujudga

---

<sup>13</sup> Қаранг. Хайруллаев М. Шарқнинг машхур мутафаккири. Абу Наср Форобий. "Фозил одамлар шаҳри". Т., А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1993. 7-бет.

<sup>14</sup> Ҳотамий С.М. Ислом тафаккури тарихидан. Т., "Минхож" нашриёти. 2003. 65-бет.

keldi. Bu maktabda falsafiy va tabiiy fanlar bir-birini to'ldiradigan, shaklan turlicha, mohiyatan mushtarak holda o'ziga xos maqomga ega bo'ldi.

Forobiyning ilmning barcha sohalarida o'zigacha bo'lgan davrda birinchi bo'lganligining mohiyati shunda ediki, uning falsafada benazirligi, falsafiy tafakkurining inson hayotini va istiqbolini ratsional o'rganishdagi keng imkoniyatlari, diniy va dunyoviy bilimlar sohibi ekanligidadir. Shu bilan bir qatorda, vatandoshimiz qoldirgan ma'naviy merosdan dunyo falsafiy taraqqiyoti keng foydalanilmoqda, uning barcha yutuqlari bevosita Forobiy qarashlarining asosida qurilgan. Buni Sayyid Muhammad Hotamiy quyidagicha izohlaydi: "Shariat, tariqat va ratsionalizmning hamda nimaiki Islom sivilizatsiyasi o'z cho'qqisida borliqni sharhlab tushuntirish, hayot yo'lini ko'rsatish borasida erishgan bo'lsa, jamlab ifodalagan "Sadrul Mutolixin" kitobidan keyin biror arzigulik g'oya dunyoga kelmadi. Mazkur kitob esa shu sohada yakuniy to'plamday bir asardir"<sup>15</sup>, degan edi.

Abu Nasr Forobiy insoniyat taraqqiyoti, uning rivojlanish qonuniyatlari, shahar (mamlakat) aholisi va hokim muammolari, davlat va boshqaruv masalalari xususida gapirar ekan, real voqelik va uning istiqboli hamda tanazzuli sabablarini qidiradi. Forobiy ilmiy-falsafiy merosining beqiyos qadriyati shundaki, u to'g'ridan-to'g'ri odam, inson, shaxs masalasini tahlil etib, kelajakda kishilik jamiyati, uning rivojlanish omillari, boshqaruv usullari, erkin fuqarolik jamiyati haqidagi favqulodda xulosalari asosida jamiyat taqdirini belgilashda asos bo'ldi, ijtimoiy-tarixiy jarayonni ezgulik sari burishda katta ahamiyat kasb etdi, o'zidan keyingi tarixiy taraqqiyotda muhim dastur vazifasini o'tadi.

Abu Nasr Forobiy mutaassiblikka qarshi ravishda ma'rifatlilik g'oyasini ilgari surdi. Inson tafakkurining cheksizligini, aql va zakosining noyob qadriyat ekanligi, insonning boshqa jonzotlardan farq qiluvchi muhim xususiyati ham xuddi ana shu aql va zakovat ekanligini alohida ta'kidlaydi. Bevosita ana shu qudrat tufayli inson o'z hayotini qurishga qodir bo'lgan, istiqbolini belgilay oladigan xilqat darajasiga ko'tariladi va bu holat ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tadqiq etiladi. Zotan, uning

---

<sup>15</sup> Хотамий С.М. Ислам тафаккури тарихидан. Т., "Минхож" нашриёти. 2003. 65-бет.

tafakkur tarzi inson va jamiyat falsafasini chuqur anglab yetganida, yangi g'oyalar va fikrlar berganidagina emas, balki o'sha paytda yagona hukmron bo'lgan din va tabiiy falsafa orasidagi munosabatlarni qat'iy va aniq ifodalagani hamda bu ikki sohaning insonlar ongida birga yashashi mumkinligini uyg'unlashtirib, isbotlab berganligidadir<sup>16</sup>.

Abu Nasr Forobiy mushohadalarida kishilik tarixiy taraqqiyoti shu darajada chuqur tadqiq va tahlilga asoslanadiki, undan kelib chiqadigan falsafiy mushohadalar kishilik jamiyati taraqqiyoti tajribalari asosida real hayot, real turmush tarzi va istiqbolni aniq ko'ra bilishga asoslangan g'oyalar ustuvorlik qiladi. O'z davriga xos bo'lgan rivoyatlar, afsonalar va asotirlar asosidagi mavhum falsafaga hamda intuitsiya orqali bashorat qilish oqimlariga keskin qarshi chiqadi. Ularni rad etib, ratsional g'oyalarni va dunyoviy tafakkur asoslarini ilgari suradi.

Abu Nasr Forobiy falsafasida jamiyat va davlatni boshqarishda aholining yuqori qatlami, xususan, elitaning o'rni va roli, jamiyatning saralangan, uning taraqqiyotiga ta'sir o'tkazishga qodir va intellektual salohiyati yuksak bo'lgan toifalarning vazifalari ancha chuqur tadqiq etiladi. Uning siyosiy tafakkurida elita, ya'ni ziyolilar, aql yo'rig'i bilan ish yuritadiganlar hamisha odamlar taqdirini va jamiyat istiqbolini belgilaydilar. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda Sayyid Muhammad Hotamiyning quyidagi xulosalariga e'tibor berishni joiz deb o'ylaymiz: "Forobiy fikricha faylasuflar jamiyatda birinchi darajali mavqega ega. Falsafa esa dialektika va ritorikadan keyin shakllangan bo'lsa-da, o'zining ahamiyatiga ko'ra ham, takomiliga ko'ra ham ulardan afzaldir. Falsafa dinga nisbatan ham birlamchi mavqega ega. Chunki falsafa – mag'z, din – po'stloq, aniqrog'i – falsafaning quroli. Shu bois ashrafu a'yonlar (ilmiy elita) darajalari e'tiboriga ko'ra faqixlar va kalomchilar oxirgi o'rinlarda turadilar"<sup>17</sup>.

Ana shu tarzda Abu Nasr Forobiy har bir xalq orasidagi obro'-e'tiborli, ongi yuksak bo'lgan ulug' insonlarni, ayni ana shu xalqni kelajagini bunyod etishda katta amaliy yordam beradigan, millat tarixining mohiyatini belgilaydigan, hayot mazmunini boyitadigan voqelik darajasiga ko'tardi. Albatta shu kabi harakat

<sup>16</sup> Қаранг. Ҳотамий С.М. Ислом тафаккури тарихидан. Т., "Минхож" нашриёти. 2003. 69-бет.

<sup>17</sup> Ҳотамий С.Х. Ислом тафаккури тарихидан. Т., "Минхож" нашриёти. 2003. 78-бет.

bugungi tarixiy, ijtimoiy falsafiy fanlarda alohida o'rganilayotgan siyosiy elita va jamiyat taraqqiyoti muammolarning yechimi sifatida muhim ahamiyatga ega.

Olim o'z tadqiqotlarida jamiyat asosini xalq tashkil etishini ta'kidlab, xalqning dunyoqarashi, ruhiy va psixologik kechinmalari, olamga munosabati, tushunish darajasi, tili, dini, qadriyatlari bevosita uning betakrorligini, insoniyat tarixiy taraqqiyotidagi nufuzi va obro'sini ko'rsatadi. Davlatning savod darajasi, barcha sohalardagi egallagan bilim va ma'rifati, vijdon erkinligi, axloqi bevosita ana shu xalq madaniyatini, madaniy turmush tarzi ko'lamini belgilaydi.

Ushbu me'yorlar asosida, jamiyat va insonning mohiyatini, mazmunini va mantig'ini tushunish uchun Hotamiy din va falsafa, Ollohning kalomi va aql orasida qanday aloqa bor? degan savolga Forobiyning falsafiy qarashlari, nuqtai nazaridan kelib chiqib: "Falsafa haqiqat qanday bo'lsa, uni shunday ifodalab ko'rsatishdir, din esa uning ramziy, tamsiliy (obrazli) akslanishi. Falsafa – asos va mohiyat bo'lsa, din – timsol va shakl. Dialektik (munozara usuli) ifoda jamiyatning kam sonli a'yonlari (elita) uchun kerak. Vaxiy yo'lidagi ifoda esa xalq ommasining idroki, ta'limi va tarbiyasi uchun zarur"<sup>18</sup> deb javob beradi. Shu tariqa Forobiy falsafasida ratsional qarashlar ustuvorligi orqali dunyoviy tafakkurning o'ziga xos, butunlay yangi sahifalari ochiladi. Diniy va dunyoviy tafakkurning xalq turmush tarzi va mavjud hukmron g'oyalar asosidagi hayotiy qoidalar sintezlashtiriladi.

Masalaning ikkinchi mantiqiy tomoni ham bor. Falsafa intellektual salohiyatni belgilovchi, tafakkur va aql mo'jizasini ko'rsatuvchi omil vazifasini o'tasa, din xalq yalpi turmush tarzini, axloqiy me'yorlarini va xatti-harakatlarini toat-ibodat va taqvo orqali tartibga soluvchi hodisadir.

Abu Nasr Forobiy falsafasiga ko'ra kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyoti, uning rivojlanish omillari bevosita aqlga tayanadi va odamzotning aksiologik munosabatlarini shakllantirishiga ahd qilib, odam qanday qilib komil inson, barkamol shaxs bo'lishi mumkin degan masala atrofida jiddiy fikr yuritadi va

---

<sup>18</sup> Хотамий С.Х. Ислам тафаккури тарихидан Т., "Минхож" нашриёти. 2003. Б.79.

“Komillikka erishishning sharti hayvoniy instinktlarni tark etish va moddiy ehtiyojlardan batamom qutilish” degan xulosaga keladi.

Ana shu holatning o‘zi kishilik jamiyati ma’naviy qiyofasini ko‘rsatadigan o‘lchov, uni barkamollikka da’vat etuvchi omil bo‘lsa, diniy qarashlarda nafs va moddiy dunyoning barcha ne’matlari inkor etilib, ma’naviy yuksaklik va yetuklik – Allohga yaqinlik darajasida tushuniladi va bu Islom falsafasining mag‘zidan kelib chiqqan g‘oya deyish mumkin. “Ilk borliq tahlilidan idrok, fikrlovchi ruh va faol aql sohibi bo‘lgan inson hayoti manbalarini o‘rganishga o‘tadi. Ayni shu sifatlar insonni ulug‘vor va mukarram etuvchi sifatlardir”<sup>19</sup>. Abu Nasr Forobiy kishilik jamiyati rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganar ekan, uning asosi inson degan xulosaga keladi va uni har qanday tarixiy taraqqiyotni belgilovchi omil sifatida baholaydi. Natijada inson hayoti mazmuni, qadari, ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlovi masalasi allomaning falsafasida alohida ahamiyatga ega.

Umrning mazmuni, hayotning ma’nosi, insonning ongi va shuuri, lazzati va farahbaxshligi bevosita uning qo‘lidaligi, har kim o‘z taqdirining egasi o‘zi ekanligi singari chuqur hayotiy mantiq, hayotiy falsafa, ijtimoiy qonuniyat ilgari suriladi va Forobiy “Agar inson ilohiy ezguliklarni umid qilsa, uning hayoti quvonchli, hayot tarzi esa juda go‘zal bo‘ladi. Go‘zal hayot tarzi esa xalq nazarida ham, Xudo nazarida ham yuksak bo‘ladi”<sup>20</sup>, degan xulosaga keladi.

Abu Nasr Forobiyning xulosalariga ko‘ra inson hayotining ijodkori o‘zidir. Demak, baxt-saodatga yetish yoki yetmaslik ham o‘zining izmida. Bunga erishish esa faqat aql quvvatiga, uning quvvai hofizasiga, ma’naviy, hissiy va ruhiy darajasiga bog‘liq. Allomaning fikricha, baxt-saodat shunday bir holatga erishishdirki, odam ongi va ruhi nafs, baxtli hayot, mol-dunyo va boshqa barcha ne’matlardan ustun keladigan, o‘zining tabiiy mavjudot sifatidagi ehtiyojlarini boshqaradigan, ruhan kuchli, barkamol, qalbi pok xilqatga aylanishdir.

Abu Nasr Forobiy bir tomondan inson baxt-saodatga erishishini, yuqorida aytganimizdek, ruh va iroda kuchi, yuksak axloq va odob yo‘rig‘i bilan amalga oshiriladigan ezguliklarda ko‘rsa, boshqa bir holatda dunyoqarashlarning kengligi,

---

<sup>19</sup> Ўша манба. 105-бет.

<sup>20</sup> Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. Т., А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1993. 37-бет.

bilimdonlik va donishmandlik fazilatining yuksakligi, aql va farosatning balandligi baxtga erishish yo‘lidir, degan xulosaga keladi. Fozillik, donishmandlik inson fazilatining yuksak cho‘qqisidir. Boshqacha qilib aytganda, uni har qanday yovuzlikdan, har qanday yomonlikdan va nafs ofatidan asraguvchi mo‘jizaviy qudratdir.

Dunyoviy fan tili bilan aytganda, ezgulik va yovuzlik, diniy tafakkur nuqtai nazaridan qaraganda xayr va sharr inson tabiatiga xos narsa. Unga erishish qaysi yo‘lni tanlash, qaysi yo‘ldan borish, o‘z hayotini u yoki bu tomonga burish har kimning o‘z qo‘lida. Forobiy buni juda aniq va ravshan ifodalab beradi. Ayni ana shu holatni tadqiq qilar ekan, Sayyid Muhammad Hotamiy quyidagilarga jiddiy e’tibor beradi: “1. Baxt-saodatni tushunadigan va u haqda ongga ega bo‘ladigan quvvat – bu nazariy aql quvvatidir. 2. Baxt-saodat anglashilgan va insonning quvvatlari va rag‘batlari nurlanishida diqqat mavzuiga aylanganda, u bemalol unga qarab intiladi. 3. Amaliy aql harakatlana boshlaganda va baxt-saodatga erishish uchun faol ravishda vositalar hamda fe‘l suratlarini qidira boshlaganda (ko‘zga namoyon bo‘lib qoladi). 4. Bu vositalar va usullar anglashilganda, inson rag‘batlantiruvchi mexanizmlar orqali ularni amalga oshiradi. 5. Bunday paytda ikkita quvvat – taxayyul quvvati va hislar quvvati ham nazariy aqlga xizmat qiladilar va u bilan bahamjihatlikda ish olib boradilar. Ular insonga uning saodatiga erishish yo‘lida intilishlariga ko‘makdosh bo‘ladilar. 6. Bular amalga oshirilganda, inson nimaiki qilsa, u faqat ezgulik (xayr) bo‘lib chiqadi”<sup>21</sup>.

Shu tariqa Forobiy bugungi siyosatshunoslik qarashlariga doir “Fuqarolik jamiyati” deb ataladigan jamiyat erkinligi, shaxs ozodligi tamoyili ustuvor bo‘lgan kishilik jamiyatining o‘ziga xos nazariyasini yaratadi va bugungi hayotning ratsionalistik nuqtai nazaridan analizini ishlab chiqadi. Abu Nasr Forobiy fuqarolik jamiyati qonuniyatlari, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlar, kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining bilim, malaka va ko‘nikmalari ilmiy dalillarga tayangan holda o‘ziga xos fikr yuritadi. Jumladan, u “Fuqarolik ta’limoti insonning fe‘l-atvori va irodaviy harakatlari bilan bog‘liq masalalarni qarab chiqadi, shuningdek,

---

<sup>21</sup> Хотамий С.Х. Ислому тафаккури тарихидан. Т., “Минхож” нашриёти. 2003. Б.109.

uning xulq-atvoridan hosil bo'ladigan malaka axloqiy sifatlar va odatlari bilan bog'liq jihatlarni o'rganadi. Bu fan shu kabi ushbu harakatlarni yuzaga keltiradigan maqsad va vazifalarni muhokama etadi. U insonga o'ziga xos munosib qobiliyatlar bilan bog'liq masalalarni ham o'rganadi va ushbu fazilatlarini o'zlashtirish imkoniyatlarini ko'rsatadi. U ilm inson faoliyatining turli natija va samaralarini qarab chiqib shuni tushuntiradiki, (ushbu faoliyatning) ba'zilari – haqiqiy saodat bo'lsa, ba'zilari tasavvurdagi saodat bo'lib ko'ringan bilan u haqiqiy emas”<sup>22</sup>.

Bu bilan Abu Nasr Forobiy real hayotdan va real voqelikdan insonni uzoqlashtirmaydi, mavhum va ko'z ilg'amas tasavvurlarga chorlamaydi. Aksincha, u insonni o'z hayotining me'mori o'zi ekanligiga, fazilatlar, xislatlar, qobiliyatlar har doim takomillashib, rivojlanib borishi zarurligiga, bunday imkoniyatdan insoniyatni to'g'ri va unumli foydalanishi zarurligini uqtiradi. Ana shu tarzda ijtimoiy hayot jarayonlarida faol ishtirok etish, shu orqali o'z yaratuvchilik va bunyodkorlik imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish zarur degan da'vatni o'rta tashlaydi. Natijada kishilik jamiyati mazmun-mohiyati boyib, inson qadru qimmatini oshib borishiga va oxir-oqibatda u ijtimoiy qadriyatga, mo'jizakor xilqatga aylanishini aytadi.

Abu Nasr Forobiy kishilik jamiyati tahliliga kirishar ekan, uni ikkiga bo'ladi. Ya'ni jamiyatni keng doiradagi megadunyo va tor miqyosda mikro-dunyo sifatida qaraydi. Ana shu keng miqyosdagi makro-lamni u to'liq jamiyat deb nomlaydi va unda insoniyat hayoti, umumiy xonadonimiz va najot maydonimiz bo'lgan Yer yuzidagi kishilik jamiyati, undan keyin o'rtacha jamiyat – ma'lum bir hudud yoki mamlakat, boshqacha qilib aytganda, ma'lum bir dinga mansub xalqlar yashaydigan makonni tushunadi.

Kichik jamiyat deganda esa mikro-lam – ma'lum bir mahalla, ovul yoki qishloqda yashaydigan, qolaversa, bir oila doirasidagi mitti jamiyatni tushunadi. Ana shu tahlillar orqali u umuminsoniy taraqqiyot va sivilizatsiyalar kelib chiqishi ildizlarini ochadi, omillarini topadi. Har qanday jiddiy taraqqiyot, insoniyat

---

<sup>22</sup> Хотамий С.Х. Ислом тафаккури тарихидан. Т., “Минхож” нашриёти. 2003. Б. 110-111.

tarixidagi buyuk siljishlar makroolam tasavvurlari, tafakkur tarzi, aqliy va ijodiy salohiyatining mahsuli olimning xulosalarida belgilab o'tiladi. Mikroolam – ma'lum bir oila, mahalla yoki qishloq bunday yalpi taraqqiyotga qodir emas. U faqat o'zini qiynab kelayotgan mayda-chuyda ziddatlarni hal qilishga va kundalik ehtiyojlarini qondirishga qodir bo'lgan, butun insoniyat taraqqiyotiga daxldor masalalarni hal qila olmaydigan holat deb tushunadi. Natijada “eng yaxshi fazilat va oliy darajadagi komillikni eng kichik birligi shahar hisoblanadigan madaniy jamiyat ichidagina qo'lga kiritish mumkin. To'liqsiz jamiyatlar insonni takomillashtirishga qobil emas”<sup>23</sup>, degan qat'iy xulosaga keladi.

Albatta jamiyatda davlat va boshqaruvning o'rni, ularning adolat mezonlariga amal qilishi, rahbarning kasb etiketi har qanday makon va zamon uchun zarurligi olim qarashlarida ta'kidlab o'tilgan. Natijada davlat bevosita jamiyatni ezgulikka da'vat etuvchi, o'z fuqarolarini yaxshilik, ezgulik, bunyodkorlik fazilatlarini boyituvchi, boshqacha qilib aytganda, uni shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi, takomillashtiruvchi mexanizm darajasiga ko'tariladi.

Davlat jamiyatni harakatga keltiruvchi kuch. Fuqarolar xohish va irodasini o'zida ifoda etgan, uning istiqbolini belgilaydigan va umuman olganda, inson umriga mazmun baxsh etuvchi vositadir. Ana shu tarzda davlat o'z fuqarolari tarixiy tajribalariga tayanib, ularning turmush tarzi, an'analari, urf-odatlarini, rasm-rusumlari va xulq-atvorlarini takomillashtirish orqali tarixiy taraqqiyotga quvvat berguvchi omildir. Ana shundan kelib chiqib qomusiy olimning “Bunday davlat xalq uchun ma'lum bo'lgan xizmat va fazilatlar tufayligina paydo bo'lishi mumkin, shundagina itoat qilish odatlari qo'llab-quvvatlanadi. Bu xizmat shohlik yoki amirlik, yoinki xalq tanlagan istalgan boshqa nomdagi boshqaruv bo'ladi. Siyosat ana shu kabi xizmatning natijasidir”<sup>24</sup>, degan fikrlari g'oyat muhimdir.

Demak, Abu Nasr Forobiy tasavvurida davlat hamisha xalq xizmatida bo'ladi. Xalq taqdiri davlat taqdirida o'zini namoyon etadi. Ikkinchi tomondan esa davlatni xalq ixtiyoriy ravishda qabul etsa, e'tirof etsa, siyosiy fanlar tili bilan aytganda, legitimligi ta'minlanadi.

---

<sup>23</sup> Хотамий С.Х. Ислом тафаккури тарихидан. Т., “Минхож” нашриёти. 2003. Б. 113.

<sup>24</sup> Хотамий С.Х. Ислом тафаккури тарихидан. Т., “Минхож” нашриёти. 2003. Б. 116.

Abu Nasr Forobiy bir joyda “Agar shahar o‘z qonunchiligida haqiqiy muhabbat, yuksak axloq, barkamol aqlga ega bo‘lmasa, uning qismati halokat va parokandalik bo‘ladi, agarda bu uch (go‘zal nuqtalar) bo‘lsa, albatta u farovonlik va baxtga yetishadi”<sup>25</sup>, - desa, boshqa bir holatda “Boshqaruv ham qonunlarning soniga va qadriyatiga bog‘liq. Yaxshi boshqaruv yaxshi qonunlarga bog‘liq, yomon boshqaruv – yomon qonunlarga, yetuk boshqaruv – yetuk qonunlarga bog‘liq”<sup>26</sup>, - deydi. Bu bilan Forobiy tarixiy jarayon pisoblanadigan mamlakat hayoti, uning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, farovonlik darajasi bevosita boshqaruv asoslariga, uning shakli, usul va uslubiga, qonun va qarorlarning, chiqarilayotgan hukmlarning adolatliligi xususida gapirib o‘tadi.

Barcha qarashlarda shaxs fe‘l-atvori, xatti-harakati va munosabatlari, fikrlar xilma-xilligi jamiyatda insoniylik fazilatlariga xos bo‘lgan qat’iyatlilik bilan muruvvatlilik, talabchanlik bilan mehribonlik zarur va ehtiyojlarni yuzga keltiradi. Forobiy ana shu hayotiy tamoyildan kelib chiqib, “Mamlakat aholisi xushxulqlikka ega bo‘lmagan taqdirda hokimiyatga ehtiyoj tug‘iladi”<sup>27</sup>, - degan xulosaga keladi va fikrini davom ettirib, “johil odamlar ustidan hukmronlik va ularni hokimiyatga bo‘ysundirish haqiqatan to‘g‘ri ish ekanligini”<sup>28</sup>, - aytadi. Yana bir joyda jamiyat hayotiga zarar keltiruvchi, tahdid soluvchi ishlar haqida gapirar ekan, adolat va qonun ustuvorligini ta‘minlash maqsadida “sa‘y-harakati, huquqlari va maqsadlari (adolatli) hokimlarga qarshi bo‘lgan yovuz niyatli odamlardan shaharni tozalashdir”<sup>29</sup> – degan g‘oyani ilgari suradiki, bu davlat, boshqaruv, hokimiyat va uning adolatli faoliyati masalalarida o‘rta asrlarda shakllanayotgan falsafiy, siyosiy, tarixiy, ijtimoiy tafakkurning naqadar yuksakligidan dalolatdir.

### **3. Ibn Xaldunning ijtimoiy ijtimoiy taraqqiyot haqidagi nazariyasi.**

---

<sup>25</sup> Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шахри. Т., А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1993. Б. 32.

<sup>26</sup> Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шахри. Т., А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1993. Б. 33.

<sup>27</sup> Ўша манба. Б. 33.

<sup>28</sup> Ўша манба. Б. 37.

<sup>29</sup> Ўша манба. Б. 37.

Abdurahmon Muhammad Ibn Xaldun sharq tarix falsafasini jiddiy ravishda rivojlantirgan, uni o'zining ilmiy qarashlari bilan bir muncha boyitgan, tarixga falsafiy yondoshish usullarini ishlab chiqqan yirik olimlardan biri. Ibn Xaldun o'z davrining yetuk mutafakkiri, faylasufi va tarixchisi sifatida o'zini namoyon etgan va "Valiuddin" unvonini olgan yetuk shaxs edi. U yirik siyosiy arbob sifatida ham yetarli tajribaga ega bo'lgan va ayni paytda diniy hamda dunyoviy bilimlarni chuqur egallagan allomadir.

Alloma o'zining noyob qobiliyatini namoyon etgan va bu borada qator ilmiy-nazariy yutuqlarni qo'lga kiritgan, xususan, insoniyat tarixi, uning shakllanishi, rivojlanish omillari va bosqichlari, inson va jamiyat, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning tadqiqi shular jumlasidandur.

Ibn Xaldun falsafasi tarix va sotsiologiya, insonshunoslik va falsafa hamda mantiq bilan qorishib ketgan. Shu bilan birga, diniy tafakkurning dunyoviy tafakkur bilan uyg'unlashgan shakli sifatida dunyoga kelib Sharq G'arb tafakkur olamida o'ziga xos maktab yaratdi. "Muqaddima" asari olimni mashhur qilgan. Ushbu kitobda tarixni anglash, tarixni tushunish, insoniyat tarixiy tajribalarini diniy va dunyoviy tafakkur orqali talqin etish masalalari yoritilgan. U tarix haqida gapirar ekan, "Fanning ikki jihati bor. Birinchisi qadimgi mamlakatlar va davlatlar haqida hikoya etuvchi tashqi tomoni bo'lsa, ikkinchisi tadqiqotlarning birining tarixi va yangi fikrlarni kashf etish bo'lgan ichki tomonidir. Tarix Olam asoslari sababiyatini aniq izlaydigan fan. Bu voqealar va ularning sabablari haqidagi chuqur ilm"<sup>30</sup>, deydi.

Ibn Xaldun ana shu tarzda tarixiy tadqiqotning umumiy va ichki jihatlariga alohida e'tibor berib, tarixning ildizini falsafada ko'radi. Munosib falsafiy fikrlar, umumlashmalar, xulosalar chiqarishga chaqiradi va natijada tarixni falsafiy fanlar qatoriga qo'shadi. Ibn Xaldun o'z davrining nodir tarixshunosi sifatida tarixnavislikdagi mavjud an'anaviy usullardagi kamchiliklar, nuqsonlar, jumladan, o'tmishni soxtalashtirish, chalkashtirish, voqeliklarni o'z manfaatlariga moslashtirib bayon etish kabi illatlarni keskin qoralaydi. Har bir millat va

---

<sup>30</sup> Қаранг. Ҳотамий С.М. Ислом тафаккури тарихидан. Т., "Минхож" нашриёти. 2003. Б. 242.

qavmning tarixiy rivojlanish manbalarini chuqur o'rganish, uni kelib chiqishi, taraqqiy topish yo'llari, millatning uyg'onishiga, o'z qadru qimmatini bilishiga va istiqbol rejalarini aniqroq tuzishiga yordam berishini alohida ta'kidlaydi.

Tarixda adolat ustuvorligi, tarix haqiqati hamisha bosh mezon bo'lishi, har qanday voqea va hodisa tahlili to'g'ridan-to'g'ri harakatni, muqaddas burch va adolatni ustun qo'yish muhim fazilat deb biladi. Tarix haqida asar yozar ekan, u o'zini tarixshunoslikka bo'lgan munosabatini va yondoshish usulini quyidagicha bayon etadi: "Bu kitobni tuzish va boblarga bo'lishda men hali ma'lum bo'lmagan yo'ldan bordim, ajoyib yangi usul yaratdim, o'quvchi bo'lib o'tgan voqealarning sababini o'rganishdan foyda olsin uchun tarixiy-ijtimoiy voqealar va insoniyat jamiyati taraqqiyoti qonuniyatini sharhlab berdim"<sup>31</sup>, deydi.

Ibn Xaldunning ana shu "yangi usul"i tarixdagi bayonchilik, tarixni qo'shib, yoki buzib yozishlar, safsatabozlik, xush ko'rmagan voqealarni keskin tanqid qilish kabi illatlarga nuqta qo'ydi. Tarixshunoslikning fan maqomini egallashiga doir o'ziga xos ilmiy-nazariy me'yorlarni yaratdi. Buni quyidagilarda ko'rish mumkin:

Birinchi, har qanday voqea va hodisalarning sababini o'rganish, uning mohiyatini ochish tarixiy voqelik mazmunini bilib olishga zamin yaratadi. Uning atrofida fikr yuritib, aqlni ishlatish, fikrlash, tafakkur qilish imkonini beradi.

Ikkinchi, Ibn Xaldun har qanday tarixiy voqelikka ijtimoiy tus beradi, ijtimoiy mohiyat qatlarini ochish orqali o'sha davr mohiyatiga, ijtimoiy-siyosiy muhitga, turmush tarziga baho beradi.

Uchinchi, "Kishilik jamiyati taraqqiyoti qonuniyatlarini sharhlab berish" orqali davlat va jamiyat qurilishiga tegishli bo'lgan fanlar – huquqshunoslik, falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik, mantiq singari fanlarning rivojlanishiga turtki berdi. Ana shu sharhlash orqali Ibn Xaldun aqliy takomil, fikriy rivojlanish yo'lini ochdi. Qachonki o'quvchi uning kitoblarini ko'zdan kechirar ekan, tarixiy voqeliklarni o'rganish bilan birga, voqealar atrofida fikrlaydigan, unga munosabat

---

<sup>31</sup> Хотамий С.М. Ислом тафаккури тарихидан. Т., "Минхож" нашриёти. 2003. Б. 242.

bildiradigan, baholaydigan bo‘lib qoladi. Bu esa ayni tarix falsafasining o‘ziga xos ko‘rinishi edi.

Ibn Xaldun tarixnavislikda mavjud bo‘lgan xilma-xil rivoyatlardan, turli hikoyatlardan va afsonalardan foydalanishga chek qo‘yib, mavjud jarayon tahliliga ko‘proq e‘tibor qaratish prinsipini ishlatgan va shu yo‘l bilan tarixnavislikning butunlay yangi yo‘nalishini rivojlantirishga muhim hissa qo‘shdi. Uning xulosalariga ko‘ra tarix “...o‘rganilish ob’ekti insoniyat jamiyati va odamlar jamoasi bo‘lgan mustaqil fandır, uning faoliyat maydoni birin-ketin almashib keladigan voqealar sababi va vaziyatlar xususiyatlarini tushuntirishdir”<sup>32</sup>.

Aytish mumkinki, ana shu tarzda Sharq tarix falsafasi paydo bo‘ldi va tarixning tadqiqot ob’ekti sifatida bevosita kishilik jamiyatidan iborat ekanligi ayon bo‘ldi. Jamiyatdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, voqeliklar, hukmron siyosat va boshqaruv usulining tahlili orqali ma’lum voqelik asoslari tadqiq etildi. Ilmiy izlanishning bu kabi uslubi tarix fani predmetiga aylantirildi va Xaldunning tadqiqot usuli va tarixnavislik uslubi ana shu tarzda ijtimoiy fanlar taraqqiyotini belgilaydigan muhim hodisaga aylandi.

Olimning ilmiy-uslubiy faoliyatining va tarix falsafasining ahamiyati shugina emas. U inson va jamiyat, odam va olam, kishilik jamiyati tuzilishi, vujudga kelishi, shakllanishi va tanazzullari borasida o‘ziga xos fikr yuritgan, o‘ziga xos talqin etgan va o‘ziga xos falsafiy tafakkurni talab etadigan, bugungi tarix falsafasi, jamiyatshunoslik, ijtimoiy fanlar borasida katta ma’naviy meros qoldirgan donishmandlarning ilmiy ijodidan, G‘arb olimlari o‘z davriga xos sivilizatsiyasi nuqtai nazaridan yondoshib Sharq falsafasidan unumli foydalanildi. Jumladan, Forobiy, Beruniy, ar-Roziy, Abulxasan Movardiy, Nizomulmuluk, G‘azzoliy, Ibn Bojja, Ibn Xaldun, Ibn Rushd va boshqalarning ilmiy merosini, falsafiy qarashlarini musulmon dunyosi xalqlariga nisbatan ancha chuqur o‘rganildi. Iqtidorning yuksakligi natijasida dolzarb mavzularni o‘zlashtirildi va ularni yangi davr sivilizatsiyasi nuqtai nazaridan tartibga solindi, yaxlit tizimini ishlab chiqib, yangicha ilmiy-nazariy uslub bilan ifodalab berildi.

---

<sup>32</sup> Хотамий С.М. Ислом тафаккури тарихидан. Т., “Минхож” нашриёти. 2003. Б. 243.

Ibn Xaldunning kishilik jamiyati qonuniyatlarini tadqiq etishga qaratilgan asarlari, xususan “Muqaddima” si shundan dalolat beradiki, uni “Islom fikriy doiralarida, istibdod va despotizm tuzumining jamiyatshunosi deb atashimiz mumkin. ...Darhaqiqat, diqqat qilsa, fikr bildirsa arziydigan yangi tasavvur va talqinlarni taqdim etadi”<sup>33</sup>. Ibn Xaldunning tarix falsafasida inson alohida mavqe egallaydi. U kishilik jamiyatiga baho berar ekan, uning qonuniyatlarini o‘rganar ekan, inson va inson omiliga diqqat bilan qaraydi, uni yetakchi vosita darajasiga ko‘taradi. Bilim, qobiliyat, munosabat bildirish, fikr yuritish, tasavvur qilish va idrok etish insonning hayvondan farq qiladigan jihatlari hamda uni qadriyat darajasiga ko‘taradigan ilohiy ne‘mat deb biladi. Insonning ana shu tengsiz imkoniyatlaridan kelib chiqib, jamiyat, uni boshqarish, hukmdor va uning fazilatlari xususida fikr yuritadi: “Odamlarning ma’lum hudud yoki mahallada qarindoshchilik va qabilachilik asosida birgalikda hamkorlikda yashashlari - o‘z ehtiyojlarini qondirish maqsadidagi kishilik jamiyati asosi” dir. Shunga asosan jamiyat qaysidir makonda yashayotgan odamlarning, qabila yo urug‘larning umumiy birligidir. Ehtiyojlar va manfaatlar atrofida birlashgan jamiyat qanchalik mustahkam bo‘lsa, o‘zaro hurmat va e‘tiborning saqlanishi va qaysidir eng hurmatli, tadbirkor odamning ushbu jamoaning boshqarishi Ibn Xaldun qarashlariga ko‘ra yaxlit jamiyatdir. Mutafakkir jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganar ekan, uni ruhiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy imkoniyatlari nuqtai nazaridan ikkiga bo‘ladi.

Birinchi navbatda, yovvoyilashgan jamiyat deb ataydi. Ikkinchi holatdakisini, ongli, fikrlaydigan, boshqaruv usuli va tajribasiga ega bo‘lgan madaniy jamiyatdir. Har qanday sharoitda ham uning xulosalariga ko‘ra jamiyat ichida nima uchun yashaydi, ya’ni inson yashashi, kun kechirish ehtiyoji mavjudligi uchun yashaydi deb javob beradi. Undan tashqarida bo‘lishi mumkin emas. Odamlarning manfaat, xudbinlik, ko‘proq yeb, yaxshi yashashga bo‘lgan ehtiyojga va maylga moyilligi jamiyat a‘zolari o‘rtasida kutilmagan nizolarning kelib chiqishiga, kelishmovchiliklar va ziddiyatlarning avj olishiga sabab bo‘ladi. Ibn Xaldun ana

---

<sup>33</sup> Хотамий С.М. Ислам тафаккури тарихидан. Т., “Минхож”. 2003. Б. 244.

shunday holatda hukmdorga ehtiyoj seziladi deydi va: “Hukmdor – bu jamiyat a’zolaridan biri bo‘lib, boshqalardan baland turadi va odamlar bir-birlariga ziyon-zahmat yetkazmasligi uchun ularni boshqaradi. Shohlikning ma’nosi ana shu”<sup>34</sup> degan xulosaga keladi. Ibn Xaldunning jamiyat qonuniyatlari, uning ruhiy-sotsiologik hodisa sifatidagi asoslari, jamiyatni boshqarish va ma’lum tartib-me’yorlarining vujudga kelishi haqidagi tasavvurlari ana shu tarzda shakllandi.

Ibn Xaldun kishilik jamiyatining vujudga kelishi va rivojlanish asoslari xususida fikr yuritar ekan, yana quyidagilarni bayon etadi: “Insoniyat jamiyatining ildizi va asoslari sahrodagi yovvoyi hayot tarzidadir. Bu shuning uchunki, badaviylar hayoti insonning eng asosiy ehtiyojlari chorcho‘basidan tashqariga chiqmaydi, holbuki shahar hayoti birinchi darajali zarurati bo‘lmagan narsalarga egalik qilish iddaosi va istaklari oqibatida paydo bo‘lgan hiyla taraqqiy etgan davrdir. Birinchi darajasi ahamiyatga molik zaruriy narsalar hayotda bo‘lmasa ham, ammo umr o‘tkazish mumkin bo‘lgan narsalarga nisbatan birlamchi ekanligi sababli badaviylik hayoti amalda daraxtning ildiziga o‘xshaydi. Shahar hayoti uning shoxlaridir”<sup>35</sup>.

Ana shunday tahlil jarayonida Ibn Xaldun insonga ijtimoiy voqelik sifatida qaraydi, undan ijtimoiy mohiyat izlaydi. Jamiyatni boshqaruvchi, harakatga keltiruvchi, rivojlanish omillarini va yo‘nalishlarini belgilab beruvchi, taraqqiyot strategiyasini ishlab chiquvchi shaxs hisoblangan boshqaruvchi ham ayni ana shu tabiiy xususiyatlarga ega degan xulosaga keladi.

Inson jonzot sifatida ezgulik va yovuzlik olamidir. Bu olam rang-barang, cheksiz va xilma-xildir. Shunga ko‘ra inson har doim umrining har daqiqasida yovuzlikdan ko‘ra ezgulikka, yomonlikdan ko‘ra yaxshilikka, nafratdan ko‘ra muhabbatga intilib yashashga mahkum etilgan aql sohibi, bebaho xilqatdir.

Ibn Xaldun falsafasiga ko‘ra insonni tabiiy ravishda ezgulik harakatga keltiradi. Yaxshilik qilishdan quvonadi, muhabbat nash’asidan, sururidan yayraydi. Aksincha bo‘lganda cheksiz iztirob chekadi. Boshqaruvda ham butun mohiyati va tabiatiga ko‘ra ana shunday fazilat mavjud bo‘lishi kerak. Shunda har qanday

<sup>34</sup> Хотамий С.М. Ислом тафаккури тарихидан. Т., “Минхож”. 2003. Б. 248.

<sup>35</sup> Ўша манба. Б. 249.

boshqaruv – shohlik amaliy faoliyatda ezgulikka, siyosiy qarashlarda insonparvar g‘oyalarga yondosh bo‘ladi.

Siyosiy hokimiyat, davlat va boshqaruv, uning jamiyat oldidagi vazifalarini tahlil qilar ekan, olim: “Hukumat xalq manfaatlarini uchundir, demak, shu bois xalq uni tashkil etishga vakildir. Bu yerda asosiysi shuki, jamiyat o‘z manfaatlarini ta‘minlash, ichki fitna va kelishmovchiliklar, nizolardan hamda chetdan bo‘ladigan hujumlardan saqlanish uchun muvofiq va hamma narsadan xabardor hukumatga tashkiliy uyushganlik va tartibga ega bo‘lishi lozim”<sup>36</sup>, degan xulosaga keladi.

Ibn Xaldun siyosiy hokimiyat tushunchasiga ana shunday aniqlik kiritadi. Uning fuqarolik jamiyati tamoyillari nuqtai-nazaridan o‘ziga xos vazifalarini belgilab beradi. Jamiyatda barqarorlikni ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan siyosiy tadbirlar va amaliy faoliyatlar yo‘nalishlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan ishlab chiqadi. Fuqarolarning faolligi, siyosiy hokimiyat ishiga bevosita ishtirok etish zarurligi haqidagi bugun ham dolzarb bo‘lgan masalalar haqida fikr yuritadi. Uyushqoqlik, tashkiliy tomondan mustahkamlik, umumiy manfaatlar atrofida birlashib, mayda ikir-chikirlarga e‘tibor bermaslik, ichki kelishmovchiliklar oldini olish uchun hukumat oqil va dono, tadbirkor va tashkilotchi bo‘lmog‘i lozimligini uqtiradi.

“Odamlar kabi davlat ham o‘zining hayotiy davrlariga ega”<sup>37</sup>, degan xulosa Ibn Xaldunning tarix falsafasida kishilik jamiyatining o‘ziga xos davriylik nazariyasiga asos solishi bilan yuzaga keladi.

Uning qarashlariga ko‘ra, inson umrining tabiiy davri 120 yil. Kimdir undan ham uzoqroq, kimdir undan kamroq yashashi mumkin. O‘z davrining mavjud ilmiy qarashlari va bashoratlari nuqtai nazaridan Ibn Xaldun shunday xulosaga keladi va davlatning tabiiy umrini ham shunga qiyos qilib, uni uch avlod umri davriga teng degan xulosaga keladi. Unda birinchi avlod “Kuch yordamida qiyinchiliklar bilan hokimiyatni qo‘lga kiritib o‘zining yovvoyi tabiatiga ko‘ra harakat qiladi, ya’ni jiddiu jahd, g‘azab, qat‘iyat va sabr-toqat bilan ish olib boradi. Shu tufayli hokimiyat tepasida qoladi. Ikkinchi avlod “meros sifatida qabul qilingan

<sup>36</sup> Хотамий С.М. Ислом тафаккури тарихидан. Т., “Минхож”. 2003. Б. 263.

<sup>37</sup> Хотамий С.М. Ислом тафаккури тарихидан. Т., “Минхож”. 2003. Б. 256.

hokimiyatning mevalaridan foydalanib, yalqovlashib qoladi, maishatga va begʻamlikka berilib, madaniyatning hashamatli hayotiga koʻnikadi, natijada asta-sekin zaiflasha boshlaydi”, uchinchi avlodda esa “davlatni tashkil etuvchi manbalar hisoblangan xususiyatlar barham topadi va shoh kurashchanlik qobiliyatini yoʻqotib, davlat uchun ortiqcha yuk boʻlib qoladi. Mana shu tariqa davlatning inqiroz davri boshlanadi”<sup>38</sup>.

Ibn Xaldun kishilik jamiyati va davlatchilikning bunday tarixiy davriylik nazariyasi oʻz davri uchun kutilmagan voqea edi. Ayni paytda davlatning paydo boʻlishi, rivojlanishi, taraqqiyotning yuksak choʻqqiga chiqishi va undan keyin oʻsha choʻqqidan pastga qarab tushishi, oxir-oqibatda tanazzulga uchrashi kabi ilmiy-nazariy tavsiyani keltiradi va xuddi shu muammoga oʻxshash xulosani VI asrdan keyin ingliz faylasufi, tarixchisi va sotsiologi Arnold Toynbi ham keltiradi. Falsafa tarixi bilan shugʻullanuvchi olimlar M.Abduraxmonov va A.Zoxidiylarning fikrlariga koʻra, Ibn Xaldun oʻzining yetti jilddan iborat «Al-Ibar» asarining muqaddimasida tarix falsafasi va ijtimoiyot bilan bogʻliq boʻlgan jiddiy qarashlarni oʻrtaga tashlaydi. U Sharq tarixshunosligida afsonalar, asotirlar va rivoyatlardan chekinib, real hayotiy haqiqatga tayanish tamoyilini ilgari surdi va aniq natijalarga erishdi.

Ibn Xaldun jahon tarixini oʻrganar ekan, madaniyatlar, sivilizatsiyalarning yuzaga kelishi, madaniyatlararo integratsiya va jahon hamjamiyatining umumiy taraqqiyoti qonuniyatlarini oʻziga xos tarzda tadqiq etadi. Turli madaniyatlarning vujudga kelishi, koʻchmanchi xalqlarni, kichik etnoslar va millatlarni bir-biriga qoʻshib yuborish natijasida kelib chiqadigan integratsiyalashuvning salbiy oqibatlarini aniq koʻrsatadi va har qanday kichik madaniyatlar «madaniy integratsiya» oqibatida katta xalqlarga madaniy tobelik orqali yoʻq boʻlib ketishi mumkinligi kabi ogʻriqli gʻoyalarni ilgari suradi. Ancha yillardan keyin Yevropa falsafasi namoyandalari ayni ana shu gʻoyani ilgari surdilar (V.Shmit, O.Mengen, V.Koppers, A.Toynbi).

---

<sup>38</sup> Ўша манба. Б. 257.

### **Nazorat savollari:**

1. Arab islom tarixshunoslik maktabi qachondan shakllana boshladi?
2. Musulmon olimlari tarixiy voqea va hodisalarni nimalar bilan bog'laydi?
3. Qaysi allomalar arab-islom tarixshunoslik maktabiga asos soldilar?
4. Ularni birlashtirib turuvchi asoslar nimalardan iborat edi?
5. Musulmon tarixshunosligining «Qur'oni karim» bilan bog'liqligini nimalarda ko'rish mumkin?
6. Arab-islom tarixshunoslik maktabining yirik namoyandalaridan kimlarni bilasiz?
7. At-Tabariy arab tarixchilaridan birinchi bo'lib tarixiy voqea va hodisalarni nimalar asosida yoza boshlagan?
8. Qomusiy olim Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniyning «Osor ul-boqiya an-al-qurun al-foliya» (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar) asarida nimalar bayon qilingan?
9. Ibn Xaldun tarixni hikoya qilib berishdan tashqari yana nimalarga e'tibor qaratdi?
10. Ibn Xaldun «Insonlar ijtimoiy hayotining mohiyati» nomli asarida nimalar aks etgan?
11. Abu Nasr Forobiyning qanday falsafiy kashfiyotlarini bilasiz?
12. Kishilik jamiyati tahlilini bo'lib chiqqan olim kim?
13. Mashxur arab olimining unvoni qanday bo'lgan?
14. Ibn Xaldun o'z davrining nodir tarixshunosi sifatida tarixnavislikdagi mavjud an'anaviy usullardagi qanday illatlarni keskin qoralaydi?

### **Mustaqil fikrlash uchun topshiriqlar:**

1. "Ibn Xaldun Sharq tarix falsafasidagi o'rni" mavzusida ko'rgazmali slayd tayyorlang (MS Power Point).
2. At Tabariyning tarixshunoslikdagi eng muhim asari haqida so'zlab bering.
3. Abu Rayhon Beruniyning tarixiy asarlari haqida fikr yuriting.
4. Abu Nasr al Forobiyning jamiyat va davlat haqidagi ta'limoti.

5. “Tarixning musulmon ilohiyotiga xos xususiyatlari” mavzusida referat tayyorlang.

## **7-MAVZU: ENG YANGI DAVR TARIX FALSAFASI VA METODOLOGIYASI**

### **REJA:**

1. Tanqidiy ratsionalizm asoschisi (K.Popper).
2. “Yevropaning soʻnishi” asari haqida (O.Shpengler)
3. K.Yaspers. Berdyayev tarixshunosligi.
4. Inson, sivilizatsuiya, jamiyat. A.Toynbi. P.Sorokin taʼlimotlari.

***Kalit soʻz va atamalar:** hayot falsafasi, fan va texnika, sivilizatsiya, postpozitivizm, falsafiy maktablar, tanqidiy ratsionalizm, bilimlar, inson harakatlari, gʻoyalar, ijtimoiy institutlar, hissiy tajriba, tabiat qonunlari, mantiqiy pozitivizm, falsifikatsionizm, demarkatsiya muammosi, etnologiya masalalari, madaniyat, subʼekt, obʼekt, tarix, tabiat, avvalgi faza, tarix fazasi, tarixiy mohiyat, sotsiomadaniy rishtalar, ilmiy bilish metodlari, ratsional intuitsiya.*

### **1. Tanqidiy ratsionalizm asoschisi (K.Popper).**

Karl Popper postpozitivizmning yirik vakili hisoblanadi. XIX asrning oxiri – XX asrning boshlaridagi davrning muhim tomoni falsafiy maktablar XIX asr ikkinchi yarmida ijod qilgan mutafakkirlarning gʻoyalarini rivojlantirib, toʻplagan ilmiy bilimlarni Gegeldan keyingi davrdagi falsafiy asoslarning biri atrofida birlashtirishga harakat qildilar. Yangi pozitivistcha taʼlimotning parchalanishi umumiy nomda birlashgan postpozitivizm deb atalagan bir qator fan falsafasining prinsiplarini vujudga kelishiga olib keldi. Ushbu oqimning kashfiyotchisi kritik ratsionalizm ijodkori Karl Popper edi. Tanqidiy ratsionalizm – bu bilimlarni, inson harakatlarini, gʻoyalarini va ijtimoiy institutlarni tanqid qilish va takomillashtirish asosida oqilona yetkazish prinsiplarini shakllantirishga urinadigan falsafiy uslubiy tizimdir.

Postpozitivizmga I.Lakatos, T.Kun, S.Tulmin, D.Agassi, P.Feerbend kabi yirik gʻarb faylasuflarining qarashlari taalluqlidir. Bu faylasuflarning asosiy

vazifasi fan falsafasida pozitivistcha uslubdagi tafakkurni bartaraf etish edi. Karl Raymund Popper jahon falsafasi postpozitivizmning asosiy yirik vakillaridan biri hisoblanadi. U qadimgi davr faylasuflarining davlat, jamiyat to'g'risidagi fikrlari, Aflotun, Geraklit, Z.Freyd, Protagor kabi faylasuflarning ta'limotlarini tahlil etib, juda ko'plab asarlar yozib qoldirgan. Uning eng mashhur asarlaridan biri - bu "Ochiq jamiyat va uning dushmanlari" asaridir. Ushbu asarda u qadimgi davr faylasuflarining qarashlarini o'rgangan, tahlil qilgan va asar boblarida ularning qarashlariga o'z fikrini ham bildirib o'tgan.

XX asrning birinchi yarmida Popper yangi pozitivizmning induktivizmi, verifikatsiyachilik nazariyasi, fan asosini tajribaviy tabiatning hodisasi sifatida talqin qilishni qattiq tanqid ostiga olgan edi. U ilmiy bilishda metafizikaning o'рни va metafizik (an'anaviy falsafiy) muammoni oqlash masalasini qo'ygan edi. U shuni ko'rsatadiki, metafizikada aytilgan hukmlarni hissiy ma'lumotlarga tadbiiq qilib bo'lmasligi asosida uni rad etish, mantiqiy jihatdan fundamental fanlarning butun nazariy asoslarini rad etishga olib keladi. O'zlarining metafizikani barbod qilish intilishlarida, - deb yozadi K.Popper, - ijobiy qarash ta'limoti va u bilan bog'liq tabiiatshunoslik fanlarini yo'q qiladilar, negaki, ilm-fan qonunlari aynan, metafizik hukmlarga o'xshash bo'lib, ularni hissiy tajriba haqidagi oddiy ifodalarga taalluqli deb bo'lmaydi. Ma'noni tushunishda agar izchil ravishda Vitgenshteyncha mezonlar qo'llanilsa, u vaqtda o'sha tabiat qonunlarini ahamiyatsiz narsa sifatida uloqtirishga to'g'ri keladiki, Eynshteyn ta'biricha, ularni qidirish «fizikaning oliy vazifasi» dir. Popper fikricha, ilmiy bilim asosan faraziy xususiyatga ega: «Biz bilmaymiz - biz faqat faraz qilishimiz mumkin.

Karl Popper mantiqiy pozitivizm ta'siri ostida bo'lgan, ammo qarashlarining falsafiy tamoyilar – tanqidiy ratsionalizm, ilmiy bilimning ortishi haqidagi nazariya va falsifikatsionizmni neopozitivizmga qarshi qo'ygan. Popper mantiqiy empiristlarning, ilmiy mulohazalar mezoni verifikatsiya tamoyili degan fikriga qarshi falsafaning asosiy vazifalaridan biri sifatida demarkatsiya muammosi (ilmiy bilimni noilmiy bilimdan ajratish) ni ilgari surgan. Popperring fikriga ko'ra, demarkatsiya usuli – falsifikatsiyadir, ya'ni fanga tegishli bo'lgan. U mantiqiy

pozitivistlarning tor empirizmidan hamda bilimning mutlaq ishonchli asosini izlashdan voz kechdi. Falsafiy bilimlarning empirik va nazariy darajalari bir-biri bilan uzviy darajada bog‘liqligi, har qanday ilmiy bilim faqat gipotetik, taxminiy xarakterga ega va xato (fallibilizm tamoyili) bo‘lishi mumkinligi Popper qarashlarining asosini tashkil etadi.

Ilmiy bilimning ortishi dadil gipotezalarni ilgari surish va ularni rad etilishini amalga oshirishdan iboratdir. Buning natijasida muhim bo‘lgan muammolar hal etiladi va bu jarayon unda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Popper o‘zining mantiqiy – metodologik va kosmologik konsepsiyalarini asoslash uchun neodarvinizm va emerjent rivojlanish g‘oyalaridan foydalangan. U ilmiy bilimning ortishini dunyodagi umumiy evolyusion jarayonlarning xususiy ko‘rinishi sifatida tushunadi. Popper tomonidan ilgari surilgan uch dunyo metafizik nazariyasida bir-biriga reduksiya qilib bo‘lmaydigan jismoniy va mental dunyolarning, shuningdek ob‘ektiv bilim dunyosining mavjudligi ta’kidlanadi. Popper, shuningdek tushuntirishning deduktiv – nomologik sxemasi asoschisidir. Bu sxemaga muvofiq, agar mulohaza muvofiq qonunlar va chegara shartlari majmuidan deduktiv ravishda chiqarilgan bo‘lsagina u tushuntirilgan hisoblanadi.

Semantikaning mantiqiy qoidalariga asoslangan holda Popper ilmiy nazariya (gipoteza) lar ma’nosining chinligini va aldanganligini aniqlash usulini taklif qildi. Ilmiy bilimni ortishi nazariyasini yaratish dasturini amalga oshirishda Popper tomonidan falsifikatsiya tamoyilining mutlaqlashtirilishi, ilmiy bilimning ob‘ektiv jihatdan haqiqiylikni tan olmasligi, bilim asoslarini talqin etilishidagi konvensionalizm hamda ob‘ektiv bilimning tarixiy konkret biluvchi sub‘ektdan ajratilishi bilan bog‘liq bo‘lgan jiddiy qiyinchiliklarga duch keldi. Ilmiy va g‘ayriilmiy bilimlarni ajratish mezoni sifatidagi pozitivistcha verifikatsiya qoidasini tanqid qilib, Popper haqli ravishda ko‘rsatib o‘tadiki, nazariyani hech qachon tajribaviy jihatdan verifikatsiya qilib bo‘lmaydi. Ilmiy haqiqatga erishish vositasi sifatida induktiv mantiqni mutlaqlashtirishni ham Popper haqli ravishda tanqid qiladi. Ma’lumki, o‘z vaqtida D.Yum induksiyaning mantiqiy asoslash muammoli ekanligini ko‘rsatib o‘tgan edi. Shu munosabat bilan Popper induksiya

qoidasini oqlash uchun, biz uchun induktiv xulosalarni qo'llashga to'g'ri keladi, ularni oqlash uchun esa, yuqoriroq darajada turgan induktiv qoidani kiritish lozim, va hokazo shu ruhda davom etish zarur deb ta'kidlagan edi. Demak, tajribadan kelib chiqib, induksiya qoidasini asoslashga urinish, zaruriy ravishda yemirilishga duchor bo'ladi, negaki, u muqarrar ravishda cheksiz (regress) tanazzulga olib keladi. Yangi pozitivistcha ta'limotga qarshi o'laroq, Popper o'zining verifikatsiyalar (tasdiqlash) nazariyalariga emas, balki ularning falsifikatsiya qilish (soxtalashtirish) jihatlariga asoslangan ilmiy bilim uslubini tavsiya qiladi. Ilmiy usulning mantiqiy asosi sifatida Popper induktiv emas, balki deduktiv mantiqni ko'radi, aniqroq aytganda esa, uning qoidasi bo'lgan modus tollensni nazarda tutadi. Popper nazaridagi ilmiy nazariyalarni tanlash va tekshirishning umumiy tasviri quyidagicha ko'rinishga ega: taxminlar o'rtacha qo'yilgandan keyin mantiqiy deduksiya yordamida ulardan qandaydir xulosalar keltirib chiqariladiki, ularni tajribada tekshirishdan o'tkazish mumkin bo'ladi. Agar xulosalardan biri tasdiqlanib qolsa, biz ham taxminning haqiqiyliги haqida hukm yurita olmaymiz. Ammo agar ana shunday xulosalardan biri rad etilsa, undan shu narsa kelib chiqadiki, taxmin yolg'on bo'ladi. Bundan Popper shunday xulosaga keladiki, nazariyaning ilmiy maqomining mezoni uni soxtalash mumkinligi va raddiyaligidir. Popper taklif qilgan ilmiy nazariyalar haqiqiyliğini baholash me'yorining ichki qarama – qarshiligi isbotlangan. Popperring oxirgi falsafiy asarlari ong nazariyasini ishlab chiqishga, hozirgi zamon falsafasidagi irratsional va relyativistik mayl (tendensiya) larga qarshi yo'nalgan ratsionalizm himoyasiga bag'ishlangan. Ijtimoiy falsafa sohasida Popper marksizm va tarixiylikni tanqid qiladi. U ijtimoiy rivojlanishning ob'ektiv qonunlari va jamiyat rivojlanishi taqdirlarini bashorat qilish mumkinligini rad etadi. Popper g'oyalari I.Lakatos, U.Bartli, J.Agassi konsepsiyalarida, shuningdek tanqidiy ratsionalizmning turli yo'nalishlarida rivojlantirildi.

1.Falsafa tarixini davrlarlashtirilishi, antik davr donishmandlarini davlat to'g'risidagi fikrlari tahlili Karl Popper ijtimoiy-tarixiy jarayonlarni o'rganishga postpozitivizmning yirik namoyandalaridan biri sifatida kirishadi. Uning ushbu

sohaga tegishli bo'lgan asosiy asari "Ochiq jamiyat va uning dushmanlari" deb nomlanadi. Mazkur asarda Popper falsafa tarixi davrlarini tahlil qilib chiqadi. Popper tahlilni qadimgi davr falsafasidan boshlaydi, bunda dastlabki demokratik jamiyatlarning paydo bo'lishini, xususan, Afina davlat-shaharlari tarixini tahlil qilib beradi. Shuningdek, Popper Qadimgi davr faylasuflarining davlat to'g'risidagi fikrlarini ham tahlil qilib chiqadi. Dastlabki demokratik jamiyat Afinada shakllanadi, u quldorlik demokratiyasi edi. Bu jamiyat qadimgi aristokratik tuzumga qarshi qurol natijasida vujudga keladi. Aristokratik polis davlatlarni oliy zotlar sulolasi boshqarar edi. Aristokratik tuzumni qadimgi faylasuflardan Efeslik Geraklit, Protagor va Aflotun yoqlab chiqqan edi. Popper bu ikki donishmandning jamiyat, davlat haqidagi qarashlarini tahlil qiladi. U Geraklitni jamiyat taraqqiyotini orqaga qaytish jarayonida deb talqin qilgani uchun tanqid qiladi. Geraklit fikricha, go'zallik va mutanosiblik dunyosi abadiy dunyodir. Shuning uchun ham u o'zgarmasdir. Zaminiy dunyoda esa hamma narsa o'tkinchidir, o'zgaruvchandir, nisbiydir. Shunga zaminiy hayot mutanosib va abadiy bo'la olmaydi. Go'zallik dunyosi, Geraklit fikricha, ilohiy logos dunyosidir. Bu dunyo oquvchanlikni, o'zgaruvchanlikni aniqlab beradi. Zaminiy qonunlarda samoviy qonuniyatlar in'ikos etadi. Bu dunyoda hamma narsa o'zgaruvchan, oquvchandir. Popper Geraklitni demokratik jamiyatni birinchi dushmani deb biladi, unitanlanganlar nazariyasining tarafdori deb, hisoblaydi. Geraklitning intuitsiya haqidagi ta'limotini Popper mistika deb ataydi, dunyoqarashini esa ratsionalizmga qarshilikda ayblaydi. Popper o'zining "Ochiq jamiyat va uning dushmanlari" asarining 5 – bobida mazkur faylasuflar qatorida sofistlarning ham tabiat, jamiyat, davlat va shartnoma haqidagi fikrlarini tahlil qilib o'tadi. Shu bilan birga ushbu bobda, Aflotun jamiyatni ilmiy analiz qilgan birinchi faylasuf emasligini, birinchi fan bilan shug'ullanuvchilar o'zlarini sofistlar deb ataganlar. Odamning atrof-muhitdagi tarkibiy qismi – uning tabiiy va jamiyat muhitidagi farqi ehtiyoj deb tushunishgacha belgilanganidan farq qiladi. Bu farq murakkab barpo etilgan va anglangan dalillardan xulosa chiqarilganidek, hozir biz fikrimizda mavjud bo'lgan isbotdan farq qilmaydi. Protagor davridan beri har doim savol-

javoblar mavjud bo'lgan. Ibtidoiy qabilaga oid xatti-harakatlar ajoyib xarakterlidir. Yopiq jamiyatda yashash quyosh nur sochganda undan bebahra qolgandekdir. Qonun – tabiiy qonun ifodasida aniq tasvirlanadi. Agar biz tabiat qonunini to'g'ri yoki noto'g'riligini bilmasak va agar yana biz o'zimizning ishonchsiz qarashlarimizni belgilasak, biz uni keyin gipoteza deb ataymiz. Agar biz tabiat qonunlari o'zgarmas va bu qonunlarga qarshiliklarni mavjudligini ta'kidlaydigan bo'lsak, bu o'z gipotezamizni yetarlicha darajada rad etish bo'lamiz. Tabiat qonunlari o'zgarmagandan beri, bular na parchalanadi, na bo'ysunishga majbur etadi. Bular, ya'ni tabiat qonunlari inson boshqaruvidan keyin deyarli imkoni boricha texnologik maqsadlar uchun foydalanilgan. Hammasidan farqli o'laroq, tabiatda yana normativ qonunlar ham mavjud. Bu ehtimol yaxshi yoki yomon, to'g'ri yoki noto'g'ri, ma'qul yoki noma'qul shaklda ifodalangan bo'lishi mumkin. Agar normativ qonunga rioya qilinganida, o'sha paytda bu harakatlar va qarorlar har doim inson boshqaruvi natijasidir. Men mutafakkirlarga, ayniqsa jamiyatdagi ko'p sonli olimlarga ishonaman. Ammo bu fikrlar anglanmaguncha umuman qabul qilinmaydi. Ko'plab mutafakkirlar ta'qiqlar va buyruqlar normasi borligiga ishonadilar va quyidagi fikrni aytib o'tadilar: mutlaq qonuniy normalar inson tabiati yordamida qabul qilinadi. Men Platonning sotsiologiyasini tushunish zaruriy deb bilaman va tabiat hamda normativ qonun o'rtasidagi tafovut borligiga aminman. Go'zallik va mutanosiblik dunyosini Aflotun g'oyalar dunyosi deb ataydi. G'oyalar dunyosini Aflotun narsalar dunyosiga qarshi qo'yadi. Abadiy g'oyalar ilohiy mohiyatlardir.

2. Popper Aflotunning g'oyalar dunyosini harakatsizlikda, o'zgarmaslikda ayblaydi. Lekin bu Aflotun ajodining birinchi davriga xosdir, ikkinchi davrida esa Aflotun g'oyalar dunyosining evolyusiyasi va mukammallashishi haqida fikr yuritadi. O'zining Pir, Timey va Fedon kabi dialoglarida koinotning pifagorcha tuzilishi haqida fikr yuritadi. Aflotun kosmogoniyasi Geraklitning qarashlariga o'xshashdir. Har ikki ta'limotda ham markazda doimiy harakatchan, faol olov turadi. Aflotun ham, Geraklit ham olovni jismoniy jarayon sifatida emas, ruhiy samoviy hodisa sifatida tushunganlar. Shuning uchun ham olov ularda abadiy

tiriklik timsolida namoyon bo‘ladi. Popper Aflotunning ijtimoiy qarashlarini tanqid qiladi. Aflotunning fikricha, ideal davlat boshqaruvi davlat qonunchiligiga asoslangan totalitar rejimdir. Shuningdek, Popper Aflotun dunyoqarashida markaziy o‘rinni egallagan kollektivlik, adolat tushunchalarini ham tanqid qiladi. Kollektivlik, deb yozadi Popper, shaxs rivojiga to‘siq bo‘ladi, unda shaxs o‘zining to‘liq manfaatini kollektiv manfaatga bo‘ysundirishga majburdir. Kollektiv individning, shaxsning ijodiy kuchini ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qiladi. Lekin Aflotunning ideal davlatida oddiy fuqarolar harakati boshliqlar ko‘rsatmalariga bo‘ysungandir. Boshliqlarning buyruqlariga itoat qilish kerak. Bunday qullik ruhiyati Aflotun tomonidan oqlanadi, chunki insonlar tabiatan boshqaruvchilar va boshqaruvchilarga bo‘linadilar. Insonlar o‘z ruhiy rivojlanishlariga ko‘ra bir xil darajada emaslar. Ana shu ruhiy tengsizlik davlatda tabaqa, toifalarni vujudga keltiradi. Yuqori tabaqalar ruhiy rivoji yuksakligi uchun boshqarishlari kerak, quyi tabaqalar esa itoat qilishlari lozim. Ana shunday davlat tuzumi Aflotun fikricha, davlat farovonligiga olib keladi. Agar davlat rivojlansa, pirovard natijada omma ham yuksaladi.

Tarixiylik tushunchasini Popper juda keng tushungan. Bu tushunchaga turli qarama-qarshi ta’limotlarni ham kiritib yuboradi. Masalan, Geraklit, Aflotun, Arastu, Gegel, Marksning ta’limotlari ham tarixiylikka kirib ketadi. Tarixiylikni irratsional tushunish asosida insoniy ruh yotadi. Shuningdek, Popper o‘z zamondoshlarini ham tanqid qiladi. Keller va Toynbi qarashlarini tarixiylikda ayblaydi. Bunday tarixiylikka Popper o‘zining ratsionalizmini qarshi qo‘yadi. Demak, Popperring pozitsiyasi qanday? Uning ochiq jamiyat to‘g‘risidagi ta’limoti tarixiylikka qarshidir. Ochiq jamiyat bu xalq hokimiyatining demokratik shaklidir. Bunday shakl o‘z ichiga so‘z, fikr, xususiy mulk erkinligini oladi. Xalq hokimiyatining bunday shakllari, Popper fikricha, qadimgi davrda Yunonistonning Afina shahrida mavjud bo‘lgan. Afina demosi o‘sha davr aristokratiyasiga qarshi kurashgan. Keyinchalik ochiq jamiyatning bunday shakli Yevropaga ko‘chgan. Ochiq jamiyatning mukammal ko‘rinishi hozirgi G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlarida mavjuddir. Demak, ochiq jamiyat asosi hurfikrlikdan

iboratdir. Popper o'z ta'limotida jamiyatni tafakkur taraqqiyoti sifatida tushunadi. Totalitar tuzum bu xususiy mulk hamda hurfikrlikka qarshi kurashgan jamiyatdir. Totalitarizm doim ideal davlat haqidagi g'oyani ilgari suradi. Abadiy va o'zgarmas bo'lgan ideal davlatda har bir jamiyat a'zosining baxtga erishishi muqarrardir, deb ta'kidlaydi. Popper fikricha, bunday ideal davlat taraqqiyot oldida to'siq bo'ladi. Ideal jamiyatni ilgari surgan utopistlarning o'zaro tenglik, hamkorlik, birodarlik, do'stlik haqidagi fikrlari ham xayoldan iboratdir. Ideal davlat g'oyasi utopiya bo'lishiga qaramasdan, zararli hamdir. U doimo jamoa hokimiyatidir. Shunday bo'lgandan so'ng, individuallik manfaati jamoaga bo'ysundiriladi, natijada hurfikrlilik halok bo'ladi, xususiy mulkning turli shakllari rivojlanmay qoladi.

Davlatchilikning totalitarizm shakli xalq ommasining loqaydligiga olib keladi, bunda hurfikrlilik an'analari yo'qolib boradi, buyuk shaxslarga sajda qilish kuchayadi. Shaxsga, diniy aqidalarga sig'inish rivojlanadi. Hozirgi davrda texnika, informatsiya va muloqot vositalarining rivojlanishi zamonaviy insonni tobora ochiq, o'z-o'zidan rivojlanuvchi tizimga aylantirib qo'ymoqda. Hozirgi ochiq jamiyat uchun kuchli individ zarur. Bu esa o'z vaqtida yakkalikka olib keladi. Popper fikricha, ochiq jamiyatning ideal shakli individumlar jamiyatidir. Amaliyotda insonlar jonli muloqotdan mahrum bo'lmoqdalar, chunki telefon, kompyuter, televidenie, radio va boshqa texnika vositalarining paydo bo'lishi muloqotni mexanizatsiyalashtirishga olib keldi. Bir uyda, shaharda, pod'ezdda yashovchi insonlar bir-birini tanimaydilar. Bu albatta, achinarli hol, deydi Popper. Bunday holat inson erkinligining natijasidir, bunday oqibat esa totalitar jamiyatda yashamaslikni oqlaydi. Inson uchun foydalisi erkin demokratik jamiyatda yashashdir. Insonlar munosabati haqida fikr yuritib, Popper umuman insonni yaxshi ko'rib bo'lmaydi, konkret harakatlari uchun konkret insonni yaxshi ko'rish mumkin, umumiy muhabbat yo'qdir, deydi. Popper bu yerda Suqrotning mavhum axloq haqidagi g'oyasiga to'liq qo'shiladi. Uning fikricha, tafakkur taraqqiyoti, pirovard natijada, davlatlarni, xalqlarni ochiq jamiyat lageriga o'tishiga olib keladi. Tarixiy jarayon rivoji erkinlik rivojiga yo'naltirilgandir. XIX asr oxirida bu g'oyani fransuz faylasufi Anri Bergson rivojlantiradi. Uning evolyusion

nazariyasida fanga va intellektual bilimga yuksak baho berib, bular intuitiv bilimga qo‘shimcha bo‘lishi kerak deydi, Bergson. Uning fikricha, intuitsiya va intellekt bir-birini to‘ldiradi, bilish jarayonini ijodiyotga aylantiradi. Frensis Bekon o‘z davrida ratsional tafakkurning xatolari haqida fikr yuritgan edi. Uning fikricha, bu xatoliklarni yo‘qotish tajriba orqali amalga oshadi. Abu Ali Ibn Sino ham bilishda tajribaning rolini inkor etmagan holda, inson tafakkuriga nurlanish xosligi to‘g‘risida gapiradi. Bunday nurlanish faqatgina mutlaq xotirjamlikdagina namoyon bo‘ladi. So‘fizm va yoga maktablari sukunatga eishishning bir necha uslublarini ishlab chiqqanlar. Shunday qilib, irratsionalizm insonning ichki dunyosiga murojaat qiladi. Popper sharqona irratsionalizmni ham, hind irratsionalizmini ham inkor qiladi. Popper irratsionalist Keller mulohazasini keltiradi:

Insoniyat mutlaqo yangi davrga o‘tishi lozim, unda inson ma’naviyati poklanib, o‘zini mistik va diniy imkoniyatlarini tiklasin, yangi afsonalarni yaratib, umrni suniylashtirishga yo‘l qo‘ymas. Insoniy ruh insoniyatga haydovchi yoki texnik sifatida majburan xizmat qilishdan qutulib, shoir yoki komil inson sifatida qayta tug‘iladi, insonlarni orzulariga bo‘ysundiradi. Intellektual donolik va ilmiy dasturlar singari, ishonchga loyiq qalbiy donolikka ega bo‘ladi, lekin bu donolik yanada ilhombaxsh etadi va ko‘tarinkiroq ruhda harakatga chorlaydi. Umuman olganda, har bir insonda intuitiv qobiliyat mavjud. Bu inson ruhiyatining kichik ichki koinotidir. Ana shu kichik koinotda katta koinot aks etadi. Keller insonni o‘z koinotini kashf etishga chaqiradi. Bu koinotning imkoniyatlari cheksizdir. Qisqacha qilib aytganda, — Men koinotdaman, koinot menda. Keller texnikaning taraqqiyoti insonni tobora muruvatga aylantirib borayotganligini aytadi. Texnik sivilizatsiyaning rivoji insonni tabiatdan begonalashuviga sabab bo‘lmoqda. Bu esa o‘z navbatida, insonni insonlardan ham begonalashishini keltirib chiqaradi. Bizning fikrimizcha, Kellerning texnikaviy jamiyat haqidagi mulohazalari shulardan iborat va Popper o‘zining ochiq jamiyat haqidagi nazariyasini ishlab chiqishda Kellerning ushbu fikrlarni rad etmaydi. Albatta, Popper hukumat o‘zining fuqarolarining savodi, ma’lumoti uchun javobgar bo‘lishi, hattoki

ma'lumotsizlarga nisbatan chora, jarima to'lashni tashkil qila bilishi va buni nazoratda tutishi kerak, deb hisoblaydi. Bunday ma'lumotga ega shaxslar, jamoat ishlarida faol qatnashishini, har qanday o'zgarishga o'zlarining qarashlarini bildirishini aytib o'tadi. Hukumat jamoat ichidan intellegentlar, talantlar chiqishi uchun bunga sharoit yaratishi, va rag'batlantirishi zarurligini ta'kidlaydi va bu yo'lda hech narsani ayamalik lozim, deydi. Popper nazaricha, yurtning kelajagi yoshlar bilan bog'liq. Mas'ul shaxslar ularning ma'lumoti, bilim doirasi to'g'risida qayg'urishi, ularni yuksak fikrga ega bo'lgan shaxsga aylantirishi kerakligini aytib o'tadi. U yoshlar uchun imkoniyat eshiklarini ochib, ularning ta'lim olishlari uchun institutlar tashkil etish va aynan, davlat boshqaruvini egallovchilar uchun ham maxsus o'quv dargohlari tashkil etish kerakligini keltirib o'tadi.

## **2. "Yevropaning so'nishi" asari haqida (O.Shpengler).**

Osvald Shpengler 1880 yilning 29 mayida Gori yaqinidagi mo'jazzina Blankenburg shahrida tug'iladi. O.Shpengler nemis faylasufi va XX asr tarix falsafasi konsepsiyasining namoyandasi hisoblanadi. 1904 yilda Shpengler Garida Geraklit falsafasining metafizik g'oyasi mavzusida imtihon topshirib, gimnaziyada tabiiy fanlardan, matematika, tarix va nemis tilidan dars berish huquqiga ega bo'ldi. 1908 yildan 1911 yilgacha Gamburgdagi Genrix Gerts gimnaziyasida dars beradi, keyinchalik u bu ishni tashlab yozuvchilik bilan shug'ullanadi.

Shpengler keyinchalik Myunxenga ko'chib borib, u yerda hech kim bilan muloqotga kirishmay "Yevropaning so'nishi" nomli mashhur asarining qoralama variantini yozadi. Nihoyat bu kitobning birinchi jildi 1918 yilda nashr qilindi va u muallifga shon-shuhrat keltiradi. 1919 yilda "Prusschilik va sotsializm" nomli uncha katta bo'lmagan asarini yozadi. 1922 yilda esa "Yevropaning so'nishi" asarining ikkinchi jildi nashrdan chiqadi.

1925 yilda Shpengler siyosatdan qat'iy ravishda uzoqlashadi, u o'z diqqatini ilmiy faoliyatga qaratadi. Shpengler falsafaning metafizik masalalari to'g'risida yakunlanmagan qisqa asarlar yozadi. Shu bilan bir qatorda Shpengler etnologiya masalalari bilan ham shug'ullandi. Bu faoliyat uni dunyoning yangi tarixini ishlab

chiqishga olib keladi. Uning bu g‘oyasi bir necha maqolalarida o‘z aksini topadi: ”Amerika madaniyati”, “Falak gardishi va uning dunyo tarixidagi ahamiyati”, “Xristianlikning ikkinchi ming yilligida dunyo tarixi” masalalariga oid lavhalarda bu maqolalar “Birlamchi savollarda” nomli to‘plamda nashr qilinadi.

Shpengler falsafasining markaziy mavzusi – tarix, lekin tarix madaniyat orqali tushuntiriladi. Har bir madaniyat aylanma harakatga ega, yani tug‘iladi, ravnaq topadi va halokatga yuz tutadi. Yevropa madaniyati ham oxirgi uchinchi bosqichni o‘z boshidan kechirmoqda. Tarix taqdirga o‘xshamaydi. Har bir madaniyat o‘z qobig‘iga joylashgan boshqa madaniyatga o‘z yutuqlarini bera olmaydi. Shpengler o‘zining tarixiy konsepsiyasini yaratganda ko‘pgina falsafiy masalalarni ko‘taradi. Jumladan, ijtimoiy-siyosiy muammolar ham o‘ziga xos ravishda madaniyat tushunchasi orqali o‘z yechimini topgan.

“Yevropaning so‘nishi” asari nashr etilishi nafaqat Germaniyaning turli qatlamlari orasida, balki rus ziyolilari orasida ham katta qiziqish uyg‘otdi. Tarix falsafasini yaratishda u mistik intuitsiyaga tayanib, o‘z asarida butun Yevropa madaniyati taqdirini ochib berishga qaratgan. Asarning boshlanishi u hali hech kimning miyasiga tarixni tushunishdagi bunday inqilobiy fikr kelmagan, - deydi. U o‘zining tarixiy ta‘limotini o‘zi bilgan ta‘limotlarga qarshi qo‘ydi. Lekin ayrim g‘oyalarni Nitsche va Gyotedan olganligini tan oladi. Shpengler tabiat haqidagi fanlarga ruh haqidagi fanlarni qarshi qo‘yadi. Tabiat va tarix faqatgina sub’ektning ongidagina, kechinmalaridagina o‘z voqeligini oladi. Mustaqil reallik sifatida ular mumkin emas, faqat ruhdagina mavjud, ya’ni sub’ektsiz ob’ekt mumkin emas, sub’ekt umuman ongdir, dunyo asosida men yotadi, ana shu men orqali u o‘zini namoyon qildi.

U tarixni uzluksiz jarayon sifatida inkor etib, barcha tarixiy jarayonlarni, taraqqiyotni to‘laligicha qo‘llab-quvvatlamaydi. Shpengler fikricha, G‘arb odami uchun tarix butunlay o‘zgacha ko‘rinishga ega. Tarixning markazi dunyo tarixining bitta kichkina sayyoradagi olti ming yilligini tashkil qildi. Shu manzara, Shpengler ta‘kidiga mohiyatan, bizning uyg‘oq ongimiz mahsulidir. Shu asosda G‘arb ruhi o‘zini anglaydi, shu zaruriy shakl orqali mavjudlikni mushohada qiladi.

Tarixni faqat his etish kerak, tarixda faqat yashash kerak. Shpengler uchun tarixni bilish uslubi o'xshashliklardir (anologiya). Shunday qilib, tarixiy voqealarni tahlil qilganda, ularning ichki qonuniyatlari, mantiqiy bog'liqliklarini qidirmasdan balki, o'xshashlikni, paralellarini topishga harakat qilish, ana shu asosda tarixni yaratish kerak.

Shpenglarning fikricha, tabiat va tarix, ikki qarama-qarshi uslub, o'ziga borliqni tartibga solishga urinadi. Agar har bir vujudga kelayotgan jarayonni mavjudlik nuqtai nazaridan ko'radigan bo'lsak, borliq tabiatga aylanadi, imkoniy vujudni zaruriy vujudga (jarayonga) bo'ysundirsak tarix bo'ladi, deydi Shpengler. Jumladan, tafakkur ishga solinsa, uning o'lik tushunchalari va qonuniyatlari tabiatni tushuntirishga harakat qiladi.

Ichki ishlarimizga, hissiyotimizga, intuitsiyamizga murojaat qilsak, ko'z o'ngimizda tarix namoyon bo'ladi. Tabiat tafakkur faoliyati natijasidir, bilish oqibatidir. Tarix esa mushohada, intuitsiya natijasidir. Har bir madaniyatning hayotini taqdir boshqaradi. Taqdirni his qilib, inson o'zi yaratishi kerakligini aytadi. Agar kim uni his qilmasa, tarix bilan shug'ullanmaslik, tabiatni bilishga o'rganish mumkin, lekin tarixchi bo'lib tug'ilish kerak. Tarixchining kuchi shundan iboratki, u ongsizlik darajasida tarix jarayonini instinktiv ravishda biladi, bunday uslubda har qanday inson ham ishlay olmaydi.

Tarixning mazmuni uning ruhida namoyon bo'ladi. Madaniyat ruhiyatning tashqi ko'rinishidir. Shpengler sakkizta madaniyatni sanab o'tadi: Bular Xitoy, Bobil, Misr, Hind, antik, arab, g'arb va maya xalqining madaniyatidir. Rus madaniyati haqida alohida e'tibor bilan gapiradi. Har bir madaniyat qaytarilmas, o'ziga xos va yagonadir. Har bir madaniyatning asosida o'ziga xos ruhiyat yotadi. Masalan, antik madaniyatda – Apollon ruhiyati, arab madaniyatida mistik (afsungarlik) ruhiyati, g'arb madaniyatida – Faust ruhiyati yotadi.

Butun dunyo tarixini Qadimgi va yangi davr tarixiga bo'lib tashlash fikrlari bilan chiqqan tarixchi va faylasuflarni Shpengler tanqid qiladi. Shpengler G'arb tarixchilarining Yevropa markazchiligi tamoyiliga qarshi chiqib, ushbu ajratish faqat g'arb mamlakatlariga xosligini e'tirof etadi.

Shunga ko‘ra olimning “Yevropa quyoshining so‘nishi” nomli asari nafaqat tarix falsafasiga bag‘ishlangan, unda siyosiy masalalar ham ko‘tarilgandir. U so‘zboshida shunday yozadi: Bu kitobda kelajak tarixni aniqlashga harakat qilingan, vazifa shundan iboratki, nihoyasiga yetayotgan yer yuzasidagi yagona madaniyatning, ya’ni G‘arbiy Yevropa madaniyatining taqdirini o‘rganishdir. Undagi asosiy masala G‘arbning inqirozi sivilizatsiyaga ham ta’sirini o‘tkazadi. Shuning uchun bu muammo ko‘hna tarixning asosiy masalalaridan biridir.

Ta’kidlash kerakki, madaniyatlarning o‘ziga xos sivilizatsion ko‘rinishlari bo‘lib, sivilizatsiya eng oxirgi, eng sun’iy holatdir. Sivilizatsiya eng madaniyatli insonlarga xosdir. Shpengler sivilizatsiya haqida gapirib, shahar to‘g‘risida ham fikr yuritadi, ya’ni shahar o‘zlikni yo‘qotishlik sifatida ruhiyatning o‘lishi sifatida paydo bo‘ladi.

Madaniyat – ruhiyat, sivilizatsiya esa tafakkurdir – deb yozadi Shpengler. G‘arbda madaniyatdan sivilizatsiyaga o‘tish qadimda VI asrda sodir bo‘lgan. Shahar sivilizatsiyaning natijasidir. O‘z hurmatini saqlagan, asrab-avaylagan shaxsda quvvat inson ichiga yo‘naltirilgan, sivilizatsiya in’ikosida esa quvvat tashqariga yo‘naltirilgan. Hayot imkoniyatni amalga oshirishdir, tafakkurli insonlarda imkoniyat cheksiz kengdir. Shpengler qat’iy ravishda umumdunyo tarixini inkor qiladi. U shunday yozadi: Insoniyat men uchun zoologik birlikdir. Men G‘arbiy Yevropa faylasuflarining fikrlarida insoniyat ravnaqi, maqsadi va yo‘llarini ko‘rmayapman. Tarixni an’anaviy tarzda qadimgi, o‘rta va yangi davrga bo‘lishni Shpengler juda tor doiradagi provinsializmga kiritadi. Uning uchun yagona insoniyat tarixi yo‘q, faqat alohida ajralgan madaniyatlar mavjuddir. Ular tasodifan paydo bo‘ladi, rivojlanadi va halok bo‘ladi. Misoli dalada o‘sgan gul taqdirini boshidan kechiradi, o‘simliklar, yovvoyi tabiatga o‘xshash morfologik tur yoki jins bo‘lgani kabi tarixda ham xuddi shunday organizmlar mavjud, bu tarix morfologiyasi har bir madaniy organizm uchun davr va bosqichlarni belgilaydi. Har qanday madaniyat, deb yozadi Shpengler, - insoniyatga o‘hshab yashaydi. Oziqlanadi, nasl qoldiradi. Ularning o‘z umr mavsumlari bo‘lib, bolaligi, o‘smirligi, o‘rta yoshi va qariligi haqida gapirib o‘tadi.

Shpengler fikricha, yagona falsafiy taraqqiyot yo‘li mavjud emas. Shu jumladan, turli madaniyat mutafakkirlari uchun yagona masalalar ham yo‘q. San‘at asarlari, axloqiy tamoyillar kabi falsafiy masalalarni ham faqat o‘zlari ruhiyatida aks ettiradi. Shuning uchun ham, deydi Shpengler, tabiat bilan ruhning ziddiyati faqatgina bizning faylasuflarimizni qiziqtiradi. Boshqa madaniyat faylasuflari uchun bu masala qiziqish ham uyg‘otmaydi, uni anglamadilar ham. Har bir masala o‘z davrining faqat o‘z davrining in‘ikosidir. Har bir davrning o‘zining mavzusi bor, ushbu mavzu faqat shu davr uchun ahamiyatga egadir.

Paydo bo‘lgan madaniyatning taqdiri qanday bo‘ladi? Qanday yo‘lni bosib o‘tadi? Shpengler fikricha, bu yo‘l uch davrdan iborat. Birinchisi, eng uzundur. Bu davr tayyorlov davridir, yani xaos (tartibsizlik) ning dastlabki holati, bolalik va va kuchning to‘planishidir. Keyin madaniyat davri boshlanadi. Bu davr muayyan madaniyatning berilgan ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish va amalga oshirishdir, sur‘atli ijodiyotdir. Ana shu davrda hamma ma‘naviy qadriyatlar shakllanadi, diniy e‘tiqodi mustahkamlanadi, metafizik tizimlar tuziladi, san‘atning noyob sohalari, asarlari vujudga keladi.

So‘ngra, madaniyat o‘zining uchinchi oxirgi davriga qadam qo‘yadi – orqaga ketish davri, yani sivilizatsiya davri boshlanadi. Bu davrda ma‘naviy hayot so‘na boshlaydi, diniy e‘tiqod susayadi, falsafiy ta‘limotlar yuzaki bo‘lib qoladi, san‘at ham o‘ladi. Quruq ratsionalizm va materializm dunyoqarash asosini tashkil qiladi. Hayotning tashqi tomonlari ichki ruhiyatni yengib boradi.

Har bir madaniyat davri, hayoti, Shpengler fikricha 1000 yilni tashkil qiladi, sivilizatsiyaning oxirgi davri 200-300 yilni tashkil qiladi. Har bir madaniyat, taqdir taqozosi bilan bir xil davrni boshidan kechiradi.

### **3. K.Yaspers. Berdyayev tarixshunosligi.**

Karl Yaspers ta‘limotining muhim yo‘nalishini jahon tarixi birligi tashkil etadi va uni umuminsoniy qadriyat darajasiga ko‘taradi. Yaspers insoniyatning butun tarixini o‘zaro izchil ravishda almashinuvchi uch fazaga bo‘ladi: tarixdan avvalgi faza, tarix fazasi va jahon tarixi fazasi. Tarixdan avvalgi faza uzoq davr

hisoblanib, u insonning shakllanishi, til va irqning paydo bo'lishidan tortib, to'rtinchi madaniyatning vujudga kelishigacha bo'lgan davrni qamrab oladi<sup>39</sup>. Shu holatdan kelib chiqib, «Bu yerda inson mohiyatining siriga duch kelamiz, insonning Yerda yashashi betakrorligini anglab yetamiz, oldimizda barcha narsalarning kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lgan va boshqa hech qayerda uchramaydigan erkinligimiz borasidagi masala paydo bo'ladi»<sup>40</sup>, - deydi K.Yaspers.

Ilk sivilizatsiya o'choqlari kuzatilgan Xitoy, Hindiston, Yaqin Sharq va Yevropada bo'lib o'tgan, taxminan 5 ming yillik voqealarni tarix o'z ichiga qamrab oladi. Butun dunyo tarixi borliq va insoniyatning buyuk geografik kashfiyotlar davrida shakllanib, bugungi kunda yuzaga chiqayotgan global birligi bilan boshlanadi. Uning boshlanishi XX asrga to'g'ri keladi. Tarix fazasida tasodifiy to'qnashuvlarning mavjudligiga qaramay, ba'zi katta sivilizatsiyalar yonma-yon rivojlandi. Bular alohida tarixlar edi. Jahon tarixi fazasida butunning birligi namoyon bo'lib, undan tashqariga chiqib bo'lmaydi. Demak, K.Yaspers xulosalariga ko'ra, «Mazkur faza – tarixiy voqelik emas, balki kelajakdagi imkoniyatlarni oldindan payqashdir. Shu sababdan u empirik tadqiqotning predmeti bo'la olmaydi va faqat hozirgi zamondagi borliqni anglash uchun zarur ma'lumotlar mavjud manba sifatida xizmat qiladi»<sup>41</sup>.

Tarix fazasida Yaspers tomonidan «vaqt o'qi» deb nomlangan davr muhim ahamiyatga ega. Mazkur davrda, ya'ni miloddan avvalgi 800 va 200 yillar o'rtasida tarixda tub burilish ro'y berdi: hozirgi kungacha yashab kelayotgan qiyofadagi inson paydo bo'ldi va insoniyatning ma'naviy asosi shakllana boshlandi. Demak, ana shu davrni jahon tarixining o'qi deyishimiz mumkin<sup>42</sup>. Ana shu yerda Yaspers falsafasining mohiyati ochiladi. Zotan, inson shakliga ega bo'lib, garchi o'z davriga xos ibtidoiy holda yashagan bo'lsa-da, uning tarixi boshlandi. Inson va insoniyat tarixi ilk tasavvurlardan fikrlar va tafakkur olamida jiddiy siljishlar yuz bergan insonning vujudga kelishi bilan boshlanadi. Inson tafakkuridagi bunday

<sup>39</sup> Ивин А.А. «Философия истории». М.: «Гардарика». 2000 г. С. 34.

<sup>40</sup> Ясперс К. Истоки истории и ее цель. Вып. 1, С. 120.

<sup>41</sup> Ясперс К. Истоки истории и ее цель. Вып. 1, С. 124.

<sup>42</sup> Ясперс К. Смысл и назначение истории. М.: Издательство «Республика». 1994. С. 32

jiddiy o'zgarishlar, intellektning boyib borishi imkoniyatlarni kengaytirish talant va iqtidorlarni aniqlash bu – ilk insonning paydo bo'lishi va bugungi davrgacha yashab, takomillashib borish jarayonlaridan iboratdir.

Inson o'z kelajagi haqida bashorat qila olmaganidek, insoniyat ham o'z istiqboli to'g'risidagi xulosalarini mutloq haqiqat deb bila olmaydi. Xuddi shuningdek, fan qanchalik tasdiqlamasin, aniq misollar bilan isbot qilmasin, inson qanday paydo bo'lgani, ilk ajdodlari qanday bo'lganiga qiziqaveradi, ammo aniq bir to'xtamga kela olmaydi, masala mavhumligicha qolaveradi. Shuning uchun ham Yaspers «Tarixdan avvalgi vaqt ibtidosidagi insoniyatning umumiy boshlang'ich davri biz uchun, hozirgi kunda Yer sharida hukmronlik qilayotgan, huquqiy jihatdan tartiblashgan birlikka yetishishi mumkin bo'lgan, moddiy va ma'naviy jihatdan mavjudlikning cheksizligiga intilayotgan insoniyatning kelajagi kabi qorong'udir»<sup>43</sup> - deydi.

Bunday qaraganda tarixning biror-bir inqilobiy burilishi fan va texnikaning vujudga kelishi kabi dunyoviy inqilobni vujudga keltirmagan. Ana shu voqeaning o'zi insoniyat hayotini ostin-ustun qilib tashladi va uning butunlay yangi, mustahkam shakllangan, keyinchalik yuksalib boradigan bosqichini boshlab berdi. Zotan, insoniyatning sevinchu iztiroblari, baxti va butun dardi-sitamllari, quvonchli onlariyu, xushnud damlari ana shu fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq. Fan-texnika inqilobining tarixiy mohiyati haqida gapirar ekan, «Fan jahonga misli ko'rilmagan imkoniyatlar va xavf-xatarlar keltirdi. 150 yildan beri davom etayotgan texnika asri so'nggi yilliklarda gurkirab yuksaldi, uning keyingi jadallashuv darajasini bashorat qilish qiyin. Butun mavjudlikning yangi asoslari yaratildiki, uni inkor etib bo'lmaydi»<sup>44</sup>, deb xulosa chiqaradi K.Yaspers.

Yaspers qarashlariga asosan yalpi jahon tarixini o'rganish jarayonida inson o'z tarixini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Zotan, har qanday inson yoki jamiyat, ma'lum bir makonda yashayotgan xalq o'z taqdiri va tarixini o'z qobig'i doirasida o'rganishi bir yoqlamalikka yoki milliy mahdudlikka olib kelishi mumkin. Butun millat va xalqlarga tegishli tarixni tadqiq etishda umumiy

---

<sup>43</sup> Ясперс К. Истоки истории и ее цель. Вып. 1, С. 63.

<sup>44</sup> Ясперс К. Истоки истории и ее цель. Вып. 1, С. 108.

insoniyat tarixi tadrijiy taraqqiyotiga, sivilizatsion omillariga, xususan madaniyatlarga e'tibor qaratish talab etiladi. Har bir kishidagi tarixiy tafakkur umuminsoniy taqdir va tarix bilan bog'liq holda rivojlangan, kengaygan holdagina ma'lum bir hudud tarixi bo'ladimi yo umuminsoniyat tarixi bo'ladimi, uni butun ko'lami va mohiyatini anglash va tushunish imkoniyatlari kengayadi.

O'z navbatida ma'lum bir region yoki qit'a millatlari tarixidagi jarayonlar rivoji, dunyoqarash va sivilizatsiyadagi o'zaro ta'sirlarni o'rganish maqsadga muvofiq, ya'ni har qanday chegarada yashayotgan ma'lum bir xalq tarixi, albatta, o'sha mintaqa va, qolaversa, umuminsoniyat tarixi bilan bog'liq bo'ladi. Chunki ayni ana shu makonda yuz bergan tarixiy jarayon yoki ma'lum bir voqelik tashqi ta'sir, tabiiy makon va ijtimoiy manfaatlar natijasida ham yuz berishi mumkin. Qolaversa inson tafakkuri u yashayotgan jamiyatning umumiy tafakkuri, umumiy saviasining, qolaversa, tinimsiz va tizginsiz almashinayotgan axborotlar ta'sirida kengayib borayotgan tafakkurning natijasi.

Bu yerda tarixiy shaxslar, daholar, sarkardalar, yirik olimu ulamolar nazarda tutilmayapti. Biroq har qanday jamiyatning umumiy ma'naviy-ma'rifiy saviasini o'sha jamiyatni tashkil etgan fuqarolarning aqliy va dunyoqarashini kengligi bilan emas, balki dunyoviy taraqqiyot yangiliklari va jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlari in'ikosidir. Ana shu fikrlardan kelib chiqib, «tarix falsafasining biz berishga urinayotgan yaxlit konsepsiyasi, -deb yozadi Yaspers, - jahon tarixi doirasida o'z ahvolimizni yoritishga yo'naltirilgandir. Tarixiy konsepsiyaning vazifasi hozirgi davrni anglashga yordam berishdan iborat. U bizga jahon tarixidagi o'rnimizni aniqlab beradi»<sup>45</sup>.

Darhaqiqat, jahon tarixining yaxlit ko'lamigina hozirgi – XXI asr ostonasida turib yaqin asrlarda yuz bergan ulkan o'zgarishlar, taraqqiyot va tanazzullar, ezguliklar va yovuzliklarning oqibatiga ko'ra, o'tgan besh ming yillik tarixdan ma'lum bo'lgan voqealarga qiyoslab bo'lmasligini, bu sohada misli ko'rilmagan mo'jizalar va dahshatlar yuz berganini tushunishga imkon beradi.

---

<sup>45</sup> Ясперс К. Истоки истории и ее цель. Вып. 1, С. 129.

Boshqacha qilib aytganda, insoniyat tarixiga, uning tadrijiy taraqqiyot bosqichlari va tanazzullariga o'z imkoniyatlarni, zafarlaru nuqsonlarni solishtirib, ma'naviy-axloqiy, intellektual qiyofani ko'ramiz, ustun va ojiz tomonlarni aniqlaymiz, ma'naviy qudratimiz, aql-zakovatimiz doirasida tegishli xulosa chiqaramiz.

Insoniyat tarixining izchilligi, tadrijiyligi inson tanasidagi avlod-dan-avlodga o'tib kelayotgan genlar va unsurlarning bugungi kungacha saqlanganida o'z ifodasini topmoqda. Qadimgi va eng qadimgi ilk ajdodlarimiz ruhiyati hamda fe'l-atvoridagi fazilatlar va nuqsonlar yaxlit holda qaysidir darajada bugun jismimizda yashamoqda. Bu ilk tosh yozuvlardan tortib, hozirgi buyuk yangiliklarni amalga oshirilishi, oddiy mehnat qurollaridan tortib sovuq urush qurollari, insonni koinotga qadam qo'yishi, internet, haybatli havo laynerlari va hatto insonni klonlashtirish kabi dahshatli mo'jizagacha – barcha-barchasi sivilizatsiyaning ulkan, uzundan-uzoq zanjirini o'zida ifoda etadi. K.Yaspers ana shu hodisadan kelib chiqib «O'sha davrda sodir bo'lgan, yaratilgan va kashf etilganlar bilan insoniyat hozirgi kungacha yashab kelmoqda. Odamlar o'zlarining har bir intilishlarida vaqt o'qini eslab, unga murojaat etadilar, shu davr g'oyalaridan ilhomlanadilar. Mazkur davrdan boshlab vaqt o'qini xotirlash va uning imkoniyatlarini tiklash – Renessans – doimo ma'naviy yuksalishga olib keladi deb hisoblanadi»<sup>46</sup>, deydi.

K.Yaspers taraqqiyot sabablarini izlashga harakat qiladi, ammo ushbu jarayonni nimadan boshlashni bilmasdan boshi qotadi va «Hech kim bu yerda nima sodir bo'lganligini, jahon tarixining o'qi qanday paydo bo'lganligini to'liq anglay olmaydi! Biz bu bosqichni hamon chuqurlashib borayotgan sir sifatida eslab turish maqsadida ushbu tub burilish davrining tarixini chizishimiz, uning turli jihatlarini ko'rib chiqishimiz, ahamiyatini izohlab berishimiz lozim»<sup>47</sup>, deydi.

A.Ivin xulosalariga ko'ra, Yaspers insoniyat tarixining to'rt geterogen davrini ajratib ko'rsatadi: prometey davri (nutqning, mehnat qurollarining paydo bo'lishi, olovdan foydalanishni o'rganish davri), uzoq o'tmishning yuksak madaniyatlari

---

<sup>46</sup> Ясперс К. Истоки истории и ее цель. Вып. 1, С. 38.

davri, inson borlig'ining ma'naviy asoslari davri (vaqt o'qidan boshlanuvchi bu davrda o'z ma'naviyati bilan olamga yuz ochgan haqiqiy inson shakllangan) va texnika taraqqiyoti davrlariga ajratadi.

Insoniyat tarixida, shunday qilib, ikki bosqich kuzatiladi. Birinchisi prometei davridan uzoq o'tmishning yuksak madaniyatlari orqali o'tib, barcha oqibatlar bilan birgalikda vaqt o'qiga olib boradi. Ikkinchisi insoniyat tarixidagi ikkinchi prometei davridan, fan va texnika davridan boshlanadi va ehtimol, yangi, hali olis va ko'rinmas ikkinchi vaqt o'qiga, insonning haqiqiy yuksalishiga olib kelishi mumkin. Mazkur ikki bosqich o'rtasida muhim farqlar bor. Ikkinchi bosqichda biz tarixiy tajribaga ega bo'lamiz; agar birinchi bosqich davri bir nechta yonma-yon harakat qilayotgan qismlarga bo'lingan bo'lsa, ikkinchisi insoniyatni yaxlit holda qamrab oladi. Ikkinchi bosqich qanday bo'lishini tasavvur qilib bo'lmasa-da, u komil insonning yaratilishi bilan tugaydi deb taxmin qilish mumkin<sup>48</sup>.

Inson tafakkuri kengayib borgani sayin uning yangidan-yangi imkoniyatlari paydo bo'laveradi, faoliyat doirasi kengayib, ochilmagan qirralari ochilib boradi. Bu o'tmishimizda yuz bergan tarixiy taraqqiyot va uning oqibatlarida yaqqol ko'rinadi.

Lenin boshchiligidagi zo'ravonlik bilan o'rnatilgan imperiya taz'iyiq, tahdid va qo'rquv orqali jamiyatni boshqarish tamoyilini to'la amalga oshirdi. Ketma-ket davom ettirilgan repressiyalar xalq ommasi aqliy qatlamini – elitasini, intellektual boyligini yo'q qildi. Natijada qo'rquv bilan yashaydigan avom xalqdan iborat bedavo jamiyatni vujudga keltirdi. Yoki diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmning dunyo miqyosida xuruj qilayotgani, ular keltirayotgan mislsiz fojialarning shakllari, usullari doirasi tobora kengayib ketayotgani ularning kasbiy mahorati va tajribalari oshib borayotganini ko'rsatmaydimi? Aslida esa ezguliklar, buyuk kashfiyotlar qanchalik aql mahsuli bo'lsa, yovuzliklar va beqiyos xunrezliklar ham aql orqali amalga oshirilgan salbiy hodisalardir. Darhaqiqat, bugun olamni ostin-ustun qilayotgan, insoniyat boshiga mislsiz kulfatlar keltirayotgan, dahshatu vahshatlarga to'la buzg'unchi g'oyalar faqatgina

---

1. Ивин А.А. «Философия истории.» М.; «Гардарини». 2000. С. 33-34.

aqidaparastlik, fanatizm illatlari emas, balki aqidaparastlik “balosi” hamdir. Faqat ana shu hodisalarni amalga oshirayotgan kamikadzelar esa o‘zligini unutgan zombilar bo‘lishi mumkin, xolos.

Ana shunday holatdan kelib chiqib K.Yaspers «Bu konsentratsion lagerlarning real voqeligi, bu azoblovchilar va azoblanuvchilar doirasidagi kelishilgan harakat, inson ma’naviy qiyofasining bunday yo‘qolishi barchaga halokat tahdidini soluvchi kelajak imkoniyatlaridan darak beradi... ushbu xavf atom bombasidan ham qo‘rqinchli, chunki u inson qalbiga tajovuz qiladi»<sup>49</sup>, deydi.

Bir qarashda Yaspers sivilizatsiya oqibatlarini, fan-texnika taraqqiyoti natijalarini tushkunlik bilan qabul qilganday ko‘rinadi. Biroq uning qarashlarida yuksak ko‘tarinkilik, optimistik ruh yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xususan, insoniyat kelajagi to‘g‘risida gapirar ekan, har qanday sivilizatsiyada zaruriyat va tasodif hodisasi bo‘lishi, insonning ongi va tafakkuri, aql-zakovati natijasi degan xulosaga keladi. O‘tmishda yuz bergan barcha yutuqlar bilan birga tanazzullar va fojealarni butun ko‘lami bilan anglab yetish, undan zarur xulosalar chiqarish, buning uchun esa tiniq va keng qamrovli tafakkur kerakligini uqtiradi va, jumladan, shunday deydi: «O‘tmishning fojealarini unutishga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Negaki, bizdagi qo‘rquv o‘tmishda sodir bo‘lgan voqealar qaytarilishi, tarqalishi, butun dunyoni qamrab olishi mumkinligi tufayli paydo bo‘ladi. Biz xavf bilan faol kurashga aylanuvchi ushbu qo‘rquvni saqlashimiz lozim»<sup>50</sup>.

Xulosa qilib aytganda, XVIII asrdan keyin jahon tarixini o‘rganish, xususan, G‘arb tarix falsafasining yuqori darajadagi uslubiy asoslari yaratildi. Bu bevosita butun ko‘lami, ilmiy-nazariy yaxlitligi, inson va uning mohiyati, insoniyat tarixi taraqqiyoti tajribalari haqidagi Sharqlik olimlarning ilmiy-metodologik nazariyalari falsafiy yo‘nalishlari va g‘oyalarining yangi sivilizatsiyaviy shakli sifatida o‘zini namoyon etdi. Zotan, G‘arb mutafakkirlaridan biri “Nur-Sharqdandir” degan edi. Bu dono bashorat har ikki ma’noda – hayot manbai bo‘lgan quyoshning Sharqdan chiqishiga, tafakkur manbai bo‘lgan aql-idrok,

---

<sup>49</sup> Ясперс К. Истоки истории и ее цель. Вып. 2, С. 16.

<sup>50</sup> Ўша манба. Б. 17.

daholik quvvati va zakovat mo'jizasi ham Sharqda yuz bergani va keyinchalik butun insoniyatni zabt etganiga haqqoniy ishora edi.

#### **4. Inson, sivilizatsuiya, jamiyat. A.Toynbi. P.Corokin ta'limotlari.**

A. Toynbi (1889-1975 y) - hozirgi zamon G'arb falsafasining taniqli vakili, buyuk ingliz mutafakkiridir. U insoniyat tarixiy jarayonini tadqiq etishga bag'ishlangan 12 jildli "Tarix davrlari" asarini yaratdi. Bu asarida sivilizatsiyaning paydo bo'lish, gullab-yashnash va inqirozga yuz tutish jarayonini tahlil qildi.

Toynbi dunyoviy tarixni harakatga keltiruvchi kuchli sivilizatsiyani tug'diruvchi va halokatga olib keluvchi imkoniyatlarni ochib berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. XX asrning boshlarida esa sivilizatsiyalar ham yo'q bo'lib ketuvchi xususiyatga egaligi aniq bo'lib qolgan edi. Jumladan, birinchi jahon urushi, kimyoviy qurollarning qo'llanilishi, suv osti va samo urushlari, Xirosima va Osvensim hodisalari fikrimizning dalili bo'la oladi. Shunday davrda madaniyatning tug'ilishi, rivojlanishi va halokati dolzarb masalaga aylanadi. Toynbi o'z tadqiqotini tarixiy jarayonning predmet chegarasini (hamma uchun tushunarli tilda) aniqlab olishdan boshlaydi. U Angliyaning tarixiy yo'lini o'rganadi va shunday xulosaga keladiki, bunday birlik milliy davlat bo'la olmasligini tasdiqlaydi. Buning sababi, Angliyaning tarixi boshqa mamlakatlar tarixi bilan minglab ijtimoiy-madaniy aloqalar orqali chambarchas uzviy bog'lanib ketgan edi, uni bu munosabatlardan ajratgan holda, xolislik bilan o'rganish bajarib bo'lmaydigan vazifaga aylanadi.

Toynbi XX asr sivilizatsiyasi inqirozga yuz o'g'irgan davrda yashadi, 1-jahon urushi dahshatlari va uning oqibatlarini ko'rdi, madaniyatning tug'ilishi, ravnaqi va halokati masalalarini o'rganish dolzarb masalaga aylandi.

U o'z tadqiqotining predmeti chegarasini hamma uchun tushunarli tilda belgilab olishga harakat qildi. U Angliyaning tarixiy rivojlanish yo'lini o'rganar ekan, minglab sotsiomadaniy rishtalar orqali ko'plab mamlakatlar bilan uzviy bog'langanligini, uni bu munosabatlaridan ajratib olib, o'rganib bo'lmasligini e'tirof qildi. Tahlil uchun kattaroq birlikni olish zarurligini anglab yetdi va ana shu

sotsiomadaniy birlik sifatida "G'arb xristianlik sivilizatsiyasi" yoki "G'arb sivilizatsiyasi" tushunchasini qo'lladi.

Toynbi dunyo tarixini chuqur o'rganish natijasida G'arb sivilizatsiyasi yagona sivilizatsiya emasligini, mavjud sivilizatsiyalar miqdori uncha ko'p ham emasligini ko'rsatdi. U 21 sivilizatsiyani dunyo tarixini tashkil etuvchi asos sifatida ko'rsatdi. Qotib qolgan barcha sivilizatsiyalar 37 ta ekanligini ta'kidladi. Sivilizatsiyalar sotsiomadaniy birlik sifatida mavjud bo'lib, makon va zamonda cheklangandir.

Toynbi ham ilohiyotchi, ham faylasuf edi. U o'zining e'tiqodida gnoseologik metodlardan unumli foydalanadi. Uning ta'kidlashicha, Ilohiy bunyodkorlik mahsuli – bu tarixdir. Xudo o'zining bunyodkorlik mo'jizalarini inson orqali amalga oshiradi. Tarixni anglash uni ilohiy bilishni talab etadi. Tarix ilohiy bo'lganligi uchun ham mazmunga egadir, inson ana shu mazmunni egallashi lozim.

Toynbi o'z tadqiqotlari orqali sotsiogenez mexanizmini ochib berishga harakat qildi. Uning ta'kidlashicha, bu mexanizm alohida sivilizatsiyani ham, butun insoniyatni ham qamrab oladigan umumiylikka ega bo'lishi lozim edi.

Toynbi sivilizatsiya genezisi 3 elementdan:

- 1) universal davlat;
- 2) dunyoviy cherkov;
- 3) etnik harakatdan iborat ekanligini ko'rsatdi.

Sivilizatsiyalar o'z-o'zidan shakllanmaydi: uning rivoji uchun o'ziga xos tarixiy davr bo'lishi shart. Bunday davrni Toynbi "Chaqiruv" va "Javob" deb atadi. Sivilizatsiya genezisini tashkil etuvchi barcha elementlar mavjud bo'lgani holda "chaqiruv" bo'lmasa, "javob" ham bo'lmaydi, natijada sivilizatsiya rivojlanmaydi.

Chaqiruv - jamiyat qandaydir xavf ostida bo'ladigan davrdir. Chaqiruv davrini yunonlar qadim zamonlarda, arablar VI asrlarda, Markaziy Osiyo xalqlari XIII-XIV asrlarda, sovetlardan keyingi makonda tashkil topgan mustaqil davlatlar xalqlari esa XXI asr boshlaridan kechiryaptilar.

Toynbining fikricha, olam hodisalariga javob tariqasida buyuk daryolar o'tgan mamlakatlar sivilizatsiyasi (qadimgi Misr, Qadimgi Hindiston, Qadimgi

Xitoy sivilizatsiyalari vujudga keldi. U yoki bu xalq Ilohiy chaqiruvga javob bermasligi va o'zidan biron-bir nom bermasligi va o'zidan biron bir nom-nishon qoldirmasligi ham mumkin.

Toynbining ta'kidlashicha, Javob berishda ijodkor ozchilikning roli beqiyos kattadir. Keng omma uchun ijodkor ozchilik orqasidan ergashish, taqlid qilish xosdir. Chaqiruvning ahamiyati ko'pchilik omma tomonidan anglab yetilsa, ijodkor ozchilik Chaqiruvga mos Javobdan ruhlanadi, sivilizatsiyalar shu tariqa yashaydi va rivojlanadi. Noijodiy ko'pchilik va Javobga taqlid qilishda davom etadi.

Shunday qilib, Chaqiruv va Javob sivilizatsiyaning asosini tashkil etadi. Barcha sivilizatsiya va madaniyatlarning boshlang'ich nuqtasi uchun biror-bir andoza yo'q, biroq hamma sivilizatsiyalar madaniy genezisning tarixiy davrlarini bir xilda bosib o'tishga majburdir. Butun gap har bir xalqning (madaniyatning) Chaqiruvga monand Javob topa olishidadir. Ayrim xalqlar o'zida yetarlicha ijodkor kuchlarni yetishtira oladi, natijada ana shu ijodkor kuch madaniy taraqqiyot uchun kuchli turtki beradi, natijada yangi jamiyat, yangi sivilizatsiya dunyoga keladi. Shunday qilib, tarix yo'li Chaqiruv va Javobning o'zaro munosabatidan iboratdir.

Chaqiruv davri – shunday davrki, bunda jamiyat qandaydir xavf ostida bo'ladi, Chaqiruv turlicha bo'lishi mumkin. Chaqiruv davrini qadimgi Yunoniston shahar – davlatlari o'z boshlaridan kechirganlar, ular aholi soni o'sib ketishi oqibatida ozuqa mahsulotlarining kamayib ketishi va eroziya natijasida hosildor yerlarning qisqarib ketishidan azob chekkanlar. Shahar davlatlar (polislar) bu chaqiruvga turlicha javob berganlar, ayrimlari (Korinf, Xolkida) O'rta yer dengizi qirg'oqlarida yashovchi mahalliy aholini koloniyalarga aylantirganlar, ayrimlari (spartaliklar) harbiy yurishlar uyushtirib qo'shni aholini bosib oldilar va o'zlariga bo'ysundirdilar, uchinchilari (Afina) qishloq xo'jaligi mahsulotlarini import qilib, hunarmandchilikni jadallik bilan rivojlantirishga kirishdilar. Shunday qilib, bitta chaqiruvga uch xil javob berishdi. Buning natijasida bir-biridan tubdan farq qiladigan uch xil jamiyat va madaniyat tashkil bo'ldi.

Jumladan, Avstriyaning rivoji, Toynbi fikricha, Turkiyaga qarshi turishga olib keldi, Yevropaning forportiga aylandi. Daryolar o'rtasidagi sivilizatsiyaning va Misrning rivoji tabiat chaqiruviga javob tarzida shakllanadi – bu vaqti-vaqti bilan daryoning toshib turishi bilan bog'lanadi. Demak, yangi sivilizatsiya genezisining asosi uchun chaqiruv davrining bo'lishi majburiydir, usiz sivilizatsiyaning spontan taraqqiyoti mutlaqo mumkin emas.

Shu tariqa chaqiruv va javobning o'zaro aloqalari natijasida tarix yo'li abadiy ravishda turg'unlik yoki inqiroz o'rtasida harakat qiladi. Chaqiruv va javob kulturlarning tashkil topishiga, bir-birlari bilan o'rin almashishiga o'zaro bog'liqdir. Toynbi madaniy genezisning universal kalitini topishga intilmaydi, u ana shu genezisning ishlash mexanizimini o'ziga xos mazmun bilan to'ldiradi. Toynbining sivilizatsiyasi ba'zi kamchiliklardan ham xoli emas. Unda qilingan xulosalar yaxlitlikni tashkil qilmaydi. Shunday bo'lsa ham, Toynbining tarix falsafasi ochiq tizimdir va insoniyat dunyo hayotining har bir chaqiruviga javob berishga qodirdir.

Demak, Toynbi madaniyat va insoniyat tarixini sikllik (davriy) rivoji g'oyasini ilgari suradi. Uning fikricha, yagona dunyoviy tarixiy jarayon mutlaqo bema'nilikdir. Jahon tarixi, bir-biriga o'xshamagan, mustaqil sivilizatsiyalardan iborat, sivilizatsiyalar esa o'ziga xos madaniyatga tegishli strukturadir. Ular faoliyat natijasida uch davrni:

shakllanadi,

unib-o'sadi,

gullaydi va nihoyat halok bo'ladi, kabilarni bosib o'tadilar.

Boshqasining tuzilishi uchun o'z o'rnini bo'shatib beradi. Shpenglerdan farqli ravishda Toynbi xulosalari boshqacha, ya'ni sivilizatsiyalarni birlashtiruvchi halqa mavjud bo'lib, bu halqa insoniyatning ma'naviy kamolotini belgilab beradi.

Madaniyat va insoniyat tarixining bir maromda, davriy rivoji g'oyasini Toynbi ilgari surdi. Uning fikricha, mutlaqo mantiqsiz va ma'nosizdir, tushuncha bu- yagona dunyoviy tarixiy jarayon. Sivilizatsiyalarning har biri o'z hayotida uch davrni bosib o'tadilar: shakllanadi, gullab-yashnaydi va halok bo'ladi (o'z o'rnini

boshqasiga bo'shatib beradi). Toynbining ta'kidlashicha, sivilizatsiyalarni birlashtiruvchi yagona halqa mavjud. Bu insoniyatni kamotga yetkazishdir. Toynbining sivilizatsiyali taraqqiyot konsepsiyasi hozirgi zamon tarix falsafasi rivojida alohida o'rin tutadi.

Ayrim G'arb olimlari insoniyat tarixini sivilizatsiyalar oqimida ko'radi. Uning taraqqiyoti, rivojlanish omillari bevosita inson tafakkuri va yaratuvchilik ishtiyoqi bilan bog'liq degan fikrni bildirishadi. Jumladan, A.Toynbi sivilizatsiyaga jiddiy e'tibor bilan qaraydi.

Albatta, sivilizatsiyalar davri bir necha yuz yilliklarni qamrab oladi. Bir inson bunga guvoh bo'lishi mumkin emas. Tarixiy taraqqiyotning achchiq saboqlaridan biri shundaki, sivilizatsiya o'zining eng yuksak cho'qqisiga chiqqan davrlarda yashayotgan inson ham uni butun ko'lami orqali anglashi qiyin. Insoniyatning ajdodlari ham shunday yashaganday, uning keyingi avlodlari ham xuddi shunday yashashi avvaldan yozilganga o'xshaydi. Albatta, bu holatni yoritishda tarixchi-olim tarixiy jarayon dinamikasini, rivojlanish bosqichlarini aniq-ravshan idrok etishga harakat qilsa-da, uning ham yalpi sivilizatsiya tub mohiyatini butun salmog'i bilan yaxlit ifoda qilishi murakkab bo'ladi. Ana shu hayotiy qoidani tadqiq qilar ekan, «Alohida individning yashash davriga nisbatan, - deb yozadi A.Toynbi, - sivilizatsiyaning yashash davri shunchalik kattaki, undan yetarli darajada uzoqlashgandagina bu davrni o'lchashga umid qilish mumkin. Bunga faqat o'lgan jamiyatni tadqiq etish bilan erishiladi. Tarixchi o'zi yashayotgan jamiyatdan hech qachon butunlay ozod bo'la olmaydi»<sup>51</sup>.

Elita va xalq ommasi o'rtasidagi munosabatlar mushtarakligi Toynbining tarix falsafasining asosiy mexanizmi sifatida, ularning faoliyat uyg'unligi alohida o'rin tutadi. Bu kabi bosqichga yetib kelishda yalpi hamkorlik va o'zaro tushunish bevosita ma'lum bir jamiyat moddiy va ruhiy kechinmalarning pok va yuksakligiga, axloqiy me'yorlarining bir muncha yetukligiga, aholi turli tabaqalarining ma'naviy-ma'rifiy kamolotiga bevosita bog'liq. Darhaqiqat, jamiyatni tashkil etgan har bir fuqaro ma'naviy ehtiyoji, uning hayot mazmuni va

---

<sup>51</sup> Тойнби А. Постигание истории. Издательство «Прогресс». М. С. 69.

istiqbol rejalari umumjamiyat manfaatlariga qanchalik mos bo'lsa, taraqqiyot shunchalik tezlashadi. Jamiyatning aqliy salohiyatini belgilaydigan, uni harakatga keltiruvchi kuch sifatida o'zini namoyon etgan elita esa bevosita o'z qarashlarida, ilgari surayotgan g'oyalarida umumjamiyat manfaatlarini aks etmog'i shart.

Bundan tashqari olim o'sha davr kishilarining aqliy imkoniyati, intellektual salohiyati va tafakkur darajasini belgilashda, tarixiy taraqqiyot va umuminsoniyat o'tmishida sivilizatsiya bevosita insonga bog'liq va ma'lum bir davr kashfiyoti degan g'oyani ilgari suradi. Shuning uchun ham qaysidir davrda taraqqiyot yuksak cho'qqiga chiqadi, qaysidir davrda u tanazzulga uchraydi. Chunki oldingi davr taraqqiyotining eng yuqori nuqtasidan turib ilgariga siljish, uni davom ettirish, rivojlantirish uchun keyingi davr odamlari ham o'sha davrda yashagan ajdodlari singari yuksak intellektual salohiyatga ega bo'lmoqlari lozim.

Inson imkoniyatlari qanday yondashishga qarab ham cheksiz, ham cheklangan. Demak, u nisbiy voqelik sifatida inson hayotda karomat ko'rsatib, aql va tafakkur cheksizligini ko'rsatsa, ba'zan eng oddiy hodisalarni payqamay qoladi. Biroq har qanday fikriy cheksizlik baribir tabiiy ravishda cheklangan bo'ladi. Chunki olam cheksizligi aql cheksizligidan ko'ra uzoqroqdir. Boshqacha qilib aytganda inson ming aql-zakovati bilan barcha narsani bilguvchi emas, balki yaratgan egam faqat unga bildirgan narsani bilguvchidir. Lekin shunday bo'lsa-da, odamzod ular atrofida mushohada yuritadi. Odam o'zi bilmagan holda tasavvur qilish qobiliyati, idrok etish imkoniyatlari pasayib yo rivojlanib borayotganini o'z vaqtida anglamasligi mumkin. Yoki qaysidir tarixiy, ijtimoiy, siyosiy sabablar tufayli taraqqiyot yo'nalishlari tarqoqlashib, o'zanini o'zgartirib yuborishi hollari ham yuz beradi. Deylik, urushlar, turli milliy va diniy nizolar, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlar o'rtasidagi kurashlar, ziddiyatlar va konfliktlar avj olgan davrlarda yalpi taraqqiyot uchun ehtiyoj qolmaydi. Natijada, kashfiyotlar ham unutilib, mayda manfaatlar atrofidagi ziddiyatlar avj oladi. Bir so'z bilan aytganda, Toynbining mavzuga doir nazaraiyasini o'rganish, uni tushunish va munosabat bildirishda alohida bilim va mahorati talab etiladi.

Yana bir zabardast olim P.A.Sorokinning falsafasi insoniyat tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Sorokin har qanday ijtimoiy madaniyatning asosini qadriyatlar tashkil etib, bu bevosita inson fenomenini belgilaydigan ma'naviy, ma'rifiy va axloqiy normalarni o'zida mujassam etgan ijtimoiy madaniyat va sivilizatsiya bilan bog'liq bo'lgan keng miqiyosli g'oyani ishlab chiqadi. Olim jamiyatning yaxlit ijtimoiy fenomenini tashkil etadigan yo'nalishlarning umumiy birligi sifatida madaniyat va sivilizatsiyani juda katta mafkurviy mohiyatga ega bo'lgan fikrlar, g'oyalar, til, fan, din, falsafa, huquq, axloq, adabiyot, rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morchilik, musiqa, iqtisod, siyosat, ijtimoiyot va boshqa masalalar bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni tushunadi. Bu albatta, har qanday sivilizatsiyaga asos bo'ladigan, zamin yaratadigan eng muhim qadriyat deyish mumkin.

Ana shulardan kelib chiqib, u turli tadbirlar, urf-odatlar, an'analar, xatti-harakatlar asosidagi umumiy aholi qatlaminin ma'naviy ehtiyoji darajasiga ko'tarilgan g'oyalar tizimini ham tashkil etadi.

Darhaqiqat, bir necha ming yillik tarixiy obidalar, osori atiqalar, madaniy yodgorliklar avlodan-avlodga o'tib, insoniyat tafakkurining buyuk mo'jizasi sifatida o'z qudratini namoyon etmoqda. Ayni ana shu mo'jizalar tagida inson taqdiri, sevinch va iztiroblari, ezgulik va yovuzlik o'trasidagi kurashlarda toblangan metinday iroda va ulkan madaniyat, tabiiyki, axloq ham yotadi. Ana shularning hammasi tarixni anglash jarayonida bugungi kun odamlari tafakkurining shakllanishida, tarix orqali olis istiqbolga nazar tashlashida katta rol o'ynaydi. Ayni ana shu holatning o'zi insonning, insoniyatning o'zini-o'zi «ta'mirlab», o'zini-o'zi «isloh» qilib, o'zini-o'zi yangilab, boyitib, qadriyatga aylanib borayotganidan dalolat beradi.

### **Nazorat savollari:**

1. Tanqidiy ratsionalizm deganda nimani tushunasiz?
2. Postpozitivizm haqida fikr yuriting.
3. K. Popper «Ochiq jamiyat va uning dushmanlari» asarida nimalarni tanqid ostiga olgan?
4. K. Poppening oxirgi falsafiy asarlari qaysi masalalarga bag'ishlangan?
5. Individualizm Poppening fikricha nima?
6. O. Shpenglarning "Yevropaning so'nishi" birinchi jildi nechanchi yilda nashr qilingan?
7. Shpengler tarix va tabiat to'g'risida qanday fikr yuritgan?
8. Karl Yaspers qarashlarining asosiy yo'nalishini qanday masala tashkil qiladi?
9. K.Yaspers insoniyatning butun tarixini o'zaro izchil ravishda almashinuvchi necha fazaga bo'ladi?
10. A.Ivin xulosalariga ko'ra, Yaspers insoniyat tarixining nechta geterogen davrini ajratib ko'rsatadi?
11. A. Toylnbi insoniyat tarixiy jarayonini tadqiq etishga bag'ishlangan qanday asar yaratdi?
12. A. Toylnbi o'z tadqiqotining predmeti chegarasini hamma uchun tushunarli tilda belgilab olish uchun qanday tushunchani qo'lladi?
13. Toylnbi sivilizatsiya genezisi necha elementdan iborat ekanligini ko'rsatdi?

### **Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:**

1. "K.Popper – tanqidiy ratsionalizm asoschisi" mavzusida referat tayyorlang.
2. "Tarix va falsafa. Tarix va tabiat" mavzularida fikr yuriting.
3. A.Toynbining sivilizatsiya genezisi haqida so'zlab bering.
4. K.Yaspersning insoniyat tarixining to'rt geterogen davri haqida fikr yuriting.

## GLOSSARIY

**Abu Nasr Forobiy** (873-950). Buyuk mutafakkir-faylasuf. Sirdaryo qirg'og'idagi Forob shahrida turkiy qabilalardan bo'lgan oilada tug'ilgan. Uning o'tkir zehni va xotirasini sezgan otasi Bog'dodga ko'chib keladi. Damashq, Halab, Harron shaharlarini kezib, u yerlik olimlar suhbatini oladi. Aristotel, Aflotun (Platon) kabi qadimgi yunon faylasuflari asarlari bilan tanishadi. Natijada uning atrofiga shogirdlar to'planadi va u madrasalarda dars bera boshlaydi. Shunday buyuk mutafakkir bo'lishiga qaramay Forobiy yo'qchilik bilan faqirona hayot kechirgan, hatto yozishga qog'oz va chirog'iga yog' topa olmagan vaqtlari bo'lgan. U Aristotel asarlariga juda ko'p sharhlar yozadi va bu sharhlar Sharq olimlarini tushunish qiyin bo'lgan yunon falsafasi bilan tanishtiradi va shuning uchun ham Sharqda Forobiy "Muallim us-soniy" (Ikkinchi muallim) nomini olgan. Forobiy musiqa sohasida ham bilimdon bo'lib, juda ko'p kuylar yaratgan, hatto musiqa kuylarini harflar bilan ifodalash (nota) ni dastlab Forobiy topgan va "qonun" degan cholg'u asbobi yaratgan.

Forobiy ilm-fanning turli sohalariga doir 160 dan ortiq asar yozgan bo'lib, shulardan 119 ta asari bizgacha yetib kelgan. "Aristotelning metafizikasi maqsadlari haqida", "Musiqa kitobi", "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Risola fi a'zoi inson" (Inson a'zolari haqida risola), "Siyosat al-madoniya", "Jamiyatni o'rganish haqida kitob", "Kitob maoyish va-l-hurub" (Hayot va urush haqida kitob), "Uyun al-masal" (Masalalar chashmasi), "Risola fi fusus al-hikam" (Hikmat gavharlari haqida risola) uning mashhur asarlaridir.

**Abu Rayhon Beruniy** (973-1048) buyuk qomusiy olim. O'z zamonasining hamma fanlarini puxta egallab olgan va bu fanlar taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan ulkan siymo. Xorazmning qadimgi poytaxti Kot shahrida tug'ilgan. Jahonning bir nechta tillarini bilgan. 22 yoshida Ray shahriga, 995 yildan keyin Jurjonga Qobus ibn Vushmgir saroyiga keladi va shu yerda o'zining mashhur asari "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarini yozadi. Xorazmdagi "Ma'mun akademiyasi"da faoliyat ko'rsatadi (1000-1017). 1017 yil Mahmud G'aznaviy Xorazmni egallagach, Beruniy boshqa olimlar bilan G'aznaga olib ketiladi va

olimning bu yerdagi faoliyati ancha sermahsul bo‘ladi. G‘aznada vafot etadi. Beruniyning ilmiy merosi 152 kitob va risoladan iborat. Afsuski bularning bizgacha 28 tasigina ma’lum. Eng yirik asarlari: “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “Qonun al-Ma’sudiy”, “Mineralogiya”, “Geodeziya”, “Saydana”.

**Ateizm** (fr. “theos” xudo, gr. “a” inkor yuklamasi). – Xudoga ishonmaslik, xudoni inkor etish. Kommunistik partiya tomonidan ommaviy ravishda targ‘ib qilingan ta’limot. Ma’lumki, din yashashning maqsadi, hayotning mazmuni va ma’nosini, inson umrining mohiyati, dunyo, inson, mavjudotlarning kelib chiqishi kabi savollarga javob beruvchi dunyoqarash shakli hisoblanadi. Sho‘rolar davrida dinga qarshi olib borilgan xuruj va hujum, tashviqot va targ‘ibot oxir-oqibatda, istibdodchilar kutgan natijani bermadi va din faqatgina qoloqlikning, bilimsizlik va fan taraqqiyotini tan olmaslik natijasi deyish nihoyatda yuzaki fikr ekanligini, din inson tafakkuri, madaniyati, ma’naviyati, ruhiyati, kundalik hayoti bilan juda murakkab bog‘langanligidan dalolatdir.

Din har bir jamiyat, davlat va mamlakatning madaniy, ma’naviy, ruhiy hayotida hamma vaqt ma’lum o‘rinni tutgan va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi. Darhaqiqat, bugungi Amerika Qo‘shma Shtatlarining milliy valyutasi dollarning orqa tomoniga “In god we trust”, - ya’ni “Biz xudoga ishonamiz” degan so‘zlar yozib qo‘yilgan.

**Antik davr** - lotinchadan antik - “qadimgi” demakdir. O‘rta Osiyo tarixida miloddan avvalgi IV asrdan (yunon-makedon istilosidan) boshlab milodiy V asrga qadar bo‘lgan davr antik davr deb yuritiladi.

**Globallashuv** - lotincha “glob” so‘zidan olingan bo‘lib, aynan uni “dumaloqlashuv”, “kurralashuv” deb tarjima qilish mumkin. Yer sharining, yer kurrasining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyoridagi xuddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi. Insoniyat taraqqiyoti ayni vaqtda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi jarayonidir. Bu jarayon asrdan asrga, ming-ming yillar davom etgan. Insoniyat jamiyati, ayniqsa XVI-XX asrlarda XV asrgacha bo‘lgan uch million yillik tarixida yaratilgan moddiy va

ma'naviy boyliklarga nisbatan ko'proq ne'matlarni yaratdi. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib Yer shari hammamizga ma'lum, har jihatdan o'zlashtirilgan, har kuni har burchagida nima bo'layotgani barchamizga ma'lum go'shaga aylandi. Fan va texnikaning yangidan-yangi yutuqlari bu borada insonning imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

**Global muammolar** - (fransuzcha global-umumiy, lot. globus-yer shari)-bitta davlat yoki mintaqaninggina emas, balki butun yer yuzi va insoniyat hayoti va kelajagiga daxldor umumbashariy muammolar. Yer yuzida tinchlikni saqlash, yadro (atom) urushining oldini olish, atrof-muhitni muhofaza qilish, yerdagi haroratning ko'ratilishi, yoqilg'i-energetikaning yangi turlarini yaratish, ozon qatlamini muhofaza qilish, xalqaro terrorizmning oldini olish kabi muammolar hozirgi paytdagi eng dolzarb global muammolar hisoblanadi.

**Gnoseologiya** (falsafada bilish haqidagi ta'limot) - borliqni, dunyoni bilish va chin haqiqatga erishish haqidagi hamda bilishning manbalari va shakllari to'g'risidagi ta'limot.

**Gumanizm** - insonni birinchi o'ringa qo'yuvchi, uning qadr-qimmatini hurmat qilishni, inson kamoloti uchun zarur sharoitlar yaratib berishni talab qiluvchi, inson hayotini qadrlovchi g'oyalar tizimi.

**Davlat** - butun mamlakat miqyosidagi hokimiyatning maxsus boshqaruv apparatiga tayanadigan, barcha uchun qonunlar chiqaradigan va suverenitetga ega bo'lgan siyosiy tashkilot. Bu-sinfy jamiyatda asosiy ishlab chiqarish vositalari egalarining umumiy manfaatlarini ta'minlovchi va uni himoya choralari ko'radigan uyushma. Ibtidoiy jamiyatda jamoa (davlat) urug'-qabilachilik, oqsoqol kengashi munosabatlari, urf-odat, rasm-rusmlari kabi axloqiy me'yorlar bilan boshqarilgan bo'lsa, keyingi davrlarda jamiyat a'zolari davlatning (hukmron sinfning) demokratiya, erkin hukm chiqarishi, (yozib qo'yilgan) huquq-qonunlar orqali boshqariladigan bo'ldi. Demak, davlat bu jamiyatni boshqaruvchi siyosiy mexanizmdir. Davlat esa o'z faoliyatini organlari orqali yuritadi. (amaldorlar apparati, sud, qo'shin va h.k.)

**Demokratiya** (yunonchi “demos” xalq, “kratos” hokimiyat) - “xalq hokimiyati” ma’nosini anglatadi. Jamiyat taraqqiyotida davlatchilikning turli shakllari, binobarin, demokratiyaning ham turli tiplari yaratilgan. Insoniyat tarixida demokratiyaning boshlanish nuqtasi ham, tugash nuqtasi ham yo‘q. Kishilik jamiyati paydo bo‘lganidanoq, demokratiyaning kurtaklari paydo bo‘lgan va hatto, eng taraqqiy etgan mamlakatlarda ham u o‘zining so‘nggi cho‘qqisiga erishganicha yo‘q. Demokratiyani bo‘g‘ish, unga rahna solish mumkin, lekin butunlay yo‘q qilib bo‘lmaydi. Har qanday davrning, har qanday jamiyatning va har qanday xalqning o‘ziga xos demokratiyadan iborat. Buning muhim belgisi saylov va demokratik qadriyatlarning ustuvorligini tan olishdir.

**Dialektika** (yunoncha “dialektike” - bahs yuritish san’ati) - Dialektika olam yagona va yaxlit, unda sodir bo‘ladigan hodisalar, voqealar umumiy va o‘zaro bog‘lanishda, uzluksiz harakatda, ziddiyatli taraqqiyotda bo‘ladi, deb hisoblaydi. Tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarining o‘zaro aloqadorligini o‘rganuvchi ta’limot.

**Diktatura** (lot. Diktatura-cheksiz hokimiyat) - hokimiyatni nodemokratik usullar bilan amalga oshirish, avtoritar siyosiy rejim. Sho‘rolar davrida I.V.Stalin (1924-1953) diktaturlik boshqaruv tartibini o‘rnatgan edi.

**Jamiyat** - odamlarning uyushgan ehtiyojlarini qondirilishini ta’minlovchi, ixtiloflarni bartaraf qiluvchi, manfaatlarni tashkil etuvchi, turli tabaqalarni, shaxslarni, oilalarning bir-biriga zid manfaatlarini birlashtiruvchi, ularning munosabatlarini belgilovchi, ijtimoiy munosabatlarning umumiy shaklini yaratuvchi, turli tashkilot va muassalalarning yig‘indisi.

**Idealizm** - moddiylikni inkor etib, olamning asosida ruh yoki g‘oyalar yotadi, dunyoning mavjudligi va rivojlanib borishida g‘oyalar muhim rol o‘ynaydi deb ta’kidlovchi falsafiy qarash va ta’limot. Idealizm materializmning aksidir.

**Inson** – tarixiy mavjudot. U o‘zining uzundan-uzoq shajarasi taraqqiyoti davomida insoniyat hayoti o‘zanlarini o‘zgartirib turuvchi, goh salbiy, goh ijobiy natijalar bilan buyuk siljishlarga va tengsiz tanazullarga sababchi bo‘lgan tarixiy-ijtimoiy hodisadir.

**Materializm** (lotincha “materialis”-moddiy) - Materiya birlamchi, hech kim tomonidan yaratilmagan, abadiy mavjud, tafakkur esa materiyaning xususiyatidir, olam va uning qonuniyatlarini bilish mumkin deb qarovchi falsafiy yo‘nalish, oqim. olam moddiy, ongimizga bog‘liq bo‘lmagan holda, ob‘ektiv tarzda mavjuddir. Materializm idealizmga qarama-qarshi bo‘lib, ular o‘rtasida tarixda ko‘p baxslar bo‘lgan va u hozirda ham davom etmoqda.

**Metodologiya** (falsafada uslub va uslubiyot).1) ilmiy bilish metodlari va usullari to‘g‘risidagi ta‘limot; 2) inson faoliyatining biron-bir sohasiga qo‘llaniladigan metod, usullar majmuasi. Bir so‘z bilan aytganda, - insonning amaliy va nazariy faoliyatini to‘g‘ri uyushtirish va tuzish to‘g‘risidagi ta‘limot

**Plyuralizm** (fikrlar xilma-xilligi) Plyuralizm siyosiy partiyalarning hokimiyat uchun o‘zaro raqobatida va saylovlarda muxolifatning mavjudligida ko‘proq namoyon bo‘ladi. Tom ma‘noda plyuralizm demokratiyani harakatga keltirib turuvchi omildir.jamiyatda va siyosiy hayotda fikrlar, qarashlar hamda g‘oyalarning xilma-xilligiga asoslanuvchi demokratik jamiyat belgilaridan biri. Plyuralizm bo‘lmagan jamiyatda demokratiyaning tarkib topish jarayoni ham qiyin kechadi.

**Liberalizatsiya** - davlatning iqtisodiy hayotga aralashuvini cheklash, bozor munosabatlari sohasining kengayishi, bozorlarning va raqobatning ochilishi, bozorning amal qilishiga qo‘yilgan turli xil cheklashlarning olib tashlanishi, baholar, protsentlarni kontrol qilishning susayishi, markazlashgan holda dotatsiya berish, subsidiya shaklidagi kreditlarning kamayishi va shu kabilar.

**Madaniyat** (arab. – madinalik, shaharlik, ta‘lim-tarbiya ko‘rganlik) - lotincha «cultura» yerga ishlov berish, parvarishlash ma‘nosini anglatadi. Mil.av. 45-yili Rim notig‘i, mashhur faylasuf Sitseron «madaniyat» atamasini aqlga ishlov berish ma‘nosida ishlatgan. Uning fikricha, dehqon yerga ishlov bergani kabi inson ham so‘z, aqlga ishlov berib turishi zarur.

Madaniyat ko‘p qirrali va chuqur mazmunga ega tushuncha bo‘lib, u jamiyat taraqqiyoti davomida insonlarning faoliyati tufayli qo‘lga kiritilgan barcha moddiy va ma‘naviy yutuqlarning majmuidir. Moddiy madaniyat deganda, inson faoliyati

tufayli yaratilgan «ikkinchi tabiat», ya'ni ishlab chiqarish vositalari, mehnat qurollari, mehnat ko'nikmalarini, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan va hayot uchun xizmat qiladigan barcha boyliklarni nazarda tutish lozim.

Ma'naviy madaniyatning qamrovi behad keng bo'lib, u ijtimoiy ongning barcha shakllari, ya'ni falsafiy, konkret ilmiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy qarashlar, maorif, ta'lim-tarbiya, maktab, o'rta va oliy ta'lim, fan, m. muassasalari, ommaviy axborot vositalari, san'at, xalq ma'naviy ijodiyotining barcha turlarini qamrab oladi. Moddiy va ma'naviy madaniyat bir biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi. Inson amaliy faoliyatining har qanday turida ayni bir vaqtning o'zida uning ham aqliy, ham jismoniy mehnati obyektiv ravishda ishtirok etadi.

Madaniyat tarixi jamiyat tarixining ajralmas bir qismidir. Uning paydo bo'lishi va rivojlanishi kishilik jamiyatining eng qadimiy bosqichlariga borib taqaladi.

Madaniyat jamiyat taraqqiyotida quyidagi ijtimoiy vazifalarni bajaradi:

1. Bilish funksiyasi. Madaniyatda ko'p asrlik inson faoliyati davrida olamdagi narsa va hodisalarni bilish va ularni o'zlashtirish jarayonida to'plangan tarixiy tajriba mujassamlangan.
2. Axborot uzatish vazifasi. Madaniyat bir avloddan ikkinchisiga ijtimoiy tajriba yetkazish shaklidir, ya'ni tarixiy vorislik vazifasini bajaradi.
3. Muloqot vazifasi. Moddiy va ma'naviy-tarixiy yodgorliklarda o'z aksini topgan ma'lumotlarni qabul qilish jarayonida biz o'tmishdagi avlodlar turmushi, ularning didi, madaniy darajasi, shuningdek, mashhur asarlarni bunyod etgan mualliflar bilan muloqotda bo'lamiz, o'sha davrning nafasidan xabardor bo'lamiz.
4. Madaniyat inson axloq-odobi, xatti-harakatini baholash va tartibga solish vazifasini bajaradi.
6. Madaniyat kishilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash vazifasini ham bajaradi. Madaniyat yuksalish mezonlari xilma-xil bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: jamiyat taraqqiyotida yaratilgan ma'naviy qadriyatlar ko'lami va soni, ularning tarqatilish darajasi, insonlar tomonidan o'zlashtirilishi; ma'naviy m.ni barcha turlarining bir tekis taraqqiy etishi; madaniy

qadriyatlardan bahramand bo'lishda barcha kishilarning ishtirok etishi; m. mahsulotlarini yaratishda aholining barcha qatlamlari keng va ongli ravishda ishtirok etishi; kishilarning madaniy yuksalishga o'z hissalarini qo'shishlari uchun jamiyatda barcha imkoniyatlarning mavjudligi.

O'zbek xalqi jahon madaniyati taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan ko'p asrlik boy va rang-barang m.tiga ega. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

**Monoteizm** – (qad. yunon. «mono» – «yagona», «teo» – «ilohiyot») yakkaxudolik.

**Ma'rifat davri** – ilmiy, falsafiy va ijtimoiy fikrning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan Yevropa madaniyati tarixidagi asosiy davrlardan biri. Bu intellektual harakatning negizida ratsionalizmi va erkin fikrlash yotar edi.

**Ma'rifat** – ushbu atamani to'g'ridan-to'g'ri o'zbek tiliga tarjima qilinganda pedagogika tushunchasi bilan o'zaro uyg'un holda keladi va bilim, ma'rifat tushunchasini anglatadi.

**Politeizm** (qad. yunon. «poli» – «ko'p», «teo» – «xudo») ko'pxudolik.

**Tarix** - tabiat va jamiyatdagi har qanday rivojlanish jarayoni. Tarix - arabcha so'z bo'lib, «tadqiq etish», «tekshirish», «voqealar haqida aniq hikoya qilish» ma'nolarini anglatadi. Tarix insonlar haqidagi, ularning uzoq o'tmishdan bizgacha yetib kelgan hayotiy tajribasi haqidagi fandır. Xalqimizning mustaqil taraqqiyot yo'liga kirishi, mustaqillik yillarida milliy, huquqiy davlatchilik qurilishi, demokratik, fuqarolik jamiyat qurish, erkin bozor iqtisodiyotini yaratish jabhalaridagi faoliyatini o'rgatadi. Tarixning insonni shakllantirishdagi o'rniga yuksak baho berib: «Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmaydigan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi» deydi. A.Avgustin: «G'aflatda yotgan xalqni uyg'otish uchun avvalo uning tarixini uyg'ot» degan. Xurshid Davron: «Muhabbatsiz yurakka Vatan sig'maydi. Har bir go'dak, har qofiya o'z davri bilan Vatanni yod etadi. Dardsiz yurakka Vatan sig'maydi. Vatan dardi,

Vatan muhabbati bilan yashagan yurakkina insoniyatni sevadi, insoniyat uchun kurashadi» - deydi. M.A.Sholoxov «Bizni ona yanglig‘ oq yuvib, oq taragan Vatanni sevmoq, bu muqaddas burchdir» deydi. Vatanimiz tarixiga doir ma’lumotlar yunon va rim manbalarida, chunonchi Gerodotning «Istoriya» (M.1972), Ksenofontning «Grecheskaya istoriya» (M.1935), Polibiyning «Vseobshaya istoriya» (M.1980-1989), Arrianning «Poxod Aleksandra» (M.L. 1962), Strabonning «Geografiya v 17 knigax» (M. 1964); Kursiy Rufning «Istoriya Aleksandra Makedonskogo» (M.1963) va boshqalarning asarlarida ham uchraydi. Antik mualliflar tomonidan yozib qoldirilgan ma’lumotlarni to’plovchi I.V.Pyankovning «Srednyaya Aziya v izvestiyax antichnogo istorika Ktesiya» (Dushanbe, 1975), N.G.Gorbunovanning «Fergana po svedeniyam antichnix avtorov. Istoriya i kultura narodov Sredney Azii» (L. 1976) kabi kitoblar ham Vatanimiz tarixini o’rganishda yordam beradi.

Xitoy yozma manbalaridan «Tarixiy guvohliklar» (mil.av.1 asr), «Ulug’ Xan xonadoni tarixi» (milodiy I asr), «Kichik Xan xonadoni tarixi» (milodiy V asr), «Vey xonadoni tarixi» (milodiy VI asr), «Shimoliy podshohliklar (Beyshi) tarixi» (milodiy VII asr) va boshqalarda Turkiston tarixi haqida ma’lumotlar bor. Shuningdek, arman, Vizantiyalik mualliflarning asarlarida ham Vatanimiz tarixi haqida ma’lumotlar uchraydi. Vatanimiz tarixini o’rganishda turkiy, fors, arab manbalarining ahamiyati katta. Qadimgi turk yozuvi to’g’risida S.Ye.Malovning «Pamyatniki drevne tyurskoy pismennosti» (M.1951) va «Yeniseyskaya pismennost tyurkov. Tekst i perevodi» (M - L.1951), A.Sadullayevning «Qadimgi Uzbekiston ilk yozma manbalarda» (T. 1996) asarlarida, Nasimxon Rahmonning «Turk xoqonligi» (T. 1993) kitobida qimmatli ma’lumotlar bor. Turkiy xalqlar, jumladan o’zbek xalqining etnik tarixini o’rganishda Abulg’oziyning «Shajarayi turk» (T. 1992), L.N.Gumilevning «Drevniye tyurki» (M.1960), A.Y.Yakubovskiyning «K voprosu ob etnogenezi uzbekskogo naroda» (T. 1941), I.Jabborovning «O’zbek xalqi etnografiyasi»(T. 1994) asarlaridan foydalanish mumkin. O’zbek xalqining o’ta asrlardagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-madaniy hayotini o’rganishda Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri» (T.

1993), Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» (T. 1968), Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig» (T. 1960), M.Koshg'ariyning «Devonu lug'otit-turk. Uch jildlik» (T. 1960-1963), Abu Toxirxojaning «Samariya» (T. 1991), Narshaxiyning «Buxoro tarixi» (T. 1991), Nizomulmulkning «Siyosatnoma yoki siyar ul-muluk» (T. 1997), Amir Temurning «Temur tuzuklari» (T. 1991), Mirzo Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi» (T. 1994) va boshqa nodir kitoblar muhim tarixiy manba bo'lib xizmat qiladi. Vatanimiz tarixini o'rganishda o'z davrida hokimiyat tepasida turgan sulolalar tarixini yoritishga bag'ishlangan bir qator kitoblar Shaxobiddin an-Nasaviyning «Jizneopisaniye Sultana Djelal ad-Dina Mankburnu» (Baku, 1973), Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma» (T. 1996), Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» (T. 1994), Ibn Arabshohning «Amir Temur tarixi. Ikki jildlik» (T. 1992), Xofiz Tanish al-Buxoriyning «Abdullanoma» (T. 1999), Mulla Muhammad Solihning «Shayboniynoma» (T. 1989), Bayoniyning «Shajarayi Xorazmshohiy» (T. 1991) va boshqalar qimmatli manba sifatida diqqatga sazovordir.

**Tarixiy an'ana** - tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida vujudga keladigan, ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib o'tadigan, kishilar madaniy hayotiga ta'sir o'tkazadigan ijtimoiy-madaniy va ma'naviy hodisadir. Tarixiy an'ana o'ziga xos ijtimoiy qoida sifatida kishilar ongiga (umum yoki ma'lum guruh shuuriga) singib ketgan tartib va qoidalar majmui hisoblanadi. Tarixiy an'ana ijtimoiy hayotning turli jihatlarini o'zida aks ettirib, ko'proq urf-odat va marosimlarda namoyon bo'ladi. Davlatlarning yozib qo'yilgan huquqlari hamda Sharqda shariat huquqi paydo bo'lgunga qadar sudlov ishlari ham odat huquqi va tarixiy an'ana asosida amalga oshirib kelingan.

**Tarixiy voqelik** - (yunoncha historia) so'zidan olingan bo'lib, o'tmish voqealar haqida hikoya, bo'lgan hodisalar degan ma'noni anglatadi; lotincha – realis haqiqiy mavjud, reallik) tarixda sodir bo'lgan biror hodisa yoki voqealarni aks ettiradi. Tarixiy voqelik aslida o'zgarmas tushuncha. Ota-bobolarimiz bosib o'tgan tarix davrlardagi voqea – faktlarni hech qachon o'zgartirib bo'lmaydi,

chunki tarix allaqachonlar ro'y bergan. Endigi masala uni qay tarzda o'rganishda, talqin qilishdadir. Bu borada xolislik, haqqoniylik, ilmiylik asosiy mezon hisoblanadi. Tarixiy voqelikni buzib talqin qilinishi tarix sahifalarida «oq dog'lar» va «qoradog'lar» ning paydo bo'lishiga olib keladi.

**Tarixni anglash va qadrlash** orqali hozirgi davr va kelajak uchun yuksak mas'uliyat tuyg'usi shakllantiriladi. Tarix saboqlarini, el-yurt kelajagi yo'lida umr kechirgan insonlarni, buyuk allomalar faoliyatini anglash, xotirlash bugungi kun va kelajakni qadrlashga o'rgatadi. Tarixni anglash, tarixiy xotira bo'lmas ekan, qadrlash ham bo'lmaydi. Ajdodlar iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy tarixni anglash va qadrlash masalasi mustaqillik davri avlodi uchun o'ziga xos ma'naviy qadriyatga aylanmoqda. Odamzod o'zining kechagi kunini xotirlay olsagina, tarixdan zarur xulosa va saboq chiqarib, uni anglab va qadrlab, ongli hayot kechirishi mumkin. Shuning uchun ham xotira, anglash va qadrlash doimo yonma-yon turadigan, o'zaro uzviy bog'liq tushunchalardir.

**Tarixiy jarayonlarning** ayrimlari boshlangan paytda biz hali tug'ilmagan bo'lamiz, jarayon tugagan davrni ko'rish, his etish imkoniyati ham cheklangan bo'ladi, unga biz emas, farzandlarimiz, nabiralarimiz guvoh bo'lishlari mumkin. Hozirgi davr kishilari birvarakayiga ikki jarayonning bir qismi guvohiga aylandilar. Birinchisi – kommunistik mafkura, ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan Sovet tuzumining halokati bo'lsa, ikkinchisi – mustaqil O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish jarayonining dastlabki bosqichi hisoblanadi.

**Tarixiylik** – falsafiy kategoriya, ob'ektiv voqelikni ilmiy bilish tamoyili bo'lib, unga muvofiq narsa, voqea va hodisalar qonunan tarixiy rivojlanishda hamda ularning mavjudligi muayyan shart-sharoit bilan aloqadorlikda olib qaralishi lozim. Tarixiylik tamoyili, shuningdek, o'rganilayotgan ob'ekt va voqea-hodisalarning istiqboldagi rivojini oldindan ko'ra bilishni ham o'z ichiga oladi. Bir so'z bilan aytganda, tarixiylik voqelikka vaqt o'tishi bilan o'zgaruvchi va doimiy rivojlanishdagi jarayon sifatida qarashni anglatadi.

**Tarixiylik tamoyili** – o‘tmishda sodir bo‘lgan har qanday voqea, hodisa, jarayonni konkret tarixiy vaziyatda, atrofidagi sharoit, avvalgi va bo‘lajak voqealar bilan dialektik aloqada tadqiq etishni, o‘rganishni, anglashni va undan to‘g‘ri xulosa chiqarishni talab etadi. Tarixiylik o‘tmishda va bugungi kunda sodir bo‘layotgan voqea, hodisa, jarayonlarning odamlar ongida qanday aks etishi, tarixiy adabiyotlar orqali ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonini kuzatish, jamiyat rivojining turli bosqichlarida tarixiy bilimlarning o‘sib borish jarayonini kuzatish imkonini beradi. Boshqachasiga, ma’lum bosqich yoki davrda ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy muhitning hayotga ta’sirini, u yoki bu yo‘nalishdagi rivojlanish va tanazzulga yuz tutish sabablarini aniqlaydi.

**Tarix falsafasi** – Bundan muqarrar tarzda butun insoniyat tarixiga tegishli bo‘lgan savollar kelib chiqadi: tarixiy rivojlanishning biron-bir maqsadi mavjudmi; jahon tarixi qaysi yo‘nalishda harakatlanadi; tarix biron-bir muayyan mazmunga egami? Bu savollarning barchasiga falsafaning «tarix falsafasi» degan nom olgan bo‘limi javob beradi. Demak, har qanday ijtimoiy hodisaning mohiyatini va uning jamiyatning rivojlanish jarayonidagi o‘rnini faqat u butun jamiyatning rivojlanish jarayoniga bog‘lab, ya’ni umumiy tarixiy jarayon doirasida o‘rganilgan taqdirdagina tushunish mumkin.

**Tarixning mazmuni** – boqiylikka eltuvchi yo‘ldan borishda, inson hayotining mazmuni esa – Xudoga xizmat qilish, gunohlardan forig‘ bo‘lishdadir.

**Sivilizatsiya** (lot. “civilis”-fuqaro jamiyati, harbiylarsiz va cherkovsiz hayot)-jamiyat erishgan moddiy va ma’naviy taraqqiyot darajasi. Faqat insonga xos sun’iy olamni moddiy va ma’naviy jihatdan takomillashuvidagi muvaffaqiyatlari ko‘rsatkichi. Insoniyat jamiyatining hayvonot olamidan asosiy farqi shundan iboratki, inson o‘z mehnat faoliyati, aql va zakovati bilan yaratgan sun’iy dunyoda yashaydi. Tabiatda uy-joy, non, mashina, kitob va shu kabi moddiy va ma’naviy ne’matlar tayyor holda uchramaydi, ularni tabiat yaratmaydi. Ularni odam o‘z mehnati va aql-zakovati bilan vujudga keltiradi. Jamiyatning taraqqiyot darajasi ana shu sun’iy narsalarning soni va sifati bilan belgilanadi. Tarix fani shu ma’noda sivilizatsiya-tarixiy taraqqiyotni o‘rganuvchi fandır.

**Tanqidiy ratsionalizm** – bu bilimlarni, inson harakatlarini, g‘oyalarini va ijtimoiy institutlarni tanqid qilish va takomillashtirish asosida oqilona tushuntirish tamoyillarini shakllantirishga urinadigan falsafiy uslubiy tizimdir.

“**Renessans**” atamasi dastlab Italiyadagi XIV-XVI asrlardagi madaniy-ma’naviy yuksalishga nisbatan qo‘llanilgan, uni o‘rta asrchilik turg‘unligidan yangi davrga o‘tish bosqichi deb baholaganlar. Renessansning asosiy alomatlari quyidagilardan iborat: tafakkurda va ilmu ijodda dogmatizm, jaholat va mutaassiblikni yorib o‘tib, insonni ulug‘lash, uning iste’dodi, aqliy fikriy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish; antik davr madaniyatiga qaytib, uni tiklash, boyitish; cherkov sxolastikasidan qutulib, adabiyot va san’atda dunyoviy go‘zallik, hayot taronalarini qizg‘in kuylash; inson erki, hurfikrlilik uchun kurashish.

## TESTLAR

**1. Tarix falsafasining yangi yo‘nalishlari qachon vujudga kelgan?**

- A) XIX asr oxiri – XX asr boshida
- B) XVII asr oxiri – XVIII asr boshida
- C) XVI asr oxiri – XIX asr boshida
- D) XVII asr oxiri – XIX asr boshida

**2. Tarix falsafasining asosiy tarkibiy qismlari nechta?**

- A) 4 ta
- B) 3 ta
- C) 5 ta
- D) 6 ta

**3. Tarix falsafasining funksiyalari nechtadan iborat?**

- A) 4 ta
- B) 5 ta
- C) 6 ta
- D) 7 ta

**4. Tarixiy bilim sifat jihatidan yangi darajaga qachon ko‘tarildi?**

- A) XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshida
- B) XVIII asr o‘rtasida – XIX asr boshida
- C) XIX asr oxiri – XX asr boshida
- D) XVII asrning ikkinchi yarmi – XIX asr boshida

**5. O‘rta asrlardagi tarixiy falsafiy qarashlarning vujudga kelishi kimlarning asarlariga katta ta‘sir ko‘rsatadi?**

- A) Yevseviya Kesariy, Avgustin
- B) Avreliy Avgustin, Gay Svetoniy
- C) Polibiya, Diodor
- D) Kassiy, Diona

**6. «Xudo shahri haqida» asari muallifini toping.**

- A) Avreliy Avgustin
- B) Aflotun
- C) Arastu
- D) Sitseron

**7. Avgustin tarix nazariyasi masalasida olg‘a surgan nechta yangi holat g‘oyasi mavjud?**

- A) 5 ta
- B) 6 ta
- C) 7 ta
- D) 8 ta

**8. Uyg‘onish davri (Renessans) nechanchi asrlarni o‘z ichiga olgan?**

- A) IX-XII va XV asrlarni
- B) X-XI va XIV asrlarni
- C) XI-XIII va XVI asrlarni
- D) VIII-IX va XII asrlarni

**9. Nechanchi asrlarda musulmon olami bilan Yevropa davlatlari orasida aloqa kuchaygan edi?**

- A) XII-XIV asrlarda
- B) XI-XII asrlarda
- C) IX-XI asrlarda
- D) X-XI asrlarda

**10. Quyida keltirilgan qaysi bir tarixiy shaxs o'z ijtimoiy qarashlarida Fransuz jamiyatining kambag'al fuqarolari manfaatini himoya qiladi?**

- A) Shiller
- B) Fixte
- C) I. Kant
- D) Jan Jak Russo

**11. Xalq, suverenitet to'g'risidagi g'oyalar qaysi faylasufning ijtimoiy falsafasida asosiy o'rin egallaydi?**

- A) V.Gumboldt
- B) G. Rikkert
- C) A. Shopengauer
- D) Jan Jak Russo

**12. Nemis falsafiy maktablarida tarixiy taraqqiyotning universal konsepsiyasi kim tomonidan vujudga keltirildi?**

- A) A. Shopengauer
- B) Gegel
- C) V.Diltey
- D) E. Trelch

**13. Gegelning tarix falsafasi asosan necha yo'nalishdan iborat?**

- A) 2
- B) 3
- C) 4
- D) 5

**14. I. Kant o'zining axloqiy nazariyasini qaysi asarida bayon qiladi?**

- A) "Amaliy aql tanqidi"
- B) "Xulq metafizikasi"
- S) "Aql chegarasidagi din"
- D) "Axloqiylik metafizikasi asoslari"

**15. Nemis faylasufi Fixte o'zining ta'limotini qanday nom bilan ataydi?**

- A) Ma'rifatparvarlik
- C) Abadiy tinchlik
- B) Fan ta'limoti
- D) Axloq konsepsiyasi

**16. Quyidagi nemis faylasuflaridan qay biri o'z davrini "ma'rifat asri" deb atagan?**

- A) Gegel
- B) I. Kant
- C) Fixte
- D) A. Shopengauer

**17. Shelling falsafasida asosiy burilish 1800 yildagi qaysi asari bo'ldi?**

A) "Transsendental idealizm sistemasi"

B) "Sof aql tanqidi"

C) "Muhokama faoliyati tanqidi"

D) To'g'ri javob yo'q

**18. Fixtning fikricha, insoniyat tarixi harakati necha davrga bo'linadi?**

A) 5

B) 4

C) 3

D) 2

**19. Leybnitsning ruhiy monodoliyasiga qarshi chiqqan faylasufni aniqlang?**

A) Gegel

B) Kant

C) Fixte

D) Shiller

**20. Musulmon tarixshunosligida 750-1050 yillar davomida qanchaga yaqin tafsirlar yaratilgan?**

A) 50 ga yaqin

B) 30 ga yaqin

C) 20 ga yaqin

D) 40 ga yaqin

**21. Arab tarixchilaridan kim birinchi bo'lib tarixiy voqea va hodisalarni aniq tarixiy dalillar va isbotlar orqali yoza boshlagan?**

A) Balazuriy

B) Dinovariy

C) At Tabariy

D) Abulfazl Bayhaqiy

**22. Quyida keltirilgan qaysi bir tarixiy asar milodiy 1000 yili Jurjonda yozib tamomlangan?**

A) "Kitob al-musammata fit axbori Xorazm"

B) "Osor ul - boqiya"

C) "Xronologiya"

D) "Hindiston"

**23. Tarixda qaysi yetuk mutafakkir, faylasuf va tarixchi olim "Valiuddin" unvonini olishga muvassar bo'lgan?**

A) Ibn Xaldun

B) at-Tabariy

C) Balazuriy

D) Abu Nasr Forobiy

**24. Forobiy kishilik jamiyati tahlilini nechaga bo'ladi?**

A) 2

B) 3

C) 4

D) 5

**25. Arab – islom tarixshunoslik maktabi qachondan shakllana boshladi?**

- A) VII asr
- B) VIII asr
- C) IX asr
- D) X asr

**26. Ibn Xaldunning tarixiy-falsafiy merosi qaysi g'arb tadqiqotchilarining tarix falsafasiga asos bo'lib xizmat qilgan?**

- A) Arnold Toynbi
- B) Osvald Shpengler
- C) Biko
- D) Barcha javoblar to'g'ri

**27. Tanqidiy ratsionalizm asoschini aniqlang?**

- A) O.Shpengler
- B) Karl Popper
- C) Biko
- D) A.Toynbi

**28. Bilimlarni, inson harakatlarini, g'oyalarini va ijtimoiy institutlarini tanqid qilish va takomillashtirish asosida oqilona tushuntirish tamoyillarini shakllantirishga urinadigan falsafiy uslubni toping?**

- A) Postpozitivizm
- B) Tanqidiy ratsionalizm
- C) Mantiqiy pozitivizm
- D) Falsifikatsionizm

**29. Karl Popper kimni demokratik jamiyatni birinchi dushmani deb biladi, uni tanlanganlar nazariyasining tarafdori deb, hisoblaydi?**

- A) Demokrit
- B) Geraklit
- C) Arastu
- D) Suqrot

**30. “Yevropa quyoshining botishi” asari muallifini aniqlang?**

- A) O. Shpengler
- B) Karl Popper
- C) A. Toynbi
- D) Biko

**31. Har bir madaniyatning asosida o'ziga xos ruhiyat yotadi. G'arb madaniyatida qaysi ruhiyat ustuvorligini aniqlang?**

- A) Mistik
- B) Faust
- C) Afsungarlik
- D) Apollon

**32. G'arbda madaniyatdan sivilizatsiyaga o'tish qachon sodir bo'lgan?**

- A) VI asr
- B) VII asr
- C) VIII asr
- D) IX asr

**33. Kim insoniyatning butun tarixini o‘zaro izchil ravishda almashinuvchi uch fazaga bo‘ladi?**

- A) O. Shpengler
- B) Karl Yaspers
- C) A. Toynbi
- D) Biko

**34. Insoniyat tarixining to‘rt geterogen davrini ajratib ko‘rsatgan mutafakkirni aniqlang?**

- A) Karl Yaspers
- B) Karl Popper
- C) A. Toynbi
- D) Biko

**35. G‘arb tarix falsafasi qachondan boshlab jahon tarixini o‘rganishning misli ko‘rilmagan metodologik asosini yaratdi?**

- A) XVI asr
- B) XVII asr
- C) XVIII asr
- D) XIX asr

**36. Arnold Toynbining insoniyat tarixiy jarayonini tadqiq etishga bag‘ishlangan "Tarix davrlari" asari necha jilddan iborat?**

- A) 12
- B) 14
- C) 13
- D) 17

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ивин А.А. Введение в философию истории. М., 1997.
2. Коломинцев В.Ф. Методология истории. М., 2000.
3. Рузавин Г.И. Основы философии истории. М., 2001.
4. Karimov I. A. – O‘zbekiston. Milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T., “O‘zbekiston”, 1996. T. 1.
5. Karimov I. A. – O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., “O‘zbekiston”. 1997.
6. Karimov I. A.- Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T., “Sharq”, 1998.
7. Karimov I. A. – Jamiyatimiz mafkurasi halqni – halq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. “Tafakkur” jurnali bosh muharrirning savollariga javoblar. T., “O‘zbekiston”, 1998.
8. Барг М.А. Эпохи и идеи. Становление историзма. М., 1987.
9. Блок М. Апология истории или ремесло историка. М., 1986.
10. Бердяев Н.А. Смысл истории. М., 1990.
11. Вебер М. Избранные произведения. М., 1990.
12. Гегел Г.В.Ф. Философия истории. Сочинение 8-ми томах. М.-Л. 1932-1959.
13. Геродот. История. Л., 1972.
14. Гоббс Т. Избранные произведения в 2-х томах. М., 1964.
15. Губман Б.Л. Смысл истории. Очерки современных западных концепций. М., 1991.
16. Гелвещий. Соч. –М., 1973. С. 632.
17. Каримский А.М. Философия истории Гегеля. М., 1988.
18. Кант И. Сочинения в 6-томах. М., 1965.
19. Климович Л.И. Книга о Коране. Эго происхождение и мифологии. М., 1986.
20. Коллингвуд Р.Дж. Идея истории. Автобиография. М., 1980.
21. Семенов Ю.Н. Социальная философия А.Тойнби. М., 1980.
22. Сорокин П. Человек, цивилизация, общество. М., 1992.
23. Тацит Корнелий. Сочинения в 2-х томах. Л., 1969.
24. Тойнби А. Постигание истории. М., 1991.
25. Фараби. Социально-этические трактаты. Алма-Ата. 1973.
26. Фукидид. История. Л., 1991.
27. Шпенглер О. Закат Европы. Очерки морфологии мировой истории. Том.2. Всемирно исторические перспективы. В кн.: Самосознание европейской культуры. XX века. М., 1991.
28. Ясперс К. Смысл и назначение истории. М., 1991.

29. Grachev M.V. Falsafa. Nafaqa // M.V. Grachev. - M.: Sputnik nashriyoti, 2011 yil.
30. Gusev D.A. Falsafa tarixi // D.A. Gusev va boshqalar - M.: "Eksmo", 2004 yil.
31. Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi: Universitetlar uchun darslik // V.S.ning umumiy tahriri ostida. Nersesyantlar. -M.: "Norma", 2011 yil.
32. Mashina I.F. Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi: ma'ruza matnlari. -M.: Yurayt-Izdat, 2007.
33. Huquq falsafasi: ma'ruzalar kursi//Tuz. V.S. Yurchuk. - M.: "MIEMP", 2010 yil.
34. Hotamiy S.X. Islom tafakkuri tarixidan. T., "Minxoj" nashriyoti. 2003.
35. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. T., A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1993.
36. Abduraxmonov M., Zoxidiy A. A.Z.Validiy To'g'onning Turkistonga safari (1913-1914 yillar). T., «Fan». 1997.

1. [http:// grid, rug.nl /ahc/](http://grid.rug.nl/ahc/)
2. [http:// Librory. Byu. edu/-rdh/eurodocs/](http://Librory.Byu.edu/-rdh/eurodocs/)
3. [http:// history.hanover.edu/texts.htm](http://history.hanover.edu/texts.htm)
4. [http:// www.ucr.edu/h-gig/horuslinks.html](http://www.ucr.edu/h-gig/horuslinks.html)
5. [http:// english www. hss. cmu. edu/history](http://english.www.hss.cmu.edu/history)
6. [http:// www.ukans.edu/history/vl/](http://www.ukans.edu/history/vl/)
7. [http:// www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwii/index.hrml](http://www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwii/index.hrml)
8. [http:// www.lib.byu.edu/-rdh/wwl/](http://www.lib.byu.edu/-rdh/wwl/)
9. [http:// classics.mit.edu.](http://classics.mit.edu)
10. [http:// www.washlaw.edu/forint/](http://www.washlaw.edu/forint/)
11. [http:// www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm](http://www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm)
12. [http:// www.yale.edu/acuns/](http://www.yale.edu/acuns/)

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	3-6
1-mavzu: Tarix falsafasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.....	7-24
2-mavzu: Antik davr tarix falsafasi.....	25-39
3-mavzu: O‘rta asrlar tarix falsafasi.....	40-57
4-mavzu: Uyg‘onish va ma’rifat davri tarix falsafasi.....	58-68
5-mavzu: Yevropa mamlakatlarining yangi davr tarix falsafasi va metodologiyasi.....	69-89
6-mavzu: Islom ilohiyoti va tarix falsafasi.....	90-112
7-mavzu: Eng yangi davr tarix falsafasi va metodologiyasi.....	113-140
Glossariy.....	141-152
Testlar.....	153-158
Foydalanilgan adabiyotlar.....	159-160

FDU “Nusxa ko‘paytirish bo‘limi”da  
chop etildi. 08.01.2024 yil.  
Buyu № 63. Adadi 10  
150100. Farg‘ona shahri  
Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy.